TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QOZOQ ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI

80

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QOZOQ ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI

80

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.122-1
KBK 84(5Qoz)-5
Z 31

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton — hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Alimurod Tojiyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8734-7-6
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

ULKAN KITOBNING IKKI SAHIFASI

Dunyoda millatlar ko'p, elat ko'p. Ildizlari bir-biriga tutash bo'lgan, bir daryodan suv ichgan, asrlar sinovidan birga o'tgan, bir dasturxon atrofida, bir mayizni teng bo'lib yegan el-uluslar ko'p. Lekin turkiy ulusning asosiy tomirlari bo'lgan o'zbek va qozoqchalik bir-birini hurmat qiladigan, e'zoz qiladigan, og'am, bovurim deb boshiga ko'taradigan millatlar kam uchraydi. O'zbeklar va qozoqlar turkiy tillar oilasiga mansub tili bir, dili bir, dini bir eldir. Taniqli qozoq shoiri Hamid Erg'aliyev aytganidek,

Tag'in keldim Toshkentga — keragimga,
Yetdim tag'in ardoqli tilagimga.
O'zbekning muhabbati — menga degan,
Tugamas, oqaverar yuragimga.

Jo'r bo'lganda xush ayyom sozing — uning,
Chin rohatdir o'zbek-la kechgan kuning.
Dili oqdir naq kumush paxtasiday,
Ipagiday mayindir fe'li uning.

Entiktirar ko'nglimni doim visol,
Oshiqaman naq Amudaryo misol.
O'zbek do'stim meni xush kutib olar,
Mirzacho'lning tongiday yuzlari ol.

Dil yolqini ortar yil o'tgan sayin,
Har qozoqning o'zbek-chun mehri tayin —
Olmaotadagi uyimga issiq bergan
Buxorodan keluvchi olovdayin.

Xush etmoqqa har qadam do'stlarim shay,
Dilim ravshan Toshkentning osmoniday.

Qozoqning ko'ksi baland hamishalik,
Viqorlidir Navoiy dostoniday.

Jahonda ne ezgulik — bizda bari,
Tug'ishgan el ginadan turgay nari.
Do'stligim salobati qurch va buyuk,
Misli Temur saroyin gumbazlari.

G'afur G'ulom bu ikki xalqni ulkan kitobning ikki sahifasiga o'xshatadi. Qozoqning yana bir shoiri Asqar To'qmag'ambetov esa: "Bir daraxtning soyasi to tushgacha seniki, tushdan keyin meniki", deydi.

Qozoq adabiyotining ulkan namoyandasi bo'lmish Abay o'zining lirik she'rlari va "Qora so'z" kitobida ham o'zbek xalqini ko'p bora hurmat bilan tilga olgan. Atoqli qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov ham XX asr boshlarida o'zbek adibi Abdulla Qodiriy yaratgan romanlar qozoq yozuvchilari uchun adabiy maktab bo'lgani haqida to'xtalib o'tgan. Muxtor Avezov va Oybek, G'afur G'ulom va Sobit Muqonov, Abdulla Tojiboyev va Mirtemir, Abdulla Oripov va O'ljas Sulaymonovlar hamisha hamnafas bo'lib, ijod qildilar, bir-birlari bilan qalban, ruhan yaqin, yakdil bo'lib qalam surdilar.

Toki millat sifatida shakllangan davrdan boshlab yo'lga qo'yilgan bu adabiy aloqalar chor Rossiyasi hukmronlik qilgan yillarda ham, keyinchalik mamlakatlar istiqlolga erishgandan keyin ham ma'lum bir shakllarda, bosqichda davom etdi. Ikki xalq adabiyoti bir-biridan ulgu oldi, bir-biridan ta'sirlandi, kuch oldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari bo'lib ish boshlagan 2016-yildan keyin esa adabiy do'stlik aloqalari yangi bir bosqichga, chinakamiga yuksak darajaga ko'tarildi. Nafaqat Qozog'istondagi qardoshlarimiz, balki Markaziy Osiyodagi boshqa qo'shnilarimiz bilan ham, turkiy jigarlarimiz bilan ham do'stlik aloqalari kuchaymoqda, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, birdamlik rishtalari mustahkamlanmoqda.

Bugun dunyo boshqa siyosiy eraga o'tdi. Dunyoning qudratli, titan davlatlari orasida chinakamiga g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar, bir-biriga nisbatan shafqatsiz tajovuzlar avjiga chiqib bormoq-

da. Avvallari qay bir jamiyatning qalbini egallash, madaniyati va ongini zabt etish orqali millatlarni yo'q qilish, o'zligidan ayirish, parchalash maqsad qilingan bo'lsa, bugun bu jarayon eng oxirgi bosqich – nomi qora harflar bilan yoziladigan mash'um va xatarli qurollar bilan tahdid qilish bosqichiga o'tdi. Shu ma'noda bugun olam kiprikdagi yoshdek qalqib turganday, zamin kemasi kuchli to'lqinlar po'rtanasiga dosh berolmay cho'kish holatiga kelganday, dunyo boshi berk ko'chaga kirib qolganday tuyuladi.

Adabiyotning maqsadi hamisha bitta bo'lgan, u ham bo'lsa — Ezgulik. Insoniyat qalbiga gumanizm chirog'ini yoqish, jamiyatlarni birdamlik, adolat, haqiqat va ilm atrofida birlashtirishga yordam bergan. Chunki qalbida yuksak ma'naviyat, borliqning go'zalligi, koinotning cheksiz mo'jizalari va inson qalbi sirlariga oshnolik bo'lgan ko'ngilda, millatda, xalqda tinchlik hukm suradi, iqtisod-u ma'naviyat, adabiyot-u san'at rivojlanadi.

Ezgulik va yovuzlik, jaholat va ma'rifat, zulmat-u yorug'lik, botin-u zohirdagi kurashlarning mohiyatini, sabablari-yu oqibatlarini o'rganuvchi, u haqda adabiyotning bosh maqsadi ham avvalo xalqlar orasidagi tinchlik, birdamlik bo'lgan. Qo'lingizda turgan mazkur kitob ham shu yo'ldagi urinishlar, sa'y-harakatlarning bir mevasidir. Mazkur kitobda qozoq she'riyatining bir asrlik kechmishi, taraqqiyotidan ayrim lavhalar olindi. Yigirmanchi asrning sohir bulbuli Saken Sayfullindan tortib to bugun hali o'ttiz yoshga to'lmagan, ammo o'zining iste'dodi, o'tli satrlari, uslubi va harorati bilan qozoq adabiy doiralari e'tiboriga tushib ulgurgan yosh shoirlar Qurbongul Ag'abek, Samet Nazim Oydin qizigacha bo'lgan bir asrlik poetik manzara qamrab olindi. Ushbu she'rlarni o'qir ekansiz, dastlab an'anaviy yo'lda boshlangan she'riyat keyinchalik yangi ohanglar, uslublar, qarashlar bilan boyitilgani, millat tafakkurida yangicha tafakkur, dunyoqarash shakllanganini, fikr va qalb evolutsiyasini ko'rasiz. Qozoq milliy tafakkuri adabiy-badiiy qarashlarini, sharq falsafasi boyitilganini, zamonaviy g'arb dunyoqarashi sintezini, olam va borliqni mushohada qilishning yangicha shakllarini ko'rish, kuzatish mumkin. Bu esa qozoq adabiyoti, ayniqsa, she'riyati dadil qadamlar bilan rivojlanayotganini, yangicha ovoz, uslub va dunyoqarashga ega avlod yuzaga kelayot-

ganini ko'rsatadi. Bu avlodning intilishlari, ovozi, yo'li bardavom bo'lishiga shubha yo'q.

Mazkur to'plam qisqa muddatda tayyorlangani uchun ayrim kamchiliklar, xatolardan xoli emas. Ma'lum sabablarga ko'ra to'plamga qaysidir shoirlar ijodi kiritilmagan yoki ayrim she'rlarning tarjimasida saktaliklar, fikr, tuyg'u va kechinmalar tasvirida g'alizliklar uchrashi tabiiy hol. Muhtaram o'quvchidan bu kamchiliklar uchun uzr so'ragan holda, mazkur to'plam dastlabki urinish ekanligini, e'tirozlar, fikr-mulohazalar, takliflar asosida keyingi nashrlarda qayta to'ldirishga, yanada boyitishga harakat qilamiz. Shu bilan birga bu kitobni tayyorlashda o'z fikr-mulohazalari bilan yordam bergan Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi rahbariyati, xususan, Ulug'bek Esdavlat, Bovurjon Yoqub, Oqberen Elgizak hamda Erjon Alashtug'an kabi shoir og'alarimizga chin dildan tashakkur bildiramiz.

Tursinali Ahmedov,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

SAKEN SEYFULLIN

(1894–1938)

Saken Seyfullin 1894-yil 15-oktyabrda Jezqazg'an viloyatining Oqadir tumanidagi "Qarashilik" qishlog'ida tug'ilgan. Qozoq adabiyotining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan shoir. Uning "Ko'kchatov", "Qizil ot" dostonlari va she'rlari qozoq she'riyatining 30-yillardagi eng yaxshi asarlaridan hisoblanadi. "Baxt yo'lida", "Qizil shunqorlar" kabi dramalari adibning qozoq sahna san'atida yorqin iz qoldirganini isbotlaydi.

20–30-yillar qozoq she'riyatida o'ziga xos maktab yarata olgan shoir mustabid tuzum muhitida o'z iste'dodi, salohiyati bilan xalq dilidan joy olib, asarlari qozoq adabiyotining nodir namunalariga aylangan.

MUNG

Qolganda tor lahadda yolg'iz o'zim,
Jon chiqib yumilganda ikki ko'zim,
Tanimdan ayro jonday qolarsan sen,
Yurakdan chiqqan otash mungli so'zim!

Qayg'ular ichra qisqa umrim o'tib,
Jon bilan tan ayrilar damlar yetib,
Qanday sir, qanday kuy-la aytganimni
Kim anglar, qolganda sen — o'zim ketib?

Shodlansam, ohlar tortsam, horsam behol,
Chiqarding ko'kragimdan bir oh misol.
Tabiat, o'zgalardan o'zgacha bo'p
Kuylagan bu kuychingni bag'ringga ol.

Birovning davlati-yu moli ko‘pdir,
Birovning turmushidan ko‘ngli to‘qdir.
Mening-chi, axtarganim: hasratlashar –
Bir jonkash, afsus, u ham menda yo‘qdir.

Mitti jon og‘ir dardga yo‘liqqanda.
Ko‘ngil bir najot istab zoriqqanda,
Qoshingda bo‘larmikin bir mehribon,
Tanangdan quvvat ketib, toliqqanda?!

Yigitning bo‘lmasa gar jon yo‘ldoshi,
To‘lmasmi mung-hasratga aziz boshi?
Qayg‘usi; g‘ussasini kim aritar,
Oqqanda ko‘zlaridan sel bo‘p yoshi?

Kimsa yo‘q sir ayturga ko‘ngil ochar,
Yurakning kuyib-yongan dardin bosar.
Mungimni yurtga aytmay, senga to‘kdim,
Yurak — o‘t, ko‘ngil — daryo, holim abgor!

G‘AMZADA KO‘NGILGA

Ko‘nglim-ey, yongan o‘tday chalqir eding,
Lochinday yuksaklarga qalqir eding.
Zulmatga qahring sochib, la’nat aytib,
Boldayin muhabbatda balqir eding.

Erkingni g‘am-hasratga berma, ko‘nglim!
O‘zingga o‘kinchlarni terma kunglim!
Munglanib qayg‘ulanding nega bundoq,
Talpinib ko‘kda quloch serma, ko‘nglim!

Bir kezda g‘aming to‘lib-toshgani rost,
Ko‘p yovlar sirtdan tegib qochgani rost.
Yarqirab yerga qo‘ngan qizil kunni
Ushbu dam qora zulmat bosgani rost.

G‘animlar qo‘li baland kelgani rost,
Zulmat tun yog‘dularni yenggani rost.
Yurakni jarohatlab misli o‘qday,
Qayg‘ular ko‘kragimga engani rost.

Bu kunda yov yoqadan olgani rost,
Ko‘p dushman oyoqlardan chalgani rost.
Jonsizday bo‘lib yotgan ilon birdan
Zahrini naq yelkadan solgani rost.

Mung‘ayma sira, ko‘nglim, bari o‘tar.
Azoblar bir zumlikday — izsiz ketar.
Qora tun chulg‘asa ham orqa-olding,
Yarqirab tong otuvchi damlar yetar.

QIRDA

O‘ltirar edim qirda ko‘ksim to‘lib,
To‘kildi do‘mbiramdan kuyning seli.
O‘lanim qanotida olib ketdi –
Daf’atan esgan sarin yellar kelib.

Yel uchdi dilda g‘amin yiqqanlarga,
Sariorqa tomonlarga chiqqanlarga.
Men qirda to‘lib-to‘lib o‘lan aytdim,
Kuyladim yel sirini uqqanlarga.

ILYOS JONSUG‘UROV

(1894–1938)

Ilyos Jonsug‘urov Toldiqo‘rg‘on viloyatining Oqsuv tumanida dunyoga kelgan. Uning ijodi qozoq adabiyotida ko‘p qirraliligi, badiiy baquvvatligi bilan e’tiborni tortadi. Ayniqsa, shoirning dostonlari qozoq she’riyatida katta o‘rin egallaydi. Ular ko‘pdan beri adabiyotshunoslar va o‘quvchilar diqqatini jalb qilib keladi.

Shoir o‘n beshga yaqin doston yaratgan bo‘lib, ular ichida “Kampeske”, “Tuxum,” “Kuy”, “Kuychi”, “Dala”, “Qulager” kabi dostonlari xalq orasida mashhur bo‘lib ketgan.

BO‘RONDA

Qor zo‘rayib qattiq bo‘ron harsillaydi,
Yer-u ko‘kda izg‘irin charsillaydi.
Qo‘y yig‘ilib, to‘dalanib pana istar.
Boshini qorga tiqib qaltillaydi.
Suyanib qo‘y qoshida tayog‘iga,
Toymasni qirov bosib — yaltillaydi.
Sho‘rlikning oyog‘ida to‘zgan choriq,
Paytavasi osilib, halpillaydi.
Ayozga o‘mrovini ochib turar,
Bamisli qovurg‘asi qarsillaydi.
Vujudin sovuq yamlab-yutaman der,
Har yoqdan achchiq shamol anqillaydi.
Bo‘yniga yopishgan qor qotar zumda,
Iyagida sumalak shalpillaydi...
Issiq ichik, tulki tumoq, qo‘njli etik
— Duysekboy do‘ng boshida salqinlaydi.

"Nariga ko'yni qo'zg'ab ko'ysang-chi" deb,
Toymasga zug'um qilib shang'illaydi.
"Yeganing osh bo'lmasin, bachchag'ar!" deb,
Qarg'adek qor ichida qarqillaydi.

YAYLOV

Gilamin yoyib tashlar bunda bahor,
Ufqda to'kib turar tog'lar viqor.
Yaylovning yoz lavhasin ta'rifida
Mening bir dildan aytar o'lanim bor.

Tuni — oltin, kunida — kumush ranglar,
Buloqlari marjon sochib, kuydek yangrar.
Yel esib gul-giyohlar mavjlanadi,
Bazmda yayragandek yosh-yalanglar.

Kishnaydi qulun, toylar ahyon-ahyon,
Bo'zto'rg'ay bo'zlab qolar kuydirib jon.
Qo'ylarning bir chetida — ko'kalamda
O'tirar qatiq ichib beg'am cho'pon.

Yam-yashil qarag'ayzor yaylov oldi,
Qaliman va Beysenbek qayda qoldi?
O, ular hov ana-ku — halinchakda,
Havoda tebranishib qiy-chuv soldi.

Adirda yellar kezar davron surib,
Xotinlar kuvi pishar yayrab yurib.
Osmonni bulut qoplar onda-sonda.
Yaylovni cho'miltirib — yoshartirib.

Boybicha halak boyga qimiz tutib,
Boyning-chi, joyidadir rangi-quti.
Dimog'ni yorgudayin sarxush qilar
Tong payti anqib kelgan og'iz suti.

Tikilib bo‘y yetgan qiz bo‘ylariga,
Erk berib bebosh ko‘ngil o‘ylariga -
Qo‘zini urintirgan shu Ja’far toz,
Elovsiz bo‘p ishiga — qo‘ylariga.

Qamish chiy ustida qurt yiltillaydi,
Biya sog‘gan yosh kelin qiltillaydi.
Epkinning zabtidan ship-shiydam o‘tov
Gadoyning kulbasidek qirsillaydi.

Yilqichi dil tuyg‘usin zavqqa yo‘yar,
Qo‘shiqning safosiga qirlar to‘yar.
Va uni eshitgan har navrasta yosh
Oh tortib, sochin ko‘zdan surib qo‘yar.

Mol-yilqi ketib qolmas daydib har yon,
Ularni bir manzilga yig‘moq oson.
Hovridan tushmay qozon — tong yorishsa,
Sug‘ur tosh uzra chiqib o‘qir azon.

Shirindir tun uyqusi bu payt tashda,
Qimizlar sipqorilar nahor-nashta.
Gullarning iforiga to‘lib ko‘ngli,
Oq suluv bir chekkada tikar kashta.

DO‘MBIRA

Sayragin bir, do‘mbira!
To‘kil, to‘kil, navolar,
Tog‘ suviday shildira,
Kuyga to‘lsin havolar!
Bulut soya solmasin
Yashil adir, qir uzra!
Tinglamagan qolmasin
Qo‘shig‘ing, kuying sira,
Sayra, sayra, do‘mbira!

Qo‘sh ichak ip, uch quloq,
To‘qqiz parda do‘mbira,
O‘ynar senda o‘n barmoq
Qulunday chop, guldira.
Bo‘zla-bo‘zla, bo‘z ohang,
Dildan g‘amni sidira,
Sayra, sayra, do‘mbira!

Mehnatkash el kuychisi,
Qulog‘imni bir yayrat,
Ko‘nglimga shavq qondira,
Totli-totli kuy tarat,
Zavqlaringni do‘ndira,
Sayra, sayra, do‘mbira!

Xoksor dillar malhami,
Soch nurlarning jarangin,
Ko‘kayimni qondira,
Sen qo‘shiqlar ayt yangi,
Yuraklarni yondira,
Eski g‘amni so‘ndira,
Sayra, sayra, do‘mbira!

YOMG‘IRDA

Yomg‘ir, yomg‘ir
Shivalamas — sho‘rg‘alar.
Ovul seldan
Mol-jonini qo‘rg‘alar.

Uy isimas,
Chunki o‘tin yana yo‘q.
To‘qlar to‘qdir,
Yo‘qlarda boshpana yo‘q.

Ibroyimning
Ovuli anavi uylar.
“Xudoyim ham
Faqat Ibroyimni o‘ylar”.

Qo‘rasining
Chetidagi kulbada
Bolalarning
O‘ltirganin g‘amzada –

Kim ko‘radi?
Qayg‘uruvchi jon bormi?
Ko‘k gumburlar...
Yomg‘ir yogmay qo‘yarmi?

Yana yomg‘ir
O, chelaklab quydi-ku!
Yo‘q yomg‘irmas –
Och, yupunlar yoshi bu!

BAYIMBET MAYLIN

(1894–1938)

15-noyabrda hozirgi Qozog'istonning Qo'stanay viloyati, Taran tumanida tug'ilgan.

Dastlabki yozgan she'rlaridan biri — "Musulmonlik belgisi" (1912) Ufadagi "Medrese-G'aliya"ning "Sadaq" qo'lyozma jurnalida chiqadi. Dastlabki asarlari — "Qo'stanay uezdi", "Dombar bo'lisi" ocherki, "Ko'nglimga" nomli she'ri (1914), "Shug'aning belgisi" povesti, "Bo'lgan ish" hikoyasi (1915) "Ayqap" va "Qozoq" jurnallarida bosiladi. U o'ndan ortiq poema yozadi. "Boyning qizi" (1917), "Raziya qiz" (1919), "Qochgan kelinchak" (1921), "Zaygul" (1921), "Marjon" (1923) poemalarida qozoq xotin-qizlarining ozodligi kuylanadi.

B.Maylin prozada ham samarali ijod qilib, uning "Shug'aning nishoni" povesti (1914), "Azamat Azamatovich" (1930–1931), "Qizil Bayroq" va "Qo'shnilar" romanlari (1936 (1930) nashr qilinadi. U 25 ta p'esa va libretto yozib, qozoq dramaturgiyasi rivojiga ham katta hissa qo'shadi. Uning "Jalbir" librettosi bo'yicha opera qo'yiladi (1935), ssenariysi asosida esa "Omonkeldi" kinofilmi (1936) suratga olinadi.

Yozuvchining nomida xo'jalik, maktab, viloyat drama teatri, bir qator ko'chalar hamda adabiy mukofot bor.

YOMG'IRLI KUN

Gumbir-guldir ko'k yuzi,
Zambarak to'p otganday.
Bulut ayri ketganday,
Osmonga o't yoqqanday.

G'amgin bulut surlanib,
Quydi selin sevalab.

Yel qo‘shilib, turlanib,
Quydi jala savalab...

Barcha bola chog‘lanib,
Pochalarin burishgan.
Shopillatib suv sochib,
Uydan-uyga chopishgan.

Bulut tarqab, yel tinib,
Mayda yomg‘ir yog‘adi.
Chuqur yerlar to‘lishib,
Halqob suvni yig‘adi.

Hamma bola yig‘ilgan,
Taglarida tol oti.
Uchgan qushday pirpirab,
Ikki qo‘li -- qanoti...

Yog‘, yog‘, yomg‘ir, yog‘ yomg‘ir!
Yog‘, ekining barq ursin!
Ko‘rkam bo‘liq butazor,
Keng oydin ko‘li to‘lsin!

Soy bilan qir o‘tlog‘i,
Yotgan molni yashirsin.
Tabiat ko‘rkiga lol -
Hayratini oshirsin!

YASHNASA OVUL — YASHNAYMIZ BARIMIZ

Yashnasa ovul — yashnaymiz barimiz,
Ovul — tana, biz — qo‘zg‘atar jonimiz,
Kel, mehnatkash qo‘l ushlashib bir tug‘ga,
Yig‘ilaylik qolmay yosh-u qarimiz.

Oziqlining oziq tishin sindirib,
Tenglik kuni tug‘ilganin chin qilib,
Ovuldagi yomonlarning barin ham,
Yer bilan etaylik yakson, yot bilib.

Qora bulut yoyilib, kun yayrasin,
Zarrin nurin sochib bizga qarasin.
Quchoq ochib qarshi olsin odamlar,
Yig‘lab kelgan ko‘p gadoning bolasin.

Yashnatib yuboraylik nur berib,
Yashil o‘tloq tursin bezab, tur berib.
Tanimasin, ajablansin yot dushman,
Yarim yilda qaraganda bir kelib.

Yovuzlarning yurar yo‘li to‘silsin,
Bor yaxshilar bir-biriga qo‘shilsin.
Nogironlar yaltoqlamay, yotsinmay,
Sho‘rlik gadoy bo‘y cho‘zib bir yozilsin.

Yashnasa ovul — yashnaymiz barimiz,
Ovul — tana, biz qo‘zg‘atar jonimiz.
Kel, mehnatkash, tenglik tug‘in qo‘lga ob,
Ezgu ishga tirishaylik hammamiz!...

GADOYGA

Sening zoring — bu zorlanganim umrda,
Sening oring — bu oriyatligim umrda.
Sen ne ko‘rsang, men ham shuni ko‘raman,
Bel bog‘ladim yengil hamda og‘irda.

Sen yig‘lasang — ko‘zdan yoshim tomchilar,
Sen quvonsang — qayg‘u-g‘amim yanchilar.
Qo‘shiq aytgin keng dalani yangratib,
Cho‘pon, qo‘ychi, kecha yurgan molchilar!.

SABIT DO‘NANTOYEV

(1894–1933)

Sabit Do‘nantoyev 1894-yili Pavlodar viloyatining Beshqorag‘ay tumanida tug‘ilgan. Avval ovul maktabida o‘qib, keyin Pavlodar shahridagi madrasaga o‘qishga tushadi. Uni tamomlagach ovulda bola o‘qitadi. Ikkiboshtuz, Riga shaharlarida turli qora yumushlarda ishlagan.

“Tasavvurim” nomli birinchi she’ri 1913-yili “Ayqap” jurnalida chop etilgan. Birinchi she’rlar to‘plami “Arzimas narsalar” degan nom bilan 1915-yili kitob holida bosilib chiqadi.

ZAMON KIMNIKI?

Bul zamon payqaganga kuchliniki,
Ozuvli, tirnoqli-yu tishliniki.
Dunyoning podsholigi, botirligi –
Tipirlagan, tinchimagan ishchiniki.

Yuvosh qo‘y keng yoyilgan — qashqirniki,
Qul erki — xo‘jayini, taqsirniki.
Quruq qo‘l, har o‘rinda qirsiq chalmoq
Tortinchoq, yaylov qora bosgurniki.

Dovli mol — epin topgan chechanniki,
Eti mo‘l, qimizi mo‘l, xaltasi to‘q,
“Men — shuman, menman o‘sha” deganniki.

Musobaqa sovruni — o‘zganniki,
Yem bo‘lmasa, o‘ngachini cho‘zganniki.
Talayda talay uchun talabda yo‘q,
Holsirab, kamib, baxti to‘zganniki.

Jonim — haq, qora boshim — podshoniki,
Obro‘yim, insonligim — oqchaniki.
Biyligim, yiqqan molim, so‘zlar so‘zim -
Jahli tez, mushti yo‘g‘on, shoshmanniki.

Jonsizlik — ishsiz qarab turganniki,
Quruq tilak — Xudo obdon urganniki.
Kuch-quvvat jontalashib yig‘namasang,
Mol-u boshing burun umid qilganniki.

O‘Y

Qazaversang tubi yo‘q,
Qazmaganda suvi yo‘q,
O‘y degan — bir shingg‘irov.
Talabliga yetkizmay,
Talabsizni o‘tkizmay,
Jinni qilar, qurg‘ur-ov!
Seni quvgan kishi — ovora,
Quvmaganning ishi — ovora.

OG‘RIGAN ARSLON

Tirnoqlining baridan kuchli arslon,
(U ortiq ayiq, qashqir, yo‘lbarsdan.)
Bir kezda ne bo‘ldi-yu, kasallandi,
Jonvorlarning ichida podsho sulton.

Yig‘ilib har bir jonvor (ayiq, qoplon...)
Ko‘nglini Arslon akangni so‘rab borgan.
Ketganmi shu kun yo‘rtib bir safarga,
Yolg‘iz bir tulki boyoqish borolmagan.

Borganda ko‘ngil so‘rab, holin ko‘rdi,
Sultonim do‘stlarining barin ko‘rdi.

Arslonning xayolida bo‘lmasa ham,
Qashqirvoy “tulki yo‘q” deb xabar berdi.

Tulkini haqoratlab dedi Qashqir:
— Jon qolmay,
sizni eshitib keldik, taqsir.
Bari ham o‘shanchalik kelganida,
Tulki kelmay qoldi-ya, qora bosgur!

Shoh Arslon buni eshitib achchiqlandi,
Tulkivoy ham bu gapdan xabarlandi.
Qochgan bilan qutulmaysan, bu ma’lum-ku,
Jilmanglab, ertasiga uchib bordi.

Shoh achchiqlangan edi, qahri kuchli,
Tulkini shu orada tergab qisdi.
— Taqsir-ov,
sizdan ayar jonim bormi,
Qolgan edim o‘zim ham bir yumushli.

Men ham chekdim siz kabi qattiq zore,
Izlanib yurib qoldim shunga dori.
Tulkining so‘zin bo‘lib dedi Arslon:
— Topildimi dardingning dorilari?

Tulki dedi shu payt darrov:
— Ey sultonim,
Kecha edi sizdan yomon og‘ir holim.
Qashqirning ortqi oyoq singirin yeb,
Yozildi sog‘-salomat aziz tanim.

Shoh Arslon bu so‘zlarga quloq soldi,
Chaqirib shundan keyin qashqirni oldi.
Baqirtirib bosib yotib, Qashqirvoyning
Singirin oldi, oqizib ichdi qonni.

Shundan so‘ng ketdi chiqib Qashqir, Tulki,
(Chaquvdan Qashqir boyib ketgan balki,)
— Hoy jonvor, qiziloyoq, qayga yurding? -
Deb Tulki Qashqirvoyni qildi kulgi.

Qozoqda Qashqir ham ko‘p, Tulki ham ko‘p,
Hech kimga ip taqmaymiz mazax qilib.
So‘z turtib, chaqim chaqqan Qashqirvoylar,
Tulkiga qolib ketar kulki bo‘lib.

BO‘Z TO‘RG‘AY

Bo‘zto‘rg‘ay zo‘rlik ko‘rib Turumtoydan,
Bir yupanch topolmadi qirdan, o‘ydan.
Bo‘libdi mungin aytmoq, zorin aytmoq,
Qirg‘iyni yo‘liqtirib ko‘rsa qaydan.

Uchadi o‘qday zirlab, dam olmay bir,
Chivinday jonin so‘rab bir Xudoydan.
Tilagi, ko‘zning yoshi qabul bo‘lib,
Oxiri topdi uni bir to‘qaydan.

Qarasa, Qirg‘iy buqib o‘tiribdi,
Jengsovi inq-inq chiqib o‘tiribdi.
Turi bor bir narsani poylaganday,
O‘rnidan qo‘zg‘almasdan o‘tiribdi.

Keldi-da salom berdi to‘rasiga,
(Oz qolgan chiqmay joni tanasida,)
Chaqdi kelib Turumtoyning quloqlarin,
“Ey taqsir, badbaxtingni ko‘rasanma?”

Qirg‘iy shu To‘rg‘ay so‘zi bitar-bitmas:
“Sabr qil, — dedi, — to‘xta, hech narsa etmas.

Hozirda qo‘l bo‘sh emas, yumush qattiq,
Oz kutsang, joning chiqmas, hech ne bo‘lmas”.

Degan so‘ng, To‘rg‘ay ketdi, amal borma?
Turmoqqa so‘z qaytarib zamon borma?
Holsirab, charchab, ozib qaytdi sho‘rlik,
Bir uchib, birda qo‘nib shoxga zo‘rg‘a.

Bir yerda sal-pal to‘xtab dam oladi,
Tag‘in uchib, o‘z yo‘liga yo‘naladi.
Ostida bir tomirning buqib yotgan
Bir kezda ko‘zi chaldi Bedanani.

Bedana qildi ishora: “Munda kel, — deb,
Og‘angning manov yotgan joyin ko‘r, — deb.
Meni poylab, bir yovqirg‘iy o‘tirgandi,
Bildingmi, ketdimikin, xabar ber”, — deb.

“Yeb qo‘ydi ushlab olib yo‘ldoshimni,
Shundan so‘ng bildim men ham o‘ngmasimni,
Bilmadim, endi umrim qancha qoldi,
Ketarman qochib-qo‘rg‘ab o‘z boshimni.

Buni eshitib, ich tortdi To‘rg‘ay faqir,
“Hech kimga vafo bermas manov kofir.
Bundan endi ish chiqmaydi, ketaveray,
Aytarman Qarchig‘ayni ko‘rsam oxir...”

Deb o‘ylab, izlab ketdi Qarchig‘ayni,
Mungin aytib, ichki dardin archigani.
Ko‘ldagi ko‘p o‘rdaklar orasidan,
Shuvlagan “Qarchig‘ay!”lab zor chiqadi.

Tinglasa bu tovushni yaqin kelib,
Har yerda bir Shuragey yotar o‘lib.
Bularning barin qilgan bir Qarchig‘ay,
Men manqurt kelib yurgan bunga ishonib.

Dedi-da, bir tupirib uchdi osmonga,
"Nechuk topay halovat chivin jonga?
Bularning baridan ham behzot edi,
Borayin, — deb o'yladi, — lochin xonga.

Ko'p izlab, necha turli zahmat ko'rib,
Uniyam bir manzilda topdi kelib.
Bir terakning tagida o'sha behzot,
Yeb o'tirar g'oz go'shtini ko'krak kerib.

"Jonim-ov, manov bizning to'ramizma?
Nevara ko'rmay, chindan o'lamizma?
Kam-torga bular qandoq kek oberar,
Qudrati ko'p degandan so'ng, ko'namizma?"

Jim qoldi shuni aytib To'rg'ay sho'rli,
Boray degan yeriga borib bo'ldi.
Qush podshohi Burgutga boray deya,
Kezibdi yer-jahonda o'ngni-so'lni.

Topdimi Burgutni izlab, topmaganmi,
Chaqdimi ichki mungin, chaqmaganmi -
Bilmadim, shu kungacha eshitmadim,
Yotdimi joni tinchib, yotmaganmi...

BOLALIK

Aldov uchun ko'z yumganni "o'ldi" deb,
Yupansin deb uzatganni "berdi" deb.
Ko'nglin yiqmay gapirganni "ishondi" deb,
Nima ko'rsang, shunga ergashgan bolalik.

Issiq ho'plab, og'zi kuyib, "salqin" deb,
Iyagiga paytava o'rab, "sharfim" deb,
Yaltirasa, soniga urib "oltin" deb,
Sirtqi ko'z bilan baho bergan bolalik.

Chiqim demay qiyraganni, kuyganni,
"Tek o'tir!" deb dushman ko'rib tekkanni,
"Ovsarsan" deb bo'rkin ters kiyganni,
Yiqilganin yurtdan ko'rgan bolalik.

"El ko'rasan, mingizaman toyga", deb,
"Qaymoq bilan to'yg'azaman moyga", — deb,
Aldaganning birin uqmay hiyla deb,
Qo'lidagining barin bergan bolalik.

Zamon o'tib borayotir yellatib,
O'zga xalqlar o'sib borar er yetib,
Tek o'tirib, ko'zning yoshin ko'llatib,
Qachon ketar bizning eldan bolalik?!

SHOLPAN IMANBAYEVA

(1903–1926)

Oqmo'la guberniyasi, Oqmo'la uezdi, Maybaliq ovulida tug'ilgan. Bo'lajak iste'dodli shoira qizning yoshlik chog'i yo'qchilik bilan ochlik, og'ir turmushda o'tgan. Faqat 1921-yildagina ozodlik olib, Oqmo'la shahriga borgan. Unda u yetim bolalar uyida tarbiyachi bo'lib joylashgan, bir tomondan savodini chiqargan.

"Yo'lovchi bilan xizmatkor" nomli ilk she'ri 1923-yilning 7-noyabrida "Mehnatkash qozoq" gazetasida e'lon qilingan. Keyinchalik "Qizil Qozog'iston", "Ayol tengligi" jurnallari bilan "Yosh g'ayrat" gazetasida siyosiy-ijtimoiy mavzulardagi she'rlari chop etilgan. 1927-yilda she'rlar to'plami, 1950-yilda asarlari va esdaliklari kitob bo'lib chiqqan.

* * *

Orolga qo'ndi suvi yo'q,
Bevaqt uchgan qo'ng'ir g'oz.
Bag'rin to'shab yotishga
Yaprog'i yo'q, yeri soz.

Uyalab o'sgan yeriga
Qaytayin desa qanqillab.
Bo'larmikan unga yoz?
Uvol bo'lar deb edik,
O'tmaydi unga hech bir g'oz.
Uchayin desa mergan ko'p,
Poylamaydigan odam oz.

Orolda yotgan bu g'ozga
Uchadigan kun bo'lurmi?

Daryo-yu yoziq ko‘llarga
Qo‘nadigan kun bo‘lurmi?
Shundayin mungli g‘ozlarga
Sizlardan ko‘mak bo‘lurmi?

Bu qo‘ng‘ir g‘oz keng dalada,
Qo‘nar joyini izlaydi.
Birga sayr qilsam debon u,
Oq shunqorini izlaydi.
Boshqa qushni bu dunyoda,
Sira ko‘ziga ilmaydi.
Shoshilib yetmas, shunda ham,
Shunqoridan umid uzmaydi.
Urf-odatlar qonunidan,
So‘z so‘ngi ketdi cho‘zilib.
Izlagan shunqor uchrashmay,
G‘oz umidi ketdi uzilib.

YETTIK MANA

(yetim bola tilidan)

Hayronman men bu kunda,
Yel bo‘b o‘tgan yoshimga.
Ne bo‘ldi deb, chirog‘im,
Jon kelmagan qoshimga.

Qayg‘u-g‘amda bu ko‘nglim,
Hasratda o‘tar umrim,
Bugun o‘zni anglasam,
Shodliksiz, o‘tar qadrim.

Yig‘ladim talay o‘kirib,
Kez kelgan odam baqirib,
Qutula olmay zulmatdan
Yurishim shu, hayqirib.

Erkim tegmay o‘zimga,
Jon ko‘rinmay ko‘zimga,
So‘lib qolgan, shum ko‘ngil,
Chidarmikan to‘zimga.

Quyosh tushmay yuzimga,
Tayoq tegmay o‘zimga,
Shunday yomon kunlardan
Qutuldim-ku hozirda.

ABU SARSENBOYEV

(1905–1995)

1905-yil 16-oktyabrda hozirgi Qozog'istonning Atirau viloyati, Qurmang'ozi (Dengiz) tumanida tug'ilgan.

Adabiyotga 30-yillarning o'rtalarida keladi. "Edil to'lqini" (1937), "Yurak tuhfasi" (1938), "Ola bulut" (1947) nomli she'riy to'plamlari, "To'lqinda tug'ilganlar" (1935), "Dengiz ohanglari" (1969) romanlari, "Ayqashuv" (Q. Jumag'aliev bilan birga, 1948), "Dengiz muhabbati" (1975) nomli p'esalari, "Adabiyot xrestomatiyasi" (Ye.Ismoilov bilan birgalikda, 3-sinf uchun, 1938), "O'qish kitobi" (kattalar maktabiga bag'ishlangan, 1941), "Ona tili" (3-sinf uchun, 1948, 1959) nomli darsliklari nashr etilgan.

ONA YER

O, ona yer, tuprog'ingdan yaraldim,
Ne'matingdan orzularga kuch oldim.
Tinig'ingni sizib ichdim sendagi,
Oltin shafaq, tonggi yeling qucholdim.

Sal unutsam, qarg'a meni, kechirma,
Qayda yursam o'zing turding esimda.
O'zing turding qorli okopdan mo'ralab.
O'sha shafqatsiz qahrli yil kechida.

Men xatarga qarshi bordim yer uchun,
Ko'kragimdan qon to'kildi sen uchun.
Senga yetar bormi xislat jahonda,
Sen ulug'san, qadrlisan men uchun.

Sen avlodning kulib otar tongisan,
Sendan ortiq xosiyat yo‘q, mo‘l hosilsan.
Taqdiringni topshir menga, ona yer,
Yashnatishga burchliman, sen aslsan.

OQ BULUT

Ey, oq bulut, aytgin menga,
Aytgin menga, kelding qaydan?
Oq to‘shing suyganda quyosh,
Yaraldingmi Olatog‘dan.

Tanang mayin, oq ipakday
Turibsan tepamda bosh urib.
Emasmisan qiz ro‘moli,
Olib kelgan yel uchirib.

Yo Orqa[1]
ning go‘zal qizi,
O‘tirganda kashta tikib,
Oldidagi oq ipagin,
Obketganmi yel ko‘tarib.

Yo Olatog‘ etagidan,
Nozikkina suygan yorim,
Bir uchiga salom tuyib,
Uchirganmi o‘z ro‘molin.

Oq bulutim, kuyin chertib,
Sog‘inch to‘la yuragimning,
Chayqalasan yel esganda,
Paxtasiday ona yerning.

[1] **Orqa** — Qozog‘istonning markaziy-shimoliy o‘lkasi

Esmagin yel, oq bulutni –
Olislarga olib ketma!
Ko‘lda suzgan oqqushdayin,
Qolsin mangu, g‘arib etma.

Ey, oq bulut, aytgin menga,
Aytgin menga, qaydan kelding?
Ko‘zim tushsa esga tushar,
Oq ro‘moli go‘zalimning.

AYRI TOG‘ ETYUDLARI

Ko‘rganmiding Ayri tog‘ni, Orqadagi –
Yashil archa yopinvolgan ko‘l yoqalab.
O‘shandagi ikki o‘rkach o‘z kaftida
Kelayotir tarixlardan yuk orqalab.

Qara o‘zing, bir qaragin savlatiga,
Ko‘ksidagi bujur toshlar yelga qalqon.
Aks etadi bor turishi tiniq ko‘lda,
Jiyagiga qamishlardan hoshiya taqqan.

Chiqdim men tun chog‘ida ekinzorga,
Boqardi oy o‘rkachlar orasida.
Yulduzni cho‘miltirgan tiniq ko‘lning,
Ayri tog‘ turar edi yoqasida.

Kelganday yoz husniga oshiq bo‘lib,
Ayri tog‘ o‘rkachidan kun mo‘ralar.
To‘ldirdi nuri to‘liq ekinzorni,
Bug‘doyzor quchog‘ida yel oralar.

DARYO

Yesil oqar asta-sekin jimirlab,
Oy shu'lasi suvda yotadi mudrab.
Qirg'oqqa urilgan to'lqinlar bexos,
O'zingni uzoqqa eltadi sudrab.

Daryoga bir qara ko'zingni ochib,
Yuzida jimirlar behisob marjon.
Go'yoki tiniq suv tubida yotar
Tushovlab qo'yganday yulduzli osmon.

Ko'klamning iforli lablari bilan
Bo'sa ob yuzingdan esadi shamol.
Shirin bo'salarga xumoring qonib,
Kezaver bo'zlarda doimo xushhol.

O'ynatib yuzida tong shafag'ini,
Yesil oqar asta, sekin jimirlab.
Dalaning ajoyib kelajagini,
To'lqinlar kuylaydi tinmay qimirlab.

ASQAR TO‘QMAG‘AMBETOV

(1905–1983)

Qozog‘istonning Qizilo‘rda viloyati, Terano‘zak tumanida tug‘ilgan. Dastlabki she’ri 1924-yilda “Mehnatkash qozoq” gazetasida bosilgan. 1928-yildan boshlab she’rlari va poemalari, ocherklari va feletonlari bir necha marta kitob bo‘lib chiqqan. “Ikki qonun”, “Saylov”, “Aldar ko‘sa”, “Bir oila” nomli p’esalar yozgan. Ayniqsa, masal janrida ko‘p ijod qilgan. 1956-yilda she’rlar, poemalar, hajviya va masallardan iborat ikki jildlik tanlangan asarlari, 1962-yilda “Turnalar, suluv turnalar” nomli she’rlari bilan hajviyalari, 1965-yilda “Oltin yaproqlar” nomi bilan tanlangan asarlari, 1982–1984-yillarda to‘rt jildlik asarlar to‘plami nashr etilgan.

KO‘KLAM KO‘RINISHLARI

(Hajviya ko‘rinishida)

Mayning nozik gulin sevgan
Yoshlar chiqdi ko‘cha bo‘ylab.
Tongi yellar quchog‘ida
Chopqilashar tinmay o‘ynab.

Gohi-gohida qorovullar
Chang ko‘chaga tashrif etar.
Chang-to‘zonlar bosilsin deb,
Ba’zan suv ham sepib ketar.

Oshiqqanlar ketaversin,
Oshiqmagan tura turar.
Qayda loyqa suvga shunday
Cho‘miladi trotuarlar?

Ko‘lmak suvning ko‘lobida
Toyib, qulab yotganlar bor.
Supurgining chang-chungiga
Boshdan oyoq botganlar bor.

“Hech bo‘lmasa, bu ahvolni,
Bayram kuni qo‘ysa netar...”
Mana shunday gapga ba’zan –
Hokimliklar qolib ketar.

* * *

May quvonchi, kulgusidan
Yosh bolalar gir aylanar.
Qizlar ko‘ylak olmoq uchun
Do‘konlarga shaylanar.

Ular kelar to‘lib-toshib,
Lablarida bor kulgusi.
Biroq, ahvol o‘zgarmagan,
Turar molning bulturgusi.

Sotuvchi: “Bori shu” — deydi,
Tumshayishga shoshiladi.
“Tag‘in nima bor?” demagin,
Qosh-qovog‘i osiladi.

Gar boshlig‘i kelib qolsa,
Yosh novdaday egiladi.
Unga bari topiladi,
Qizi gulday kiyinadi.

Shu tarzda har kimsa ham,
Hajvga uni olib o‘tdi.
Ne-ne yaxshi, soz matolar
Pasqamdan yo‘l solib ketdi...

* * *

May sharafini ulug‘lab
Mehnat bilan tonglar otar.
Ba’zi mayxo‘r oliftalar,
Loy yalar-u, loyga botar.

Ko‘rkam bo‘lsin deb ko‘chalar
Ekkan edi ko‘plar nihol.
Bu yil ular sindirilmish,
Yotardilar bo‘lib uvol.

* * *

Mayning iliq kunlarida
Jonlanish bor dalalarda.
Hamma yoqda chiroyli ko‘rk,
Qanday qiziq bolalarga.

“Qizil g‘ayrat” kolxozidan
Chiqib keldi bir “Pobeda”.
Yarim yo‘lda ko‘prik sinib,
Qolib ketdi uch kun shunda.

Biri so‘kib, biri maqtab,
“Dorotdel”ni tilga olar.
Biroq, tuman esga olmas,
O‘zgarmasdan ahvol qolar.

* * *

Gulladi yoz, turlandi yer,
Oy ketidan o‘tar oylar...
Davrimizda oz bo‘lsa-da,
Bo‘lmasaydi shunday joylar.

TANNOZ
OPA-SINGILLARGA

Tuni bilan uxlab, tushda turadi,
Goho zo‘rg‘a soat uchda turadi.
Bir-ikki soat u yuvinib yurar,
Uydan-uyga o‘tib, kuyinib yurar,
Bir-ikka soat u oynaga qarar,
Chiroyi, savlati o‘ziga yoqar.
Yuziga moy yoqib, silaydi boqib,
Gajak sochin burar, o‘ziga yoqib.
Qappaygan qornidan ko‘ngli to‘lmaydi,
Rezinka-la tortmasa sira bo‘lmaydi.
Modadan moda tanlaydi kelib,
Yuradi doim ko‘kragin kerib.
O‘zi bir boshqa-yu, kiyimi boshqa,
Libos kiygizgandek sovuq bir toshga.
Tannoz-ki, qilarga hech yumushi yo‘q.
Uydagi ish bilan sira ishi yo‘q.
Shu bois beparvo tushdi yo‘lga...
Ba’zan trubkani oladi qo‘lga.
Mashina keladi, kerilib chiqar,
Har bitta do‘konga burnini tiqar.
“Atele modalarda” tanlaydi kiyim,
“O‘zi xon, o‘zi bek”. Surishtirar kim?
Sag‘al xafa bo‘lsa, og‘rib qoladi.
Ko‘ngli ko‘tarilsa, sog‘ayib oladi.
Birovda ko‘rsami oltin soatni,
Yo‘qotar o‘zida sabr-u toqatni.
Hisobini topib, oladi sotib,
Sotib ololmasa og‘riydi yotib.
Kosa ham sinadi, choynak ham sinar,
Eshig-u deraza, oynak ham sinar.
Erining cho‘ntagin qoq quritadi,
Makkorlik bilan hisob yuritadi:
Yigirma-o‘ttiz so‘m qoshiga kerak,

Qirq yo ellik so‘m sochiga kerak.
O‘n so‘m-u o‘n besh so‘m tirnoqqa kerak.
Besh-olti so‘m ortiq barmoqqa kerak.
Pudra-mudrasini olishi kerak,
Sochini jingalak qilishi kerak.
Duxisi bor. Lozim poshnali tufli,
Yelkaga tashlashga bir mo‘yna tulki.
Uch yuz so‘m turadi bitta sumkasi...
Oyna-yu, tarog‘-u... gapning qisqasi...
Bosh kiyim deganda tomdan tashlaydi.
Boshida qalpoq bor, ola boshlaydi,
Bir safar kiyadi chap chekkasiga,

Bir safar yotqizar o‘ng yelkasiga...
Qalpoq bilan sochi bilmaydi tinim...
Tugadi, yozadi... turolmaydi jim...
So‘rasang alifni, deydi u “tayoq”
Husniga ishongan, o‘lgudek sayoq.
U uchun katta ish choyga o‘tirish,
Totli pirojnoeni yog‘ga botirish.
Choy sovuq bo‘lsami, jerkib tashlaydi.
Qog‘oz bilan qo‘lin arta boshlaydi.
Bolaga zaharin to‘kib qoladi.
Birini turtadi, so‘kib qoladi.
Janjal ko‘tarilar xullasi kalom,
O‘rtadan yo‘qolar izzat-u ikrom.
Boyvuchcha, ko‘rsangiz, bo‘ladi bemor,
Baxtiga Qirimga putyovka tayyor.
Qirimga jo‘naydi tashvish orttirib,
Bechora erini qarzga botirib...

Kiymanglar demaymiz, ichmang demaymiz,
Mashinaga tushib, uchmang demaymiz –
Ichish ham, yeyish ham, kiyish ham kerak,
Behuda havasni tiyish ham kerak!

MARYAM HAKIMJONOVA

(1906–1995)

15-noyabrda hozirgi Qozog'istonning Qo'stanay viloyati, Qo'blandi qishlog'ida tug'ilgan.

Dastlabki she'ri 1929-yilda, ilk she'riy to'plami 1935-yilda bosilib chiqqan. 1945-yilda "Manshuk" poemasi chop etilgan. Bolalarga bag'ishlangan "Bolajonim mening — she'rim mening" nomli rasmli kitobining, "Ona mehri" she'riy to'plamining, bir necha o'nlab qo'shiq matnlarining muallifi. Asarlari rus, qirg'iz, qoraqalpoq, o'zbek, xitoy, belorus, arman tillariga tarjima qilingan.

1986-yilda Qozog'iston Xalq yozuvchisi unvoni berilgan.

* * *

Hayot o'tkinchidir,
O'tar bir kun boshingdan.
Yot bo'larsan, yotsirarsan,
Yaqiningdan, do'stingdan.
Sevgan bola, olgan yor,
Ketar shul kun qoshingdan.
Yetar senga bir ko'ylak,
Qo'sh yelkangdan osilgan.

Tiriklikda bu dunyo,
Yetqizmaydi zirillab.
Dunyo uchun yuramiz,
Yuz yirtishib, irillab.
Kuyib-pishib qolamiz,
Arzimasga chirillab.
O'lgan so'ng o'kinamiz,
Ko'z yosh to'kib, jirillab.

Siylashaylik do‘stlarim,
Tirik yurgan kezingda.
Yaqin-yoron, do‘stlaring,
Yarashmasmi o‘zingga!..

EMAN HAQIDA QO‘SHIQ

Derazamning oldida o‘sgan bo‘ylab,
To‘rt tup eman turar yel bilan o‘ynab.
Har bahor shoshilib qarayveraman,
Muddatidan kechikkan gulin o‘ylab.

Allaqachon ko‘kladi terak, qayin,
Yaproqlari so‘ylaydi ko‘klam holin.
Bo‘yin cho‘zib, namlanib emanlar tur,
Sog‘inch bilan kutganday mayning oyin.

Dur silkinib, bir kunda yozdi yaproq,
Birdaniga yashnab ketdi hamma yoq.
Gumbirlatib kuy chertib, qarasam unga,
Hadiksirab, qaltirardi u biroq.

Ko‘klasa ham kechikib boshqalardan,
Yayrab ketdi uyg‘ongan emanlar ham.
Yaproqlari qanotin yozgan paytda,
Soyasiga tushmaydi yel urgan chang.

Sovut kiygan botirday mahkam eman,
Yer tubiga ildizing ketgan teran.
Umrimday o‘suvchan, zo‘r irodali,
Emanday bo‘lib o‘ssin yosh navaram!

G‘ALI O‘RMONOV

(1907–1978)

Toldiqo‘rg‘on viloyatining Qapal tumanidagi “Echki o‘lmas” manzilida dunyoga kelgan. Eski maktabda savod chiqargan. 20-yillarda gazetalarda muxbir bo‘lib ishlagan. Dastlabki she’rlari 1928-yildan matbuotda e’lon qilina boshlagan. Uning qozoq she’riyatini yangi obrazlar va uslubiy izlanishlar bilan boyitgan ko‘plab she’r va dostonlari bosilib chiqib, xalq orasida shuhrat qozongan.

Adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun ko‘plab orden va nishonlar, faxriy yorliqlar bilan mukofotlangan.

“Umr dostoni” (1948), “Go‘dak yuragi” (1949), “Safarda” (1957), “Yillar qo‘shig‘i” (1976) kitoblarida uning asosiy asarlari jamlangan.

XX asr qozoq she’riyatida o‘ziga xos ovozga ega bo‘lgan lirik shoir sifatida shuhrat qozongan G‘ali O‘rmonovning ko‘plab she’rlari xalq qo‘shiqlariga aylanib ketgan.

DASTLABKI QADAM

Otlanib ovul — onadan,
O‘quvga ketdim qal’aga.
Yog‘ila menga qaragan
Yaltanglay ketdim dalaga.

G‘alati yomon, to‘n-tumoq,
Yopisha ketdi ustimda.
Yonayin degan bir chiroq,
Yaltirar edi ichimda...

RO‘MOL

Yuboribsan yoringga
Sog‘inganingda ro‘mol.
Ma’yuslansam, jonimga
Yordam berar holba-hol.

“Erkamga” deb yozilgan
Ro‘molda bir so‘zing bor,
Unda sening sog‘inib,
Mo‘ltiragan ko‘zing bor.

Meni o‘ylab, yuz so‘lib,
Unsiz qayg‘u yeganday,
“Yoddan chiqarma sevgim,
Men sevaman!”, deganday.

Shu bir og‘iz so‘zingni
Darmon bilib yodlayman.
Qayda yursam, o‘zingni
Ko‘nglim ichra saqlayman.

Saqlab-saqlab yuraman,
Yon cho‘ntakdan chiqarmay.
Yuragimda yuraging
Birga urib turganday.

OZOD YER

Ag‘nagim ham keladi,
O‘ynagim ham keladi,
Issiq ko‘rib qarayman,
Bundagi har bir tepani.

O‘zga yerning suvidan
Suvi ham o‘zga shekilli.

Qayta-qayta yuvaman
Bulog‘idan betimni.

Chaqirganday o‘zimni
Yaproqlari, og‘ochi.
Ololmayman ko‘zimni,
Deb turganday: “qara-chi!”

OTARDAGI KECH

Kechalar kuy tinglaymiz,
she’r tinglaymiz,
O‘zimiz tumanning yurtindaymiz,
Simsiz til kutmaganda tina qolsa,
Yaltoqlab, to qo‘shgunimcha qilpillaymiz.

Tinglaydi cho‘pon uni yori bilan,
Yorilqab, jon ko‘ngil-la, bori bilan.
Kuy uzilsa, hazillashib oladiyam,
Ketganday qulog‘iga yoqib o‘lan.

— O‘qiymiz kunda shundoq umr joyin,
Kuy va she’r yetkazar el unin doim.
Xafa qilmay ko‘nglimizni qum ichida,
Saqlaymiz qo‘lda hatto havo ra’yin...

Topmoq uchun mehmonlar ko‘ngliga iz,
Cho‘pon ko‘p gapirmaydi ortiqcha so‘z,
— Otarni chetda ekan deb o‘ylamang,
Bunda siz hech narsadan yutqazmaysiz.

Tugatdi so‘zni birdan qo‘ychi biroq,
Qo‘shadi radioni qayta burab.
Tim-tirs qolgan qum uyqusin shalt ettirib,
Ketadi she’r to‘kilib, kuy shildirab.

KO‘KLAM QO‘SHIG‘I

Men o‘zim she’r yozmadim ko‘pdan beri,
Oh, qandoq iliq, shirin to‘kkan dami.
Yangi chiqqan yaproqning shivirinday,
To‘sat qo‘zg‘ab yubordi ko‘klam meni.

Jildirar atrofimda turli buloq,
Kuylagan qo‘shiqlariga soldim quloq.
Kuy-qo‘shiq yo‘llarimga to‘kilganday,
Yopishib talashadi ketmay yiroq.

Yopishar “yoz-yoz!” deya bari, oh-oh,
Maysa, novda, chechaklar, har bir yaproq.
Yoqimli silkinadi bari tinmay,
Hatto qo‘l silkiganday har kunchuvaq.

G‘ovlab o‘rib yuribdi o‘tar to‘li[1],
Yosh ekin, yashil barqut yovon to‘la!
Elimning eng qadrdon o‘lani shu –
Ko‘rguncha oshiqaman doim shuni!

Buni qalay yozmassan ko‘ngil xushlab,
Qo‘zi-uloq yugursa yaylov ko‘zlab?
O‘quvchim, bu she’rimni o‘zing kechir,
Sening ham xayollaring ketsa qo‘zg‘ab!

[1] **To‘li** — yangi tug‘ilgan har bir jonzod, barra.

DIXAN ABILOV

(1907–2003)

Dixan Abilov 1907-yilda Pavlodar viloyatining Bayanovul tumani, Bayantov ko'ltig'idagi Moylibuloq qishlog'ida dunyoga kelgan. Bayan shahridagi o'rta maktabda, Semeydagi Qishloq xo'jaligi texnikumida o'qigan.

1937-yilda Olmaotadagi Jurnalistlar institutini, 1948-yilda Qozoq Akademiyasi aspiranturasini tamomladi. 1942–1946-yillarda Ikkinchi jahon urushida ishtirok etib qaytgach, turli gazeta-jurnallarda ishladi, "O'qituvchi" nashriyotida bosh muharrir bo'lib xizmat qilgan.

Muallifning ellikdan ortiq kitobi, she'riy to'plamlari, qissa va romanlari nashr qilingan. Yozuvchining shoir Sultonmahmud To'rayg'irov hayotiga bag'ishlangan "Sultonmahmudning armoni" (1980) nomli roman-trilogiyasi, shuningdek, "Yelkadosh do'stlar" (1948), "Mayra" (1954), "Birjon sol bilan oqin Sara" (1939) kabi dramalari mashhur.

Adib rus, ukrain, turk, arman mumtoz shoirlarining dostonlarini qozoq tiliga tarjima qilgan.

QORAQALPOQ BOVURLARGA

Ovulingni sog'indim men ovulimday,
Olmaotadan yo'lga chiqdim sen deb atay.
Olib keldim Olatovning salomini,
Quchoq ochib kutib olding bovurimday.

Kimligingni azal-azal bilgan o'zim,
Yuragimda bisyor erur yaxshi so'zim.
Osmoningdan yerga asta qo'ngan zamon,
Yayrab ketdi diydoringni ko'rib ko'zim.

Dilimga men hayajonlar uydim yana,
Taqdim etgan gullaringni suydim yana.
Musaffo-yu moviy Nukus ufqlariday
Toza ko‘ngling osmonini tuydim yana.

Toleimiz yashnar hali alvon qirdek,
Do‘stligimiz abadiydir ajib sirdek.
Ermaklar-u hangoma-yu hazillarga
Azal-azal ishqibozmiz, o‘chmiz birdek.

Qoraqalpoq, sen qozoqning o‘z joniday,
Dil tug‘yoning yurtimning dil tug‘yoniday.
Vujuddagi sof shu yurak o‘rtamizda –
O‘rtadagi moviy Orol-ummoniday.

Iltifotlar ko‘rdim har kun har kasingdan,
Istiqbolning shavqin tuydim nafasingdan.
Oftob kabi yuragingning taftin sezdim –
Kaftingdagi haroratdan, qalb sasingdan.

Birga bo‘lsa ellarimiz shunqorlari,
Qolmagaydir yurtning g‘am-u g‘uborlari.
Tashrif payti qizlaringdan gullar oldim
Va bag‘rimga to‘ldi chaman iforlari.

Toabaddir omon bo‘lsin yurtning bari,
Qozoqdadir sodda mehr talqinlari.
Olislardan tug‘ganim deb izlab keldim,
O‘chmasin hech dilda ishqning yolqinlari.

TO‘QTAG‘ULGA

Yuragimning qatiga
Qanot bog‘lab dovuldan,
Qirg‘iz oqin o‘g‘liga
Olis qozoq ovuldan
Muhabbatim keltirdim,
Ne bor aziz bovurdan?!

Yig‘lasam chin yig‘layman,
Quvonsam chin quvongum.
Ishq-sadoqat o‘tida
Yonsam — baralla yongum.
Abayni o‘qib tunlar,
To‘qtagul deb uyg‘ongum.

Lolalar to‘lqin otgan
Dalasini bir suyub,
Olmosday o‘g‘il topgan
Onasini ming suyub,
Kezdim qirg‘iz elini,
Yuragimdan she’r quyib...

* * *

***Saodat Qobulova*ga**

Keltirib yaqin, biroq
Tutqazmagan boldayin –
Tamshantirding meni xo‘b,
Taqillaydi tanglayim.

Uzding avjda qo‘shiqni,
Olovga sepganday suv.
Bulbulim, baribir sen
Dilimda qolding mangu.

KUZ BO‘LSA-DA...

Kuz bo‘lsa-da, osmon ochiq, lojuvard,
Ajoyibdir Amudaryo elati.
Odamlari doim uning tanti, mard,
Qozoqlarga juda uyqash keladi.

Dunyoda har ikkisin o‘z o‘rni bor,
Botirlari bilan mashhur har biri.
Sir, Amuday bir ummonda mujassam
Qoraqalpoq va qozoqning taqdiri.

TOYIR JAROKOV

(1908–1965)

O'rol viloyatining O'rda tumani, Jetiboy ovulida dunyoga kelgan. Dastlabki ma'lumotni rus-qozoq boshlang'ich maktabida olgan.

Ilk she'rlari 1927-yilda "Oqinlar" adabiy to'plamida "Oltin kun" nomi bilan chop etilgan. 1931-yilda Olmaotadagi Abay nomidagi Pedagogika institutini tomomlagan.

1934–1936-yillarda Leningrad Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil olgan. Ilk she'rlar to'plami "Yulduzlar yog'dusi" 1932-yili nashr etilgan.

T. Jarokov ko'plab orden va nishonlar bilan mukofotlangan.

"Gulxan atrofida" (1949), "Toshqin" (1949), "Qo'shiq qanoti" (1956), 2 jildlik "Tanlangan asarlar" (1958–59) va boshqa to'plamlari e'lon qilingan.

DUTOR BILAN DO'MBIRA

O'zgamas, o'z elimsan, O'zbekiston,
Ko'ringung ko'zga ko'rkam sen olisdan.
Ko'zingda nur yonganda jonga yaqin,
She'rimiz yetib bordi senga shu dam.

Qay oqin o'zbek elin zo'r hurmati,
Qadrdonlik haqqi-chun barq urmadi?!
Yuragin o'ti bilan bitib baytlar,
Qay oqin bu do'stlik deb charx urmadi?!

Biz eldan, el ham bizdan olar ilhom,
Ikki el zafarlarda qozonar nom.
Ona suti yanglig' egiz farzandlarga
Oydinda mavjlanar Sir ajib oqshom.

Chirchiq va to‘lqin otgan Buqtarma[1]ning
Nurlari ushaltirdi el armonin.
Paxtaorol oq paxta gulin sochsa,
Qozoqning dashti to‘kdi oltin donin.

She’rga solib uzum-u anorlarin,
Maqtagan chog‘ siz o‘zbek palovlarin,
G‘afur aka, ko‘ringiz, Sobit og‘a
Bo‘z qirda tikdi inju yalovlarin!

Suyamiz olmani-yu anorni biz,
To‘ldirdi shirin bolga qanorni kuz.
Bir bog‘da o‘sgan naqshin mevadayin
Ertangi oq tonglarga xumorlimiz.

O, ko‘rkam qozoq yigit barmoqlari
Do‘mbira chertib tursa sayronlatib,
Oydin bir ko‘lda suzgan oqquvdayin
Qiz raqsi qo‘yar elni hayronlatib.

Oqquvning bolasiday bo‘yinlarin
Nozlatib, boshlab latif o‘yinlarin,
Evrilsa to‘qson burab xipcha belin,
O‘ziga maftun aylar elning barin.

Qalbimga oshno qilib mehrimni chin,
Talpinib yuragim-la durkun-durkun,
Toshkentga ajib she’rim aytib keldim —
Qabul et, quchog‘ing och, qardosh yurtim!

Ko‘rklanib otsa ufqdan ajoyib tong,
Yelvagay kiyib do‘ppi, ola chopon,
Bog‘iga o‘zbek og‘am suv oqizsa,
An solar qir boshida qozoq cho‘pon.

[1] Chirchiq daryosiga qurilgan Buqtarma GESi.

Hangoma chopondamas, cho‘pondamas,
Olqish-u hamd-u sano, xandondamas,
Jazm etib parvoz sari elni mudom,
Chorlasak, mudroq dillar uyg‘onsa, bas!

Qo‘shnimiz — bitta erur taqdirimiz,
Mehr va muruvvatdir qalb sirimiz.
Sevgimiz qo‘riga qo‘r qo‘shmoqlikka
Mahshargacha burchlimiz har birimiz.

Ortda qolsin moziyning faryodlari,
Tole quchsin egiz xalq zuryodlari.
Ne ajab, zafarlarga esh ikki el
Birgalikda uchsa gar samo sari!

QANTAR

Qantar oyi suluvdir, havo ochiq,
Tevarak jim, sukutda, qorlar bosib.
Ko‘rinadi yarqirab qir-adirlar,
Qo‘ygandayin tongdan naq shakar sochib.

El sergir[1] qal’adagi, daladagi,
G‘ichirlar oyoq bossang dala qori!
Qizarib qo‘sh betingda o‘ynaydi qon,
Bu senga izg‘irinning mehr izhori.

Billurdek musaffodir qantar oyi,
Tush ko‘rib yotar yurtning qiri-joyi.
Qarasang toqqa — ko‘zing qamashtirar,
Qor ruhing allalaydi zab kiroyi.

Mol boqqan Aydarlida — otardagi
Cho‘ponlar shod-mamnundir qatordagi -

[1] Kamayadi, tarqaydi ma’nosida.

Qiynalmay qish qo‘nog‘in qarshilashga,
Keluvchi ayoz bilan qantardagi.

Turibdi to‘zg‘imayin qamish qo‘ra,
Iliqdir ichi, chunki molga to‘la.
Oq to‘nli cho‘pon bobo qorovuldir.
To‘lamish o‘zimizning tanish bola.

To‘lamish o‘zi shu kech qor oldiga
Chiqib borib mollarga qaradi-da,
Chaqirib cho‘ponlarni kulbasiga
Daladan kirdi qaytib shom oldida.

U darhol isinarkan uyga kirib,
Qo‘raning atrofida zir yugurib,
Qor sochar qashqir quloq sur tevatlar,
Uzoqdan qora ko‘rsa birdan hurib.

Osmon — ko‘k, dala —
oq qor, tun mudraydi,
Yulduzlar misli cho‘g‘dek miltiraydi.
Cho‘ponning otardagi kulbasiga
Yangi yil kirmoq uchun izn so‘raydi...

Cho‘ponlar Yangi yilga yalt qarashib,
Bir-birin tabriklashar zab yayrashib:
— “Sochuv!” —
deb uchqunlarni sochdi har yon,
Ulardan biri shampan og‘zin ochib.

Hay, shundoq qilib,
Yangi yil boshlandi,
Yangi ruh chulg‘ab oldi yer-osmonni.
Men esa she’rlar bilan qarshilayman
Madh etib kengliklarni, mard cho‘ponni!

O‘LAN

O‘lan suluv — uyatchan ba’zan qizday,
Ba’zan qo‘ymas yurakdan kuy oqizmay.
Jonsiz o‘lan tuyg‘ungni sovutganday,
Bosiladi yurakka ba’zan muzday.

O‘lan — gohi nozlangan go‘zal yorday,
Goh lovullab, goh tafting bosilganday!
Goh osmonni yorganday yalt-yult etib,
O‘t-chaqmoqning quvvatin oshirganday!

O‘lan — ba’zan boladay talpinadi,
Ba’zan ona qazbiday balqimali.
Ba’zida sho‘x dengizning to‘lqiniday,
Fe’li bordir “tentakning” shalqimali!

Gohi kibr-u havoda kerilgan kas
O‘lan qadr-u qimmatin hech bir bilmas.
Mensimaslik mumkinmi o‘lanni, ayt,
Asl o‘lan boqiydir, hech ham o‘lmas!

ABDULLA TOJIBOYEV

(1909–1998)

Qizil O'rda shahrida dunyoga kelgan. Internatda o'qib tarbiyalangan. 1948-yilda Qozog'iston Davlat universitetining filologiya fakultetini bitirgan.

Shundan keyin yoshlar gazetasida Bosh muharrir o'rinbosari, Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi boshqarmasining Raisi, kotibi, "Qozoq adabiyoti" gazetasining Bosh muharriri, M.Avezov nomidagi Adabiyot va san'at institutida bo'lim mudiri vazifalarida ishlagan.

Ilk she'rlari 1927-yildan chop etilgan. Qozog'iston Oliy kengashining Faxriy Yorlig'i, Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. 1985-yilda "Qozog'iston xalq shoiri" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan.

"Chin yurakdan" (1949), "Sevgan yuraklar" (1951), "Hayot va she'riyat" (1962), "Tanish ovozlar" (1984) kabi ko'plab to'plamlari nashr etilgan.

Abdulla Tojiboyev — XX asr qozoq she'riyatida yorqin iz qoldirgan shoir. Uning lirik she'rlarini yod bilmaydigan qozoq yo'q desa bo'ladi.

SHOIRLIK

Shoirlik og'ir mehnat tushunganga,
Kon qazuvchi, tosh yo'nuvchi ishindan-da.
Yolg'izsan, yordam tilab ololmaysan
Eng yaqin, eng suyukli kishingdan-da.

Ajibdir ilk sevgiga duchor kezing,
G'oyibdan dunyolarni quchar kezing.
O'yingda uya qurgan polaponing
Yuksakka qanotlanib uchar kezing.

Ajibdir tug‘ilishi tuyg‘ularning,
Ko‘zingdan qochar payti uyqularning;
Hislaring yuragingda mavjlanganda
Ajibdir tovlanishi yog‘dularning.

Osonmas ruhing yerga hech qo‘nmasa,
Taskin-u tasalliga hech ko‘nmasa;
Ya’nikim she’r qiynog‘i yuragingda
Hovurin chiqarmasa, hech so‘nmasa.

Bilmaysan shunda kimga ne deringni,
Ber, deysan, shirin damlar, ko‘magingni,
Qopqog‘in yonartog‘ning ochib yubor,
Osmonga ro‘para qil yuragimni!

BETKENBOYGA

Yosh eding, aylanding-ov qartimizga[1],
Yotibdi talay yillar ortimizda.
Bir kezlar olov-otash qalblar edik,
Qolmapti bugun shundan yortimiz-da.

Ortmayin otimiz-da, dong‘imiz-da,
Shunda ham kerak edik xalqimizga.
Bugunga aynimasdan yetdik omon
Burungi bukilmagan qalbimizda.

Yurdik biz kechikib, goh erta ketib,
Qo‘ymadi hech kim bizni erkalatib.
Umrimiz ardoqlagan ushbu yurtdir,
O‘stirdi o‘tdan qo‘rqmas erkak etib.

Birovlar o‘z nazdida o‘lmas go‘yo,
Umrining cho‘g‘i so‘nish bilmas go‘yo.

[1] Qari, keksa ma’nosida.

To‘ygach so‘ng kekiradi, hapriqadi,
Sir suvi tizzasidan kelmas go‘yo.

U juda ulug‘, oddiy ermas go‘yo,
Har kimdek o‘z rizqini termas go‘yo.
Uyat-u andishani qaydan bilsin,
Undayga xudo jazo bermas go‘yo.

Betkenboy, aylanding-ku qartimizga,
Qolibdi talay yillar ortimizda.
Yetaylik xush ayyomga qo‘l ushlashib,
Burungi sutdek toza qalbimizda.

TILAK

Men bugun sochi oq-oppoq
Abdulla degan otaman.
Kun sayin senga, Vatanim,
Oq tilak tilab yotaman.

Oq tilak tilab yotaman,
Oq fe’li shundoq otaning.
Takrorlab so‘zin tilagim,
Senga baxsh etgum, Vatanim.

Tog‘larim tursin silkinmay,
Dengizim tinsin xo‘rsinmay,
Quyoshim yonsin yarqirab,
Oydinim tursin yaltirab.

Tiniqsin yaqin, olislar,
Tiniqsin tegra-atroflar.
Qon to‘kar ofat urushdan
Titramasin hech yaproqdar.

Ohlar tortmasin sibizg‘am,
Qayg‘ulanmasin kuy sira.
Ingranmasin hech qo‘bizim,
G‘ussalanmasin do‘mbiram.

Nevaram o‘ynab-kulsin-yey,
Kapalak quvib yursin-yey.
Kuz payti ketgan oqquvim
Ko‘klamda qaytib kelsin-yey.

Oqquvim qaytib kelsin-yey,
Moviy ko‘liga qo‘nsin-yey,
Oq bulutlarni ko‘rsin-yey,
So‘ng sho‘x sayrab bersin-yey.

Men bugun sochi oq-oppoq
Abdulla degan otaman.
Yangi yil keldi — yo‘llaring
Oq bo‘lsin doim, Vatanim!

* * *

Tun — mudragan qora baroq misoli,
Mudraydi u junbushlardan tinch, xoli.
Bu chog‘ kimdir tebratadi g‘oyibdan
Qalbimdagi o‘langa esh xayolim.

Ko‘nglim tinchdir kunduz yongan yalovday,
Allalayman tuyg‘ularim hurkitmay.
Tek qotmishdir ro‘paramda o‘ylarim
Burchakdagi to‘mag‘ali[1] burgutday.

[1] Burgutlar boshiga kiydirib qo‘yiladigan xalta-kallapo‘sh.

* * *

Ko‘kni ko‘rdim, ko‘klamga yana yetdim,
Chechaklari tovlandi chekka-chetning.

Qorato‘rg‘ay chaqirdi derazamdan
Yep-yengilday turdim-da, yurib ketdim.
Va shu zum bu ko‘klamga yetmagan ko‘p
Do‘stlarim nomini jim zikr etdim.

* * *

Men ham shu yurt ko‘rkining bir xumori,
Men ham uni sevaman el qatori.
Soxta o‘lan hech qalbni titratmaydi,
Asl she’rning bo‘lmaydi hech g‘ubori.
Nahot mening qalbimda yolg‘on jarchi?
Xanjar bilan qoq yorib qaranglar-chi.

* * *

O‘y-xayollar ergashtirsa izidan bog‘,
Yetolmaydi unga agar chopsa-da ot.
Adog‘i yo‘q o‘kinchlarga ko‘milgaydir
Vijdoni-la bahsga tushsa har qanday zot.
Shu asnoda tungi uyqu buziladi,
Shundaylarga ajal ko‘zi suziladi.

* * *

Tug‘gan yurtga o‘tadi erkaligim,
Abekem, — deb siylaydi elim bugun.
Tirishsa ham nomimdan ne bir kaslar,
Bosolmas aslo ular qalbim unin.
Qozoqqa yetsa bas-da so‘zim, axir,
Emasmi bu men uchun buyuk faxr?!

JUMAG‘ALI SAIN

(1912–1961)

Jumag‘ali Sain Ko‘kchatov viloyati (hozirgi Oqmo‘la)ning Ariqbaliq tumanida tug‘ilgan. Pedagogika institutini bitirib, o‘qituvchilik qilgan.

Jurnalistlik faoliyati bilan shug‘ullangan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Urushdan keyin “Qozoq adabiyoti” gazetasiga muharrirlik qilgan.

Birinchi she’rlar to‘plami — “Baxt qo‘shig‘i” 1936-yilda chop etilgan. Qozoq qizining hayot yo‘liga bag‘ishlangan “Kulanda” dostoni (1939–1940) yirik adabiy hodisa sifatida baholangan. She’rlari o‘zining mayin lirizmi, samimiyligi bilan dilga yaqin.

“Ayg‘oq”, “Oltoy”, “Tonggi shabnam” dostonlarining muallifi. “Yo‘l ustida” qissasi 1961-yilda chop etilgan. Jahon adabiyoti namunalarini qozoq tiliga tarjima qilgan.

* * *

Qarama-chi, qadama-chi ko‘zingni!
(Axir, yurak temir emas to‘zimli!)
Men olovman, har uchquni kuydirar,
Aya, meni, aya, gulim, o‘zingni!

O‘yla, axir, o‘yla, axir, aqllim!
Unsizgina meni qayga chaqirding?
Teran sirli ko‘zlaringning tubiga
Asta-asta cho‘kib bormoqdadirman...

G‘ussalarga yo‘g‘irmagin so‘zingni!
Aya, meni, aya gulim, o‘zingni!
Uyg‘otmagin qalbimdagi tug‘yonni,
Javdiratib chaqnoq qora ko‘zingni!

O‘yla, axir, o‘yla, axir, aqllim!
Unsizgina meni qayga chaqirding?
Sokin edim, nega solding tug‘yonlar,
Nega g‘amlar ummoniga botirding?!

* * *

Men uyquga ayni cho‘mgan dam edi.
Bir payt o‘lan turtdi meni,
tur, dedi!
Uchib turdim,
charx urardi satrlar,
Oldi meni o‘y-xayollar sehrlab...
Gohi xira,
gohi nurli tovlanib,
Ko‘z oldimda turdi hislar mavjlanib.
Shunda birdan,
“evoh!” deya o‘kindim,
Ilhomimga “sabr qil!” deb o‘tindim.
O‘z joyida ko‘rinmasdi to‘rt qalam,
Kunduz uni olgan, albat, to‘rt bolam.
O‘lan ketdi...
O‘ltirdim men jim, xomush.
Yarim kecha,
eshitilmas sas-tovush.
Qayda ekan tarashlangan to‘rt qalam?
Yotar shirin uyqu ichra to‘rt bolam.
Qarayman-da, quvonaman, toshaman.
Oyog‘imni men avaylab bosaman.
Ko‘rpalarni,
yostiqlarni tuzatgum,
Uyg‘oqman-u,
uyqularni kuzatgum.
Kiprik, qoshi,
lablariga boqgum jim,

(Bari mening quyib qo‘ygan yoshligim!)
O‘ylar chulg‘ab,
chorlar meni shu oni –
Iqbolimning yozilmagan dostoni!
Uyqusida
ana biri kulmoqda,
Balki hozir shirin bir tush ko‘rmoqda.
Balki qayta ko‘rar kechgan bayramni,
Deyman,
nurli yuzlar,
ko‘rmang hech g‘amni!
Zuryodlarim,
mening poydor umrimsiz,
Qalbda yolqin,
jonimdagi qumrimsiz!
Turfa,
ajib xayollarga to‘ldim men,
Sizga boqib,
qayta go‘dak bo‘ldim men!
Va qalbimda ajib ilhom chaldi soz,
Bitilmagan misralarda aytib roz.
Men she’rlarni garchi shoshib to‘qirdim,
To‘rt bolamning yuzlaridan o‘qirdim.

Yozilganmi shundoq kitob — yarqiroq!
Nasib etmas hech oqinga u biroq!
Aytinglar-chi, bu dunyoda nima bor,
Shu to‘rt yurak urishidan azizroq!

QALIJON BEKXOJIN

(1913–1990)

Qalijon Bekxojin 1913-yil 15-dekabrda Pavlodar shahrida dunyoga kelgan.

1938-yilda Abay nomidagi Qozog'iston Davlat pedagogika institutini tamomlagan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi.

Q.Bekxojin ko'plab lirik she'rlar, dostonlar muallifi. "O'rmon qizi" (1939) dostonida xalq orasidan chiqqan iste'dodli yoshlar obrazi mehr bilan chiziladi. Shoir Qozog'iston Davlat mukofotining sovrindori. "Qozog'iston xalq yozuvchisi" unvoni va boshqa ko'plab mukofotlar bilan taqdirlangan.

Uning "Ko'klam" (1948), "Qahramonlik qo'shig'i" (1949), "Do'stlik ovozi" (1954), "Maryam yegor qizi" (1956), "Olti cho'qqi" (1973) va boshqa kitoblari chop etilgan.

SOG'INDIM

Sog'indim men Tattimbet[1]ning kuylarin,
Shu'lasiday mayin yozning kunlarin.
Yellar chaldi ko'l qamishin surnaydek,
O'sdim shunda tinglab oqquv unlarin.

Nafasiday erka go'dak chog'imning
Tattimbetning totli sasin sog'indim.
Yel-la o'ynab, yugurardim ushlashga
Shu'lalarin iforli gulbog'imning.

Ko'k maysada kapalakday o'ynadim,
O'ylasam men baxt haqida o'yladim.

[1] XIX asrda yashab o'tgan taniqli bastakor.

O‘sha baxtim — senda o‘tgan xush damlar,
Shu damlarning sururiga to‘ymadim.

Chalg‘itmasdi meni ermak, na sas-da,
Bor vujudim tuyg‘ularga payvasta.
O‘zimda yo‘q, o‘zgalardan qizg‘anib
Qarar edim qulun, toyga havasda.

Yurar ekan qo‘y-qo‘zilar ma’rashib.
Yosh buzoqlar — qir-adirda yayrashib,
Shodlanardim men chaqnasa chaqmoqlar,
Jilg‘a chopsa qirlardan, yo‘l talashib.

Menga issiq chekkadagi tor kulbam,
Lekin men-chun hamma uydan u ko‘rkam.
Jimirlaydi ko‘kda milt-milt yulduzlar,
Termulsam men kechalari darchamdan.

Tegmasa-da menga o‘rin to‘ridan,
Shu bir kulba keng ma’voday ko‘ringan.
Endi sig‘mam oltin naqshli qasrga,
Bu nimasi — bormi mendek kerilgan?

Jahon kezgan yarim asr yoshimning
Tattimbetda o‘tkazdim eng asilin.
Unda g‘amsiz, sho‘x-shan edi yuragim,
Olchi edi doim mening oshig‘im.

Unda bunday xo‘rsiniqni kim bilgan,
Bolalik-la yurgum derdim ming yil man.
Dali edim va chapani u paytlar,
Uzr aytardi menga ortiq so‘z qilgan.

Ketdim sendan, o‘tdi uchqur yillar ko‘p,
Toqqa chiqdim, mevalari totli deb.
Oq soch shoir nomin oldim, ne nafdir,
Bolaligim qoldi senda, Tattimbet!

Qirlar kezib, baxt qushini ovladim,
O‘lan aytib, tog‘larga ham dovladim.
Biroq hamon o‘sha bola chog‘imday
Ko‘k maysaga kelar biram ag‘nagim.

Bolalikday bo‘lib erka va xushxon,
Shu’ladayin mayinmisan sen hamon?
Balki qayta yoshararman, boladay
Maysazorda chopsam urib men javlon.

Bari sadqa, sening erka bolangman,
Dashtlaringga jonim yayrab borarman.
“Tentagim” deb, yellar suysa manglaydan,
Cho‘poning bo‘p qirlaringda qolarman...

HAMID ERG‘ALIYEV

(1916–1997)

Gurev viloyatining Novobogat tumanida dunyoga kelgan. Qozog‘iston Davlat universitetida o‘qigan. Ikkinchi jahon urushi ishtirokchisi. Ilk she’rlari matbuotda 1936-yildan e’lon qilina boshlagan.

1981-yilda “Oltin zarang” she’rlar to‘plami uchun Abay nomidagi Qozog‘iston Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. “Qozog‘iston xalq shoiri” unvoniga sazovor bo‘lgan.

Shoirning “Ikki doston”(1949), “Bizning ovulning qizi” (1950), “Sening o‘zaging”(1953), “Yoyiq qo‘shiqlari”(1955), “Qurmang‘ozi” (1958), “Davr ovozi”(1963), “Hayotning o‘z ko‘-ziman” (1965), “Kuy doston”(1970), “Qutlug‘ qo‘nish” (1974), “Ko‘zlarimda dumaloq zamin” (1978), “Oltin zarang” (1981) kabi to‘plamlari nashr etilgan.

ZARAFSHON BO‘YIDA

Muqaddas bu zamin, qadim tuproqda
Gullar qaysi zamon qovjirab so‘lgan?..
Bu chashma qaysi oshyondan?
Bobodeqqon bilan chin sirdosh bo‘lgan
Zarafshondan, axir, Zarafshondan!

Qorli cho‘qqilardan oshsa behadik,
Ko‘pchib oq bulutlar navbahor fasli –
Yayrar yer abri naysondan.
Ushbu dur tomchilar qayerdan asli?
Zarafshondan, axir, Zarafshondan!

Oydin ko‘lga qo‘nsa sayron oqquvlar.
Qolmas yuragingda g‘amning g‘ubori,
Bu damlar azizdir jondan.
Qaydan bu ko‘xlikning, ko‘rkning ifori?
Zarafshondan, axir, Zarafshondan!

TAG‘IN KELDIM TOSHKENTGA

Tag‘in keldim Toshkentga — keragimga,
Yetdim tag‘in ardoqli tilagimga.
O‘zbekning muhabbati — menga degan,
Tugamas, oqaverar yuragimga.

Jo‘r bo‘lganda xush ayyom sozing — uning,
Chin rohatdir o‘zbek-la kechgan kuning.
Dili oqdir naq kumush paxtasiday,
Ipagiday mayindir fe’li uning.

Entiktirar ko‘nglimni doim visol,
Oshiqaman naq Amudaryo misol.
O‘zbek do‘stim meni xush kutib olar,
Mirzacho‘lning tongiday yuzlari ol.

Dil yolqini ortar yil o‘tgan sayin,
Har qozoqning o‘zbek-chun mehri tayin -
Olmaotadagi uyimga issiq bergan
Buxorodan keluvchi olovdayin.

Xush etmoqqa har qadam do‘stlarim shay,
Dilim ravshan Toshkentning osmoniday.
Qozoqning ko‘ksi baland hamishalik,
Viqorlidir Navoiy dostoniday.

Jahonda ne ezgulik — bizda bari,
Tug‘ishgan el ginadan turgay nari.
Do‘stligim salobati qurch va buyuk,
Misli Temur saroyin gumbazlari.

She’rlarimiz naq bahor lolasiday,
Qovjiramas zabunlar nolasiday.
O‘lanimni eshit-da, suyub qo‘y-chi,
Bizga bergan qizingning bolasiday.

Mulozamat qilma sen, ayt chiningni,
Sina nozik davrada o‘z iningni.
— Oling, oling, desang gar erib ketib,
Yotib olib yemasman uzumingni.

JUBAN MO‘LDAG‘ALIYEV

(1920–1989)

O‘rol viloyatining Taynaq tumanidagi “Jilandi” manzilida tug‘ilgan. 1940-yilda O‘rol Qishloq xo‘jaligi texnikumini bitirgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi.

Juban Mo‘ldag‘aliyev “Yesir ayol taqdiri”, “Men — qozoqman”, “Kishan ochgan”, “Sel”, “Boyqo‘ng‘ir bosh barmoqlari” va boshqa o‘nlab she’riy kitoblarning muallifidir. Ko‘plab orden va nishonlar bilan taqdirlangan. “Qozog‘iston xalq shoiri” faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan.

U XX asr qozoq she’riyatining yirik vakillaridan biri hisoblanadi.

CHO‘PON

“Qozoqning qozoqligin, odamligin,
Yaylovin, jo‘mardligin, omonligin
Bedaxl saqlab kelgan bir nayzamas,
Tayog‘im, mo‘min kasbim — omonligim”.

O, Cho‘pon, shundoq deya olasan sen,
Borliqday boqiy yashab qolasan sen.
Karvondek ko‘z o‘ngingdan o‘tkazasan
Hayvonning-u insonning oq-qorasin.

O‘tmadi dov-da qo‘ysiz, yov-da qo‘ysiz,
Bitmadi bitim qo‘ysiz, savdo qo‘ysiz.
Hamrohi bo‘lib yurding yurt va qutning,
Necha toj-taxt almashdi o‘yli-o‘ysiz.

Xonlikni, podsholikni ajal oldi,
Ko‘y qoldi, cho‘pon qoldi, tayoq qoldi.

O‘zingsiz taqdirning-da taqdiri yo‘q,
Aytmoqchi, seni qanday asrab qoldi?

Quyosh senga qarab soat to‘g‘rilar,
Qirga chiqsang, so‘ngra shu’lasin tarar.
Yotar vaqtim bo‘ldi, der oy, sen yotsang,
Sen uxlagach tun oromga yo‘g‘rilar.

Sen — naq cho‘lda saksovul kuyib o‘sgan,
Sen — naq qoya chinori ufqni to‘sgan.
Ayoz yalab ko‘ksingni, oftob o‘rab,
Tog‘-u toshda teshildi sening o‘kchang.

Cho‘qqilarga sururdan so‘ylagayman,
Bug‘doyzorlar mavjini bo‘ylagayman.
Ko‘zim yashnar yosh shahar, navniholdan,
Ezgulikni bir umr kuylagayman.

Senga boqsam yuragim g‘amdan xoli,
Sen bo‘lmasang kularmi cho‘l iqboli.
Bilaman — sen yosharding, navqironsan,
Fotiha berdi dashtning dono choli.

Tug‘gan yerga kimning qalb qo‘ri singsa,
Qadr-u e’zoz topgaydir el ichinda.
Cho‘pondan akademik chiqmoqdadir
(Va lekin buning aksi bo‘lmasin, ha).

Ilm-u hunar kamolotga intilajak,
Bir kuni, balki robot qo‘y boqajak.
Lek ularda bo‘lmas-ku cho‘pon qalbi,
Yer-suv, dala ishqida kim yonajak?

Oyga-da olib borar kema u on,
Oshiqar Cho‘pon sari gullar xandon.
Tayog‘ing yetmas ufq yo‘q bo‘lsa-da,
Yerda yur. Cho‘pon, senga dala giryon.

BAXT

Baxt nima?
Davo bormi dardga, qanday?
Otmikan u yo o‘zing egarlaganday?
Bormi buning aniq, dangal bir javobi,
Misoli ikki-yu ikki — to‘rt deganday?

Birovlarga mansab baxtdir, davlat baxtdir,
Birovlarga farzand baxtdir, avlod baxtdir.
Birovlarga sog‘lik baxtdir, tiriklik baxt...
Ol men uchun sinovi ko‘p hayot baxtdir.

O‘zicha mungli, mungsiz bu xaloyiq,
Bularga nima deb biz ayb taqaylik?
Aql-o‘y, qon-teri-la topgan bo‘lsa,
Har kimning ham baxtiga quvonaylik.

Yo‘qsa xalq, jamiyat qandoq tura oladi?
Biridan biri quvvat, nur oladi.
Birovning baxtin ko‘rib, barcha mamnun,
Ko‘l — tomchidan, xalq — odamdan iboratdir.

DASTURXON SHE’RI

Qani, do‘stlar, sal tinchlaning, sal toqat!
Qanday ajab bu quvonch-u tantana!
Dasturxonda — dalamizday barakat,
Yuraklarda — sonsiz tilak, tarona!

Qani, do‘stlar, qani, do‘stlar,
Yaxshilikka yo‘l bo‘lsin!
Murod, niyat zo‘r bo‘lsin!

Buloqlar ham mo‘l bo‘lsin!
Qaysi birin, qaysi birin aytasan?
Ne istasak,
Ne tilasak — shul bo‘lsin!

Jo‘mardlardan ovloq yursin shum torlik!
Bizga loyiq — qanot, parvoz, shunqorlik!
Qarilar — yosh, yoshlarimiz — bosh bo‘lsin,
Davra tutsin do‘stlik, tenglik, hamkorlik!

She’r tinglaymiz!
Kuysiz yurdik qachon biz?
Yangrasin ey yalpoq dala, saxiy kuz!
Sharob emas, qimiz emas, sal qizsak,
Biz baxtdan, shodliklardan qizarmiz!

SURATING

O‘ngimda seni ko‘p ko‘rdim,
Ko‘zimda qoldi surating.
Ko‘p yilni bekor o‘tkardim,
Ocholmay ketdim siyrating.

Tushimga kirding ul kunda,
Attang, sen uni bilmading.
Aytolmay yurib o‘ngimda,
Tushimda “sevdim” dermidim...

QOSIM OMONJO'LOV

(1911–1955)

Qarag'anda viloyatining Qarqarali tumanida dunyoga keldi. Shoirning "Abdulla", "Oqinning o'limi" nomli epik dostonlari xalq orasida shuhrat qozonib, she'riyat maydoniga o'ziga xos ovozli, yorqin iste'dod kirib kelganini isbotladi.

Qosimning nomi qozoq she'riyatini yangi nazmiy ohanglar, shakllar bilan boyitib, badiiy kashfiyotlar yarata olgan shoir sifatida mangu qoldi.

OTA MAKON

Sevdim seni ona yurt — ota makon,
Onajonim o'zingsan-ku mehrga kon.
Yer va ko'kning jannati ham bir o'zingsan,
Sendan ortiq nima ham bor kezsam qayon?

Izlab yurib "Jeruyiq",
yelday yelgan
Asanqayg'u emasman,
men — Qosimman.
Men Qo'rqut ham emasman go'r boshinda
Qo'biz bilan sirlashib gungragan.

Erka o'sdim umrda, o'sdim erkin,
"Erkalanma,
ey yigit", deb aytar kim?
O'z elimda o'zanday guvillayman,
Toshib-to'lib yashayman — shudir shartim!

ABAY ARMONLARI

"Adashib, alanglama yo'l topolmay,
Beriroq to'g'ri yo'lga chiq, qamalmay.
Na ilm yo'q, hech qursa mehnat ham yo'q,
Eng bo'lmasa ketding-ku mol boqolmay..."

Degan so'zi oqinning qaynab ichda
Yetib keldik shoshilib ayni tushda.
Arslon kabi ko'ndalang yotar Chingiz[1],
Ishonganday vujudda alp kuchga.

Kelib yetdik keng qo'riq Jidaboyga[2],
Qorovul ortda qoldi allaqayda.
Bosilib ko'kraklarda ko'p sir yotar,
Aytamiz shuning barin biz Abayga...

Dengizdagi orolday bir do'nesda[3],
Qishloq yotar ko'p sirlarni solib esga.
Erkin yurib oraladik xonalarni,
Abayning erkalari biz emasma?

Qabr turar qadim, eski, to'rt quloqli,
Yo pirim, shoir bunga qandoq yotdi?
Til qotmas tusi sovuq, sur qabrlar,
Sezarmi hayajonni, muhabbatni?

Qariya yosh ko'ngilli, yuzi nur, shod,
Ham kuychi, ham qo'shiqchi, o'zi jo'mard,
Ko'p sirni ko'ngildagi berdi yechib
Abayning nabirasi Isroil qart[4].

---

[1] Tog' va manzil nomlari.

[2] Tog' va manzil nomlari.

[3] **Do'nes** — do'nglik.

[4] **Qart** — keksa kishi, mo'ysafid.

— Yigitlar, kelibsizlar Abayni izlab,
Menga ham ishorat-la "qalaysiz?", deb.
Xush ko'rdik! O'ylamagan ekansizlar,
Abayning eski yurti Abaysiz deb.

Kechirarsiz so'zimda bo'lsa xatom,
Oqinga makon bo'lmas na qabr, na tom.
Tug'ilgan yurtin oralab ketgan edi
Sening ham, mening ham shu — Abay otam.

Otangning sog'ingani — senlar eding,
Har biringni otaga teng der edim.
Ilm-u mehnat, barcha baxt sizlarda-ku,
Shu emasmi, qarog'im, eng keragi.

"Yutday qisib kelganda qattol zamon,
Uni kuylab bergandi otang ravon.
Endi baxtli davronning sasin tinglab,
Ota qabrda chidab yotolmagan..." -

Degan so'zi donishmand qariyaning,
Bir silkitdi shoirlar sho'x xayolin.
Ketdik yana oralab keng qishloqni,
Ko'raylik deb davomin voqyeaning.

Kolxoz bordik, har bir uy, har bir maktab,
Turar shoir Abayni zo'r hurmatlab.
Shahar qaytdik, olddan yana Abay chiqdi,
Bekor yurgan ekanmiz "surat-ku" deb.

Qarab ko'ring o'zingiz qalb ko'zi-la,
Tirik odam emasmi barin sezgan.
Oqinning jo'shqin she'ri oralaydi,
Ozod yurtning har qishloq, uyin kezgan.

"Respublika to'yiga yozdim o'lan!" -
Deb kirdim uyga, uyda kim bor ekan? -

Uy to‘rida o‘tirar shoir xushvaqt,
Gaplashmoqchi sen bilan, mening bilan.

Oqin ota, orzular qutlug‘ bo‘lsin!
Shuni sezib yuraklar yonajak-da.
Bugungi kunga kelding bizlar bilan,
Demak, birga bo‘lamiz kelajakda!

NOR TAVAKKAL

Nor tavakkal, quloch urdim qiyinga,
Olib chiqar g‘ayrat bo‘lsa — qiyinma?!
Bu safarda surinib ham qolarman,
Shunda, do‘stim, meni aybga buyurma!

Yiqilaman deb, yurolmasman bemalol,
Yuguraman shoshib, yorib, yetsa hol.
Mulgiyversin, uxlayversin qo‘rqoqlar,
Ish boshlayman olovlanib har mahal.

Yiqilsam ham yuguraman, o‘taman,
Ehtiyotkor aqlni men netaman?
Shoshilarman, surinarman, charcharman,
Borar joyga sal oldinroq yetaman!

KUNDAY PORLAB

Kunday porlab kulganing -
Shodonlikning nuri-ku.
Shod bo‘lib umr surganing
Zamona g‘ururi-ku!

Sening nurli yuzingdan
Ko‘rdim baxtli umrni.

Sening har bir so‘zingdan
Kuy yayratar ko‘nglimni.

Shu sababdan men senga
Oshiqdirman dil ketib.
Yuragimdan, jonimdan
She’r yozaman yangratib.

Kunday porlab kulaver,
Oq manglayli, olma yuz,
Senga teng kelarmikan
Yer-jahonda biror qiz!?

VO DARIG‘, SHU QIZ

1

O‘ngimdami, tushimdamidi,
Ko‘rdim-ku orzuimdagi qizni.
Bir nozik siymo kulimlagandi,
Isrofil urush boshlandi — buzdi.
Shopirdi dovul, tebrandi dengiz,
Sapchidi to‘lqin, chayqaldi cho‘qqi...
Qip-qizil o‘tning ichida qoldik,
Qayda ekan, qayda, vo darig‘, shul qiz?

2

O‘q tegdi kelib, g‘ayratim so‘nib,
Boryapman o‘lib... kelmaydi o‘lgim!
Turganday shu qiz yonimga kelib,
Talpinayotir unga yosh ko‘nglim!
Boryapman so‘nib, boryapman so‘lib,
Yutmoqchi meni manov shum so‘qish!
Armonim bormi o‘lsam bir ko‘rib,
Qayda ekan, qayda, vo darig‘, shul qiz?!

3

"Kelmaydi o'lgim, kelmaydi o'lgim!
G'ayratim qayda, kel-chi shu chog'da".
Dedim-da turdim, yuguraverdim,
Qo'limda nayza chaqilar oyga.
Yengdik-ku yovni! Armon yo'q, gulim!
Kunday gurkirab o'tdi-ku so'qish.
Kelyapman qaytib, o'lanim aytib,
Qayda ekan, qayda, vo darig', shul qiz?!
Qayda ekan, qayda, vo darig', shul qiz!

* * *

Men sevaman osmondagi oltin kunni,
Shamolni, shamol esgan salqin tunni.
Men sevaman havo bilan chiyratilib,
Quloqqa kelib turgan mungli kuyni.

Sevaman shildiragan salqin suvni,
Suvdagi suzib yurgan o'rdak, quvni[1].
Men sevaman kun chiqqanda ko'tarilgan
Ko'kimtir ko'kipakday ko'kchil bug'ni.

Men sevaman erkli-erkin tog' qushlarin,
Sayrashsa to'rt bo'lib tun uyqularin.
Bu dunyoda men sevmas hech narsa yo'q,
Sevaman tabiatning tasvirlarin.

Dunyoda sevsam agar nenigina –
Bari qiziq o'zimga, sevdim mana.
Shundayam men shularning barchasidan
Ortiq sevdim dunyoda senigina!

[1] **Quv** — qush.

TURSUNXON ABDURAHMONOVA

(1921–2003)

Semey viloyatining Jarma tumaniga qarashli "Bo'ka" ovulida tug'ilgan. Mehnat faoliyati 1941-yildan boshlangan. Urush yillarida o'rta maktabda o'qituvchi, maktab direktori bo'lib ishladi.

1950–1954-yillarda "Qozog'iston ayollari" jurnalida bo'lim mudiri, 1954–1959-yillarda Qozog'iston Davlat universitetida, 1959–1963-yillarda aspiranturada o'qigan. Keyinchalik Qozog'iston nashriyot, matbaa va kitob savdosi Davlat qo'mitasida katta muharrir, 1967–1969-yillarda Qozog'iston FAda ilmiy kotib vazifalarida ishlagan.

XALQIM DESAM

Xalqim desam, o'zni har yon tashlaysan.
Nogoh shubha-gumon qila boshlaysan.
Qaytib olib kecha aytgan so'zingni,
Tikolmaysan ko'zlarimga ko'zingni.

Bobolardan meros bu yer, fikr qil,
Hammamizga u Vatandir, shuni bil.
Ayt, bu elni tag'in hasrat quchmasin,
Yurt boshiga qora zamon tushmasin.

A'lo bildik biz hamisha imonni,
Bosib keldik yurakdagi tug'yonni.
Kelgindiga berib qo'yib diyorni,
Illat dedik biz g'ururni va orni.

Ular qachon yovga qarshi turgandi?
Chorig'ini zo'rg'a sudrab yurgandi!

Sen deb qachon tushdi qora terlarga?
Yuksak sha'nim urdi ular yerlarga!

Jonim Vatan!
Seni deya zorladim,
Qay yurakka yetib bordi zorlarim?
Eshitganlar eshitmasdek turdilar,
Hadiklarda mendan yuzin burdilar.

O'z yurtimda o'z bolam naq begona,
Har ishga u jahd qilolmas mardona.
Agar zanjir yurt bo'yniga tortiqdir,
Mening bundan o'lganim ming ortiqdir!

* * *

Essiz ko'ngil — yemasa gar o'z g'amin.
Etolmasa o'z baxtin o'zi ta'min.
Har kim ko'kni ko'zlar turna misoli,
To'lib ketdi undaylarga bu zamin.

Kunlar shu tarz to'xtamay o'tayotir,
Chin umrning yo'lin kim tutar, axir?!
"Adashganning oldi yo'l, orti so'qmoq",
Umr essiz — bo'lsa qalb yaydoq, taqir.

* * *

Qancha molni yiqqan bilan evin bilib,
Boy-badavlat bo'lib qolmas aslo yigit;
El ko'ngli — oq sandiq, topib kalitini,
Yuksalmasa — ko'kka hunar tug'in tikib.

O'z sohasin mashqin olgan ko'pdir, biroq
Undaylardan chin san'atning sehri yiroq.

Jon kuydirib, o‘zin fido aylamagan
San’ati-la hech bir jonga solmas titroq.

* * *

So‘z so‘zlasang, o‘zagiga boqib ayt,
Ma’nosini uqib, mag‘zin chaqib ayt.
Boylargina so‘z aytar deb o‘ylama,
Sen so‘zing-la o‘zga dilni yoqib ayt.

Taxtli der el dono qalbni — so‘z bilgan,
U hamisha ezgulikka intilgan.
Taxtlimikin ko‘pni to‘nab boyigan -
Qurumsoqlik, xasislikni kasb qilgan.

* * *

So‘zchanlikni fazilatga biz yo‘ydik,
Siyqa so‘zning sururidan ko‘p to‘ydik.
Odamiylik fazilati — eng asl,
Qani o‘sha ishchanlik va haqgo‘ylik.

Savdo-sotiq, dur sehriga boylanib,
Qalbimizga nafs borar joylanib.
Shu ketishda qolmasak bas — bir kuni,
Nopoklikning qo‘rg‘oniga aylanib.

SIRBOY MAVLENOV

(1922–1993)

Sirboy Mavlenov 1922-yil 17-sentyabrda To'rg'ay viloyati Jongeldin tumanida tavallud topgan. Avval o'zi tug'ilib o'sgan qishloqda, so'ngroq Qizil O'rda shahrida o'qigan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi.

Shoirning dastlabki she'rlari 1937–1938-yillarda e'lon qilina boshlagan. Ilk to'plami 1948-yilda nashr qilingan.

Uning "Yashil o'rmon"(1950), "Majittovning otlari" (1951), "Yoz erkasi" (1952), "Jondo'st" (1953), "Yo'l ustidagi gulxanlar" (1954), "Tortishuvning boshlanishi"(1955), "Chagalay"(1962), "Qoq tush mahali"(1963), "Yaproqlar yonadi"(1964), "Bo'z qirov" (1976), "Sen ikkovimiz" (1977), "Yurak g'alabasi" (1985) kabi o'nlab kitoblari chop etilgan.

G'AFUR G'ULOM

Arpapoya ko'chasi dilga yaqin,
Turar unda o'zbekdagi eng zo'r oqin.
Oltmish yoshga oyog'idan chaldirmay,
Yoshligining saqlagan kuch-quvvatin.

May gullari ayni xandon chog'ida
Bo'ldik bizlar shoirning ardog'ida.
Palovi-yu ko'k choyi-la siyladi,
Chaq-chaqlashdik hovlida — tut tagida.

Keksaysa ham keksalikdan u yiroq,
Yoshligidek hazilkash va ko'ngli oq.
Yaltirarkan oq qirovlar boshida,
U Asqartov cho'qqisiga o'xshar naq.

Ilhomlanar yurt ishqida erta-kech,
Tashvishi yo‘q she’r yozishdan boshqa hech.
Shunchakimas, u hayqirgan chin oqin,
Qalami she’r, doston bitar peshma-pesh.

Dong taratdi, unga zafar bo‘ldi yor,
Yuragida naq arslonning shahdi bor.
O‘tib borar ko‘chasidan Toshkentning,
O‘zbekligi bilan qilib iftixor.

* * *

Yolqinlanib kun botar,
Oy taratar nur inja.
Birov ko‘rsa so‘z qotar,
Sen uydan chiq o‘g‘rincha.

Manov mayin yel — o‘ynoq,
Manov moviy sho‘x buloq.
Dala kuz ohangida
Chalar sokin qo‘ng‘iroq.

Chiq uyingdan oshiqa,
Kel buloqning qoshiga.
Posbon bo‘lar qarag‘ay,
Barglari-la yashirar.

* * *

Qizil guldek qulf urib,
Yashnab turgan kezing bul.
Yurganlar ko‘p intiq bo‘p,
Nima deyin, o‘zing bil.
Yashnab turgan kezing bul.

Shu'lasiday jahonning
Munavvardir toza dil.
Qo'lin cho'zmas senga kim,
O'ylab ko'rgin, o'zing bil.
Yashnab turgan kezing bul.

Oqquv bo'yin, oq bilak,
Kulging yog'du, so'zing nur.
Bola ko'ngil, sof yurak,
Har yurakda sezim bir.
Yashnab turgan kezing bul,
Nima derdim, o'zing bil.

* * *

Yaproqlar ila yoz uchib,
Kezganda kuzak yurt bo'ylab,
Ketganda ko'ldan g'oz uchib,
Entikdim seni men o'ylab.

Ko'tarib keldi qish yalov,
Sovugan suvdek men tindim.
Shoxlarga qo'ndi qor-qirov,
Qishda ham seni sog'indim.

Eslab sevgimiz armonin,
To'ldi bu o'ksuk dil g'ashga.
Ko'klamning yaqin qolganin
Tuydim-u chiqdim izlashga.

Gul tutib keldi bir kun yoz,
Shu gulda seni ko'rmadim.
Ko'lga qaytdi yana suluv g'oz,
Faqat sen qaytib kelmading.

QOZOQLARNING VAKILI

Nosir Fozilovga

Qozoqlarning vakili,
Mehmonlarga o‘zdekdir.
Qo‘sh daryoga u ko‘prik
Qurib bergan o‘zbekdir.

Kirgan ona suti-la,
Kengdir doim quchog‘i.
Muqim yashar Toshkentda,
Turkistonning qozog‘i.

Peshvoz chiqib choy quyar,
Ayirmaydi o‘zidan.
O‘zbekligi bilinar,
“Xo‘sh” degan bir so‘zidan.

Alisher-u Abayni,
Qo‘yib yuksak o‘ringa,
Ikki tilda so‘zlab u,
Fayz kiritar gurungga.

Do‘stligimiz tarixin,
Ta’riflar oshib-toshib.
Nosir bilan kamina
Zerikmas suhbatlashib.

Yana qancha sir-asror,
O‘rtada — zehnimizda.
Kelmoqdamiz shu asno,
To‘ymasdan mehrimizga.

SO‘YLAR EDI YURAGIM

Bulbulqanot ko‘k to‘qayda
Turdik qarab ko‘kdagi oyga.
Ko‘zlaringday mo‘ldir osmon,
Qoraqatlar bosgan maydon.

Turding unsiz, turding tilsiz,
Quchog‘ida xayolning.
Bola kezim
Qora ko‘zing
Qadalganda uyaldim.

Aytilma-yoq so‘z ham bitdi,
Xayrlashar chog‘ ham yetdi.

Bola kezim
Qora ko‘zing
Kinalashing bilardim.
Biroq shunda
Til o‘rninda
So‘zlagandi yuragim.

MUZAFFAR ALIMBOYEV

(1923)

Pavlodar viloyatining Sharbaqti tumanidagi Maraldi ovulida tug'ilgan. Qozog'iston Davlat universitetini bitirgan.

Iste'dodli shoir o'z mavzusi, chuqur tafakkuri, o'ziga xos ohanglari bilan qozoq she'riyatini boyitdi. "Qozog'iston xalq shoiri" faxriy unvonining sohibi.

U xalqchil she'riyati, didaktika va hajvga moyil ijodiyoti bilan XX asr qozoq adabiyotiga munosib hissa qo'shgan shoirlardan biri sanaladi.

ESDALIKLAR

Esdaliklar — yirtilmas bir kitobday,
Sinmaydigan butoqday,
Esdalikning guli qurib qolmaydi,
Buyog'i ham so'lmaydi.
Ifori anqib turadi,
Eskirmaydi sira u.
Esdalikning yopilmaydi eshigi,
Esdalikning tugamaydi qo'shig'i.
Esdalikning teshilmaydi kemasi,
Chirimaydi chegasi.
Esdalikning noyobligi bilingay,
Sudramaydi keyinga.
Esdaliksiz o'smay qolar bugunim,
Esdaliklar — o'chmaydigan burungim.

HAQIQATNI IZLAGAN

Haqiqatni izlagan –
Avvaldan do‘st biz bilan.
Adolat izlagan jon –
Bizga qarindosh inson.
Orzuga intilgan jon –
Bizga aziz, qadrdon.
Kim yolg‘onga parvona –
Ukam bo‘lsayam, begona...

ONA TILIM AJOYIB

Ona tilim ajoyib deb aytaman,
Teng kelguday unga ne bor? Qay chaman?
Yangratib umr bo‘yi qayta-qayta,
Charchamasman men shuni ayta-ayta.
To‘zmas u ohori ketib, rangi qochib,
Biz hali qonmadik ham sirin ochib...
Qozoqcha til qadriga yetgan sayin,
Yashnaydi u ertangga nurin sochib.

TOQQA BORDIM...

Toqqa bordim, kuyladim,
Yangrab ketdi kuylarim.
O‘zim eshitib, yayradim
Yangraganda kuylarim.
Chor atrofni to‘ldirib,
Kuylayverdim do‘ndirib.
To‘xtama deb tiladim,
Qattiq chiqdi tovushim.
Chalib qoldi qulog‘im:
To‘lib ketdi tog‘ ichi.

Chor atrofni dong qilib,
Yangrayverdi hayqiriq.
Kun o‘rmalab cho‘qqiga,
Talay tonglar otadi.
Yomon sas ham, yaxshi sas ham
Sado berib yotadi...
Yaxshilikning ovozi,
Baland bo‘lsin parvozi!

ONA ZAMIN, TUG‘ILGAN TUPROQ

Bir totsang bas suvidan,
Yana totging keladi.
Bir o‘tsang yaylovidan,
Yana o‘tging keladi.
Qanchalar aziz Vatan! –
Buni hamma biladi.

NAVRO‘Z BAYRAMI

Sog‘intirib hammani,
Keldi Navro‘z bayrami!
Qaynatib Navro‘zgo‘jani,
To‘ldirib ichsang kosani.
Ulusning ulug‘ kuninda,
Ko‘p bilan ayra, kul unda.
Ko‘paysin yana do‘stlaring,
Mo‘laysin ulush qo‘shganing.
Yarashib ko‘ngil xushligi,
Yashnasin xalqlar do‘stligi.
Ichida yursang ozgina,
Chayilar o‘pka, noz-gina.
Oldiga sig‘may sabiylar,

Quchog‘in ochsin yangi uylar.
Yoshlarni qo‘llab har oni,
Mehrini to‘ksin Vatani.
Izzatlab bobo dasturin,
Sodiq bo‘p o‘ssin yosh bo‘g‘in.
Xira tortmasin hech ko‘ngil,
Shod bo‘lib yursin har bir dil.
Porlagan Qozog‘istonga,
Tang qolsin do‘st-da, dushman-da!

SEVGAN YURAK SO‘Z TOPADI SEVGULIK

Oshiq she’rin o‘zim ham
Yozdim yoshlik kezimda.
Taqlid qildim talayga –
Hofiz, Sa’diy, Abayga.

Ko‘chiribman gohi dam
Umar Xayyom, Geynedan.
Chiqqach bari yolg‘on bo‘p,
Qizlar ham ishongan yo‘q.
Hech kim yodlab olmadi,
Bittayam esda qolmadi.

Uchrashguncha sen bilan,
Oshiqlikni sezinmay,
To‘qiganimni she’r debman,
She’r yozishni bilmapman.

Oshiqlik, bu — sog‘inish,
Ming ingrash va yo kulish.
Oshiqlik, bu — xushtorlik,
Yerda kunni quchganlik.
Kunni quchib o‘rtanish,
Kunday qizni erkalash...

QUVONDIQ SHANG'ITBOYEV

(1925–2001)

1925-yili Oqto'be viloyatining Qorbuloq tumanida tug'ilgan. Qozoq davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. Oqto'be pedagogika institutida, Qozoq birlashgan nashriyotida, Oqto'be viloyati gazetida, "Yulduz" jurnalida, "Qozoq adabiyoti" gazetida, Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasida, "Qozoqfilm" studiyasida, Qozoq radiosida ishlagan. Bir qancha lirik she'riy to'plamlarning, "Beu, qizlar-oy", "Hoy, yigitlar-oy" kabi drama asarlarining muallifi.

Qozog'iston xalq yozuvchisi.

OR

Tangrim Jabbor! Faqat senga sig'inay,
Yolvorayin, faqat senga yalinay.
Podshoh toji yo'lda yotsa, qayrilmay,
Tepib o'tib, senga qaray talpinay.

Sen borsan-ku, sendagi sabr sarqilmas,
Adolatning daryosi hech tortilmas.
Qora dunyo qoplab kelsa, qo'rqmasman,
Ajal xavfi or kuchidan ortiqmas.

DALA

Dala! Dala! Cheksiz maydon! –
Men daladan kelaman.
Eh, dalaning barin birdan
Quchib bo'lmas, bilaman.

Buluti ko‘chib, shamoli esib,
To‘lqinlanar! — Tomosha!
Bo‘z dalani quchib-o‘pib,
Gullarin terdim bolacha.
Daladir mening es-dardim, butkul,
Ko‘rsam yayraydi ko‘ngil.
Sevaman uni hammalardan ham,
Jonimiz tutash, bitta dil.
Shu dalalarning shabnami edi,
Orqamga dastlab tekkani.
Shu dalalarning dilbari edi
Yurakning ilk bor sevgani.
Dala, dala, cheksiz biram!
Men daladan kelaman.
Eng so‘nggi dam, o‘lar chog‘da ham
Dalani quchib o‘laman!

* * *

Darig‘o! Qanday qiz edi!
Bahorlar o‘tdi, bo‘ldi kuz.
O‘t-buyra sochini kuzadi,
Zamonga moslab... so‘ldi qiz.

O‘ynab ham kulib, gul otib,
Yurdim-ku yoshlik chog‘imda.
Birga tonglarni o‘tkazdik
Yoninda, yashil bog‘inda.

Kuy edi to‘la har yog‘im,
Kuylardim xondan xabarsiz.
O‘ylamay umr naryog‘in,
Chayqadim, to‘kdim xatarsiz.

Gul edi-yov mening bahorim,
Qiz edi-yov o‘zi nop-nozik.

Vujudim yutdi iforin,
Aytganda unga dilrozim.

"Vaqt — bevafo!", — So'z ma'nin,
Boyoqish qaydan sezibman?
Hatto qizlar ham to'zmog'in,
Tushunmay, beg'am o'sibman.

Darig'o, sevgim — shu edi,
Davronlar ketdi, bo'ldi kuz.
O't-buyra sochin kuzadi,
Zamonga moslab... so'ldi qiz.

TAFTGA TO'LDI YURAGIM

Qop-qora mayizday buruming,
To'lqinlanar orqangda.
Oy bilan kunday to'qnashgan
Oq tomog'ing aytsang-a...

Jibek qiz yurar dostonda
Bir ko'rsam deb yurardim.
Seni ko'rganda, shu onda
Taftga to'ldi yuragim.

Xipcha bellaring mayishgan,
Ketmasmikan-a uzilib.
Qancha yigitlar olisdan
Qaraydi senga suzilib.

Marvarid tishlar yarq etib,
Tabassum qilsang — Kundaysan.
Butun toqatni sarf etib,
Yurganlarimni bilmaysan.

Jibek qiz yurar dostonda
Bir ko‘rsam deb yurardim.
Seni ko‘rganda, shu onda
Taftga to‘ldi yuragim!..

EY TUQQAN YER

Ey tug‘gan yer, kindik qonim yuvgan yer,
Pocha turib, cho‘lda qangbaq[1] quvgan yer,
To‘ng‘ich mening tushovimni kesgan yer,
Toy-toy bosib umrda ilk bor turgan yer.

Chehrang, ko‘rking keyin ko‘rdim, gavharim,
Fazogirim, dehqon bobom, javharim.
Yarim dunyoday yoyilib yotgan ey olam,
Haqiqatim, mehrobimsan — altarim!

Quyosh — qirdan, Oltoy tog‘dan otadi,
Atrov borib, keng oydinga botadi.
O‘rishi[2] — keng, rizqi — mo‘l-ko‘l, mehribon,
O tug‘gan yer, baxtiyorlar Vatani!

Buyra-bo‘lg‘in, bo‘z gavdasin quvgan yer,
Shamolli tun, sayron-sayron tumandir.
Ko‘z tindirar ko‘lamingdan aylanay,
Qozog‘iston, Ajabiston — tug‘gan yer!

[1] **Qangbaq** — cho‘l-dalada uchib-dumalab yurgan xas-xashak, o‘tlar uyumi.

[2] **O‘rish** — mol-yilqilar o‘rlab, o‘tlab yuradigan yaylov, tog‘ning yonbag‘ri.

AVTOPORTRET

Bilmasang sen, bilib qo‘y: dalaman men,
Ko‘rganda keng dalani bolaman men.
Dalada ham ag‘nayman, ham o‘ynayman,
Kezlashib qolsam o‘sha bola kun bilan.

Chilla qoqlab kuydirgan go‘ldirman men,
Ichi qurib yotgan bir cho‘ldirman men,
Bir tomgan tomchi suvdan toriqqanday,
Qaynagan qora qumga tengdirman men.

O‘xshayman to‘lib yotgan ko‘lga ham men,
Shifoman dehqonga ham, cho‘ponga ham.
Jarni yeb, yoqalashib, izlab anhor,
O‘xshayman oq tilakka, armonga ham.

Boshi — qor, bag‘ri obod tog‘man, bilgin,
Zangg‘arman ne zamondan, zog‘man, bilgin.
Do‘st bo‘lsang, mehrimga sen loyiq bo‘lgin,
Ol, agar nokas bo‘lsang — yovman, bilgin.

TO‘QASH BERDIYOROV

(1925–1988)

Janubiy Qozog‘istonning Keles tumanida dunyoga kelgan. 1930–38-yillari Toshkentdagi bolalar uyida tarbiyalangan. 1942-yil 17-yoshida urushga otlanib, urushdan keyin Boltiq flotida suvosti kemasida xizmatni davom ettirgan. 1949-yilda xizmatdan bo‘shab, Olmaotada rassomlik bilim yurtida o‘qigan. Yoshlar gazetasida, “Qozoq adabiyoti” tahririyatlarida ishlagan. Yigirmadan ortiq kitoblari chop qilingan.

TONG

Yerdan balki chiqdima?
Yoki ko‘kdan tushdima –
Qo‘na qoldi to‘da nur
Cho‘qqilarning ustiga.

Lablarida kulgisi,
Etak, yengin turinib,
Cho‘qqilardan kun nuri,
Kelayotir yugurib.

Ungurlarga ungilib,
Tepalarga bir chiqib,
Kelayotir yugurib,
Hayotga olqish to‘qib!

TUG‘ILGAN YURT

Dalaning erkin o‘sgan shamoli bor,
Ko‘zga issiq to‘qay ham, har bir toshi.
Yoyilib yotgan anov sari(q) adirlar
Deysiz, go‘yo jayron otning qovurg‘asi.

Qo‘limga yerda yotgan toshni olganda,
Ko‘zimga elaslaydi bola kunim.
Shu toshni uloqtirib tashlaganda
Tosh bilan ketgan ekan bolaligim.
Maysalar yashirar izin yurginchining,
Suluv oy ko‘kda turgan oltin kosa.
Quvonaman qaydadir bir kuchuging
Olti qir naryog‘idan vovullasa.
Qoldi izlarim sening atrofingda,
Shu izlar umrim uchun eshkak ekan.
Bir dona bug‘doy kabi tuprog‘ingda
Taqdirim quloq tortib esgan ekan.
Zing‘illab chillaqo‘ng‘iz uchganida,
Sarobda yurgan kabi suzdik-ov bir.
Qayqanglab chiqqan kabi katta yo‘lga,
Etakda yotar edi bizning ovul!
Chirillagan chigirtka ohangiga
Chalg‘io‘roq shir-shiri ulashadi.
Oydin ko‘l porlab yorug‘ kun nurida,
Shivirlab qamish, qiyoq sirlashadi.
Shovullab bir to‘p o‘rdak ko‘lga kirdi,
Kunbotar o‘pishar nur, yorug‘ bilan.
Ifor isi anqigan g‘aramlarni
Sigirlar titib yurar tumshiq bilan.
Dalaning ne’matlari — oshu don, non!
Mavsumlarning saxiy-mardi kuz emasma?
Anovi yilqichining kiyiz uyi
Poh-poh, poh, tushirdi-ya qimizni esga!
Yashil bog‘lar o‘xshaydi ko‘rgazmaga,
Mol boylikdan mayishgan adir beli...
Tug‘ilgan yurt, kiraman o‘z gavdangga,
Mars tomon uloqtirsa ham taqdir meni!

TO‘RANG‘IL

To‘rang‘il makon qilib keng dalani,
Go‘zal qizday tebranib-irg‘aladi,
Beixtiyor qulog‘ing alanglatar
Shildirab qizg‘ish oltin sirg‘alari.
Diydori tongga tomon yolqinlanar,
Erka u erkin o‘sgan keng qumdagi.
Bujur-bujur boldirin silaydi kep
Suvsagan bo‘yra qumning to‘lqinlari.
Tubinda shildiragan bulog‘i yo‘q,
O‘zi bilan sirlashuvchi bir tog‘i yo‘q.
Betga tutib ko‘z doyulin, qish bo‘ronin,
O‘sgan u Sirdaryoning o‘rtog‘i bo‘p.
Yog‘och ham suvsiz yerda o‘sadima?
Yoz oyi maysasi yo‘q to‘shanuvga.
To‘rang‘ilning otasi — Sir suvima?
Yoki u — ko‘chgan elning kosovima?
To‘rang‘il shivirlaydi shul oradi:
“Urpog‘im, umr yukini mo‘l orqala!”
Shunday deb, yaproqlarin yoyib tashlab,
Tumorday taqib qo‘ydi u orqama.

QIMIZ

Bul qimiz — burqiragan sabadagi,[1]
Har qachon ko‘ngil ko‘yin topoladi.
Kun chiqdi ikki toshning orasidan,
Va-a, chirkin, qozoqlarning tova noni!
O‘ziyam pishgan ekan do‘ngalanib,
Bir emas, bu ne’matni o‘n bo‘laylik.
“Jin suving” vishillatmay qo‘ya tur-chi,
Avvalo chol qimizga yo‘l beraylik.

[1] **Saba** — qimiz solinadigan mesh.

Bu qimiz — husni, ko‘rki dalamizning,
Bu qimiz — yodgorligi bobomizning.
To‘stag‘anni[1] to‘ldirib quy-chi, jonim,
Mavj urib, bo‘yim balqib, endi qizdim.
Charchoqni, holsizlikni bilgizmagan,
Azaldan tanga davo qimiz degan.
Yoqalab kiyizuyni qimizxo‘rlar,
Bir emas, bul qimizni ming izlagan.
Sog‘inchlar ovul yoqqa chopqillasin,
Omon bo‘l, tug‘gan yurtni yot qilmasin.
Ko‘rindi keng yaylovda kiyizuylar...
Bundayda kim burmaydi otning boshin?!

[1] **To‘stag‘an** — idish, kosa (ruschadagi “stakan” so‘zi shu so‘zdan kelib chiqqan).

ZEYNULLA SHUKUROV

(1927–1979)

Zeynulla Shukurov Qizilo'rda viloyatining Orol tumanida tug'ilgan. 1955-yili "Mening do'stlarim" nomli birinchi she'riy to'plami chop etilgan.

Uning "Dengiz qo'shig'i", "Orol daftari", "Olov" nomli kitoblari, "Bog'langan taqdirlar" povesti, "Qiyin tugun" romanlari bor. P'esalari viloyat teatrlarida sahnalashtirilgan.

1977-yili "Yozuvchi" nashriyoti shoirning bir tomlik she'rlar to'plamini chop ettirdi.

OROL

Tomirim bitta Orol-la,
Dengizdan orom olaman.
Oq fe'lli ona misoli
Oldimda yotar dalam ham.

Sirlashib ipak shamol-la,
Yelpinsa yurak yangidan,
Dengizday to'lqib qolaman,
Qalbim kuch olar dengizdan.

Tortibman, dengiz, senga men,
Dovuling bersa menga dam,
O'zimning yumshoq ko'nglimday,
Sohillar yoymish ko'k gilam.

Orol, osmoning qalay keng!
Nega xo'rsinib olay dam?

Bir bolangman, onam — sen,
Yurakda doim shul maqsad:
O‘zingdan olib zo‘r quvvat,
Bir yulduz bo‘lib yonay men,
Yoningda doim bo‘lay men!

SOG‘INISH

Derazadan termulib oy qarasa,
Kumush shu’la yuzingni siypalasa –
Shu sog‘ingan men deb bil,
Vaqt o‘tdi,
Vaqt o‘tdi, azizim, oydan osha.

Shitirlasa bemahal yashil terak,
Uyg‘otvorsa, uyqung ham bo‘lak-bo‘lak, –
Bu ham mening bezovta jonim chiqar,
Bir ko‘rmoqqa shoshilar oshiq yurak.

Agar senga tun sirli kuylar chalsa,
Notinch yurak gupillab uyqung bo‘lsa,
Men ham hozir to‘shakdan turmoqchiman,
O‘yla meni, erka qiz, uyqung qochsa...

SHIFOKORGA

Mehribon chehra... Kimsan, kim?
Muncha yoqimli ovozing?
Hayajon bosdi yuragim,
Kelganday shamol nafasi.

O‘tdi-ya yillar... yigirma uch...
To‘shakda yotgan jon edim.
To‘larmi yana tanga kuch?
Bilmadim. Bormi bir eming?

Ko‘rdim bir quvvat ko‘zingda,
O‘qidim yillar izlarin.
Jilmaydi iliq sezimda,
Mehrga to‘lgan ko‘zlaring.

Yetar! Yil o‘tdi... yigirma uch,
Dori ichaymi men tag‘in?
Bag‘ishladi-ku tanga kuch
Siypalab o‘tgan barmog‘ing.

Bo‘lg‘ay deb ezgu yaxshilik,
Yurakda ishonch bor — bor damim.
Yarq etib yondi umidlar,
Bosaymi olg‘a qadamim?!

* * *

Ko‘zlaringga to‘lib yosh,
Xo‘rsinding hayron,
qarindosh.
Gul ochmayotib yosh chog‘ing,
Charchatdi kasal, botdi mung.
Armoning go‘zal ko‘klamda,
Bir sho‘ng‘ish edi ko‘k ko‘lga.
Yozda ham botsang shu mungga...
Qiyin-ov, odam chidar-a?
Netarsan, erkam, mung‘ayma!
Og‘angga qara bu yotgan,
Ko‘tarib dardni ming botmon,
Qarayman biroq men oldga,
Armonim oldda, tek oldda.
Oldda bir kun yozilar,
Oldda bir umr yozi bor:
Quchoqqa shu yoz meni olar,
Gavdamga quvvat o‘ralar.

Dard degan bo‘lmas u kezda,
Yerning yuzidan yo‘qolar!..
Qarayman kulib men oldga,
Armonlar oldda, tek oldda!

* * *

Nega shunda duch keldim senga, jonim!
Nega angladim qara ko‘z qadalganin?
Ketar paytda, amal ne, bir o‘zingni
Ko‘p do‘stlarning ichidan topolmadim.
Topolmadim, atrofga alangladim,
Nega, jonim, kuzatib qo‘yolmading?!

Ketaverdim jovdirab, ko‘zimda mung,
Derazadan ko‘zimni ololmadim.
Qalay men ham qolmadim birga shunda,
Soyang bo‘lib ne uchun yaralmadim?
Ko‘rolmadim, ortimga alangladim,
Nega, erkam, kuzatib qo‘yolmading?

Ko‘p izladim, ko‘p kutdim, ko‘rolmadim,
Ketaverdi ko‘ngilda ko‘p armonim.
Qimmatlim bo‘p, meni izlab kelolmading,
Qiymasim bo‘p quchoqqa ololmadim.
Qiyolmadim, qiymadim, alangladim,
Nega, shu’lam, kuzatib qo‘yolmading?

Nega senga duch keldim, yana jonim,
Nega angladim qora ko‘z qadalganin?
Ko‘z oldimda oq yuzing, go‘zal chehrang,
Qoldi ortda sen bilan bir armonim.
Ketayapman jovdirab, ko‘zimda mung,
Nega jonim, kuzatib qo‘yolmading?!

UYQUSIZLIK

Bo‘larmi yilday uzoq tun ham buncha.
Tun kimga — qosh qoqqanday,
kimga — yilcha.
Yotibman ko‘zim yumuq, ko‘ngil uyg‘oq,
Mungli kuy allalaydi meni shuncha.

Gunohdan joning bir dam tozarganday,
Men shunda rohat topdim ozorlanmay.
Tebratar endi meni lazzatli kuy,
Mung solgan uyqusiz tun mazam olmay.

Topishib kelmay ketgan jon yorim-la,
Ming quchdim, siypaladim, tolmadim men.
Ayt menga, nega buncha zoriqtirding,
Sog‘ingan talay yilgi armonim sen.

Shu issiq lazzat kuyi toldirarma,
Kutadir qorong‘usi tongning oldda.
Endi tek totli-totli tush ko‘rasan,
Tong ota to‘lib borib qalg‘iganda...

* * *

Ichim yonib boryapti, ichim yonib,
Ishim qolib ketyapti, ishim qolib.
Oq qog‘ozning ustida men to‘lg‘anib,
Necha quchdim qalamni huzurlanib!

Kechir, do‘stim, holim yo‘q qayrilishga,
Qayrilishga, hattoki bo‘yin burishga.
Tatimaydi dunyoning bor qizig‘i,
Hozir bir dam qalamdan ayrilishga.

Ay-hay, ko‘ngil! Ko‘kka uchding,
yor ham quchding,
Tun o‘rtasi sen uchun — tolma tush kun.
O‘z qizig‘im o‘zimda, o‘z tumanim,
Sharob emas, kelmoqda sharbat ichgim.

To‘yganiga yayraydi bu o‘ngash ham,
Qurisin umr! Yo‘q, buni tilamasman.
Ichmay-yemay mast bo‘ldim har o‘tgan dam,
O‘zi qanday lahza bu — mastman, mastman!

Ketdi-yov deyman gavdamni zavqim yorib,
Mahkam quchdim qalamni huzurlanib.
Burchlarim ko‘p, keng dunyoga bermoqchiman,
Shuni o‘ylasam ketadi ichim yonib!..

G‘AFU QAYIRBEKOV

(1928–1994)

1928-yil 15 avgustda hozirgi To‘rg‘ay viloyatining To‘rg‘ay shahrida dunyoga kelgan. 1952-yilda Abay nomidagi Qozog‘iston Davlat pedagogika institutini bitirgan. Ilk she’ri 1948-yilda To‘rg‘ay tuman gazetasida bosilgan.

Birinchi she’riy to‘plami “Tengdosh” 1954-yilda nashr qilingan. 1980-yilda “Yulduzli taqdirlar” poemasi uchun Qozog‘iston Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Uning “Baliqchi Ivan” (1955), “Dala qo‘ng‘irog‘i” (1956), “Tog‘lar gapiradi” (1960), “Quyosh o‘g‘li” (1964), “Qanotli yillar” (1973) kabi she’riy to‘plamlari chop etilgan.

TOSHKENT QUCHOG‘IDA

Shahri Toshkent tepasidan tikilsang,
Huv balanddan ko‘rolmaysan uying san.
Oq yoziqning o‘rtasida kerilib,
Shekilli bir yotgan odam kiyimchan.

Ko‘k choponning chala ochib o‘ngirin,
Quchoq yoyib, ko‘zga to‘sib ko‘ngilin,
O‘zbek akang o‘zi yotganday go‘yo,
Ko‘p mehmonning ko‘pdan kutib tashrifin.

Aerodrom. Ohaktosh yo‘l. Sirpanib,
To‘xtaganda temirqushing beri qarab,
Boyagi odam tura kelib, oldingdan,
Kulimsirab kutib olar bir ajoyib.

To‘rt burchagin kerib yoyib tashlagan
Dasturxonda xosiyatli osh-taom.

Oldidagi oq to‘qashdan1 uzib yer
Saken, bizni uchrashuvga boshlagan.

G‘afur G‘ulom turgan paytda suyushib,
Tepamizda osmon balqib, kun isib.
Ko‘nglimizda zo‘r tuyg‘ular uyg‘ondi,
Rohat ekan bunday Do‘stlik — Tuistiq!

Farog‘at bu! — Ikki yonda el turdi,
Keksa Toshkent vujudi bir yelpindi.
Keng ko‘chalar biri bosib, biri o‘zib,
Bizni olisga olib qochmoqda endi.

Shahri Toshkent — ne go‘zal uy bor qal’a,
Cho‘ziladi oldga, ortga. Xush havo.
Hamid G‘ulom kulib qarab qo‘yadi
Ikki so‘zning biri — “marhabo-yu, marhabo!”

Shahar katta, yeta olsin tezlab kim?
Jilmayadi qoq tepadan ko‘zlab kun.
Biz kelamiz Toshkent ko‘chalaridan,
Biz kelamiz quchog‘ida O‘zbekning...

JANGDA O‘QQA UCHGAN SHOIR DO‘STIMGA

Sen ikki yo‘l,
Men ikki yo‘l
Yozar edik o‘lanni.
Yuraklar ham bitta derdik...
Xayrlashamiz kel endi. -

Deganimda, yoydi quchoq,
Ma’qullab so‘z deganday.
Quchoqlashib turdik unsiz
Xuddi bir band o‘landay.

[1] **To‘qash** — uzum turi.

YOZGAN SHE'RIM

Yozgan she'rim — yolg'iz dalam, o'zga emas.
Qrimda ham, Xivada ham shu havas.
Elimni men erkinlikday sog'inib,
O'z-o'zim-la qurdim faqat so'z-kengash.

Elim mening, sensiz menda hol qanday,
Tashvishim ortar — asl hislarim yolg'onday.
Olisdan bir ona ovozin eshitib
Turgandayman bolam yig'lab qolganday.

Erimaydi tosh gavdamda she'r qotib,
Oltinlanaman seni ko'rib, bir balqib.
Xayr, ko'ngilga xayri tekkanlar, xayr, Qrim,
Qaytamiz elga, qamchingni ushla, yur, Baxt!

O'ROQ

Sopi qayindan, qora-ko'k
Po'latdan suqqan-ku derdim.
Mening mo'min otamning
Bir quroli shu erdi.

Chillaning kuni tug'gandan,
Chalg'inlar balqib pishganda,
O'h-ho', o'roqqa til bitib,
Tushardi, ana, pichanga.

G'ayratli otam bir jo'shqin,
Sermaydi o'roq izma-iz.
Sermagan sayin bir to'lqin,
Yig'ilib bo'lar bir dengiz.

Ching'illagan ovozlar
Dunyoni bosib ketardi.

Ucholmay qolgan kapalak
Qanotin qiyib o‘tardi.

Ja-a ishchan edi shu o‘roq,
O‘ynatgan otam, o, qanday!
Yil sayin ko‘klab son alaf,
Sog‘inib kutib turganday.

G‘ayrat izlasam o‘zimdan,
Oldimda turar so‘z, so‘roq.
Ketmaydi mening ko‘zimdan,
Yarqillayotgan bir o‘roq...

ERKESH IBROHIM

(1930–1986)

Erkesh Ibrohim 1930-yili Aqmola viloyatida dunyoga kelgan. Qozoq davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. Uning "Qaldirg'och", "Ko'kcha suratlari", "Umr o'lmaydi" she'riy to'plamlari chop etilgan.

QO'L CHANA

Ayozli bir qishning suluv kechinda,
So'nggi uchgan sirpanchog'im esimda.
Ovul chetida baland tepa bor edi,
Yurdim o'ynab o'sha tepaning to'shinda.

Ko'z oldimda: quyundayin kelganman,
Ko'nglim toshib, rohatlanib kulganman.
Asov toyday, to'satdan chanam qiyshayib,
To'rt-besh ag'nab ketdim shu payt, bilaman.

Shundan beri men sirpanchiq tepmadim,
Chanamni ham haydab-uchib o'tmadim.
Boldan totli bolalikning bozori,
Bilmay qoldim shu chanada ketganin.

Do'st edik-ku baland tepa, soy, dala,
Shundan beri o'tdi yillar qanchama?
Yaltoqlayman yigitlikning yo'linda,
Yana tashlab ketarday bir qo'lchana.

QIZG‘ALDOQ

Biram tiniq, biram pok,
Yuragimda bol buloq.
Ko‘z oldimda qulfurar
Yashnab turar qizg‘aldoq.

Ko‘kragimga bosayin,
Bir cho‘g‘ingni men shu chog‘.
Beldan, tog‘dan oshayin,
Shunchalar zo‘r ishtiyoq!

Bo‘yimni ko‘r, yosh jonman
Kel, ko‘taray, qizg‘aldoq!
Bir yulduzni osmondan
Olib beray, qizg‘aldoq.

Bolbuloqdan bol archib
Opkelayin, qizg‘aldoq!
Kunda tong bilan talashib,
Erkalayin, qizg‘aldoq!

Derazamning oldiga
Gul ekayin, qizg‘aldoq!
Kunda yashil maysaga
Belanayin, qizg‘aldoq!

MUQAG'ALI MAQATOYEV

(1931–1976)

Olmaota viloyati Norinko'l tumanidagi "Qorasoz" manzilida tavallud topgan.

M.Maqatoyev qisqa ijodiy faoliyati davrida qozoq she'riyatida inqilob qilgan novator shoir sanaladi.

U badiiy tarjima sohasida ham katta ishlar qildi. Jumladan, Dantening "Ilohiy komediya"sini, V. Shekspirning sonetlarini, Uolt Uitmenning she'rlarini qozoq tiliga tarjima qilgan.

Uning "Hormang, do'stlarim"(1966), "Qaldirg'ochim, keldingmi?" (1968), "Mavr" (1969), "Vodarig', yurak"(1972), "Oq qushlar uxlaganda" (1974), "Shu'lam mening"(1975), "Umr dostoni" (1976), "Umr o'zani" (1978), "Basira"(1981), "Yurak zarblari" (1982), "Cho'lpon" (1984) kabi she'riy to'plamlari chop etilgan.

DASTURXON USTIDA

(O'zbek yigitiga)

Tegrangda turfa ne'mat hamda qimiz.
O'yda — she'r, ko'ngilda — kuy,
jonda — tamiz.
Jannatning durkun fayzi shu zaminda,
O, do'stim, ko'p go'zal-a Olmaotamiz?

Ayniqsa ajib bunda manzaralar,
Olatov bag'ridan bir sas taralar.
Ohuday bir-birining izin quvib,
Otilar qoyalardan sharsharalar.

Yurakda shahrimga bor chin sadoqat,
Havo ham havo emas — istirohat.

Tomoshaga kelgin bir,
O‘zbek do‘stim,
Soyalarda o‘ynab-kul, ayla rohat.

Qimiz ich, qazidan ol, tortinmagin,
Toqqa chiq, daryoga tush, salqinlagin.
O‘zingning xalqing kabi bag‘ri ochiq,
Unutma, qozoq degan xalqning borin.

Esingga solib qo‘yay men yana bir,
Albatta, Olmaotaning bog‘iga kir.
Kiyikday sho‘x va ma’sum qizlarimiz
Joniga joning bilan o‘t yoqa bil.

Tegrangda turfa ne’mat hamda qimiz,
O‘yda-she’r, ko‘ngilda-kuy, jonda-tamiz.
Toshkentdek cho‘ng shahardan tashrif etgan,
O, do‘stim, ko‘p go‘zal-a Olmaotamiz?!

XAYR, OQQUVLAR!

Ko‘lni tashlab ketib borar oqquv-g‘ozlar,
Xayr endi, yaxshi boring, suluv nozlar!
Yuragimda mahzun-mungli doston qoldi,
Oqqordayin qanoti-la oqquv yozgan.

Oqquvlar sizga boqib dilda dog‘lar,
Termular ortingizdan hazin tog‘lar.
Adashib siz-la birga ketdi balkim,
Bokira tuyg‘ularim, ma’sum chog‘lar!

Havoni qanotingiz tebratgan on,
Tuyg‘ular og‘ushida titraydir jon.
Ufqqa singarkansiz, ko‘nglim oqib –
Ko‘zimni tikib qoldim men nigoron.

Oq ko‘lni oydin mavjlar chulg‘ab oldi,
Sizlardan dalam ko‘zi qiymay, toldi.
Nega men yaralmadim oqquv bo‘lib,
Odam bo‘p o‘z-o‘zimga sig‘may qoldim.

Oqquvlar, armonlarim dilda bisyor,
Uchmoqqa mening na bir qanotim bor!
Qirlarim unsiz o‘krab qoldi mening,
Ko‘llarim yetimdayin qoldi zor-zor!

EY, O‘LAN!

Ey o‘lan, menga tekkan enchim eding,
Yuksalayin, qonimga kel-chi mening.
Mening senda azaldan ko‘nglim bordir,
Sen ham meni xush ko‘rib, ko‘nglim, deding.

Qoshimga kel, qalbimni uqqin — tushun,
Tez kela qol, bobom Abay ruhi uchun.
Behishtdagi uyangni qo‘yib turgin,
Sen umrimga keraksan, ardoq qushim.

Ey o‘lan, jon berayin senga qandoq,
Jonsiz o‘lan jonimni so‘rar har choq.
Bir o‘yim — yuragimda qazo topib,
Bir o‘yim — bo‘g‘izimda turibdi naq.
Ey o‘lan, jon berayin senga qandoq?

UMR O‘ZI NE DESAM

Umr o‘zi ne desam,
Umr uchqur tulpor, ha.
Cho‘chib ketding nega sen?
Ko‘ygil, jonim, cho‘chima.

O‘z-o‘zingni ayamay,
Umr degan — chin yonmoq.
Bir narsaga xumorday.
Bir narsadan jirkanmoq.

Birovlarni aldash — u,
Birovlarni aldamoq.
Kimdadir ko‘rsang qayg‘u,
Qo‘ldan kelsa qo‘llamoq.

Dil to‘la hasrat va g‘am,
O, do‘stim, bersin to‘zim!
Umr o‘zi ne desam,
O‘zim ekan, ha, o‘zim...

KUYLA, JONIM

Qarshi olmagan
Qarshi olmasin hech qachon.
Sen kuylab ber,
Kuying ila baxsh aylagin jon!
Yangrog‘ing yetsin yashil tog‘larga,
Aks sado bersin unga qirlar qadrdon.

Kuyla, jonim, bobong qo‘shig‘in kuyla.
“Ko‘kjendet” taralsin ufqlar bo‘ylab.
Ajib ertaklarning dunyosi sari
Yetaklasin meni tuyg‘ular, o‘ylar.

Kuyla, jonim,
Dardlarni ko‘krakdagi!
Tinsin bir zum hayot yer-ko‘kdagi!
Qir tinglasin,
Aks sado taratsin tog‘lar,
Mangulik qo‘ynida — yo‘rgakdagi.

KAKIMBEK SALIQOV

(1932–2013)

Ko'kchatov viloyatidagi Volodar tumanida dunyoga kelgan. 1953-yili Moskvadagi Rangli metallar institutini bitirgan. Bolalikdan she'rlar mashq qila boshlagan. 60-yillardan buyon matbuotda asarlari chop etiladi.

Uning "Sir" (1970), "Jez kiyik" (1973), "Nurli ayyom"(1976), "Shudringli kunlar"(1981), "Tafakkur siri"(1980), "Chin yurakdan"(1981) nomli she'riy majmualari nashr etilgan.

Shoir hukumatning bir qator orden va nishonlari bilan taqdirlangan.

DILIM TITRAB KETAR...

Ko'nglimga yaqindir kuzak damlari,
Uning bag'ri to'la shukuh va ash'or,
Unda mujassamdir tarovat bari,
Unda saxovatning nashidasi bor.

Havolari sarin — toliqmas yurak.
O'tgan kunlarimga yasayman yakun.
Uchib kelayotgan qushlarga qarab,
Qo'shiqlarim ato etaman mamnun.

Kuzning ruxsoriga axtarib tashbeh,
Satrlar bitaman serjilva, teran.
Uzilgan barglarga ko'zim tushsa lek,
Dilim titrab ketar bexosdan, birdan...

KO‘PRIKLAR

Ayriliq. G‘ussalar. Tashvish-g‘am.
Va lekin toabad,
Muqarrar
Yo‘llar bog‘langandir ko‘priklar bilan,
Ko‘prik-la bog‘liqdir yuraklar.

Ko‘priklar qurdik biz ko‘rkam, muhtasham,
Tutashtirib ne-ne sohil-sarhadni.
Bizlar mamlakatlar aro mustahkam
Ishonch ko‘priklarin o‘rnatdik.

Yil sayin ko‘rk ochib borar ona yer,
Naslimiz loyiqdir hamd-u sanoga.
Ularning tolei butun, naqd bo‘lur,
Ko‘prik qurajaklar ular samoga.

Ufqlarda otash lovillab u kez,
Ko‘rgan-bilganimiz bo‘lganda kulfat.
Portlatib ketgandik ko‘priklarni biz,
Lekin ular tag‘in tikladilar qad.

Kunduzlar qorayib,
Kechalar milt-milt
Chorlaydilar ular do‘stdek vafodor.
Faqat yuraklarning orasidagi
Ko‘priklarni qayta tiklamoq dushvor.

* * *

Bahor epkinlari esdilar erta,
Lekin erimasdan yaltirar muzlar.
Ajabsinib boqar qayinlar menga,
Ajabsinganidek ovulda qizlar...

"Uylandi! Yor topdi olis shahardan!" —
Uni ta'na bilan etarlar mulzam.
Mening ko'nglim o'sar bu gap-so'zlardan,
Ajab, eslarkan u meni hali ham.

* * *

O'z bahorim etgay sarafroz,
Har yon yo'lim burmasman hargiz.
Boshlansa-da umrimizda yoz,
Endigina qirqdan oshdik biz.

O'tar ekan yillar qo'ynidan,
Yuz tutmaymiz biz yo'qlik sari,
Zero bu kun ona bo'lishgan
Senga sinfdosh qizlarning bari.

O'zgalarning bahoriga men
Soya solmam, o'zni tutib yosh.
Men har qachon o'z avlodimning
Taqdiriga qolgum taqdirdosh.

OQ TURNALAR

O'xshab bamisoli sadaf marjonga,
Jimirlab ko'rinar ko'kda turnalar,
Ular singib borar moviy osmonga,
Ular olislarga yo'l olar.

Balki u ko'ringan turnalar emas,
Eshilgan arqog'dir nilufarlardan?
Balki ular ovul qizlari — qushmas,
Oqarib, olislab borarlar bu dam?

Xayrlashar ular dasht bilan g‘amgin,
Garchi o‘zlarini tutarlar quvnoq.
Ularning sha’n, yorqin parvozini jim
Kuzatar bezovta yuragim shu choq.

* * *

Kuyiday qaytgan qushlarning
Munglimi mening bu kuyim,
Yuragim tuyub xumorlik
O‘ylanib goh-goh... qolgum jim.

To‘kilsa yangroq kuy bilan
Til bitib, so‘ylab hislaring.
Ko‘z oldimga mening ushbu dam
Kelar bolalik kezlarim.

Bildirar goho sha’n tovush
Armonli, mungli tilakni.
Oppoq qanotin qoqdi qush
Uyg‘otib o‘ychan yurakni.

Muhabbat, umid, hayajon
To‘kilsa uyg‘un, topishib,
Ojizlik, kurash va isyon
Jonimda kezgay olishib.

Malomat, hasrat va o‘kinch
O‘zini chetga olmasin.
Oqqushim, uchsang baland uch,
Armoning ichda qolmasin.

Do‘mbiram, yangra bezavol,
Ikkovimiz olis ketarmiz.
Bir kuni horib, ehtimol
Manzilimizga yetarmiz.

SAG‘I JIYANBOYEV

(1934–1994)

Sagi Jiyanboyev 1934-yil 15-mayda hozirgi Qozog‘istonning Oqtepa viloyati, Aymaut ovulida tug‘ilgan.

Uning “Qaldirg‘och” (1959), “Dala guli” (1961), “Dengiz siri” (1963), “Tong oldida” (1964) she’riy to‘plamlari, “Mening qo‘shnim” poemasi (1965), “Xayrli tong” (1966), “Oq to‘lqin”(1967), “Oltin qalam” (1971), “Yodimdasan yosh kunim” (1972) she’riy to‘plamlari, “Aliya” lirik poemasi (1973), “Oymaut” qo‘shiq-dostoni (1976), “Quralay salqini” (1979), “Bo‘zto‘rg‘ay” (1980) she’riy to‘plamlari, “Yorug‘ yulduzlar” (1983) va “Non bilan tuz” (1984) she’rlari bilan poemalari kitob bo‘lib chiqqan.

BULUTLAR

Bulutlar asta borar baland uchib,
Yuzidan yaproqlarning suyib-quchib.
To‘lqinlar pastga qarab yumalaydi,
Chiqolmay o‘zanidan kuyib-pishib.

Bir payt shamol turar, nishabga yesib,
Quvadi bulutlarni, yo‘lin kesib.
Qoyaning quchog‘iga kirar bulut –
“Baribir men tog‘imdan ketmayman!” —
deb.

* * *

Shirin uyqu quchog‘ida keng dala,
Bu atrofda uxlamagan mengina.
Ko‘z yumug‘lik, ko‘nglim bo‘lsa el yoqda,
Chirog‘im mening, bor ko‘nglim sen yoqda.

O‘tiribman jir yo‘liga qadalib,
Osmon osti kelayotir oqarib,
Ko‘zim jirda, ko‘nglim bo‘lsa el yoqda,
Chirog‘im mening,
bor ko‘nglim sen yoqda.

BUVI BILAN NEVARA

Ikkovining hech ajramas orasi,
Ikkoviga bitta o‘rin yetadi,
Ikkovi ham bitta yo‘ldan qaytishib,
Ikkovi ham bitta yo‘ldan ketadi.

Ikkovining borar yeri — bir ko‘cha,
Qayda borsin, boshqa yerni bilmasa,
Turolmaydi — ikkovi bir turmasa,
Yurolmaydi — ikkovi bir yurmasa.

Bexosdan qoqilishib ketmayik deb,
Yurar doim birin-biri yetaklab.
O‘zgalardan so‘ramaydi ko‘mak ham,
O‘z kuchimiz o‘zimizga yetar deb.

Surinishni o‘ylamaydi bolajon,
Chunki, uning yonida buvisi bor.
Buvisi unga yiqilmas Olatog‘,
Buvisining unday zo‘r cho‘qqisi bor...

QIRMIZI KO‘KLAM

Keng dala qayta yoshargan,
Moviy osmon ham, yer ham — gul.
O‘zgarmay yotgan qachondan
Tog‘lar ham hozir yep-yengil.

Kapalaklar uchib uyidan,
Gulga qo‘nib olar hordiq.
Ko‘kargan tolning bo‘yidan,
Ko‘zlarin ochar ming kurtak.

Ko‘paydi ming qush samoda,
Ko‘kardi yana bir chiviq.
Tinimsiz yorqin hayotga
Talpinadi tirikchilik.

Ko‘klamday nozik his bilan,
Ko‘ksimni kuyga chulg‘aydi.
Shu qora yerning o‘zin ham,
Qattiqroq bosging kelmaydi.

ASQAR O‘RAZAQIN

(1935–2019)

Sharqiy Turkiston o‘lkasining Ili muzofotiga qarashli Mukey-Qoratosh qishlog‘ida tug‘ilgan.

Dastlab Sari-buloq maktabida ta’lim olib, G‘ulja shahridagi gimnaziyada o‘qigan.

Ish faoliyatini “Shinjon ro‘znomasi”da boshlagan. Ilk she’rlari “Shu’la” jurnali sahifalarida e’lon qilingan.

1955-yilda ota yurti Qozog‘istonga kelib, Davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olgan.

Keyingi ish faoliyati Ch.Valixonov nomidagi Tarix, etnografiya va arxeologiya institutida, Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasida, Respublika Kitob palatasida, “Jalsh” jurnalida turli lavozimlarda davom etgan.

Uning ko‘plab kitoblari, “Tanlangan asarlar”i, “Saylanma”lari chop qilingan.

O‘LAN

O‘lan desa jon bormi alanglamas,
Uni tinglab uyg‘onar qalbimda sas.
O‘lan yuksak qoyada bitgan guldir,
O‘zing chiqib termasang, to‘manlamas[1].

So‘z san’atin kamoli cheksizdir, bil,
Har o‘landa tovlanib, ko‘rk topar til.
Taftsiz, sayoz so‘z uchun titramas hech
Pushkin, Abay she’riga o‘rgangan dil.

[1] **To‘manlamas** — pastga tushmaydi ma’nosida

Maqom topib har yo‘lda cho‘ng ma’nidan,
Tug‘ilar zo‘r o‘lan el armonidan.
Unday she’rning qog‘ozi qalbday oqdir,
Uning o‘chmas siyohi yer qonidan.

Bo‘lay desang o‘landa mag‘rur, g‘olib,
O‘ltirmagin arzimas g‘amdan nolib.
Titrab tursin satringda har bir tuyg‘u,
O‘tli qalbning taqdirin esga solib.

Bo‘lsin o‘lan oqinga bolasiday,
Yashnab tursin qirlarning lolasiday.
Anglaganga har bir she’r titroq bersin -
Ishq deb oqqan ko‘zingning jolasiday.

Ilhom gohi yurakka zo‘r o‘t solar,
Istiqboldan jo‘sh urib goh til tolar.
O‘shanda ko‘r — o‘lanning yuksak zabtin,
Nima bo‘pti Asqar tog‘ — pastda qolar!

URUSH VA TINCHLIK

Urush — nayza o‘ylab topdi ilk bor, albat,
Va qoshiga to‘playverdi xatar qat-qat.
Tinchlik — qalqon yasab oldi himoyaga,
To‘xtamasin deya yerda shodon mehnat.

Urush — nayza o‘qtaldi, so‘ng tortdi kamon,
Tinchlik esa — sovut kiyib, qoldi omon.
Urush chiqdi — zambaraklar, tanklar yasab,
Tinchlik — omoch qildi, barin aylab gumdon.

Urush — atom bombam bor, deb suron soldi
Va qilmishi tarixda dog‘ bo‘lib qoldi.
Tinchlik — atom bilan yordi muz bag‘rini,
U zulmatni nuri bilan yengib oldi.

— Uy egasin mahv etib, uyin olgum, –
Deydi Urush, — kiyimin ham kiyib olgum.
Tinchlik deydi: — Bu qilganing qaroqchilik,
Jahon ahli bilan seni tiyib olgum!

TA'TIL PAYTIDAGI MAKTAB

Men ta'til paytida maktab bordim,
Axir, bunda sho'x suron taralardi.
Sukunatli va jimjit yo'laklardan
Kulgisini izladim bolalarning.

Tanaffusga xuddi vaqt jindek borday,
Halizamon qo'ng'iroq chalinarday –
O'quvchilar o'tsin-chun sirtlab yurdim,
Toki bexos birovin turtib olmay.

Birdan barcha eshikni lang-lang ochib
Hamma bola chiqarday tepalashib.
Bir shumtaka daf'atan ko'ringaydek,
Qiz quvar-u oldda u borar qochib.

Keyin bir payt sinfga kirdim o'zim.
Bo'shligiga ishonsin deya ko'zim.
Nigohimni top-toza taxta tortdi,
Go'yo qo'msar yozuvga to'la kezin.

Bir saf bo'lib tizilgan parta — o'ng-so'l,
Alanglayman xarita tomon biryo'l.
Qaydadir deb yelvagay shovvozlarim,
Etagimdan tortadi sirlangan pol.

Derazadan qarayman xomush, so'lib,
Ular balki yugurar maydon to'lib?

Kirarmi yo yelikib bir o‘quvchi,
Devordagi kemshikka — g‘ishtdek bo‘lib.

O‘quvchi tut quloq gap sirasiga,
Maktabingning oshiqsan nimasiga?
Dengizchisi har yoqqa suzib ketgan,
O‘xshab turar u bilim kemasiga.

QODIR MIRZA ALI

(1935–2011)

O'rol viloyatining Jimpiti shaharchasida tug'ilgan. Qozog'iston Davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. Uning ilk asarlari 1954-yilda e'lon qilingan.

1966-yili unga "Xayol armoni" to'plami uchun Qozog'iston Yoshlar mukofoti berildi. 1980-yili "Jeruyiq" she'rlar kitobi uchun Davlat mukofoti sovrindori bo'ldi. "Qozog'iston xalq shoiri" unvoniga sazovor bo'lgan.

Uning "Ko'klam"(1959), "Jangalaklar"(1960), "Kichkina afandilar"(1963), "Dala diydori"(1966), "Kumush qo'ng'iroq" (1970), "Jeruyiq" (1976), "So'z sehri"(1982), "Eh, kunlar..." (1984) singari bir qator she'riy majmualari chop etilgan, shuningdek, o'nga yaqin kitoblari rus tilida e'lon qilingan.

* * *

Nima bor xayolday zo'r, o'yday asl?
O'lan uchun topilar har qaydan sir.
Manov asr, azizim, payqaysanmi, –
Olov asr,
O't asr,
Maydon asr!

Nusxa olib otamiz Oktyabrdan,
Nomus uchun kurashib o'tdi umrdan,
Men ham shunday sarbozman shu asrda,
Shinelining etagin o't kemirgan.

Tushovimni qilich bilan kesibmidi?
Biz uchun elim yomon so'z eshitmadi.
Chirillagan haq so'zni o't ichidan
Opchiqaman go'dakday beshikdagi.

Emasmiz biz oqbilak, yuvosh bir xalq,
Mardlikka ega bo‘ldik mashq qilib.
O‘limga ham tayyormiz o‘t ichida
O‘tda yondik uy tomi bosib qolib.

Bobolar ham mard edi, o‘jar edi,
Dushmanlarga bizning ham so‘z o‘tadi!
Haq so‘z uchun qip-qizil o‘tga tushay,
Haq so‘z uchun kuyganga ne yetadi?!

* * *

Chorak asr tarqamaydi mastligi,
Bu dunyoning ajoyibi yoshliging,
Yugan-quruq soldirmasa — shu yomon.

Ota-onangga tumor bo‘lgan bir xislat,
Bu dunyoning ajoyibi — muhabbat,
Ko‘ngil cho‘lin qondirmasa — shu yomon.

Osha bilsang, osha-osha olti qir,
Bu dunyoning ajoyibi — tog‘lardir,
Biroq toqqa chiqolmasang — shu yomon.

Boshqa holni sezmasang ham, shuni sez:
Bu dunyoning ajoyibi — ulug‘ so‘z,
Ulug‘ so‘zni uqolmasang — shu yomon.

Horib-charchab azob chekib yetdi avlod,
Bu dunyoning ajoyibi — baxt-davlat,
Gavdangda non pishadi unga — shu yomon.

Isitadi muz yurakni issiqsiz,
Bu dunyoning ajoyibi — suluv qiz,
Ko‘zning qurti tushadi unga — shu yomon.

HURMAT-IZZAT

Er baxtli-ku bahosin bersa elim!
Eh, ko‘p ekan ko‘rgandan ko‘rmaganim.
— Qodir aka! Qaqa! — deb endi hozir
O‘tirg‘izib qo‘yarlar to‘rga meni.

Vaqt chirkin o‘tadi, o‘zgaradi,
O‘zgarganin kun sayin ko‘z ko‘radi.
“Shu davraning ulkani o‘zingiz!” — deb,
Yana menga birinchi so‘z beradi.

Siy[1]-hurmatga jo‘marddir dala bizning,
Undan qolar joyi yo‘q qal’amizning.
Izma-izga ko‘tarar inichaklar
“Omonligi uchun, deb, og‘amizning!..”

El yetmaydi, chirkin-ay, elga bizning,
Shu davrada o‘sadi baho bizning.
Shundan keyin ichilar ikki-uch bor:
“Buning bari sababi — yangamizning...”

Aytolmaysan bularga qorin dodin,
Chirqiraydi tomirdagi iste’doding,
Biridan so‘ng biri shunda o‘qiy boshlar,
Bir payt o‘zing yozgan she’rni.
Ur faryoding!

Dasturxon ham dog‘ bo‘lar ko‘z yosh o‘tib,
Uchib ketayozasan qanot bitib.
Oyog‘ingni tekkizmay qora yerga,
Ketar chog‘ing turadi ulov kutib...

Kulib turar mehrli qo‘y ko‘zlari,
Qarzdor qilib qo‘yadi seni o‘zlari.
“Bu hurmatni men qandoq oqlayman?” — deb,
Kiprik ilmay chiqaman qay kezlari.

[1] **Siy** — siylamoq, mukofot.

* * *

Bobomizning cho‘g‘ bosgan tovoni bilan,
Birday ekan yaxshisi yomoni bilan.
Bir yomoni — tinimsiz ko‘chavergan,
Bir yaxshisi — qiymagan Dalani keng.

Bir yomoni — yel so‘zga ergashgan-u,
Bir yaxshisi — tilga erk bergan ekan.
Bir yomoni — ketmonga o‘rasho‘loq[1],
Bir yaxshisi — nayzagar, mergan ekan.

Bir yomoni — kechikib alifbe ochgan,
Bir yaxshisi — kuylari ko‘pik sochgan,
Bir yomoni — qizlarin molga sotib,
Bir yaxshisi — sevganin olib qochgan.

Bir yomoni — ro‘zg‘orin mangditmagan[2],
Bir yaxshisi — quvliq-la jon yutmagan.
Bir yomoni — uylanib yangasiga,
Bir yaxshisi — yesirin qang‘itmagan.

Totuv-totli qo‘shnilar shir buzmagan[3],
Birda to‘ng‘ib sovuqda, bir muzlagan.
Bir yomoni — shundayam uy solmagan,
Bir yaxshisi — avaxta qurg‘izmagan...

DO‘MBIRA

Ikki ichakning birin qattiq,
Birini sal kam bura,
Nag‘iz qozoq — qozoq emas,
Nag‘iz qozoq — do‘mbira.

[1] **O‘rasho‘loq** — qo‘li qovushmaydigan odam ma’nosida
[2] **Mangditmoq** — gullatib, yashnatmoq.
[3] **Shir buzmoq** — totuvlik, birlik ma’nosida

Bilging kelsa bizni holni,
Undan so‘ra tekkina:
Undan oshgan tarixchi yo‘q,
Undan oshgan yo‘q — dono.

Haqiqatni aytganlarning
Bari shunday sho‘rlasin,
Deb bir hoqon
Chanog‘iga quygan
uning qo‘rg‘oshin.

Bir torida biyiklik bor,
Bir torida teranlik,
U milqovni so‘zlatadi,
Yig‘latadi garangni.

Yolg‘on so‘zlab
ko‘rgan emas shuning
o‘zida,
Oppoq olov kuyning jonin yalab
yotgan kezinda.

JUMAKEN NAJIMEDDINOV

(1935–1983)

Gurev viloyatining Dengiz tumanidagi Qo'shaloq qishlog'ida dunyoga kelgan, Olmaotada Qurmong'ozi nomidagi konservatoriyada milliy cholg'u asboblari fakultetini tamomlagan. 1959–1965-yillarda "Jazushы' nashriyotida, 1965–1971-yillarda Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasida, 1971–1983-yillarda "Maktab" nashriyotida ishlagan.

Ilk she'rlar to'plami 1961-yilda chop qilingan. Keyinchalik esa "Sibizg'a sozi" (1962), "O'z ko'zim bilan" (1964), "Yo'q, unutib bo'lmaydi" (1965), "Yorug'lik" (1966), "Kuy" (1967), "Manzil ohanglari" (1970) kabi she'riy kitoblari nashr etilgan.

DALA MANZARASI

O'rkach-o'rkach qirlarning to'shi turfa giyohli,
Ola bulutli osmon ayron-chalop siyoqli.
Burqiragan qumli dasht — yoyilgandek donlar niq,
Jilg'a-irmoq yugurar egri yo'llar ip-iliq.
Purma'noli o'landek topar ziynat muqarrar
Ko'z yetgusiz ufqlar — poyoni yo'q kengliklar.
Qum-shag'allar uyulgan oltin xirmon misoli,
Tik qir-jarlar yellarda qotgan tug'yon misoli.
Keng dalani to'zg'itar shamollarning hamlasi.
Nortuya kabi chayir ko'k yovshan shox-shabbasi.
Qing'ir qoqshol butalar — barmog'iday kampirning,
Savr kelib qulunlar sasi tutar adirni.
Yalt-yult etgan qamg'oqlar — zilol suvlar kabi naq.
Suvsiningni bosmoqqa topilmas bunda buloq...
O, tangri, bu shukuhsiz manzarani ko'rgan on,

To‘lmasmi qalb kadarga, g‘am-g‘ussaga nogahon!
Cho‘kirtak — kemshik tishday, har yondan qochgan nufuz.
Kapalak uchar horg‘in, fayzsizdir dala-tuz.
Yuksalar tepalikka goh chiranib, goh tinib,
Bir mashina so‘qmoqda “jonin sudrab” pishqinib,
So‘qmoqlar qir yoqalab pastlikka quyilguday,
Ko‘tarilar oq to‘zon — kometa quyrug‘iday.
Ochgandek ilon izi yo‘llarning ajib sirin,
Ufqlar ham qir osha kengayar birin-birin.

* * *

Oq barmoq o‘ynaydi, o‘ynaydi
Qadimgi oq mato ustida.
Va igna ko‘k ipni surgaydi,
Matoga rangin naqsh tushdi-da,
Kashtada chamanlar tirildi.
Unda ufq chamanni quchdi-da,
Ustiga osmon ham surildi.
Ko‘l mudrab ko‘kalam chetida,
Manglayin osmonga tiramish.
Bahoriy zaminning betida
Maysa ham, toshlar ham titramish.
Kashta naq ko‘klamning aksiday,
Men undan iforlar izladim.
Tepamda uchganday chag‘alay,
Yoyiqning sohilin esladim.
Yorimning qo‘liga tikildim,
Mo‘jiza yaratmish naqshinkor.
Ehtimol kashtadan olgandir
Betakror o‘z husnin navbahor.

* * *

Anov kelgan kim ekan, bilib kel-chi, kim ekan?
Botirlikmi? — Joy bergum ardoqlab uy to‘ridan.
Boylik bo‘lsa shum bo‘lar, tikilgin-chi ko‘ziga,
Birovlarni xo‘b aldab, aldanmasin o‘zi-da.
Qayg‘u bo‘lsa ortida quvonchi ham bor chiqar.
Biri ko‘nglim gumurtib. biri xandon qarshilar.
Imon bo‘lib kelsa gar, bag‘rim ochiq erta-kech,
Tushir, otda bo‘lsa u, qirovin qoq, to‘nin yech.
Chinlik bo‘lsa gilam sol, dasturxon ham yoz tag‘in,
Yolg‘onlikmi — latta qo‘y, artib chiqsin oyog‘in.

TUMANBOY MO‘LDAG‘ALIYEV

(1935–2015)

Olmaota viloyati, “Mehnatkash qozoq” tumanida dunyoga kelgan. 1958-yili Qozog‘iston Davlat universitetining filologiya fakultetini bitirgan.

Shoirning ilk she’ri (“Ukrain qiziga”) 1954-yili bosilgan. 1957-yili “Talabaning daftari” nomli ilk to‘plami nashr etildi. Shundan keyin uning “Komila” (1960), “Ko‘klam tongi” (1951), “Olatov qizi” (1963), “Feruza haqida qo‘shiq” (1964), “Kunlar chorlaydi” (1965), “Yuragim mening yo‘llarda” (1966) va boshqa ko‘plab kitoblari o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi.

U mohir tarjimon hamdir. Qozoq o‘quvchilari uning tarjimasida J.Bayron, M.Lermontov, T.Shevchenko, O.Tumanyan, S.Kaputikyan, R.Hamzatov va qator o‘zbek shoirlarining she’rlaridan bahramand bo‘lganlar.

* * *

Borgan yerdan do‘st topib keladi shoir,
Hurmat ko‘rib, xushlanib keladi shoir.
Otlandirar bo‘lajak yillaringga,
Borgan yerdan pochta olib keladi shoir.

Burungidan yumsharib keladi shoir,
Ko‘p dillarga mung solib keladi shoir.
Qayga borsa qarshi olib turadigan,
Borgan yerga uy solib keladi shoir.

Borgan yerda tanilib keladi shoir,
Borgan yerdan tong olib keladi shoir,

Burungidan o‘zgarib, o‘zga jon bo‘lib,
Boshqacha bo‘p yaralib keladi shoir.

Borgan yerdan kun olib keladi shoir,
Borgan yerdan mung olib keladi shoir.
Qartayishni bilmovchi qora ko‘zin,
Go‘zallikka sug‘orib keladi shoir.

Borgan yerdan taltoqlab keladi shoir,
Yon-veriga do‘st to‘plab keladi shoir,
“Shu yerlarga so‘nggi bor kelishimmi?” — deb,
Iziga ham ko‘z tashlab keladi shoir.

Borgan yerdan bol ichib keladi shoir,
Talaylar bilan tanishib keladi shoir.
Qaytmaydi deb atalgan o‘tmish bilan,
O‘tmish bilan topishib keladi shoir.

Talaylarga tanilib keladi shoir,
Baxt gullarin taqinib keladi shoir.
O‘zi shu yerda yurganda qaramagan
O‘chog‘ini sog‘inib keladi shoir.

“Tirikman!” — deb quvonib keladi shoir,
Shukrlar aytib, yupanib keladi shoir.
O‘zigina ko‘tarar og‘irlikdan
Hayotiga yuk olib keladi shoir.

JAMBUL

Shoir yotar, yotar jim-jit qari odam,
Olislaydi o‘tgan kunning bari undan.
Unga unsiz termuladi ini, shogird,
Bunga mudom muhabbat birla qaragan.

Ko‘rib yotar, sezib yotar shoir barin,
Inilarning unutganday otlarin.
Biror ism kelmaydi-ya tiliga,
Qurdi degan shumi o‘lim qopqonin?

Ko‘z — yumilgan, ko‘ngil —
uyg‘oq, til — unsiz,
Kelib-ketayotibdi xalq tinimsiz.
Hayot olg‘a siljiyverar baribir
Olatovning shundoq buyuk oqinisiz.

Yotar shoir, yotar ojiz chol kishi,
Bor shekilli yurtga aytar olqishi,
Kelmoqchimi yengib chiqib o‘limni,
Kelmoqchi yo umrda mangu qolgisi.

Yotar oqin. Yotar unda bir davr,
Jangda yengib chiqqan sarboz haytovur.
Janggohdan so‘ng nafas olayotganday,
“Rohatlanib ko‘rayin” deb bul-da bir.

Yotar Jambul. Yotibdi oldda keng dala,
“Mangulik — bu men”,
deganday, birgina.
Oyog‘iga yiqilganday oqinning
Derazani qoqib o‘tdi yel mana.

Yotibdi u. So‘z aytmaydi kelganga,
Zaminga aylangan shu on bir banda.
Yona-yona kulga aylangan daraxtmi,
Yoki toshib chekingan ko‘l shu onda.

Sayrab-sayrab tinib qolgan bulbulmi?
Chopa-chopa charchagan bir duldulmi?
Yurgan yerin chuvoq bilan ilitib,
Bulut ostiga kirib ketgan yo nurmi?

Yotibdi u — cho‘kib qolgan tog‘ go‘yo,
Buyukligi qachon olar chin baho?
Bir musofir uxlab qolgan siyoqli,
“Hov” demoqqa xoli kelmas mutlaqo.

Chinormi yo bir asr yashab qulagan?
Yo kuzgi bulut erta-yu-kech yig‘lagan?
Tulpor minib, do‘mbirasin qanot qip,
Bu dunyodan o‘tib ketdi bir odam.

Bu dunyodan o‘tib ketdi bir oqin,
O‘z xalqiga sovg‘a qilib g‘ayratin.
“Jake” derdi, “aka” derdi xalq bir paytlar,
“Jambulman” deb, yozib ketdi chin otin!

QADIMIY ALLA

O‘n farzand ko‘rdim, barinda
Oldi qaytarib bir Xudo.
Sen kelding umrga tag‘inda,
Alla, alla-yo, alla-yo!

Osmonda bulutlar tutashib,
Haliyam to‘lmadi samo.
Sen kulsang — ketaman toshib,
Saqlasin seni bir Xudo.

Qaltirab, to‘ng‘ib boraman,
Go‘dagim, kularmikansan?
Momoning oppoq tayog‘in,
Qo‘lingda tutarmikansan?

Qurbonligingga chalayin
Yo‘lingda sening o‘zimni.
Bir ko‘ribgina qolayin,
Sen otga mingan kezingni.

Borimni berib boqarman,
Anorning suti suyulsa.
Armoni bormi onangning
Tuproq sendan buyursa.

Yurarsan ko‘pning biri bo‘p,
Saqlasin seni bir Xudo.
Ortimdan qolgin tiri bo‘p,
Alla, alla-yo, alla-yo!

MANGLAYDAGI UCH AJIN

Manglayimda pastga qaray qulagan
Uch chiziq bor — uch javobni so‘ragan.
Uch ajin bor, tamg‘asi bor vaqtning,
Kunlarim bor o‘zimni o‘zim sinagan.

Bu ajinlar erta tushdi manglayga,
Akam yovdan qazo topdi maydonda.
Qora qog‘oz qaltiratdi yurakni,
Bizga yaxshilik qaramadi bir on-da.

Zo‘r qayg‘uni ulkanlarday kichik uqdi,
Bolalar ham hasrat zahrin ichibdi.
Akam yurib o‘tgan og‘ir qisqa yo‘l,
Kelib mening manglayimga tushibdi.

Yov qo‘lidan qazo topdi kichik og‘ay,
Kimga erkalanay, endi kimdan kuch olay?
Manglayimga tushdi yana bir chiziq,
Og‘am yurgan qisqa yo‘lday, bul qalay?

O‘rtancha og‘am ketdi-ya, voh, xabarsiz,
Umrin ham uning to‘xtatdimi yov orsiz?
Manglayimga shundan tushdi bir chiziq,
Men bir tuynak bo‘lib chiqdim talonsiz.

Endi qolgan umrim mening sanoqli,
Ajin tushar manglayimga ham bot-bot.
Ko‘zlarga g‘alat ko‘rinar-ov uch chiziq,
Azali kunlar belgisi bo‘lib, dod, dod!..

ETIK

Arava tortdi yoshlik karvonimni,
Yov ko‘zlab otdi mening armonimni.
Och yurdim, sovuq uyda uxladim men,
Bilmadim qanday tirik qolganimni.

Onamning ko‘ngli menga bo‘linadi,
Men uchun qovurg‘asi so‘kiladi.
Ikkimiz kiydik uni kezaklashib,
Bir etik bizning uyda bo‘lib edi.

Hangoma-o‘lan bilan to‘lar olam,
Shularni eslar edi sevikli onam:
Qolardi pech yonida yolg‘iz o‘zi,
Maktabga etikni men kiyib boram...

Qay ovul yodga olsin yetim ulni?
Menga tek ba’zilarning beti kuldi.
Qimirlamay tushdan keyin o‘tiraman
Onam kiyib ketgandan so‘ng etigimni.

Shu etik keyin menga sig‘may qolib,
Yig‘ladim shunda ko‘zim yoshga to‘lib.
— Akang kelsa, etigini kiyasan, — deb,
Onam ham ketaverdi uy aylanib.

Yozga yetdik shu etikni kiya-kiya,
Ma, kiy deya birov yordam bermas-kuya.
Bolalik boshdan o‘tib ketdi mening,
Akam kelsa etigini kiyaman, deya.

O‘LJAS SULAYMONOV

(1936)

Olmaota shahrida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tamomlagach, Qozog‘iston Davlat universiteti geologiya fakultetida, so‘ng Moskvadagi Oliy Adabiyot institutida tahsil oldi. 1983–1991-yillarda Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi boshqarmasining birinchi kotibi bo‘lib ishladi.

U Qozog‘iston Davlat mukofoti (1972) sovrindori. Ko‘plab orden va nishonlar bilan taqdirlangan.

Uning “Arg‘umoqlar”(1961), “Zamin, insonga ta’zim qil!” (1961), “Nurli tunlar” (1962), “Iliq tun” (1963), “Shafoatli chog‘” (1964), “Maymun yili” (1967), “Az i Ya” (1975), “Ming bir so‘z” (1984) kabi kitoblari o‘quvchilar orasida keng shuhrat qozongan.

ARG‘UMOQ

Tulpori bilan mashhur,
Ey, poyoni yo‘q diyor!
Qara, kezar hov uyur.
Yashnar cho‘lda maysazor.
Bergin Qorato‘rig‘in,
Shamollarga kelur bas.
Ustida egib bo‘yin,
Parvoz etay bir nafas.
Sezsin yel alangasin
Arg‘umoq ham o‘zida;
Qizg‘aldoqlar porlasin
Uning qora ko‘zida.
Mayli, kurash neligin
Bilib qo‘ysin arg‘umoq.
Olg‘a yo‘l bor-u doim,
Ortga yo‘l yo‘qdir biroq...

QUVIB YET

Quvib yet qani, yigit,
Ayama otni, yigit,
Sevsang-u bo‘lsang o‘ktam,
Ot yetajak o‘lsa ham.
Sevaman seni, yigit,
yetgin-u tez,
O‘p mahkam.
Bo‘saga intiq yuzim
Qizib ketdi uyatdan.
Yellar meni quvmoqda,
Ko‘kragimga to‘shalib
Quchmoqda, eh, quchmoqda...
Sen esa ortda, yigit!
Ko‘kda oy ham kular jim,
Men yolg‘iz,
Hamon yolg‘iz.
Tizgin tutgan qo‘llarim
Qahrdan bo‘ldi qonsiz.
Odamlar,
Eh, noshud odamlar,
Yer bo‘ldi-ku chavandoz dong‘i.
Tutqazibsiz jasur yigitga,
Tutqazibsiz yovqur yigitga
Va kelishgan, mag‘rur yigitga
Uchqur tulpor emas
Qirchang‘i!..

* * *

Yozda bir qiz keldi
Janub shaharga,
Bir juft kokilida
Bir juft oq bantik.

Ko‘hlikkina qiz,
Ismi uning — Bella,
Yerlik bolalarning ko‘nglida g‘ulu.
Yuvinib-tarangan, oyoqda shippak,
Deraza tagida o‘ralishardi,
Gap otishardi.
Farroshlar, negadir,
Jerkib berishdi:
Bunday sho‘xliklarga yo‘l qo‘yilmaydi.
Lek qizcha, baribir
Bittasi bilan do‘stlashib oldi –
Deraza tagiga kelar har tongda
Kichkina bir bola
Va bo‘yin cho‘zib,
Qizchani chaqirar cho‘chib, alanglab:
— Bel-la...
Qizcha olmaxonday tushar zinadan,
So‘ngra qo‘l ushlashib
Soyga chopishar.
Onasi ham dildan o‘zicha xursand:
Zo‘r quyosh, sof havo, suv
Va qizchasi.
Bir kuni keldi-yu telegramma,
Tungi samolyotda uchib ketishdi.
Yoz-ku tugamovdi.
Tong payti esa
Bola ovoz berar odatdagidek:
— Bel-la...
Balkonga chiqaman
Va kuzataman.
Bola chaqiradi sekin, xotirjam:
— Bel-la...
Yasanib kiyingan –
Tungi shippakda,
Ozoda kalta shim tizzasigacha:
— Bel-la...

Urishib berdim men:
— Uchib ketdi u.
Go‘dak shaxt qaradi
Yigitlarga xos
To‘ng‘illadi (balki “Senga daxli yo‘q”),
So‘ngra davom etdi o‘z qo‘shig‘ini.
Har kuni ertalab,
Siz ishonmaysiz,
Bevadek bo‘zlar u oyna ostida.

BOLALIK, BOG‘LAR, SARATON...

Yo‘q, men to‘lmagandim o‘n ikkiga ham.
Bolalik. Yoz. Olis front orqasi.
Uycha. Arava yo‘llarida suzib yurar chang,
Saraton,
Bog‘lar, siynasida g‘ubor ko‘rpasi.

Va sho‘xchan bir ayol bizning hovlida.
Ijarachi ayol,
Uni shunday atardi bobom,
Yonoqlarim lovullardi ertalabdanoq,
Yo‘q, o‘n uchda edim o‘sha choq.

Jilmayar edim men u kulgan onda,
Laqmalik qilardim so‘z topolmasam.
Goq, u yuvinishga soyga tushganda,
Haydardim bolalarni pana-panadan.
Bular bari — o‘tmish,
Hozir esa kelar yodimga:
Tun.
Mo‘jaz derazali paxsa imorat.
Men o‘sha torgina darcha ostida
Oqlangan devorga suyanganimcha,

Turar edim dilgir, betoqat.
Urushdan qaytgandi u –
Buni anglardim,
O‘sha yigit bilan quchoqlashardi...
U noshud, yaramas quchdi-ko‘tardi
Va u ham yigitni
Tinmay o‘pardi...

Bilmasdim,
Qo‘llarim titrar nimaga,
Deraza ortida qorong‘i, jimlik
Va yengil shivir-shivir...
E-e, qandoq chidaysan bunday ta’naga –
Tosh bilan oynani sindirdim chil-chil.

Yugurib chiqdi kimdir:
— Senmi?
Uning ko‘zlariga boqardim karaxt,
Xuddi tushdagidek, kelmay hushimga,
Shunda men, bir go‘dak,
Dedim ilk bora:
— Bo‘ldi, bas, nari bor, eh onang shunga...

U esa yigitni itardi nari:
— Tegma!
So‘ng meni yupatib, dedi, jimgina,
Yumshoq ko‘kragiga bosgancha mahkam:
— Oh, mening ko‘ngli bo‘sh aqlsizginam.

Otilib chiqdim men uning bag‘ridan,
Tomga ko‘tarilib,
Yoyib qo‘yilgan
Eski gilam uzra tushdim uzala.
O, katta bo‘lsaydim shu bir kechada!
O, agar hoziroq yetsaydi kuchim,
Bu qattiq xo‘rlikning qasosi uchun!

...Bolalik unutildi,
Yillar uchar, ha.
Biroq menga qiyin bo‘lar sen bilan,
Qo‘shnining bolasi Suqlanib bizga
Kechirilmas sog‘inch-la termulsa ba’zan.
Tikilib turar u, oppoq devorga
Suyanganicha,
Qorako‘z, tund, bir iztirob yoqar qonini.
O‘zining ilk mehrin bag‘ishlar senga,
Bolaligi,
Bog‘lar,
Saratonini.

TUNGI TAQQOSLAR

Sen bolsan go‘yo,
esladimmi — labim tamshanar,
Sen — bir kulgu,
shiddatidan ko‘z ham yoshlanar,
Men g‘aribman, kim ham xafa qilardi!
Do‘zax ko‘rdim, endi jannat istar dil.
Eh, boshqalar nechun seni sevadir,
Sevma sen, odammas ular, axir...
Ularda dard va iztirob ne qilar,
Ular faqat kishnab yurgan yilqilar!
Ayt, qachon tillarim so‘ylasin biyron!
Qay lahzada ko‘zlarim sochsin alanga?
Noshudlikni ko‘rib beisyon,
Itoatda chidashni ham o‘rgatgin menga
Va tunlar qurbaqadek bo‘zlamaslikning
ayt chorasini!..
Men seni sevaman,
Beva — oh urishni,
Baliq — tez suzishni Sevsa qanchalik;
Men seni sevaman Ojiz — shuhrat-shonni,

Quyosh keng osmonni Sevgani kabi.
Sen ziqnasan, senga yashash oson,
Menga rizqin tutdi hatto gado ham
Murg‘ak chaqaloqni emizgan kabi.
O, men Xayyom bo‘lsaydim agar,
O, men Hofiz bo‘lsaydim agar,
O, Mahambet bo‘lsaydim agar,
Murodimga yetardim balki!..
Asl she’rlar esa yozib bitilgan.
Shundoq sevisharlar tog‘-u dashtda ham –
Yuraklarga solib orzu va alam.
O‘zgacha sevib ham bo‘lurmi yoki?..
Men seni sevaman,
Shunday sevamanki...

XAYRLASHUV

Zal jim, sukunatda.
Aytdim barin, neki bo‘lsa yurakda.
Sukutda mo‘ysafid, qiringan, paxmoq sochlilar.
Qani, qo‘zg‘al, ey zal, yumshoq o‘rindiqlardan,
Bo‘ronga peshvoz chiq.
Oq yo‘l bo‘lsin senga!
Og‘u emas, xushbo‘y tamaki
Sizning uzun trubkalaringizga,
kapitanlar.
Istiqbolingizga go‘zal koinot,
Hozircha
Yaxshi tushlar, yaxshi taomlar,
Yaxshi xonadon-u
ko‘rkam jihozlar.
Mahalla-qo‘shnida — ishonchi do‘stlar.
Mana bir yosh juvon.
Nasib etsin sizga yaxshi farzandlar,
Munosib erni esa

topursiz, albat!
Hov o‘ltirgan — shofyor,
Xayolida rezina g‘ami;
Cho‘pon ham og‘ir o‘yda -
Qo‘zilatish mavsumi yaqin.
O‘ylayman:
Sizga faqat yaxshi yumushlar!
Sizga yaxshi Amerika,
Yaxshi Rossiya!
Ey, poytaxt va olis ovul bolalari!
Sizlarga yaxshi shoir,
Oqil arboblar!
Seving,
Tushuning dildan
Bir-biringizni,
Bo‘lg‘usi hukumatlar yo‘lboshchilari!
Shu haqda — orzu qiling,
O‘ylang — shu haqda,
Yashangiz
loaqal bir oz ehtiyotkor!
Yashangiz shoirlar vasiyati-la:
Ular sizga tilar
Faqat ezgulik!

SAHRO TUNI

Shabnam yo‘q,
Voajab, qo‘limga tegmas sira nam,
Tunning bag‘ridagi sovuq qumda ham,
Yuzda ham, o‘tovning sirti — namatda
Yo‘q zarra shabnam.
To‘g‘ralgan toshlarning
Qotgan mavjlari
Jilolanar oyning nurida biram;
Izg‘iydi qashqirlar har yon sarsari,

Yo‘q zarra shabnam.
Tunning og‘ushida Oppoq shu’laga
Belandi sahroning ko‘ksi — siym tan,
Lekin gezarar dil chiqmaydi sasi –
Bir tomchi shabnamga tashna, zorlikdan.
Oy sovur nihoyat,
Quyosh nuridan
Bir cheti yarqirab ketar olamning...
Nega?
Qo‘ngan edi yuziga shabnam
Sahroda tunagan tanho odamning.

JAVZO

Oh, biram suluv ayol!
O‘zini qo‘yib erkin,
Uxlar olma tagida,
Ariq jildirar sekin.

Tevarak bedazorda erinib kuylar ari,
O‘ynar ayol ko‘ksida oftobning shu’lalari.
O‘tib borar edim men shoshmay –
ariq yoqalab,
Buncha suluv bo‘lmasa!
Qo‘yaman zimdan qarab.
Qari otim qimtinib.
Ko‘zlarin chetga olar.
Oftobning shu’lalari
Kaftga o‘xshab sirg‘alar.

MARFUG‘A AYTXO‘JA

(1936)

G‘arbiy Xitoyning Sinjon o‘lkasidagi G‘ulja shahrida dunyoga kelgan. Qozoq tilida o‘rta maktabni, qizlar gimnaziyasini bitirib, so‘ng ikki yil mobaynida shu gimnaziyada muallimlik qilgan.

1958-yil ota yurti — Qozog‘istonga qaytib kelib, “Qozoq adabiyoti”, “Qozog‘iston muallimi” gazetalarida xizmat qilgan. 1962-yilda ilk she’riy to‘plami — “Bolquroq” nashr etilgan. Shu yillarda Qozog‘iston Davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olgan.

Uning “Qoyadagi yozuv” (1968), “Oqquvim mening” (1971), “Qorako‘z oyim” (1973), “Ko‘zimning qorasi” (1975), “Oq beshigim” (1980), “Parda” (1981), “Qiron yetgan” (1985) singari she’riy kitoblari o‘quvchilar e’tiborini qozongan.

* * *

Yot qal’alar qalb ochmasin qancha sanga,
Yetmagay hech tug‘gan yering, tosh qo‘rangga.
Olis ketib qolganingda sog‘inch o‘ti,
O‘rtamasmi yuragingni har bir damda?
Umr yo‘ling o‘z kulbangdan boshlanmasmi,
Uni qo‘msab ko‘zing endi yoshlanmasmi!
Axir, shunda eshitgansan ilk marta sen,
Dunyodagi “alla” degan shirin sasni.
Qancha kezma o‘zga yerlar gulbog‘ini,
Qo‘msagaysan tug‘gan yering tuprog‘ini.

OVULGA BORGANDA

Hamon bunda soylar tiniq, tinch oqar,
Cho‘qqilardan tong mo‘ralab zar sochar.
Jamlanmishdir ovul bo‘lib bu joyda
Bir-biriga hazilkash, sho‘x ovsinlar.

Hammasi ham kuyunchag-u nozi chin,
Or-nomusli, yuragida yo‘qdir kin.
Parvonadir yangam o‘choqboshida
Barra go‘shtga qo‘sha solib qazisin.

O‘rtadadir hamon hazil, so‘z, o‘yin,
Kuzataman odamlarning rang-ro‘yin.
Qora saba[1] ostonada lim-limdir,
Oshirar u oddiy kulba obro‘yin.

Barin qalbga juda yaqin olasan,
Yuragingga shirin o‘ylar solasan.
Kechagi bir jimitgina qizchaning
Bo‘y yetganin sezmayin ham qolasan.

Cho‘g‘ axtarib endi qaytmas damlardan,
Beixtiyor ko‘zlaringni namlarsan.
Qo‘rib sendan keyin o‘sgan yoshlarni,
O‘zingning ham ulg‘ayganing anglarsan.

UMR SO‘QMOG‘I

Umr degan emasdir otliq kishi,
To‘lib yotar har qayda g‘am-tashvishi.
Jilmaysa goh xush ko‘klam qizdek mayin,
Achchiq qahrin sochar goh qattiq qishi.

[1] **Saba** — qimiz solish uchun ot terisidan qilingan ulkan mesh.

Gohi jonga tirnog‘in botiradi,
Goh oldingda allalab o‘tiradi.
Har maqomi oqartib boshda sochim,
Sinovlarga otmoqni xush ko‘radi.

Borar umrim so‘qmog‘i baland-pastdan,
G‘udranadi g‘animlar alam-qasddan.
Yiqilganga yo‘yarlar sal surinsam,
Mening asli kimligim anglamasdan.

* * *

Qizil guldek tovlanarman qoshingda,
Qo‘shiq bo‘lib qolarman men esingda.
Seni sevgan qalbimga dog‘ tushirsam,
Tug‘gan elim, kechirma!

Armonim ne, bir koringga yarasam,
Armonim ne, menga kulib qarasang.
Armonim ne, to‘lqin urgan sochimni
Ko‘klamingning yellari-la tarasang.

Sen buyurgin, jabhalarga men boray,
Ummonlardan dur-u gavhar axtaray.
Bilmaganim bu umrda ko‘p hali,
Ne sababdan kibrlanay, maqtanay!

Qizil guldek tovlanarman qoshingda,
Qo‘shiq bo‘lib qolarman men esingda.
Seni sevgan qalbimga dog‘ tushirsam,
Tug‘gan elim, kechirma!

UMRZOQ XO‘JAMURODOV

(1936–1983)

6 martda O‘zbekistonning Buxoro viloyati, Tomdi tumanida tug‘ilgan.

“Yozuvchi”, “Yolqin” nashriyotlarida “Jiydali Boysun” (1966), “Tongi tovush” (1971), “Yo‘l tugamaydi” (1981), “O‘y kechish” (1989), “Quyosh ostida — qudrat” (1998) she’riy to‘plamlari kitob bo‘lib bosilib chiqqan.

O‘zbekistonning hozirgi Navoiy viloyati, Uchquduq shahridagi 4-son o‘rta maktabga Umrzoq Xo‘jamurodovning nomi berilgan.

ONA YER

Menga Makka — Madina,
Venetsiya,
Parij nima?
Ona yerning cho‘liday emas issiq, albatta?
Jon onamday qadrli, men tug‘ilgan keng dalam,
Yer jannati — behishti Qizilqum, u bir olam.

Shu o‘lkaning tuzi emasmi dastlabki bor totganim,
Shu o‘lkaning qizi emasmi dastlabki til ochganim?
Shu o‘lkada qoldi yoshlik, shirin, sharbat chog‘larim.
Shafoatim,
Muhabbatim,
Oppog‘im.

Ona yerim — tangrim ,
O‘zing bilan bir uradi tomirim.
Xatlab o‘tib ketolmayman
Hech qachon,

Ota yurtning qadrin.
Sening zoring kabi-ku
bo‘zlagani bo‘ta[1]ning,
Sensan mangu kir bosmagan[2]lim.
Sendangina boshlanadi
ushbu olam, tirikchilik,
Sendangina boshlanadi
mening cheksiz Vatanim.
Ko‘tarishib turasan buyuk hayotni,
Senda ulug‘ hayot qutli,
Birlik qutli,
Jir[3] qutli.

Yer shariga yurak berib, o‘t berib,
Quvonchin, qayg‘usin ham
turibsan boshdan o‘tkazib.
O‘t, dovuldan,
Qor bo‘rondan.
O‘tdik birga, yutdik mushk yomg‘irin.
Tong nurin.
Yer shari-la birga sening,
Mening hamki taqdirim.

Ey, ona yer,
Men kichkina bo‘lganim bilan,
Bir qismiman quruqlikning,
Mendan ulug‘ jir kutding.
Seni o‘ylasam o‘lgan bobom tirilib,
Senga qaray yo‘l boshlaydi burilib.
Hech yerda yo‘q sendagi bu yiriklik,
Hech yerda yo‘q sendagi bu ulug‘lik.

[1] **Bo‘ta** — tuyaning bolasi.
[2] **Jota** — tog‘ tizmasi.
[3] **Jir** — qo‘shiq.

TOMDIBULOQ

Ochib tashlab xazinali sandig‘in,
Har toshiga til kiradi Tomdining.
Oq yoqut-la oq marmarning o‘lkasi,
Tomdibuloq — baralla qo‘shiq bugun.

Yer yuziga shu’la sochar yolqini,
Muruntovning ming jilvali oltini.
Yulduzlarga zuvlab bora yotirman
Hech tugamas ushbu boylik orqali.

Teran sirga to‘lib turgan quchog‘i,
Oqtov go‘zal, oq laynerdir uchog‘i.
Odamzodga armon bo‘lib qolardim,
Oqin bo‘lmay, Oqtog‘ bo‘lsam shu chog‘i.

Mendeleev jadvaliga sig‘magan,
Tomdi tengsiz, yer qa’rini bo‘ylagan.
Mumkin emas
Murodiga yetmasi...
Ona yerning tuprog‘ini siylagan.

TILIM MENING

Azaldan olmos qilich — tilim mening,
Ko‘k toshni tasmaday qib tilimladim.
Yozishga asta qo‘yib yayratding-da,
Bildirib turding yurtga buzilganin.

Tilim — kalit, jir saroyin ochaman,
Yurtim-ov, xushbo‘y gulin sochar o‘lan.
Inju marjon yoqut-la gavharlarin
To‘ridan yurakning tashib kelaman.

Tilim — usta, mohirlik baxtim mening,
Baxtimni qochirmasga kutinganman.

Yer bilan yer, el bilan eling chetlashganda,
Ularni bog‘lab, barin butunlading.

Dardiga davo bo‘l deb bitik jirning,
Yuragim ne xohlasa yutib yurdim.
Yaxshilik, yomonlikning hammasin ham
O‘zga emas, men o‘zingdan kutib yurdim.

Ko‘k sanchqi, po‘lat nayza — tilim mening,
Yuragin makkorlarning tilimlading.
Xosiyatli o‘lan-jirning qudrati –
Rivoyat bo‘b yurt og‘ziga ilinganim.

O‘z boshimni yo‘liga qiyib jirning,
Ko‘z yoshimni o‘lan qilib quyib yurdim.
O‘ttiz tishdan chiqarmay ortiq so‘zni,
Mardlik bilan yerimga sig‘ib yurdim.

BILASANMI, EY?

Tarvuz emas
Qoq yorib beradigan.
To‘p emas
Dumalatib tepadigan.
Bosh bu — qudratli planeta
Olamga tabarruk nur sochadigan.

Yer shari, yumur olam, yumur osmon,
Og‘sang-chi bir ana shu yumur boshdan.
Yulduz o‘rib, oy tug‘ib, kun chiqish-la,
Boshlanadi ajoyib hayot — doston.

Halollik, haromlikni salmoqlagan,
Zulmatlarga yer yuzin yamlatmagan.
Yumur boshli taqdiri bu hayotning
Ezgulikni erkalagan, ardoqlagan.

Tirikchilikda nurin sochgali kun,
O‘zgartirmagan asrlar ham tosh qabrin.
Endi, mana, tirilib, til bitqazgan
Bilasanmi, ey, rostanam Bosh qadrin?

SILKINISH

Qo‘shiq aytay deb edim tizmalarga,
Don sochayin degandim kaptarlarga.
Ketmadi-ku bo‘yimdan yopishgan dard,
Arz aytib kelmagandim ko‘k va yerga.

Qoraygan qiya, jarlik, nishablarga ham,
Nishablardagi qoplagan o‘tlarga ham.
Men kabi qaradi-ku xumor qonmay,
Bu kunga yetmagan ham, yetganlar ham.

Oz so‘z-la bezantirgan, ko‘rkamlagan,
Ko‘ksimda armonim ko‘p chertay degan.
Ayta olmay ketgan yomon, attang-yey,
O‘zagim burun bunday o‘rtanmagan.

Erta kunga talpinib ko‘z ko‘rmagan,
Zargar edim o‘landan naqsh o‘ygan.
Yuragim dirillaydi boyagiday,
Qirq yilga chopishi o‘zgarmagan.

Boylanibman, bekorga boylanmasman,
Aynalibman, bekorga aylanmasman.
Olmos tilli o‘ng-so‘lni siltash uchun,
Choram yo‘q endi bir bor qayrilmasdan.

TO‘LEGEN AYBERGENOV

(1937–1967)

Qoraqalpog‘istonning Qo‘ng‘irot tumanidagi “Qo‘ng‘irot” sovxozida tavallud topgan.

1954–1959-yillarda Toshkentda Nizomiy nomidagi Pedagogika institutida qozoq tili va adabiyoti fakultetida o‘qigan. Ilk she’rlarini bolalikda yoza boshlagan. Ilk turkum she’rlari “Yosh davron” nomli to‘plamda chop etilgan.

1974-yilda “Qumdagi minoralar” to‘plami uchun Qozog‘iston Yoshlari uyushmasining mukofoti berildi (vafotidan keyin).

Tirikligida uning “Hayotga sayohat” (1955), “Men senga oshiq edim” (1970), “Omonat” (1975) singari kitoblari chop etilgan.

To‘legen Aybergenov 60-yillar she’riyatiga yaraqlab kirib kelgan yorqin iste’dod edi. Uning lirik, falsafiy she’rlari qozoq yoshlari orasida keng shuhrat qozonib, ularning so‘nmas muhabbatiga sazovor bo‘lgan.

* * *

Qiringdan otam yo‘rg‘ada
Yo‘rtib bir o‘tdi, Kegayli.
Men otam izin qo‘rg‘alab,
Manzilga yetdim, Kegayli.

Dashtingda onam qiz kunin
Qizdirib o‘tgan, Kegayli.
Kelgum deb qaytib, qir gulin
Uzdirib ketgan, Kegayli.

Suv olgan joyda buvimning
Sirg‘asi qolgan, Kegayli,
Sirdoshi qolgan, Kegayli,
Mungdoshi qolgan, Kegayli.

Amu narigi betidan
Orqalab keldim ko‘p o‘yni.
Yuraging issiq o‘ti-la
Qarshi ol meni, Kegayli!

YURAK SO‘ZI

Yuraman yo‘l bilan men ezgu,
Beraman jilo ko‘llarga.
Guvillab yotgan dengizni
Ag‘darib quygum cho‘llarga.

Ergashib ko‘pning ko‘chiga,
Yaylovga chiqqum qo‘y haydab.
Shodumon dala to‘shida
Chalqancha yotgum men yayrab.

Gohi zaminni sel chayur,
To‘ladi borlik, fayz-qutga.
Yomg‘irli kun naq mo‘rcha-yu,
Yuvingum men oq bulutga.

KO‘L

Suluv bo‘p ketasan qush, g‘ozing kelsa,
Men suzgum oydiningda yozing kelsa,
Yotganday bo‘lasan bir yayrab kulib,
Suvingni jimirlatib yellar yelsa.

Birgina qaynoq yoz-chun sen bordaysan,
Qushlarga qizig‘i ko‘p bozordaysan.
...Qushnimas,
yorug‘ kunni suyasan-ov.
Bejiz sen ko‘k osmondan ko‘z olmaysan.

KO‘KLAMDA

Ko‘klamni qo‘msab dillar eziladi,
Unda gullar qizlar-chun uziladi.
Osmonda ezgulikning nomin yozib.
Turnalar qator-qator tiziladi.

* * *

Shodlikka to‘la chog‘im eng
O‘tkazdim senda, qir oshdim.
Tolega Ochib bag‘rim keng,
Shivirlab turib sirlashdim.

Ko‘ngli ko‘klamdek qurch gavda –
Og‘am-la fikr alishdim.
Yoz kelbat yorqin jengeyga
Hazilim aytib tanishdim...

Yurakda kadar-nolish yo‘q,
Ilk sevgi dilni jazb etgan.
Ko‘rindi menga olis bo‘p
Qoshimda turgan bo‘y yetgan.

Ne tongki, dili pok do‘stlar,
Bo‘z bola kunlar o‘tdi-ku.
Xandon-la kulgan ko‘p qizlar
Armon bo‘p qolib ketdi-ku...

QIZIM MENING

Uylandim. Bolaligim biroq qochdi,
Oldimda yangi hayot kulgan chog‘i.
Umrimga sen kelding-da gulin ochdi –
Mening yosh oilamning qizg‘aldog‘i.

Ko‘nglimga sehrin quyib dala, ko‘lning,
Sen menga ota nomin ola kelding.
Yotganday gulg‘unchasi orzuimning,
Aylanib beshigingga boraverdim.

Ko‘p tortgan azobimdan onaginam
Quchog‘in ochdi senga ko‘proq bu dam.
Kim bilsin,
Yillar bo‘yi intiq kutgan,
Seni, o, shiringinam, oy yuzginam.

Sen tug‘ilib — nuqul u kulaverdi,
Qalbiga qayerdandir quvvat keldi.
Xirgoyi boshlab har kun tong-sahardan
Vujudi kuyga to‘lib yuraverdi...

YUSUF BAYBOLAT O‘G‘LI QIDIROV

(1937–1983)

Yusuf Baybolat o‘g‘li Qidirov 1937-yilda Qizilo‘rda viloyatida dunyoga kelgan.

1960-yili Qozoq davlat universitetining filologiya fakultetining jurnalistika bo‘limida o‘qigan.

Uning bir qancha she’rlari respublika yosh shoirlarining “Qo‘shiqqa sayohat” nomli she’riy to‘plamida bosilgan. Sharq she’riyati yulduzlari — Ro‘dakiy, Hofiz, Fuzuliy, va qolaversa, jahon she’riyati vakillari Shelli va Blokning she’rlarini qozoq tiliga tarjima qilgan. “Ming bir tun” nomli she’riy to‘plami uchun 1984-yili Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi mukofotiga sazovor bo‘lgan.

YURT NE DESA — SHU DESIN...

Yurt ne desa — shu desin!
Menga ayon:
Yerning sirin Oy tinglar serhayajon.
Sen ham, erkam, tinglagin, bir sirim bor,
Aytilmagan hech kimga, sen ham ishon.

O‘rtanmasa bu yurak aytarmidim,
Hatto to‘xtab qolguday bu issiq qon.
Oy qovoqlim, tinglagin, bir so‘zim bor,
Aytilmagan hech kimga, sen ham ishon.

Tundan keyin ko‘tarar kun yengsani,
Shu bir so‘zda tiriklikning bor o‘lchami.

Aytayinmi? Ayt desang, unda tingla:
— Sevdim seni, sevgilim, sevdim seni!

— Bir aytganni ming aytmoq ermakmidi! —
Deding kulib, yel chayqab-tebratkanday.
"Sevdim!" degan har so'zim yangi so'z-ku,
Yangilanib kelar u har ko'klamda...

SEVSA MENI SENDAY SEVSIN

Sevsa meni senda y sevsin bir inson,
Senday toza bo'lsin gunohdan omon.
"Olis yo'ldan kelganingda, quchoqqa,
Qanday baxt bu, kirib ketsam shu zamon!.."

Sen biyiksan, osmon degan joy biyik,
Sen kulasan qovog'ingdan oy suyub:
"Qanday baxt bu, — deysan, — manov dunyoda
Senga bersam o'z qo'limda choy quyib!"

Uloq kabi o'ynoqlagan erkam-ay,
Qayiq bo'lsam, sen — qanotli yelkan-ay.
"Qandoy baxt bu, — deysan — yubormay seni,
Otlantirib tursam har kun ertalay..."

To'ymagayman yurakdagi o't o'chsa,
To'ymagayman ko'zdan manov nur tushsa.
Sen baxtli bo'lsang agar men bilan,
Men baxtli bo'lganim-ku ming hissa!

KO‘KLAM KELDI

Ko‘klam keldi.
Umr keldi, jon keldi bu yerlarga,
Qaranglar, qanot bitdi ko‘ngillarga.
Kuy tinglayman osmondan,
Gul-gul ochilar ko‘nglim,
Sevgilim-ay, qayg‘ulim.

Ko‘klam keldi.
G‘unchalar-la bezantirib kun dalani,
Muhabbatday olovlab gul yonadi.
Sog‘inchim boychechakday irg‘aladi,
Seni tilar yuragim, seni, gulim,
Sevgilim-ay, qayg‘ulim.

Ko‘klam keldi, —
Qulfurdim lafzingdan, hazilingdan,
Dunyo yaralgan kabi nozik undan.
Qora qosh qaldirg‘ochim ko‘zi kulgan.
Tugamas uzoq umrim,
Sevgilim-ay, qayg‘ulim.

Ko‘klam keldi —
Sen kelding!
Sog‘inishgan chag‘alla — qushday yayrab,
Qanot yozib men uchdim senga qarab,
Qanot yozib sen uchding menga qarab,
Siyladi menga seni kim,
Sevgilim-ay, qayg‘ulim!

SAKEN IMANASOV

(1938–2012)

Toldiqo'rg'on viloyati Olako'l tumanida tug'ilgan. Xalqaro "Alash" mukofotining sovrindori.

Uning "Ona qishloq" (1966), "Oq-oydin"(1969), "Akdarig'a"(1973), "Jaydarman"(1975), "Oshiq dunyo"(1976), "Davr qo'shig'i" (1978), "Oshiqman senga"(1981), "Oltin aymoq" (1982), "Qir-adirlar"(1985) singari she'riy to'plamlari chop etilgan.

OVUL YOQQA BORSAM DERDI...

Olmaotaga sig'may qolsa dil dardi,
Oqin o'zin doim yo'lga qistardi –
Arg'umoqda yeldek uchib, entikib,
Ovulini tezroq ko'rmoq istardi.

Yuragida ajib sog'inch jo'shgan dam,
Ketib shahar shovqini, qiy-chuvidan,
Yetib olsam aziz tug'gan yerimga, derdi,
Qonib ichgum uning suvidan.

Goh chorasiz qolganda g'am-qayg'uda,
Uzlatlarni istar edi dil juda;
Hangomalar tinglab yotsam derdi u,
Yotgan ko'yi yam-yashil qir ustida.

... Lek ovuli endi fayzsiz — tund yashar,
Avvalgiday samimiymas — dillashar.
Biror kimsa ko'rinmaydi qir uzra,
Biror kas yo'q uning bilan tillashar!

Tikilarkan tubsiz jarlik, o‘ngirga,
Beixtiyor yax-muz to‘lar ko‘ngilga.
So‘zlashish yo‘q avvalgidek jaydari,
Qo‘shiqlar ham emas endi u bilgan!

O‘zgardimi yoki osmon, ko‘hna yer,
Qolmadimi tuyada kuch, otda bel –
Ko‘rinmaydi sira chindan sog‘inib,
Quchog‘ini katta ochib chiqqan el!

Hali o‘zi yosh-u bir dam bo‘lsa-da,
Goh siqilib, ko‘ngli g‘amga to‘lsa-da,
Avvalgidek — ovul qayda, deydigan
Junbush fe’lin qo‘ygan endi oqin, ha.

U doim tund, kamgap hamda kulmaydi,
Sog‘inchini nazariga ilmaydi.
Bo‘z tulporin minmoq bo‘lar va lekin
qay uzlatga qochishini...
bilmaydi.

NEGA SAMARQANDGA BORMADING SEN, AYT?

Faqat seni dedim har qachon, har payt,
Mudom o‘zgalarga bo‘ldim men loqayd.
Lekin va’da berib, ergasha turib,
Nega Samarqandga bormading sen, ayt?

Yashnaganing ko‘rib so‘zimdan gul-gul,
Va’dangga ishongan edim men butkul,
Oyoqosti qilding ishonchim nega,
Armon qilib yursin dedingmi nuqul?

Shashtingdan tushsang-da — gar borging kelmay,
Nega talpinmading izimdan yelday?

Biz ham birga-birga yurmasmi edik,
Samarqandni tavof aylagan elday!

Dardimni kimga ham aytardim, jonim,
Yuragim tubiga silqidi qonim,
Va'da berib qo'yib, ergasha turib,
Aynib qolganingni payqagan onim.

Ne bir sabab seni, ayt, ma'lul etdi,
Ko'nglingga yoki bir shum gumon yetdi?
Samarqand safariga saqlab qo'yganim –
Ko'p so'zlar
ko'kayimda
qolib ketdi!..

Faqat seni deyman har qachon, har payt,
O'zga bo'salarga men mudom loqayd!
Axir, va'da berib.
Ergasha turib,
Nega Samarqandga bormading sen, ayt?

KO'Z OLDIMDA

Yashiruvchi sirim yo'q eldan mening,
Turmush tarzim mehnatdan, terdan mening.
Ko'rganlarim o'langa ko'char bir-bir –
Ko'nglim hargiz yayragay
She'rdan mening...

O'zgalarning g'amidan shodlanmadim,
Mag'rurlarga tik boqdim,
pastlanmadim,
ozmi-ko'pmi qayg'umni eldan ko'rib,
Alam yutib,
birovga qasdlanmadim.

G‘uborlangan bo‘lsa gar jindak dilim,
Aytmasam-da buni men, bilgan elim.
Xo‘rlamadim kimsani.
Ko‘z oldimda:
yiroq bo‘ldi noshuddan doim yo‘lim...
Yuragi-la yuragim birga urgan
eldan ayro bo‘lmoqlik menga o‘lim!

FARIZA O‘NG‘ARSINOVA

(1939)

Fariza O‘ng‘arsinova (adabiy taxallusi — Sanduvoch) Gurev viloyatining Novobogat tumaniga qarashli Manash qishlog‘ida tug‘ilgan. Gurev Davlat Pedagogika institutining til va adabiyot fakultetini bitirgan.

F. O‘ng‘arsinovaning xizmatlari qator orden-nishonlar, faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. Respublikada xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi. “Vatanim — uyim mening” va “Mang‘ishtov monologlari” she’riy to‘plamlari uchun 1984-yili Qozog‘iston Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Uning “Qizg‘aldoq haqida ballada”(1971), “Men tug‘ilgan kun”(1972), “Kichkintoy”(1975), “Kamalak”(1979), “Oftobshuvoq”(1980), “Ochiq osmon”(1981), “Temirqoziq yulduzi”(1982), “Qironqiya” (1984), “Mening tuprog‘im”(1985) kabi to‘plamlari chop etilgan.

YO‘L

Ufqlarga qora yo‘l qadaladi,
Adirlardan oshib ildam.
Qizg‘aldoqlar chekkasida jim qoladi,
Yuzlarida billur shabnam.

Yorilmasin qoq belidan deb yer bexos,
O‘rab turar yo‘llar bu choq.
Qolib ketgan dengiz ortda elas-elas,
Osmonida bulut oppoq.

Turfa gullar nozlanadi yelda bu dam,
Sevinchlari bilmaydi chek.

Odamlarning shodmon-shodmon odimidan
Uyg‘oq yotar dalalar tek.

Men kelaman.
Tinglab qalbim ohanglarin,
Shavqin tuyub ajib sirning.
Ko‘rmoq uchun bugun uning o‘t ranglarin
Bir kezdagi “ola qirning”.

* * *

Sog‘inch xatin yo‘lladim
Sizga, ovuldoshlarim.
Men seni ham qo‘msadim,
Do‘l-dovulli osmonim.

Xush yerlarda yursam-da
Yodda fayz-u qutlaring;
Yero‘choqda lovillab
Yonib turgan o‘tlaring.

Qaragaysiz har doim –
O‘zgacha faxr etib-la,
Bormi deya she’rlarim
Gazet-jurnal betida.

Maqtaysizlar meni, ha,
Bolalarga do‘ndirib,
Yuribdi deb poytaxtda
Ulug‘ ishlar tindirib.

Har yil senga, ovulim,
Kanda qilmay borgayman.
Ko‘ngillar tubidagi
Sirlarni axtargayman.

Boraman, qaytadan chin
Zavqlarga to‘lmoq uchun!
Boraman, qaytadan men
Bir go‘dak bo‘lmoq uchun!

* * *

Ot minsam, yigitlardek
yeldirgum ur-ho solib.
Aytishsam yig‘inlarda,
Bo‘lurman, shaksiz, g‘olib.

Ingichka yo‘l qadamim
Hadikka topshirmasman.
Hazilda bo‘z bolaning
Og‘zini ochirmasman.

Tortinma, sho‘rlik bola.
Men bir qiz, bahsga shayman!
Kuy chalsam do‘mbirada,
Dina[1] ni tiriltgayman.

Izlayman botir miqti –
Ko‘z solib umidlarga:
Mendagi botirlikni
Bermapti yigitlarga!

* * *

Bu she’rlar yozilmas edi hech,
Men qayg‘u yutmagan bo‘lsam.
Bu yurak topinmas edi hech,
Sen ko‘pga o‘xshagan bo‘lsang.

[1] **Dina Hurpeisova** — Jambulga zamondosh taniqli xalq oqini.

Nazarga ilmas edim men,
Chiqa olar joyim bo‘lsang gar.
Tavozeni bilmas edim men,
Har kun xok poyim bo‘lsang gar.

Men bundoq yurmas edim hech,
Umrimda bo‘lmagan bo‘lsang.
Sevgini bilmas edim hech,
Qalbimni xo‘rlagan bo‘lsang.

* * *

Oltin zarin sochganda tong nurlanib,
Ko‘klam har yon yoyganida ajib gilam.
Quchog‘im — gul.
Kelaman men lov-lov yonib,
Men yoshlik sururiman.

Dilni o‘rtar,
shubhasiz, uchqur yillar,
Shirin tuyg‘u yurakda,
ko‘zlarda ham.
Olam tutib turganda menga gullar,
Masrurlar masruriman.

Yoshligimga vaqtning o‘zi oshiq,
Yetaklaydi bog‘larga qiyg‘os, ko‘rkam.
Sevgim dilda yonadi nurin sochib,
Jonimda o‘zing, erkam.

... Tug‘yoni mo‘l,
har oni to‘la sirga,
Qalbga hasrat-quvonchlar olib kirgan...
Bosh egamiz har vaqt biz bu asrga –
Ikkimizni tanishtirgan.

* * *

Yurak mudom moyildir o‘yga ezgu,
Olqishlarni ko‘rdi bisyor, titramas u.
Netay, sendan qolmadi qalbimda iz:
Na bir quvonch, na qayg‘u — hech bir tuyg‘u.

Go‘yoki men yurar edim ishqing-la shan,
Lekin yurak bu tuyg‘uga bermasdi tan.
Zinhor sevgi sanalmaskan yakkash hurmat,
U juda kam uchraydigan bir dard ekan.

Bu kun kelib bundoq hurmat kelar malol,
Er yigitga nomus bo‘lar bunday iqbol.
Suydirmasang, suyolmasang kuyib-yonib,
Tuyg‘ularing topar zavol.

DUYSENBEK QANATBOYEV

(1940)

Duysenbek Qanatboev 1940-yili hozirgi Turkmaniston respublikasida tug'ilgan. Qozoq davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. Birinchi she'rlari 1960-yili chop etilgan. Shoirning asosiy she'riy kitoblari: "Jazira", "Yo'l boshi", "O'n beshida to'lgan oy", "Osmon osti, yer usti", "Seytqul haqidagi afsona", "Tongning otishi, kunning botishi". Xalqaro "Alash" mukofotining laureati.

GO'ZAL TUNLAR

Ifor yutib, yashil bog'da xush yurib,
Biz hayotda ko'rmagandik qayg'urib.
Qosh qoraysa, chaqirardi bizlarni,
Oq qayinning naryog'idan Oy kulib.

Qizni raqsga chorlaganda sir tutmay,
Oq bilakdan ushlar edik burgutday.
Dorilfunun hovlisida kuy yangrar,
Tuni bo'yi raqs tushardik, kuy bitmay.

Ba'zan urushib, ba'zan qayta yarashib,
Yurardik-a bizlar baxtga fol ochib.
Qizig'i mo'l talabalik yillar-ay,
Tong otguncha uxlamasdik bahslashib.

Manglayimdan siypab o'tar hur shamol,
Ergashtirib opket meni bemalol.
Go'zal tunlar, to'xtasang-chi, bir pasga,
Dilni, tanni tebratsang-chi, quchoq ol.

Hayallanglar,
demay “yuring-yuring”lab,
Rohatlanay men shu yerda kuy tinglab.
...Go‘zal tunlar,
— oq qanotli oqqushlar,
Qayga ketib borasizlar qiy-qulab.

* * *

Fusunkor eding, sen jonon,
Shunchalar shirin qiliq, oh.
Qarab qolardim izingdan,
Kiyikday tashlasang nigoh.

Qo‘shiqday kelar quloqqa,
Nozikdan nozik bir ovoz.
Orzu bo‘lib qolardi,
Qop-qora burum — uzun soch.

O‘zgacha edi, o‘zgacha,
Sendagi ibo-hayolar.
Bir nozik sirni ko‘zingda
Ko‘rganday bo‘lardim xayolan.

Shunchalar nozik badaning,
Ko‘ksingda qo‘sha anor — zeb.
Yoningga yaqin bormasdim,
Ovozimdan qo‘rqib ketar deb.

Yoqtirsam ham men seni,
Sezdirmaslikka intildim.
“Yosh-ku hali...” derdim, men -
Bola ekanman, so‘ng bildim...

* * *

Bir kun ko‘rib qaytgan qushlar tizmagin,
Sezasan sen, sezasan sen kuz ta’min.
Tushadi esga, tushadi esga qora uy,
Qora uydagi toy-toy bosgan izlaring.

Odam oldda ne bo‘larin anglarma?
Bilmaydi-ku, yo taqdirin bilgayma?
Tushadi esga, tushadi esga ota-ona,
Yetimlikni yozib ketgan manglayga.

Ba’zan xotin til qotadi jonga achchiq,
Ranjiysan sen yo‘qolganday bor yaxshing.
Shunday mahal... boychechakday nop-nozik,
Tushadi esga ilk muhabbat — dil naqshing.

Esga olarsan, esga olarsan o‘tganni,
Qishni, yozni, kuzni, qay bir ko‘klamni.
Hozir guvlab turgan qaynoq bozoring
O‘chsa-qolsa, kimga aytasan o‘pkangni?!..

BIBIJON

Tog‘lar boshi tuman-tuman...
(Turkman xalq qo‘shig‘idan)

Tog‘lar boshi qalin tuman,
Ochilarmi, Bibijon?
Yov boshingda, qalin tuman
Bosilarmi, Bibijon?

Quba ilon to‘shagingga,
Bosh solarmi, Bibijon?

Yig‘lab-yig‘lab etagingga
Yosh to‘larmi, Bibijon?

So‘zoq bo‘yli saksovuling
Cho‘g‘ bo‘larmi, Bibijon?
So‘qtovulday o‘sgan o‘g‘ling
Yo‘q bo‘larmi, Bibijon?

Unda qaytib Qoratovni
Ko‘rolmassan, Bibijon?
Qorang qolgan qora o‘tovga
Kirolmassan, Bibijon?

Qolsa tag‘in taxtim og‘ib,
Qon qotarman, Bibijon?
Chambilbelning changin yutib,
Men yotarman, Bibijon...

ISROIL SAPARBOY

(1941)

Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanida tug'ilgan. Chimkent Pedagogika institutini bitirgan. Chimkent viloyat yozuvchilar bo'limida adabiy maslahatchi, "Jalын" nashriyotida katta muharrir, "Qozoq adabiyoti" gazetasining she'riyat bo'limi mudiri, 1998–1999-yillarda Qozog'istonning O'zbekistondagi elchixonasida matbuot attashesi vazifalarida ishladi.

Uning "Oqqush armoni"(1976), "Yorug' umr"(1978), "Yuragimga uya qurgan qaldirg'och"(1986), "Barmoqdaygina baxt" (1999), "Amir Temur" (dramatik doston, 1998) kabi kitoblari e'lon qilingan.

"Tarlon" mukofotining sohibi.

QAT'IY SO'ZLI QAYSARLARIM

("Jelto'qson sururi")

Qulunday erka bo'lib o'sdingizlar,
Har g'amni ko'krak bilan to'sdingizlar.
Ensasi haqsizlikdan enkaymagan,
Mardsizlar, bugun qo'rqmas botir — sizlar!

Hayiqib qaytmadingiz ortingizga,
Erk uchun jondan azob tortdingiz, ha.
Ichimda iztirobim bisyor edi,
Qorildim men ham sizning qayg'ungizga!

Men uchun tug'ishgandan aziz bari,
O'zini otdi qo'rqmay olov sari.
Quv dunyo quyunida qoldi-ku, oh,
Qiyilib qirchinidan orzulari!

O‘rfe’l, o‘jarlarim, o‘tkirlarim,
O‘ksuk-la o‘tdi, attang, ko‘p kunlaring.
Dog‘ qoldi bo‘sag‘amda o‘chmaydigan,
Toptaldi tosh maydonda cho‘g‘ gullarim...

Qoni bir, hasrati bir tug‘ganlarim,
Aylandi azalarga xursand daming.
Yodimdan yotsam-tursam ketmas sira
Gunohsiz oqbetingni yuvgan qoning...

Joni bir, yarog‘i bir qurdoshlarim,
Tegmadi qora yerga yonboshlaring.
Chidangiz dushmanlikning firibiga,
Zafar oni to‘kilsin ko‘z yoshlaring!

Erk uchun boshin tikkan bovurlarim,
Yengillat bu zamonning og‘irlarin.
Afsuski, yurt qayg‘usi, millat g‘amin
Tuymayin, mudrar mudom ovullaring...

* * *

Adolatni tan olmay zamonamiz,
Barchamiz — yuraklari g‘amxonamiz.
Yaratgandan marhamat bo‘larmi deb,
Ko‘zlarni mo‘ltiratib, jim yonamiz.

Topmassan jo‘mard zotni bunday onlar,
Kibrdadir “xudosin unutganlar”.
Xoksorlarning ko‘zida yoshlar milt-milt,
Kunbotarning ufqiday titrar tonglar...

Qora qismat dastidan zor ayladik,
Yuraklarga hasrat-u g‘am joyladik.
G‘ira-shira maqsadga dilni berib,
Belgisiz bir safarga bel boyladik.

Kimki to‘qdir — o‘zini oldirmaydi,
Qashshoq odam har damda dovdiraydi.
Ko‘ganidan bo‘shalgan ulokdayin
Bani inson alanglab javdiraydi.

So‘ndimi kun nurlarin shomga qorib,
Ko‘rinar yo olisdan tong oqarib?
Adashganning holiga bir qaragin,
Tegmasmi boshlarimiz toshga borib?

Oldinda hali tole, orzu go‘yo,
Ushbu kunda arzandadir shu’la, ziyo.
Ne tongki, och qashqirday bo‘zlasam gar,
Qovurg‘am qayishtirdi bu tor dunyo!

* * *

Ko‘klam kechib, ko‘ngilga kuz enadi,
Kuz rangidan yuragim muz emadi.
Gunoh, nola,tuhmatdan zada bo‘lgan
Manov zamon qay kuni tuzaladi?

Men mehnatga ishqimni kanda qilmam,
Lekin zamon ra’yi ne — ayon bilmam.
Yaltiragan yoshi bor yaprog‘ida -
Ayozlarda titragan men bir gulman.

Xo‘rlar hargiz izg‘irin gulning sha’nin,
Qayda bugun olligi gulg‘unchaning?
Ko‘kayimda — ko‘z yoshi yesirlarning,
O‘zagimda — o‘ksigi yetimchaning.

Meni baxtmas, qayg‘ular chirmab olgan,
Tomirimda orzular to‘ngib qolgan.
Qaroqchiday qoshimdan ketmay nari,
O‘z ko‘lankam — dilimga qutqu solgan.

Har kim qilar dunyoni har xil talqin...
O‘z-o‘zim-la xo‘shlashar kun ham yaqin.
Qanday mudrab, qandayin orom olar
Erta kunni oldindan bilsa oqin?!

Har kim tole taqdirin har xil yo‘ygan,
Men diyonat haqida toldim o‘yga.
O‘ralib Momo Havo etagiga,
Zamonning “diydiyo”sin soldim kuyga.

Garchi tegram xazonrez, ayoz yelar,
Ko‘klam yitmas, u yana qaytib kelar.
O‘zagimni tilkalar o‘lan bor-ku,
Men ko‘nglimni yupatay o‘zga ne-la?..

YO‘L OLDI DUOSI

Xudo yo‘ling o‘nglasin,
Xizir bo‘lsin yo‘ldoshing.
Arvohlar ham qo‘llasin,
Qirq chilton qo‘rg‘asin.

Chorlaganda chor taraf,
Dilingga ol o‘t qalab,
Yursin doim farishta
Qanoti-la qalqalab.

Yaratgandan so‘rayin:
Yorug‘ bo‘lsin Kun, Oying.
Ilashmasin joningga
Iblis-u jin, iloyim.

Olis yo‘llar bosar on
Ko‘liging bo‘lsin omon,
Ishonchingni yo‘qotib,
Rang-ro‘ying qilma somon.

Rizqing butun bo‘lsin, ayt,
Tortilmasin hech bir payt.
Ko‘rishaylik tinchlikda
Oy borgin-u omon qayt.
Omin!!!

MUXTOR SHOXONOV

(1942)

Chimkent viloyati, Lenger tumani Qashqasuv qishlog'ida tavallud topgan. Yetti yillik maktabni tamomlagach, "Yulduz" kolxozida traktorchiga yordamchi, keyin viloyat gazetasida adabiy xodim, Qozog'iston radiosida katta muharrir, Bosh muharrir bo'lib ishladi.

Chimkent Davlat pedagogika institutida tahsil oldi. Keyinchalik "Jalын" jurnalida Bosh muharrir, Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi boshqarmasida kotib vazifalarida faoliyat ko'rsatdi.

Mustaqillik yillarida Qozog'istonning Qirg'izistondagi elchisi lavozimida xizmat qildi.

Qozog'iston xalq shoiri. Uning she'riy va dramatik asarlari sharq xalqlari orasida katta shuhrat qozongan.

NORINQUM FOJIASI

1. Mahambetning so'nggi so'zi

Ba'zi bir odamlarda voqyealarni oldin ko'rish, sezish qobiliyati bo'lishini ilm-fan inkor qilmaydi. Mahambet[1] *oqin o'limidan ikki kun avval atrofidagilarga g'alati tush ko'rib chiqqanligini, tushida yelkasidan uzilib tushgan o'z boshi o'zi bilan vidolashganini aytib bergan ekan...*

Men tushimda zo'rlik ko'rdim, xo'rlik ko'rdim alomat.
Bir tanish qo'l turtib o'tdi allakimni panalab.
Zolim ishi yashirinib maxfiy kelishi juda yomon.

[1] Mahambet O'tamish o'g'li (1804–1846) — sarkarda va shoir, isyonkor, qozoq xalqining milliy qahramonlaridan biri.

Ko‘kragimga keldi boshim yelkamdan sapchib-dumalab.
Boraverdi otamakonim Oqyoyiqni yoqalab.
Yuragimdan oqqan qonga bo‘yalgandi bor olam.
Ha, bu tushim bekorgamas manov g‘avg‘o zamonda.
Hayot bilan vidolashar vaqtim yetdimi deyman-da.
Xo‘shlashar payt yetdi shekil, elim, sen bo‘l omonda.
Ozodlikka chaqirganman,
Sening qaysar botiringman,
Edim yana oqilingman
Ko‘plar havas qilar edi,
Jonachiring, yaqiningman,
O‘jar, orli oqiningman men sening.
Qalbi botir bo‘lmaguncha bir inson,
Katta shoir bo‘lolmaydi hech qachon.
Tug‘ilgan yurt — sen o‘zing armon, mungim,
Endi seni yetaklaydi yo‘l qalay?
Mening boshsiz qolganligim –
Sening boshsiz qolganliging bo‘lmagay!

Ha, haqiqat achchiq erur, baribir,
Haqiqat deb kirdim yolg‘iz kurashga,
Shoirlikning bosh talabi ham axir,
Bosh ketsa ham haqni aytish emasma?

O‘limga men yaqin bordim son marta,
Kimdir meni behimoya deb atar.
Haqiqat deb kuyib-pishgan shoirning
Qaybirining joni axir bexatar?

Go‘rda ham endi seni o‘ylab yotarman,
Bu sadoqat cho‘ziladi qanchaga?
Kim qanchama cheksiz sevsa Vatanni,
Uning tortar azobi ham shunchama!

Ishonaman, ishonaman: kuni ertang
Haqiqatni topib olar ulug‘ o‘lkam.

Qachongacha baxtga zo‘rlik minadir?
Qachongacha sotqinlar kun ko‘radir?
Qachongacha tulporga tegish sovrinlar
Eshaklarning bo‘yinlarida yuradir?

Ishonaman: kuni ertang
Donolardan pir tutadi ulug‘ o‘lkam.
Manov Vatan ezgulikka yuz tutar!
Davr-u davronga yaxshi kunlar yuz tutar.
Ertang hayot, tamomila o‘zgarar!
Shoirlarni sultonlardan ortiq ko‘ruvchi davr kelar.

Qadr tutaman xayollarni,
Ertaga did ham o‘zgarar.
Chin yurakdan sevmaganni
Jinoyat sanar kez kelar.
Tug‘ilgan yurt, qudrat-kuchsan o‘lguncha!
Olddan yorug‘, yorqin quyosh chiqquncha,
Dulig‘ani[1] qoq yorib gul o‘sguncha
Yer ostidan tikilaman men senga,
Ha, shuncha!

2. Ota hukmi

Semiz yigit kirib keldi entikib,
— Ota, — dedi kira-sola,
— Ota, — dedi erkalab –
Yurar eding doim mendan o‘pkalab.
Koyir eding odam bo‘lmaysan deya.
Endi so‘zing qaytib olarsan, chamasi.
Oti ketgan Boymag‘anbet sultonning
Menga bergan siylig‘ini qara-chi!

To‘rda o‘tirgan otasining oldiga
Mang-mang bosib bordi-da,
Oltin ip-la adiblangan yoqasi

[1] **Dulig‘a** — dubulg‘a (kaska, shlyom).

Sur teridan tikilgan
Choponini ko‘z-ko‘zladi bolasi.
— Qani, ayt-chi, — dedi shunda otasi, -
Ko‘rsatding sen qanday qahramonliklar?
Ikki oy bo‘yi qani, qaylarda bo‘lding?

O‘g‘li dedi:
— Guruh tuzdik to‘rt odam,
Maxanbetning yaqinlari,
Ixlos qo‘yib, o‘gitlab,
Maqtab, orqaga qoqib,
Qo‘shib oldik o‘rtaga.
Buning bari manov o‘g‘lingning aqli!
Aytaversam yetib ortar bir tongga.
G‘ofil payti qarmoq solib,
Maxanbetni aldab-so‘qib,
Boshin kesib, sovg‘a qildik sultonga!

— O‘y, zolim-ay, zolim-ay,
Yuzi qora zolim-ay,
Shunchalar zolimligingni
Qanday keldim-ay tanimay?
Bundan ortiq hasrat bo‘larmikan-ay,
Bundan ortiq hasrat bo‘larmikan-ay...
Deb otasi yig‘layverdi to‘xtamay...

— Qovog‘ingni yopdi, ota, nega mung,
Endi sening qay so‘zingga ishonay?
Esingdami mening bola kunimda,
Mahambetni yomon ko‘raman deganing?!
— Shunday, o‘g‘lim, aytilgan so‘z o‘q bilan teng,
Bir paytlar men Mahambetni jek ko‘rdim,
U paytlarda nodon chog‘immi edi,
Yo aqlim yetmasmidi-ya shunga,
Bandalik-ku olgan meni taqimga.
Bunga sabab — sening onang yoshlikdan

Oshiq edi shu Mahambet oqinga.
Azoblarda otsayam asov tonglarim,
Qayramadim men sira rashkdan xanjarim!
Ichimdan tinib yuraverdim ko‘ngan bo‘p,
O‘zin cheksiz qulday sevganning barin
Mashhur shoir sezgan yo‘q.
Onang marhum uni eshitsa, o‘tday to‘kib ko‘zidan,
Tamshanardi baxt topadiganday har bir so‘zidan.
Ulug‘ oqinga bo‘lgan ixlosini ham
Go‘rga olib ketgan edi o‘zi-la.
Attang, bizning sho‘r manglayli bu yurtda,
Erlar yetavermaydi so‘z qadriga.
Dim kech uqdim, Mahambetday botirga
Butun qozoq oshiq bo‘lsa — aybma?
Qudrati so‘z, haqiqatdan tonmagan,
Farosatin ezgulikka yollagan
Oqin — oqqush, ezgulikka chorlagan!
Ol, endi ayt, oqinni otgan bandani
Qay otangdan ko‘rgan eding, o‘ngmagan!?
Bu borada sen birinchi odamsan,
Odam emas, borib turgan nodonsan –
El dasturin, er dasturin xo‘rlagan.
Naq manovday xosiyatsiz voqea
Burun qozoq tuprog‘ida bo‘lmagan.
Har qandayin qiyin chog‘da
Ona yurt
Shoirlarin jonin solib qo‘rg‘agan.
Tushunmadim, armoning ne, o‘zi o‘g‘lim?!
Ertaga seni opchiqib yurt chetiga,
Izzatli el tupiradi betingga!
Shu xo‘rlikdan qutqarayin seni, o‘g‘lim,
Eh, bu alam o‘ng‘aylikda tiyilmas.
Qonimiz bir,
Yo‘llarimiz ham tutash.
Endi sening kasring tegib,

Menga ham
Tug‘gan yurtning tuprog‘i buyurmas.
Ha, xayrsiz, noli mayli, nolima,
Sho‘rlik bolam, tug‘ilibsan sho‘rima.
O‘zing tushding o‘zing qazgan go‘ringa.
Ketdik qani,
Choponni ol qo‘linga!

Kun turardi uyasiga botgali,
Xo‘mrayadi merov qumlar chotqoli.
Ular ulkan qora yo‘lga tushvolib,
Bir tepaning yoniga kelib to‘xtadi.
— Mana senga so‘nggi cho‘qqi — chiqarsan,
Bu oxirgi cho‘qqing sening, uqarsan.
Mening mohir merganligimni
Unutmagan chiqarsan, -
dedi ota o‘rtanib nor ko‘ng(i)li.
Dir-dir titrab:
— Unutmadim, — dedi o‘g‘li.
— Bolam, umid — umr mezoni, har qachon
Umid eding,
Qayg‘u bo‘lding kattakon.
Boshiga chiq, qani, manov tepaning,
Qoralading xosiyatli makoning.
Shu orada qoldiraman men seni,
Yaralading yurmas qilib otangni.
Manov yo‘ldan o‘tgan yurtning og‘zidan
Mahambetning she’rin tinglab yot endi.
Balki shunda anglab yetarsan xatongni.
Kim oyoqqa bossa qonunin dalaning -
Unutgani qattol tarix sabog‘in.
Kechir meni,
Tugadi bor amalim.
Dala urfi — bobolar urfi, qarog‘im, -
Deb otasi qo‘liga oldi sadog‘in...

JAROKOV NOMLI KO‘CHADAGI UCHRASHUV

I

Lovlatolmay gavdada bor uchqunni,
Yurgan edim armonlab olis qirni,
Bir kuni To‘lagan Oybergenov
Tarlon shoir Toyir bilan tanishtirdi.

Kuyin chalib o‘zining tang qolarlik,
Buloq oqar ko‘klamni sog‘inaroq.
Yakshanba kun. Shul sabab uchovimizga
Maqsad bo‘ldi tog‘ cho‘qqisiga bormoq.

Yoz o‘tgan, yoygan edi kuz qanotin,
Osmon turar bo‘zrayib bizga yaqin.
Olatovga o‘rlagan qayinlarga
Qarab, bizdan sir olmoqchi bo‘ldi oqin.

Jon edi-ya o‘ziyam jo‘shqin Toyir,
She’r aytardi tog‘-u tosh, oyga doir.
— Qani, To‘lesh, — kuldi u — senga navbat,
Sen ham tortinmay o‘tir, bola shoir.

Yayrab yotar har yonda sap-sariq kuz,
Ko‘p sirlashdik, ko‘p she’rni qaytalab biz.
Yorqin xayol-o‘ylarga ot chopdirib,
Kunning botayotganin payqamabmiz.

Bosh egdirib, daraxtlarni shapaloqlab
O‘ynab-kulib yurgan shamol hakalaklab,
Qora bulutdan qochvordi-yu, shu zahoti
Qora yomg‘ir boshladi deng naq chelaklab.

Bu yomg‘irdan qutulmoq, eh, qiyin bizga,
Solish mumkinmi hech axir tushov kuzga?
Har daraxtdan pana izlab zir-zir chopdik,
Foydasi yo‘q, suv-suv bo‘ldik uchovimiz-da.

O‘zin tutib o‘rgangan jon — oqin aka,
Chiniqqan-ov degan edim, hay baraka...
Sovuq o‘tib ketdimi yo, sal o‘tma-yoq
Boshlavordi quvda-quv, yo‘talmakka.

Kuz ko‘ngilning shiddatin no‘xtalaydi,
(Shuning-chun ham yurt kuzni ko‘p maqtamaydi.)
Yo‘l bo‘yida termulib biz uzoq turdik,
Qasd qilganday biror taksi to‘xtamaydi.

Umid-ku bor, ishonch ham qirqilmagan,
Pastga tushdik tor yo‘ldan to‘lqinlangan.
Oldda bir uy ko‘rindi, uy oldida
Turar suvday oq “Volga” yarqillagan!

Ko‘narmikan?..
Ko‘nmasmi?.. -
Yo‘naldim men.
Botirlandim, uy tomon yo‘l oldim men.
Darvozani qoqqandim — un bo‘lmadi,
Shundan so‘ng derazadan mo‘raladim men.

Tasodif deng, mo‘jiza yo oltin orzu!
(Har tasodif — chin tilakning podshosi-ku!)
To‘rda o‘tirgan meshqorin, sariq kishi
Eng qadrdon sinfdoshimning pochchasi-ku!

Ham o‘zimga ko‘ztanish — pochcha-kuyov!
(Bir tilakni qalayda bajarar-ov?!)
So‘nggi yillar obro‘yi tog‘dan oshib,
Kar’erasi ko‘tarilib ketgan darrov.

Saqla, Tangrim, umidi tugagandan,
Oy ham tug‘di biz uchun, baxt ham olddan.
Erkin ochib qoqmani, o‘zimsirab,
Ichkariga bostirib kirdim shodon.

Salom berdim. Salomni xush olmadi.
Gungurt tortdi shu lahza uy ayvoni.

Uzoq unsiz qoldik-ov... burungiday
Ota-onamning sog‘ligin ham so‘ramadi.

Xo‘p, qishloqdosh. Ne bo‘pti? Yo‘li — ulkan,
Balki, balki, qishloqni unutib ketgan.
— Ag‘ay, — dedim, — yomg‘irda qolib qo‘ydik,
Mashinangiz yetkizib qo‘ymasmikan?

— Men ham sening yoshingda yurdim yayov,
Davlat kelmas insonga oson, qistov...
Kuldimi u shundan so‘ng, tupurdimi,
Og‘zida turgan so‘zi tushib ketdi-yov.

Men har nega tayyor edim ushbu kezda,
Xato qilib qo‘ymayin deb endi so‘zda.
— Ag‘ay, — dedim yana men, — o‘tinaman, -
Bir ardoqli shoir bor yonimizda...

— Ne kerak yo‘qdan-bordan ko‘mak so‘rab,
Bozordagi gadoday yemak so‘rab.
Olmatida nima ko‘p — oqin ko‘pdir,
Burchimmi ko‘mak berish? Menmi do‘rrak?

Olddan devor, o‘tiksiz temir chiqib,
O‘tga-suvga olganday boshni tiqib,
O‘tirardim ko‘z bilan yer chuqalab,
Toshib kirgan ko‘nglim ham tez bosilib...

II

Yaxshi she’rni hamma yerda maqtab bir-bir,
Yomonlarni titratardi doim dir-dir.
Ko‘rinmaydi yig‘in-majlis minbarida
Shu kunlarda og‘am mening Toyir shoir.

Nima bo‘ldi?
Yo taqdirning ko‘zi o‘tganma?

Chirkin hayot xasis o‘zi o‘jetlarga[1].
Qani o‘sha chin do‘stlikka sodiq inson,
She’rlarini nega bermas gazetlarga?

Bermasin baxt-u davlat to‘rin, mayli,
Shundayam odam umiddan chekinmaydi.
Shoirlar tez-tez mukofotlanar-u,
Orada Toyir og‘am ko‘rinmaydi.

Bir armonni bir armon yetakladi,
Qirga chiqdi bul kunda etakdagi.
Ko‘p bo‘ldi-ku umrning o‘t to‘lqini,
Ikki do‘stni oqizib obketgani.

Tepadan quyosh quyar issiq chiroy,
Yo‘l yuramiz umidni ayay-ayay.
Qiziq bo‘ldi bir kuni, o‘yda yo‘qda
Chiqib keldi oldimdan semiz og‘ay.

Tez-tez nafas olardi yelkasidan,
Salom berdi. Salomi yumshoq biram.
Cheti singan idishday ko‘ngli yarim,
(Eshitgandim tushganin mansabidan.)

Kun o‘tkazib kuchliga tovon tirab,
Sho‘rlik, mansab bo‘lmabdi unga tirak.
So‘z qo‘zg‘adi yonimga yaqin kelib,
Ginaladi “og‘angni unutding” deb.

Nima gap, ola ipni kesasanma?
O‘pka qolsin o‘tmishning hissasiga,
— Qani, zemlyak,
uyga yur, mehmonim bo‘l,
Uyim mana Jarokov ko‘chasinda.

[1] **O‘jet** — o‘jar.

Kim senga o‘tmish kunni esla dedi,
Jim turaverganing xo‘p qo‘sha edi.
— Esingizda bor chiqar tog‘dagi oqin, -
Dedim kulib, — Jarokov o‘sha edi.

Eshitib bu gapni og‘am qoldi shoshib,
Qoldi shoshib, shoirning susti bosib.
— Yo‘g‘-ye, yo‘g‘-ye, — dedi dir-dir etib,
Mumkin emas-ye, yo‘q... — derdi tusi qochib.

Men bu gapni aytmay yurdim anchaga deyin,
Endi o‘yladim: kerakmi shu, yana o‘ylayin.
O, sevimli, nurli hayot mumkinsizni
Mumkin etgan qudratingdan aylanayin.

ILK MUHABBATGA XATLAR

I

Bir umidga ikkinchisin bog‘ladim,
Ko‘p ekan-ku berganimdan olganim.
(Kelarmikan dedim shunda omadim.)
Zang‘ar ko‘kka parvozlarim ne kerak,
Senga yetkazmasa agar qanotim.

She’rda aytib balandligim, pokligim,
Ko‘klam ham o‘tdi zo‘rg‘a bosib haptig‘in[1].
Kunda bog‘ni kezganlarim ne kerak,
Sen qoshimda bo‘lmagach, ey shodligim.

II

Botdi qancha kun qizarib,
Otdi qancha tong kulib.
Vujudimdan yulduz oqib,
Tog‘ quladi hayqirib.

[1] **Haptiq** — hansirash.

Men kelyapman chin muhabbat
qudratin kuylagancha,
Tez o‘zgargich tuyg‘ularni or o‘tiga yondirib.
Yurib kelyapman,
asl hislar, yurib kelyapman men kulib,
O‘tgan kunning belgilarin olib qol,
shubha, yulib.

Hayotimda ikki odamning qo‘li,
Barmoqlarning issig‘i,
Manglayimda qolib qo‘ygan mangulik.
Ehtiyotlab baxt nomi-yu, or otin,
Shu ikki qo‘l bo‘ldi mening qanotim.
Birinchisi — onam qo‘llari edi,
Ikkinchisi — sening qo‘llaring, sevgim.

III

Uchrashtirdi bizlarni taqdir yo‘li,
Shubha-gumon bizlardan uzdi qo‘lin.
Ro‘paramda kulimsirab turasan
Ko‘zlaringda umid to‘lib, nur to‘lib.

Qayg‘usi-yu shodligin — erta kelgan,
Erka eding, o‘z kuyin cherta kelgan.
Ro‘moling pokizalik belgisiday,
Hilpirardi bahslashib erka yel bilan.

Kelmay ketding, ko‘p bo‘ldi yoqaga san,
Bir yengillab qolardim “og‘a” desang.
Qopqoni ko‘p, miltiqli mergani ko‘p,
Dovonlardan o‘tdingmi omon-eson?

Mumkin hamon kuchim kam, ishim chala,
Oydinlanib keladi tushim mana.
Sen uchun men mangulik qarzdorman,
Menga cheksiz ishonganing uchungina!

ORZU

(Rivoyat)

Erta, erta, ertada,
Bizning o'lka — O'trorda
Bor zehnini ilmga qilib havola,
Qator o'sdi ikki birday yosh bola.

Birga yurib, birga qilib mashqni,
Birga o'qidi, birga o'ynadi oshiqni.
Ikkoviga nazar solar ra'iyat:
Juda noyob, iste'dodli nihoyat!

"Qanday baxt bu! Bunday zehn — Xudodan!"
Deb quvonar ularni ko'rgan har odam.
Ol, bolalar madrasani tugatdi,
Hali yoshi o'n ikkiga to'lmayam.

Taqdir bergan ularga zehn, qunt, qanot,
O'sayotir ana — ikki iste'dod!
Ularni ko'rib xalq quvonar begidir:
Ikkoviyam O'tror kelajagidir!!!

Shu O'trorda ilm-bilimi dar(i)yo,
O'yi uchqur bor edi bir qariya.
Shu qariya bir kun ikki shogirdni,
Hurmat bilan o'z uyiga chaqirtdi:

— Bolajonlar, polaponlar, ko'k maysa,
Maylimi bobong senlardan savol so'rasa?
Tug'gan el deb, xalq deb o'qib mukammal,
O'smoqda der sizni ko'rgan el tugal.

Men ham tanib-bilsam deyman, Siz kimsiz?
Qanday orzu yetagida yurarsiz?
Maqsadlaring nima o'zi tubinda,
Nega buncha berilgansiz bilimga?
Qani, Do'yil, sen ayt-chi?

Do‘yil dedi:
— Menda bitta orzu bor –
Chorlar meni quvlik, ilm-fan va or!
O‘qib-o‘qib, ilm topib, til topib,
Yurak-miyamda hisob-kitob o‘rnatib,
Zo‘r savdogar bo‘lsam deyman, jon bobo!
Davlatimga yurtlar aytsa tasanno!
Nomim chiqsa, ta’zim qilsa el bari:
Arab, Yaman, Misr, Bag‘dod ellari!
Ota yo‘lim topsam deyman shu taxlit,
Boyligimga hasad qilsa har yigit!
Bo‘y chaldirmay g‘iybat, g‘araz, itobga,
Hayotimni qursam hisob-kitobga.
Hisob emas uy oldimga har lahza
Dunyo boyliklari oqib kelmasa!
“Savdo ishi — til topganga” degan-ku,
Shuncha xalqning tilin topmoq kerak-ku!
Topishim shart yurt topmagan hiylani,
Ko‘rmoq uchun yurt ko‘rmagan foydani!
Chiqmoq uchun yurt chiqmagan dovonga,
Oshib-toshgan bilim kerak insonga!
Tilim topsang — kim cho‘zmaydi qo‘l uchin,
Zehn kerak, bilim kerak shul uchun!

Qariya dedi:
— O‘g‘lim, hasad quvibsan,
Dedim-a, buncha yelto‘qsonday[1] sovuqsan?
Elga qayishuvchi bola — shu, devdim,
Xalqqa tegarmikan foydasi devdim.
Foyda emas, sho‘rlar keladir sendan,
Orzularing balki qayta ko‘rarsan?

Do‘yil esa so‘zdan qaytmas:
— Jon bobo!
Orzularim o‘zgartmasman men aslo!

[1] **Elto‘qsonday** — qish paytidagi yoqimsiz shamol.

— Ol, sen nega bag‘ishlading zehningni,
Qay sohaga to‘kmoqchisan nuringni?
Yashirmay ayt, uyalmay ayt siringni!
Deb so‘radi bobo oldida o‘tirgan
Uyatchan shogird yoshgina bola Abudan.

Abu dedi:
— Menda ham bor ko‘p armon!
Qo‘lini silkib chorlab turar keng osmon!
Ulug‘ bobo, mening orzularim lek,
Farz-u muhabbatdan qurilgandir tek.

Bahra yetkazsam ilm bilan hunardan,
Xalqimni zo‘r barakaga belarman.
Bu maqsadim azoblidir, mashaqqat,
Ne bo‘lsayam peshonamdan ko‘rarman.

Mayli, yashayversam yarim-yalang‘och,
Mayli, umrim o‘tar kamtar, qorin och.
Mayli, o‘g‘li zahmat chekib, ko‘rib kam,
Yashaganin bilmayoq qo‘ysin xalq — olam.

Qorli bo‘ron qiron yo‘lin yoparma,
Hunar-bilim to‘lsa qishloq-shaharga?
Men o‘zimdan rozi emasman — xalqimning
Suyanchig‘i bo‘lolmasam agarda!..

Buni eshitib qariya o‘tirdi egib bosh,
Ko‘zlaridan oqa-oqa mo‘ldir yosh.

So‘ng dedi u:
— Barakalla, kul, yayra!
Ko‘l bo‘lmasa g‘oz-o‘rdakka yem qayda?!

Birovingdan orzu eshitib cho‘chidim,
Birovingdan yer-u ko‘klarga men uchdim!

Biring uchun xo‘rsina-xo‘rsina o‘tarman,
Biring uchun suysuna-suysuna o‘tarman.
Shuyta-shuyta men ham hayotdan ketarman.
Lekin, “Ey Tangrim,
bolalarimning baxtin och!
Ilm ber!” — deb duo-fotiha etarman!
Ol, duom shudir, fotiham shudir, boringlar,
Ilm tog‘ini ko‘tarib-ko‘tarib kelinglar!
Kutadi seni Turon tuprog‘i, shu hayot,
To‘lib kel, sen — ey O‘trorda tug‘ilgan iste’dod!

Goho yayrab, goho ajuvasi chiqib,
Yillar o‘tdi, yillar o‘tdi oshiqib.
Yolqin ediya, armoni oydin, o‘r ko‘ngil,
Ikki do‘stni ikki nahrga soldi bu umr.

O‘jar Do‘yil ham o‘zgartirmadi qarorin,
Mol-davlat unga ildam ochdi saroyin.
“Hisobsizning nasibasi o‘zarma?” -
Ayolini ham bog‘ladi Do‘yil shu zorga.
Mehmon hurmati osiladigan etni ham,
O‘zi o‘lchab-solib yurdi qozonga.

Boylikni degan nahang-yuho saranglik,
Yubordi uning iste’dodini garang qib.

Shu taxlit o‘zg‘ir, iste’dodli, yosh olim,
Uchradi shundoq to‘zg‘inga, aytma ahvolin.
Savdogarning o‘zi tugul, avlodlar
Unutdi ismin, bilgach savob-uvolin.

Ol, Abu endi ne qildi? O, u o‘z otin,
Keng yoydi Turon tuprog‘i uzra qanotin!
Abu degan bu ham olim bo‘ldi, ham oqin,
Uning ismi yuragimizga dim yaqin!
Abu Nasr al Farobiy, u — chaqin!

Mangu lovlab yonish uchun olamda,
Ulkan baxtga qonish uchun olamda,
Ulug‘ bo‘lib qolish uchun olamda,
Ulkan orzu kerak ekan odamga!!!

OG‘A

Rost, biz tug‘ilmadik bitta onadan,
Menga tug‘ishgandan a’losiz biroq.
Ne tong, yuksaklarni ko‘zlar har odam,
Men Sizga taassub qilaman har choq.

Ko‘rdim, imoningiz begard, beg‘ubor.
Zotan munavvardir diyonat yo‘li.
Og‘a, zamindagi ezgu insonlar
Ko‘rinadi menga xuddi Siz bo‘lib.

BAXTLI BO‘L

Mag‘rur ko‘nglim talpingani-suygani,
Qo‘shiq eding men-chun —
shomlar qo‘nganda.
Turib-turib qaytar edim uyga men,
Derazangning yog‘dulari so‘nganda.

Qarolmasdim botinib hech ko‘zingga,
Lekin ko‘ngling entikishin ilg‘ardim.
Seni hamroz etolmadim o‘zimga,
Yonsa hamki yuragimda ishq-dardim.

Balki shundan ketding ortga qaramay,
Ketding uchib, o baxt qushim, ayt, qayon?
Kaptari-la xayrlashgan boladay
Tole tilab qolaverdim men nolon.

* * *

Aytsam deyman dildagi bor so‘zimni,
Begona ham peshvoz kulib kelgan on.
Haqmanki, men qadrlayman o‘zimni
Va shu bois mag‘rurdirman har qachon.

Umr haqda ko‘p o‘yladim, to‘lg‘andim,
Do‘stlar, do‘stlar, mendan umid uzmanglar.
Meni har chog‘ haqiqat deb kuyungan
Fidoyilar qatoridan izlanglar.

ESKEN YELUBOYEV

(1942–2017)

Esken Yeluboev 1942-yil 18-fevralda Jambil viloyati, Qo'rday tumani, Otar qishlog'ida tug'ilgan. 1966-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

Ilk she'ri 1958-yilda respublika "Ara" jurnalida chop etilgan. Qirqdan ortiq kitoblari nashr etilgan. Uning "Ko'k ko'ylak" (1967), "Ko'kpari" (1970), "Bola degani" (1981) kabi she'riy to'plamlari, "Matonat" (1984) p'esa va she'rlar to'plami bor.

QIRG'INDAN QUTQARGAN QALDIRG'OCHLAR

(rivoyat)

Erta, erta, ertada,
Yeri jannat o'lkada,
Yovlari ko'p yon-yoqda,
Asqar tog'i bor yoqda.

Yetti suvi
Har yoqqa
Oqib yotgan
Aymoqda:

Elning qochdi baxt-quti,
Yovgarchilik mahali.
Yov chopqinin tiyishning
Topilmadi amali.

Tabiatning turlangan
Ko'klam kezi ko'kimtir,

Gul-chechakka burkangan,
Cho‘l-biyobon, qir-adir.

Muzlab erib qiyada,
Daryo oshib-toshgan payt,
Qaldirg‘ochlar uyada
Polaponin bosgan payt.

Chegaraga dim yaqin,
Bir yakka uy bor edi.
Bu tomlarga xo‘jayin, –
Egasi uning chol edi.

Taqir, gadoy yaralmish,
Qarasang turmush ko‘yiga.
Qaldirg‘och uya solmish,
O‘sha cholning uyiga.

Uya to‘la sari oltin, –
Qip-qizil jish, polopon.
Talpinmoqqa qanotin,
Endi qoqmoqda, nimjon.

Qaldirg‘och qush muqaddas,
Buni xalq ham biladi.
“Bu — Xizr nishoni, bas”, –
Deb chol aytib yuradi.

“Bu yil mening uyimga
Deydi u: “Rizq kiradi!..”
Biron-biri dard ko‘rmay,
Uchsa ekan...” — deb tilaydi.

Og‘zidan, tilidan kunda
Tushmaydi aytgan duo sasi.
Taraganday uyiga
Yaxshiliklar shu’lasi.

Bola qo‘lin qushlarga
Tekkiztirmay yuradi.
Qaldirg‘ochlar jivirlab
Sayramoqni sevadi.

Aqlgo‘y chol kuni bo‘yi
Ko‘kni chorlab xayoli,
Nonidan tashlab bir luqma,
Qo‘rg‘ab yurar uyani.

“Qaldirg‘ochga tekkanning
Qo‘li sinib qolar-ov...”
Duo, tilak, nasihat,
Maqsadi — orachalov.

Kelgandan so‘ng “elim” deb,
“Uya bosar yerim”, deb,
Takrorlaydi erinmay,
“Burchim-ku bu mening” — deb.

Xabar yetdi bir kuni:
“Kelmoqda, — deb, — qalin qo‘l”.[1]
Beshafqat yov qo‘shini,
Qoldirmaydi jonni ul!..

Ko‘chmanchi el shoshilib,
Tayyorlanar ko‘chmoqqa.
Bo‘lmagach el birligi,
Jon asramoq kerak-da

Deb “zamona sho‘rligi...”,
Yugurar, es chatishdi.
Jo‘nayotir barcha xalq,
Mo‘ljallab kun botishni.

[1] **Qalin qo‘l** — katta, tig‘iz lashkar.

Yig‘lab-siqtab, suyushib,
Vido aytib bor yurtga,
To‘rg‘ayday bo‘p burishib,
Qolayotir chol yurtda.

“O‘tovni yiq!”
“Ko‘ch”” der el,
“Buzmayman qush uyasin!”
Shunda qochyotganlar der:
“Ayniganda miyasi...”

Boshi egilmay quyi uning,
Qoldi yurtda, o‘rnida.
Turar yolg‘iz uyi uning,
Yov qo‘shini yo‘lida...

Qush uyasin buzmoqqa
Cholda chidam yo‘q axir.
Uyani vayron qilmoqqa
Qayda toqat, kuch, sabr?

Uyani buzsa chol agar,
Polaponlar netadi?!
Mushkul holin o‘ylab chol,
Ko‘z yoshga to‘ldi etagi.

O‘tov uzra charx urib,
Qaldirg‘ochlar chirlaydi.
Ayanchli hol qanchalar!
Aytishga til bormaydi.

Talpinar uya chetiga,
Polaponlar bariyam.
O‘zlari uchib ketuvga,
Yaramaydi haliyam...

Yov qo‘shini yov izlab,
Ola-suron keladi.
Oldda yupun bir o‘tov
Kiyiz uyni ko‘radi.

“Ur-ho, ur!” — deb ot soldi,
Na’ra tortdi suyunib.
O‘rab oldi lashkarlar
Cholning o‘tov—uyini.

Uyni ko‘rib yampaygan,
Yov aylana qurishdi.
Cholni ko‘rib shalpaygan,
Mazax qilib kulishdi.

“Qochmay, yo‘lda yotarsan,
O‘laksaday holing bor.
Qani, qanday botirsan,
Ayt-chi qanday siring bor?!”

Chol dedi qo‘rboshiga
(Chol odam nedan uyalsin?)
— Meni qo‘yvormas huv qushlar,
Ana, ko‘rdingmi uyasin?

Qaldirg‘ochni siyladim,
Polaponlarni qiymadim.
Ketolmadim ham tashlab,
O‘zimni o‘zim qiynadim.

Olgim kelmadi qarshisin,
Endi o‘zing bil nargisin.
Ne qilsang menga qil-u,
Ammo manov lashkaring
Qaldirg‘ochlarga tegmasin!
Niyati ezgu insonga
Qaldirg‘och do‘st har qachonda...”

O‘tov uzra charx urib,
Qaldirg‘ochlar chirlaydi.
Ular kutar bir hukm,
Aytishga til bormaydi.

Qaldirg‘ochlar chirillar
So‘rab turar rahm-shafqat,
Yov asabi jimirlab
Ketganday bo‘ldi shu fursat.

Qo‘rboshi aytdi hukmini:
“Bu yerdan tinch ketinglar.
Angladim, bu chol qavmi
Juda mehrli, bilinglar!

Bunday choli bor xalqlar
Hech yovuzlik qilmaydi,
Qani, qaytdik orqaga,
Qilichga qo‘l bormaydi.

Mehribon pok qalblarni
Hamma hurmatlab siylaydi.
Yuragi halol xalqlarni
Qul qilib bo‘lmaydi.

Qo‘rboshi otdan tushdi-da,
Cholni o‘rnidan turg‘izdi.
Qahrini qo‘yib quchdi-da,
Lashkarni ortga burg‘izdi.

Qo‘shin qaytdi orqaga,
Deb: “Cholning ishi — bu mardlik!”
Yovning ham ortga qaytmog‘i –
Bu ham mardlik, jo‘mardlik!

Yovni ortga qayirgan,
Yurtini yovdan ayirgan,
Dono cholning shu ishi,
Nomi xalqlarga yoyilgan...

QANIPA BUG'IBAEVA

(1942–2004)

Toldiqo'rg'on viloyati, Oqsuv tumanida tug'ilgan. 1983-yili Qozog'iston Davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. Bir qancha she'rlari qozoq shoirlarining rus tilida chop etilgan "Chudesnыy sad" to'plamida e'lon qilingan.

"Alash" nomidagi Xalqaro adabiy mukofot sovrindori.

Uning "To'ng'ich kitob" (1963), "Ikkinchi daftar" (1965), "Oq sut" (1968), "Qorato'rg'ay" (1970), "Ona tuya"(1973), "Ona qo'shig'i"(1974), "Qizdavron" (1979), "Ko'k bulutlar"(1982), "Mening ovozim"(1984), "Gullar ko'zini ochganda"(1985) singari to'plamlari chop etilgan.

UMR KUYI

Onasiman — o'g'il-u qiz bolaning,
She'r yozishdan to'xtamas hech qalamim.
Tinglaganim, tinimsiz umr kuyi,
Bu kuy erur sururi keng dalaning.

Ilhom bergan shu dalam, nechun tongum!
Har tong turib mehriga dildan qongum!
Tole tilab men unga, zafar tilab,
Yuragimning o'tida lov-lov yongum!

Aylandik biz yuksak bir emanga chin,
Nari bo'lsin qalblardan adovat-kin.
Sahardagi toshbuloq mavjidayin
Go'daklarim kulgisi uzilmasin!

* * *

Gullarimni ko‘klamga bildirayin, deb keldim,
Ko‘klamimni ko‘rmoqqa ulgurayin, deb keldim.
Tuyg‘ularim gul ochib — gurkurayin, deb keldim,
Qaramasang qayrilib, jim turayin, deb keldim.

Dildan yonib suymasang, yalinmayman, yomon ko‘r.
Yoshligimning gul chog‘in firoqlarda qildim xo‘r.
Mungin aytib yurakning yalinmayin, deb keldim,
O‘zing borsan, o‘zgani sog‘inmayin, deb keldim.

Kuz kelsa-da, sururin tuyib qolay ko‘klamning,
Mening uchun zindonda bo‘lmoq sensiz o‘tgan kun.
Men ko‘nglingning bog‘ida gul terayin, deb keldim,
Ko‘zlaringning tubida kun ko‘rayin, deb keldim.

Qo‘rib ko‘klam ko‘rkini “uh”lamayin, deb keldim,
Uzing lov-lov yonmasang, puflamayin, deb keldim.
Qo‘limdagi gulimdan gul tutayin, deb keldim,
Oradagi ginani unutayin, deb keldim,
Qo‘y-chi barin, o‘zingni bir ko‘rayin, deb keldim!..

TUNGI YOMG‘IR

Tungi yomg‘ir — mungli yomg‘ir tomchilar,
Tomchilardan oshgan qanday anchi[1] bor?
Derazamni chertib turgan saslari -
Mening ma’sum yuragimni qamchilar...

Ey sokin tun, og‘ushingni suydim ko‘p,
Tuyg‘ularning yolqinida kuydim ko‘p.
Ovloqlarda go‘zallari osmonning
Gul-g‘unchalar ila raqsga tushar xo‘b.

[1] **Anchi** — kuychi, qo‘shiqchi.

Chert-chi tag‘in yurak torin, yomg‘irim,
Faqat senga ishongayman qalb sirim,
Tun yomg‘iri esga solar goh masrur –
To‘rg‘aylarning sasi to‘lgan dasht-qirim...

Ko‘zi yoshli bulut sochin tarab soz,
Tevarakka shafaq berar zab pardoz.
Yodlab olib tungi yomg‘ir qo‘shig‘in,
Qushlar uni aytar tongga takror, boz...

Buncha qisqa sha’n umrning ertagi,
(Yo‘q, bilaman, yakuniga ertadir!)
Yuvib-chayib tun yomg‘irin saslari
Tuyg‘ularim oynaklarin chertadir...

NARMAXAN BEGALIULI

(1943)

Narmaxan Begaliuli 1943-yili Janubiy Qozog'iston viloyatida tug'ilgan.

Uning she'rlari 1961-yildan boshlab chop etila boshlagan. "Quvonch holati", "Jiyda hidin sochganda", "Olov" nomli she'riy to'plamlarning muallifi.

* * *

O'tloqda tugadi so'qmoq yo'l,
Sarhadsiz osmonda yo'q bulut.
Qo'ziqorinlar ham mo'ltirab
Boqishar muloyim, tinch. Sukut.

Picha titrab turar tiniq ko'l,
Sayrga chiqqandi xush sabo.
Yelpinib qo'yadi gohida
Maysalar berishib sas-sado.

Uyg'ongan dalaning sha'ni-la
Yashiklar yonida bobo — chol.
Silaydi bitta qo'li-la
Mo'ylovin ohista, u xushhol.

Ovozi o'zgarmas... Bolari...
Ko'zlari boshqa bir gul ko'rar.
Aylanib o'spirin bolaga,
Navnihol qizdan so'z so'rar.

Nafisdir hammasi hozircha,
Eng mayin nurlarga qonsin gul.
Hayotda barchasi o'zgacha:
Asalni kutajak iyun — bu...

* * *

Ilk bor kulib, oshiq bo‘libman, ana,
Men shu yerda go‘zallikda adashdim.
O‘sha yerda tamom bo‘lar bu dala,
Undan keyin boshlanadi osmonim.

To‘liq yurib o‘tsang agar bu yerni
Yuksaklikka chiqar eding uch hatlab.
Yomg‘irdan so‘ng bunda go‘dak gullarni
Yupatadi juft kamalak quchoqlab.

Shu bo‘yoqdan ko‘kragimga kuy inar,
Gumburlaydi bor ko‘nglimning sarhadi.
Bu maftunkor ko‘rinishlar doimo
O‘zi tomon qaratadi, tortadi.

Hislaringni sehrlaydi barcha rang,
Ko‘klam chog‘i dala ajib makon-ku.
Izlab yursam, kamalakning yarmisi
Maysazorga sinib tushgan ekan-ku!

* * *

Qizg‘aldoqlar, issig‘i mo‘l yolqindan,
Qizg‘aldoqlar, juda nozik sarobdan,
Eh, buroqlar, ko‘k tog‘lardan bo‘shagan,
Ko‘k maysalar ko‘k buloqqa cho‘milgan,
Ko‘rgim keldi sizlarni!

Ko‘k qirdagi sibizg‘ali shivirlar,
Ko‘klamdagi qirovi yo‘q umrlar,
Ko‘p ko‘zlarga o‘tdek tekkan kokillar,
Sog‘inib yuribman sizlarni!

* * *

Kumush shu'la taralib,
Go'zal Oyim boqsaydi...
Qora sochi oqarib,
Qorong'i tun keksaydi.

Tongdan meni chaqirar
Shabnamlari chaman, boq.
Tog'lardagi bor g'ubor
Har kungidan tiniqroq.

Betoqatdir yel — shamol,
Chopmoq istar bu buroq.
Oqqush — bulut qanoti
Kechagidan qizilroq.

Sir izlaydi shovillab
Limmo-lim suvli buloq.
Avvalgidan mahkamroq
Uni quchadi qirg'oq.

Kunlar kunga o'xshamas,
Davom etar bu hayot.
Ishqsiz yashash mumkinmas,
Yurak kuylasa bayot.

AQUSHTAP BAQTIGEREYEVA

(1944)

O'rol viloyatidagi Oqyoyiq tumanida tavallud topgan. 1961–1966-yillarda Qozog'iston Davlat Qizlar Pedagogika institutining filologiya fakultetini tamomlagan.

Viloyat va Respublika miqyosida o'tkazilgan oqinlar aytishuvida bir necha marta g'olib chiqqan. She'rlari Moskvadagi "Detskaya literatura" nashriyotida chop etilgan.

Uning "O'rimtol"(1967), "Noz"(1959), "Quvonchim, inkorim"(1971), "Seni o'ylayman"(1973), "Oqqanot"(1975), "Baxt qo'shig'i"(1978), "Yoyiqqizi"(1980) va boshqa to'plamlari e'lon qilingan.

BULBUL

Bog' qo'ynida bulbul sayrar damo-dam,
Kuylar oqib kelar tonggi havodan.
Sayraydi u to'lib-toshib tinmasdan,
Butun borliq masrur ajib navodan.

Navo kerak qirga ayni ko'klamda,
Navo kerak oq cho'qqiga bu damda.
Nima yetsin ajoyib, sha'n umrda
Bir bulbulday masrur sayrab o'tganga!

KO'NGLIM MENING

Ko'nglim mening beg'arazdir — angla, bil,
Qoshimga sen har qandayin paytda yel.
So'rab kelgin kunda ming bor suyunchi,
Yaxshi gapdan, ezgulikdan aytib kel.

Uyqum, mayli, buzilsa ham yarim tun,
Darvozamni qoqavergin berib un.
Ko‘ylagimning asilini sen uchun
Suyunchiga mamnun berib yuborgum.

BILMADINGMI?

Sen meni ko‘p ko‘rgansan
Buvimning orqasida.
Sen meni ko‘p ko‘rgansan,
Maktabning partasida.

Ko‘rgansan ko‘klam kezi
Oq Yoyiq yoqasida.
Qir-adirda gul tergan
Qizlarning orasida.

Bog‘larda ko‘rding meni,
Chamanlarda ko‘rding sha’n.
Eding sen o‘sha paytlar
Sodda yigit, uyatchan.

Har so‘zingga kulardim,
Kelgan chog‘lar ro‘para.
Endi seni qo‘msayman,
Diydor uchun yo‘q chora.

Sog‘inib sezmay qobman,
Umrning o‘tganini.
Bilmadingmi o‘sha qiz
Seni ko‘p kutganini?

QIZG‘ALDOQ

Ko‘kka belangan qirlarning
Chechaklarini ko‘p terdim.

Cho‘g‘dek tovlangan qizg‘aldoq,
Sovg‘asimisan ko‘klamning?

Ko‘kday yashnadim kulib men,
Quvondim gulni yulib men.
Ko‘klamni suygan qizg‘aldoq,
Zorimiding bo‘z yigitning?

Mujdasi bo‘lib bahorning,
Bag‘rida unding qish-qorning.
Ayta qol menga, qizg‘aldoq,
Sirdoshimiding qizlarning?

* * *

Kuzda ketgum oralab bog‘lar ichin,
Maftun aylar ko‘klamning gulzori chin.
Saxiy yozin xush ko‘rgum keng dalaning,
Qishni esa suyaman oq qori-chun.

Bu diyorga mahliyo bo‘lib chindan,
Suv ichaman Irtish va Yoyig‘indan.
Titrab ketar yuragim barg uzilsa,
Bemavrid bu kengliklar qayinindan.

OG‘ALAR

Sizlar osmon bo‘lsangiz,
Bizlar xumor qaraymiz.
Sizlar doston bo‘lsangiz,
Yodlamoqqa yaraymiz.

Sizlar chiqqan cho‘qqiga
Maxliyomiz biz har chog‘.
Sizlar tikkan bayroqqa
Tushirmasmiz aslo dog‘.

JARKEN BO‘DESHOV

(1944–2021)

Xitoy Xalq Respublikasining Sinjon o‘lkasi Tarbag‘atay aymog‘iga qarashli To‘langit ovulida dehqon oilasida tug‘ilgan. 1969-yili otamakon Qozog‘istonga keldi va 1974–1980-yillari Qozog‘iston Davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil oldi.

Ilk she’rlari 1962-yildan boshlab “Shinjon gazeti”, “Ili ro‘znomasi”, “Shinjon adabiyoti va san’ati” kabi qator gazeta-jurnallarda chop qilingan. Dastlabki she’riy turkumlari 1975-yilda “Jazushы” nashriyoti va “Ko‘klam jamoli” nomli yosh shoirlar to‘plamida chop qilingan. 1976–1984-yillarda Qozog‘iston Davlat kitob palatasida katta muharrir bo‘lib ishlagan.

Uning “Qo‘nish quroq” (1979), “Qo‘sh qanot” (1982), “Osmon tovushi” (1985), “Nurli bo‘yoqlar” (1988), “Zehn” (1989), “Yulduzga o‘rnini oy bermas” (1990) kabi she’riy to‘plamlari e’lon qilingan.

QUSHLAR UCHIB KELGANDA

Zamin uzra yangratar ko‘klam nayin,
Bir farahga chulg‘anar borliq mayin.
Uchib kelar chayqalib g‘oz-turnalar,
Biqinidan muz siqqan kemadayin.

Uzoq yo‘ldan kelarlar tog‘lar oshib,
O‘z qadrdon o‘lkasiga mehri toshib,
Jo‘rajon, ayoz kunlar tambalangan
Eshigu derazani qo‘y-chi ochib.

Surib qo‘y pardani-da ushbu on sen,
Qushlarning chug‘uriga yurak qonsin.
Chiroyli qanotlarning epkinidan
Dimiqib ketgan uylar tozalansin.

Yoshlikning otashlari o‘xshar tushga,
Sururi chulg‘anadi ruhga, hushga.
Sen tongda chorlab chiq-chi bolalaring,
Aylanib ketsak zora biz ham qushga.

OLAKO‘LGA AYTAR SO‘Z

Bo‘yingda bosib qalbim taftlarini
Kezganman surib o‘ylar avjlarini.
Undoq suzib, gohida bundoq suzib,
O‘pdim men suving mayin mavjlarini.

Esingga, Olako‘lim, olgin takror,
Men sening bolang edim sho‘xligi bor.
Qirg‘oqda qarmoq tashlab o‘ltirardim,
Shomlaring shafag‘iga boqib xumor.

Sarxushman yodga olib endi barin
(Alvon ufq nafaslari biram sarin).
O‘ynashar edi senda yulduzlar-la
Kumush to‘sh yoqut ko‘zli baliqlaring.

Gar butun bo‘lsa edi menda tole,
Kezarmi edim senda yolg‘iz qolib.
Oydin tun chag‘alaying ma’sum oyni
O‘ynardi qanotiga ilib olib.

Epkinin yo‘llaganda tog‘lar mag‘rur,
Bag‘ringga to‘lar edi ohanglar hur.
Bamisli lochindayin — adil uchgan,
Qo‘zg‘algan to‘lqiningdan edim masrur.

Qalbimni ilhom mavji chulg‘agan dam,
Shu mavjga o‘xshab ketgum goh o‘zim ham.
Xayolchan o‘tirganim sohilingda –
O‘tdi-ku bolaligim ko‘z o‘ngimdan.

* * *

Targ‘il toshni tuyog‘i-la tarashlab,
Tog‘ ohusi tik so‘qmoqlar yasar zab.

Xavf-xatarga ko‘kragini tutib, ha,
Chiqib borar naq chaqmoqli bulutga.

Qo‘rqmay dara, qoyalardan sakrar u,
Qanday yuksak,
Qanday qiyin
Shahddir bu!

Bu yo‘llarda achchiq tering tomchilar,
“Arxar yo‘li” deydi buni ovchilar.

Poyimgamas, chirmashgandek bo‘yimga,
Yurar hargiz bu so‘qmoqlar o‘yimda.

Kimga kerak yashab, umr surmog‘im,
Bo‘lmasa agar mening o‘z so‘qmog‘im!

KENGSHILIK MIRZABEK

(1946–1989)

1946-yil 6-iyunda To'rg'ay viloyati, Jankeldi tumanining Aqchiganoq ovulida dunyoga kelgan. Ilk ijodi maktab davrida boshlangan. Keyinchalik she'rlari viloyat va respublika gazeta-jurnallarida chop etilgan. Al-Forobiy nomidagi Qozog'iston Davlat Milliy universitetini tamomlagandan so'ng "Jetisu", "Qozoq adabiyoti" gazetalarida xizmat qildi.

Uning "Ajab dunyo" (1972), "Sururli davron" (1976), "Xumorli nigoh" (1985) kabi salmoqli to'plamlari chop etilgan.

BIR SIQIM TUPROQ

Tug'gan yer, qaytdim yana qoshingga men g'amgin,
Entikkan g'ozday ta'mini tuydim mung-g'amning.
Qo'ng'ir tepamning ustida mahzun turarman,
Qabrini ko'rib o'tgan yil ketgan og'amning.
Qo'ng'ir tepadan bir siqim tuproq olarman,
Ko'z yoshimga iylab, qabringga borib solarman.
Nahotki! — deyman o'kinib, — holi shu bo'lsa
Men uchun umrin baxshida qilgan odamning!
Tuyg'ularimdan bamisli ma'vo tuzarman
Ko'z yoshi ila ko'ngilni bir zum buzarman.
Barchasi o'tmish, yeldayin o'tgan umrning
Ummonday cheksiz g'amida qalqib suzarman.
Xayollarimga ko'rgan tushdayin qonarman.
Tanamga o'tlar tutashib, ichdan yonarman.
Oy muhri tushgan qabr toshining oldida
Mayda g'amlardan, mayda hasratdan tonarman.
Tug'gan yer, qaytdim yana qoshingga men g'amgin
Boshiga bordim o'tgan yili o'tgan og'amning.

Sizladi o‘rni yaramning,
Tuproqqa tuproq solarman,
Solarman-u unsiz qolarman.
Ayrilgan ushbu tuproqdan
Avval boshda birga yaraldim,
Tuproq degani — tug‘gan yer,
Isi bu — tug‘gan onangning.

* * *

O‘zga bir yerda ko‘klam bilan bugun to‘qnashdim,
Ikkimizgina... ko‘rmadi bizni o‘zga hech kim.
Men talay ko‘klam yog‘dularini ko‘rsam-da,
Ko‘hligin bundoq avvallari hech sezmasdim.

Birgina lahza — butog‘im gulga chulg‘andi,
Birgina lahza — bulog‘im erib, uyg‘ondi.
Birgina lahza — yozildi yurak xumori,
Birgina lahza — tarqadi ko‘ngil g‘ubori.

Bir ondan keyin sovidi butkul o‘t-tanam,
Bulog‘im qani, butog‘im qani ko‘klagan.
Shu bir lahzada kapalak bo‘ldim, o‘ldim men
Netayin o‘lsam...
“Yozmishdan o‘zmish yo‘q” degan!

ESKI KINOTEATRDA

Turibdi kinoteatr -
Qaysi bir zamon qurilgan.
Eshigi ustiga bir vaqtlar
Qora qoplama sirilgan.

Pollari ko‘p bor bo‘yalib,
Tomi yopilgan necha bor.

Yonidagi ariq yo‘qolib,
Bir uycha tushgan naqshinkor.

O‘sha-o‘sha qizil g‘ishtlar ham,
Qizili ketib, unniqqan...
Chirillar to‘rg‘ay dam-badam,
Pana axtarib issiqdan.

Sahna o‘shadir...
burundan
Sirli sehrini qo‘ymagan.
Ekran ham o‘sha — o‘rnida,
Turfa shu’lalar o‘ynagan.

Ko‘rindi
qiz-yigit shu damda,
Kelar bir-biriga qo‘l berib.
Bilmaslar
mening tanamda
Ketganin birdan muz erib.

SHO‘MISHBOY SARIYEV

(1946–2021)

Qizil O‘rda viloyatining Orol tumanidagi Sho‘mish stansiyasida tavallud topgan. 1966–1971-yillarda Qozog‘iston Davlat universitetining jurnalistika fakultetida o‘qigan, 1970–74-yillarda “Qozog‘iston” nashriyotida muharrir, 1974-yildan boshlab “Juldыz” jurnalida bo‘lim mudiri vazifasida ishlab keldi.

Qozoq o‘quvchilari uning tarjimasida G.Gulia, O.Berggols, I.Abashidze, S.Vikulov, A.Dementev, F.Alieva va boshqa shoirlarning she’rlari bilan tanishgan.

Uning “Shirin chog‘lar”(1974), “Go‘zal bahor” (1974), “Dengizdan esgan yel”(1975), “Taqdir”(1976), “Uch, tulpor Vaqt!” (1979), “Tush va o‘ng” (1980), “Uch o‘lchov” (1982), “Taqdir qo‘shig‘i” (1984) kabi she’riy to‘plamlari chop etilgan.

OQIN KO‘NGLI

She’r bitsang titroq-la qalam yo‘nib
Va o‘qisang — yurt tinglasa sirga to‘nib.
Tamakingga o‘t olsang chaqmoqlardan,
Naq sel bo‘lsang — qalbingga bulut qo‘nib.

Yaxshi o‘lan mangulikka daxldor,
Quyoshga ham yetguday avj shahding bor.
Yulduzlarday — ko‘k betida tovlangan,
Xalqing seni alqab, tuysa iftixor.

Asl she’rlar yashar mangu isyonday,
Asrlarning yuragida u jonday.
Bor zaminni chirmab, ushlab tomirin,
Yer yuzida chayqalsang cho‘ng o‘rmonday.

Kor etsa ham senga qismat ozori,
Toshib tursa yuragingning viqori.
Ulus senga ehtirom-la yo‘l bersa,
Kirib borsang izdihomni qoq yorib.

Sen umringning qadrin anglab daf’atan,
Hayotingning ma’nosini uqsang shan.
Abay, Pushkin tirilib kelishsa-yu,
O‘laning-chun tabriklashsa chin dildan.

Bu dunyoning oyi, kuni — sen o‘zing,
Chunki noyob, ilohiydir har so‘zing.
Ko‘nglingda bir she’r tug‘ilmish bu zamon,
Demak, ko‘kda charaqlar baxt yulduzing...

* * *

Keng dalamdan kiyikdayin kelaman,
Qo‘rqib xavfdan shamoldan tez yelaman
Vaqt mergan ovchidir — meni poylar,
Tegmasmikin o‘qi deb, seskanaman.

Ziyolilar ahlining imdodiman,
O‘lan uqqan har dilning faryodiman.
Men — dalam ufqlarida omon kezgan
Bobomning chaqnab turgan zuryodiman.

Kelaman bu dunyoni kuylab shoyon,
Ko‘rinar ko‘zga go‘zal yurtda har yon.
Qo‘rqmasman, cho‘chimasman men zarracha,
Chiqsa ham shaqirlatib jag‘in arslon!

Hislarim qanotida — teran fikrat,
Ne ishni orzu etsam qildim jur’at.
Sariorqa qirlarin kiyigiman,
Vujudim — bamisli sel, toshqin qudrat.

Inson deb men o‘zimni urgum dardga,
Ezgulik shukuhini solib qalbga.
Mendan so‘ng bir mangulik qolmasa-da,
Umidim yetaklaydi meni oldga.

Xayolim uchar ko‘kda misli shunqor,
Ruhimga timsol qirda o‘sgan chinor.
Lekin sen yelday chopib borar ersang,
Ko‘zingga yosh to‘larkan beixtiyor.

Kun sayin shon-dovrug‘i biyiklagan,
Zahmatkash qozog‘imni suydim dildan.
Millatim deb o‘rtangan shoirlarning
Taqdiri taqdirdoshdir kiyik bilan.

Ko‘nglimga bir shavq kirar ajib, masrur.
Istiqbol ufqlariga boqdim mag‘rur.
Kelajak! Kuyunganga kuyub oqqan
Kiyikday — men dalamning kuyiman hur!

KULASH AHMETOVA

(1946)

Qirg'izistonning Kirovka qishlog'ida tug'ilgan. 1968–1973-yillarda Qozog'iston Davlat universitetida o'qigan. "Jalын" nashriyotida she'riyat bo'limi mudiri bo'lib ishladi.

She'rlari qator qardosh xalqlar tillariga tarjima qilingan. Anna Axmatova, Aleksandr Mejirov, Salomeya Neris, Nazrul Islom, Eduard Mejelaytis she'rlarini qozoq tiliga tarjima qilgan.

Uning "Oq gulim mening"(1975), "Sen mening baxtimsan" (1977), "Yaproq — yozning yuragi"(1979), "Muhabbat yili" (1980), "Mehr"(1981), "Buloqdagi yulduzlar"(1982), "Yashil yaylov"(1984), "Laylaklar qaytib kelganda"(1985)kabi to'plamlari chop etilgan.

O'Z ELING

Sevgilingday yurar doim esingda,
Dog' tushirma sen shu ulug' ismga.
Otamakon — bobolarning baxti bu,
Yengib olgan asrlar ulushinda.
Kunlari-yu, tunlari-yu, gullari
O'zingniki ular sening, bilasanmi?

O'zingniki havosi, tong nuri ham,
O'zingniki yozi ham, yomg'iri ham,
O'zingniki dalasi, tog'-qiri ham,
O'zingniki ma'raka, kuy, she'ri ham.
Barchasi o'zingniki bo'lgandan so'ng,
O'zingniki bo'lgani taqdiri ham.

O‘zingniki suvi ham, o‘rmoni ham,
Ko‘llari, dalalari, qo‘rg‘oni ham,
O‘zingniki uylari, bog‘lari ham,
O‘zingniki ko‘chasi, yo‘llari ham.
Baxt, shodligi seniki bo‘lgandan so‘ng,
Qayg‘usi ham seniki, asra mahkam.

Bir ko‘rasan baxtni, mungni kelgan kunda,
Oltin bo‘lib ko‘rinar jez o‘ngingda.
Sen majbursan tug‘gan yurtning har parchasin
Bulbulin ham, kuyin ham, o‘zanin-da.
Onangning o‘z oldinda uxlaganday,
Baxt shu — adl yurganing o‘z elingda!

* * *

Bir karomat sovg‘a kutib kunda san,
Bolga to‘lib tursa deysan har kosang.
Baxt degani — yaxshi narsa-yov, faqat u
Vafosizligini, qani, bilmasang...

Yaxshi bo‘lay deysang hali bundan-da,
Adashmasdan yursam deysan tumanda.
Baxtliroq bo‘lsam deysan, umr-da,
Sal yuksakroq uchsam deydi qiron-da.

Yosh go‘daklar qilar kunda bol qiliq,
Yaproq o‘ynar titrab, yayrab, yulqinib,
Chag‘alaylar shuvlar ko‘kda charx urib,
Yotar olam yaxshilikka talpinib...

Gumonlansang, do‘sting umid qo‘llaydi-yov,
Ikki orada bordir ulkan sonsiz dov.
Xayol qushing qanot qoqar, qoqadi,
Baxtliroq bo‘lsam deysan...
Bo‘lmaydi-yov...

QAYG‘U

Ketding sen, ona, kechikmay,
Sezdim men umr salmog‘in.
Ukacham yig‘lab beshikda
Yotdi, men yupatolmadim.

Onasiz qizdan baxt yiroq,
Sezdim men hayot dovulin.
Ulg‘aytdi meni ertaroq
Beshikdagi bovurim.

Qani edi g‘amxo‘r bo‘lolsam,
Ko‘klam ham kelar ko‘k chiqib.
Ulg‘aytdi meni shundan so‘ng
Urushdan keyingi yo‘qchilik.

Ola ko‘zlarga yo‘liqib,
Ertaroq ip va igna oldim.
O‘rgandim erta so‘z uqib,
Ko‘pini uqolmay qiynaldim.

Uzaytiray deb umrimni,
Oshiqmoqni ham o‘rgandim.
Ayovdan qochib, yo‘g‘imni
Yashirmoqni ham o‘rgandim.

G‘am bilan erta do‘stlashdim,
Qiyaga yo‘l burilgandan-oq.
Qo‘g‘irchoq bilan xo‘shlashdim,
Tengdoshlarimdan burunroq.

Qo‘lladi shunda ishonchlar meni,
Qo‘lladi ishonchlar meni.
Hammaga ishondim, lek sening
Kelmasligingni bilmadim.

Ishonmadim — seni yo‘q desa el,
Sarg‘ayib kutdim yo‘llardan.
Ko‘klamda to‘kdi ko‘k ham sel,
Kelmasliging bo‘ldi armon!

Dardlarim to‘ldi ichimga,
Oy-kunlar tinmay izlayman.
Kerak eding-ku sen menga,
Hali ham seni yo‘qlayman.

Izzasin tortdim so‘zlarning,
Yechimga keldim mana shu:
Yonidan erta qizlarning
Ketmasa ekan onasi!..

MENIMCHA...

Yolg‘izlik degan oroldan,
Yopiq tosh qo‘rg‘on, qamaldan,
Qanotsiz, nursiz choqlardan,
Sovuqdan, izg‘irin, oq qordan,
Yupqa, yalang‘och kezlardan,
Hasaddan, g‘iybat so‘zlardan,
Jonga xavf tug‘ilsa qay-qaydan,
Xatarli xayol — o‘y-to‘qaydan
Neki bor balo-yu kulfatdan,
Chiqquvsiz zindondan, zulmatdan,
Hayotning eng yorug‘ chirog‘i –
Muhabbat olib chiqadi!

SERIK TURG'INBEKOV

(1946)

Serik Turg'unbekov 1946-yili Qostanay viloyatida dunyoga kelgan.

U "Sevgan yurak", "Asan ota izidan", "Yuragimning nuri", "Kech kelgan bahor", "Maxambet va Jangirxon", "Nurxon", "Muqag'ali" nomli to'plamlar muallifi.

SERIK[1]LAR

Bir umrga quvonch bo'lib,
Ko'rk bo'lib,
Halol bo'lib, muhabbatga g'arq bo'lib,
Hayot zavqin surganlarning ichinda
Sanab ko'rsang, barchasidan "Serik" ko'p.
Sen ham Serik,
Men ham Serik —
Tanib qo'y.
(Seriklardan ko'z quvonib, yashnar o'y)
Biroq biling,
Bolasiga kim bo'lsin,
Yomon ism bermasligi aniq-g'o'y.
Bolasiga bejiz ism bermas yurt,
Unda asil ma'ni — yo'ldosh, oti — erlik.
Biri — cho'pon,
Biri — chorva, nazoratchi,
Serik degan barcha joyda yetarlik.
Serik degan ism elga ma'quldur,
Biri — epchil,

[1] **Serik** — ism

Biri — barvasta, ko‘rkam.
Seriklarning boshin qo‘shsang aslida
Anov-manov ovulingdan bo‘lmas kam.
Birovi bor Moskvada yashaydi,
Birovi-chi BAMda oshin oshaydi.
Biri — tokar,
Biri — shofyor,
Biri — ovchi,
Biri — hofiz kuylovchi, Biri — sinchi,
Biri — shoir,
Biri — boks ustasi lol qoldirgan jahonni.
Biri — aktyor elga manzur aylagan qahramonni.
Biri — shaxtyor yer ostidan izlar konni.
Seriklardan afzal kiming bor endi!
Uyur-uyur mol haydagan chorvador,
Qanor-qanor momiq uygan paxtakor.
Biri “Engbek”, “Dinamo”da chang‘ichi,
Biri — “Qayrat”[1] o‘yinida darvozabon. Ko‘kchatovda,
Ko‘ktepada,
Kogonda,
Bolqon tog‘i,
Bayonovul,
Bo‘gonda. Biri — manov Chalqar yoqda, Irg‘izda,
Biri — yuksak Bolqor yoqda, Chegemda.
Serik ismi hamma elga taralgan
Boshin qo‘shib bor quvonch-u bor armon,
Serik degan ismiga xos o‘zlari
Bir-biriga sodiq sherik bo‘lib yaralgan.
Seriklarni sanading, deb qarog‘im,
Irim qilma, sheriklikka yarading.
Vaqt o‘zi qilib olar sarhisob
Qay bir Serik mangu bo‘lib qolarin!

[1] **Engbek, Dinamo, Qayrat** — futbol jamoasi nomlari.

KEL, OG‘AYNI, KEL, JIGAR!

Tag‘in otdi dilbar tong — umid bo‘lib,
Turibman olamni yangidan bilib.
Kela qolding Olatovga o‘xshagan
Beqasam choponni yelkangga ilib.

Kel, og‘ayni, kel jigarim, kel bizga,
Oltin xirmon uyganida el kuzga.
Larzon boqqa janub yoqda qayrilib,
Shimol yoqdan qaytib esar yel izga.

Qoni qizgan qalbing bilan kel bizga,
Qiziq dastur, gaping bilan kel bizga.
Tashna chog‘ing ichar ko‘k choy qolmasin,
Uzum, totli manting bilan kel bizga.

O‘tdek qaynoq palov bilan kel bizga,
Iftixoring — yalov bilan kel bizga.
Poygalarda olib kelgan uloqni
Yeldek uchqur bedov bilan kel bizga.

Qo‘ltiqlashgan qator elmiz bog‘i bor,
Tug‘ishganga o‘z og‘am deb baxtiyor.
Uyg‘un aka ko‘rsin o‘zin Markisin,
Zulfiyani takror kutar do‘st-u yor.

Quchoq ochib qarshi olgum muloyim,
Chin ehtirom mangu bo‘lsin, iloyim.
Dasturxonda oq bug‘doyning noni bor,
Qo‘y boshidan tortib qazi, qurt, moyim.

Bu zaminda o‘zingni shod kuldirgum,
Suvoriysan, ostingga ot mindirgum.
Yo‘ldoshingga ko‘rsatmoqqa tortinmay,
Boshingga chin suvsar telpak kiydirgum.

Eng avvalo salom bergin Abayga,
Jambul she'ri ma'qul bo'lgan talayga.
Olatovning cho'qqisiga ko'z tiksang,
Boshingdagi do'ppingni, do'st, avayla.

Olib borgum o'yimga ham, qirga ham,
Olib borgum Oq Yoyiq ham, Sirga ham.
Bir iltimos, ko'rmay ta'rif yozmagin,
Ehtiyot bo'l, maqtovga ham, she'rga ham.

Kel, og'ush och, sira turma o'ylanib,
Quchog'imni ochdim ming bor aylanib.
Qizlaringiz yigitlarni xush ko'rib,
Yigitlaring qolmaydimi uylanib?

Kelgin bugun, kel, og'ayni, kel bovur,
Quvonchdadir har bir kent-u har ovul.
Osmonimdan tanga qordek yog'ilsang,
Bag'rim bilan elab bo'lay men — dovul!

NURLAN O‘RAZALIN

(1947)

Olmaota viloyatining Uyg‘ur tumanidagi Ulkandixan (hozirgi Ko‘kbostov) ovulida tavallud topgan. Qozogiston Davlat universiteti (hozirgi Al-Forobiy nomidagi Milliy universitet)ning filologiya fakultetida tahsil olgan.

Yigirmadan ziyod she’riy to‘plamlar, dramalar, esse va publisistik kitoblarning muallifi. Ko‘plab dramalari teatr sahnalarida qo‘yilgan.

She’rlari o‘zbek, rus, ukrain, bolgar, turk, moldavan, qirg‘iz va boshqa tillarga tarjima qilingan. U qozoq o‘quvchilarini ko‘plab jahon she’riyati va dramaturgiyasi namunalari bilan tanishtirib kelayotgan zabardast tarjimon.

Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi boshqarmasining Raisi. Qozog‘iston Respublikasi Davlat mukofoti sovrindori.

YILGA TILAK

360...
Kunduz o‘tdi, tun o‘tdi.
Yuksaltirdi, gohi meni unutdi.
360...
Tong bo‘zarib uyg‘ondi,
Ne-ne yurak yangi kunga yuz tutdi.
Yil quyunday tez o‘tdi!

Suydik.
Kuydik.
G‘amlar chekdik. O‘rtandik.
Pushmon qildik.
Nimagadir o‘rgandik...

Yurtimizga yaxshi kunlar yarashdi,
Garchi ne bir jafolarni ko‘rgandik.
Shu yurt uchun o‘rtandik!

Ko‘kimizga moviy, ko‘m-ko‘k tug‘ ildik,
Ko‘k Turkdan biz go‘yo qayta tug‘ildik.
Uy ham,
Kir ham,
Butun borliq yashardi,
Ozodlikning sururiga yo‘g‘rildik!
Ko‘kka ko‘m-ko‘k tug‘ ildik!

Menga bardosh havas emas — ahddir bu,
O‘tkinchimas hurlik — endi naqddir bu,
Yuragimda — asrlarning nidosi,
Teran o‘yi,
Cho‘ng g‘ururi — baxtdir bu...
Saodatim — naqddir bu!

Davrim keldi — chaman bo‘ldi bog‘im, ha,
Qad rostladi “Qozoq” degan tog‘im, ha.
Ajdodlarning shukuhi bor qalbimda,
Unutmasman
Asrlarning dog‘in, ha...
Keldi yashnar chog‘im, ha!

Yuragimda — yaratgandan ezgu un,
Garchi ruhim g‘amlarga esh tun-u kun.
Qachon?
Kimga?
Tekkan, axir, op-oson
Ozodlikning ixtiyori bus-butun?!
Yuragimda ezgu un!

Erk yo‘lida kim oh tortmas,
Demas “uh!”

Hur zamon bu, tugar endi g‘am-anduh.
O‘tdi bir yil. Diyonat bor. Inongum.
Yuragimda — yangi ilhom, yangi ruh.
Muqarrardir bu shukuh!

Oldinda bor ne-ne dovon,
Dasht-u cho‘l...
Jannat emas hali senga o‘ng-u so‘l.
Xalqim, bir bo‘l, bir-biringga uzat qo‘l!
Istiqlolim — senga esa dong‘il yo‘l,
Sen mangu bo‘l, mangu bo‘l!

TEPALIK YONIDAGI O‘YLAR

Dalalardagi eski tepaliklarni ko‘rgan sayin esimga Gerodotning: “Saklar yurt hududiga yovlar bostirib kirganligi haqda tepaliklar ustiga olov yoqib, bir-biriga xabarlaganlar”, degan gaplari tushadi.

Jirovlarning so‘zlarida yodlangan,
juda ko‘hna zamonlardan saqlangan,
o‘qilmagan kitobdir bu Tepalik,
qolgan qadim xunlar bilan saklardan.

Olis-olis moziylardan un solgan,
bayroq ushlab, Oltoy oshib, yo‘l olgan -
bu Tepalik ko‘zimi yo Ko‘k Turkning,
taqimida talay tulpor — ot tolgan?

Bedovlarin qichab ufqni chotlagan,
yovlarini alamlarda dog‘lagan,
xazarlardan qolgan so‘zmi bu elda,
zamonlarni zamonlarga bog‘lagan?

Uysinlar va turkeshlarning ko‘zimi?
qumonlar va qipchoqlarning o‘zimi?

El birligin qo‘rg‘ay yurib, qoldirgan
ajdodlarning kelajakka so‘zimi?

Goh men moziy qalbidagi mungdayman,
tarix sasin tinglab ko‘zim yumgayman,
mo‘r-malaxday mo‘g‘ullarning dupuri
eshitilar quzg‘aydan-da, kungaydan.

Dilda g‘amim
cho‘ng hasratlar gardimi?
Shahid ketgan odamlarning mardimi?
Bu tepalik — Aspараning azasi,
No‘g‘aylining tashlab ketgan dardimi?

Qilich sermab tiriklikning qasdida,
yashiringancha dashtning pana-pastida,
xokiturob bo‘lib bir xalq tarixi
yotgandayin shu tepalik ostida.

Charxi dunning ohi dilda limmo-lim,
aytolmayin uni ro‘yi rost, balkim
yotgandayin Ipak yo‘lin tizginlab,
jo‘mard bobom ko‘zimizdan chetda, jim.

Er yigitlar surib jangga otlarni,
o‘zin yo‘qlik ummoniga otarmi?
Yo‘q, yotarlar — misli Dala sohibi,
tutashtirib Kunchiqar Kunbotarni.

Jur’atidan yovlar qo‘rquv tuygan chin,
tug‘yonidan titrab turgan Chin-Mochin;
boqiy elning shon-shavkati yotganday,
teran kechmish quchog‘ida olib tin.

U zamondan
aylar meni kim ogoh:
qaysi maqsad — ulug‘ cho‘qqi, qaysi — choh?

Kuyunaman... Xo‘rsinaman... Yuragim
otash uzra yotgandayin tortib oh.

U zamonning ayon na kuz, bahori,
ko‘nglimning ham yo‘qdir qurch bir qarori.
Tund Tepalik uzra mahzun turarkan,
vujudimni chirmar o‘ylar sharori.

O, bobojon...
G‘ururidan tonmagan,
o‘z yurtining toleiga qonmagan,
tepalikning — qo‘l cho‘zgudek yaqindan
avlodlarga, afsus, o‘ti yonmagan.

Manzil yetib, cho‘ktirilgan tuyasi –
qay davrning, qay zamonning egasi?
Ko‘zin ishqab,
zulmat tundan o‘tarkan
qayda uning yorqin tongi, ertasi –
bu tepalik qay davronning egasi?

Qay asrga egayin men boshimni?
Qay asrga to‘kayin men yoshimni?
Qay asrga olqishimni aytayin?
Qay zamonga ochay — otib loshimni,
qalbdagi quyoshimni?

Qay davrni kuylar bilan o‘rayin?
Qay davr-chun ezgu so‘zlar terayin?
Qay davrning qarshisida tiz cho‘kib,
Qay qalb o‘tin lov yondirib berayin?

Ey dil, davron shakari-yu bolina –
o‘ch bo‘lma hech! Aldanma! Va nolima!
Qay zamonni tomirimda chiyratib,
tarmashayin qay zamonning yolina?

Garchi moziy ko‘ylarida bag‘rim xun,
lekin tingla, ko‘kragimdan toshar un?
Ming-ming yillik umrim ezgu mehrobi,
huzuringda ta’zimdaman men bu kun.

OTAM YODI

Ruhim so‘ngan...
Qonda surur oqmaydi.
(“Xoksor uyning egasi bor...” Saqlaydi.)
Otam ketgan, endi mening g‘amxo‘rim
kelib sira eshigimni qoqmaydi.

Hazil-huzul qilmas endi ko‘ngli chog‘,
otlanmaydi shahar sari ko‘ksi tog‘.
Kelmas endi uchib-yelib, jonsarak,
yuribdimi o‘g‘lim deya, omon-sog‘.

“Chiqmadi-ya bir kitobing salmoqli”,
deb qo‘ymaydi va kutmas ham yo‘lim zor.
Urush ko‘rgan oqsoqolning pandini
qizargancha eshitmaydi el takror.

Shu qayg‘ular
ich-etimni tuzlaydi,
g‘amgin yurak jimirlaydi, muzlaydi.
Qatag‘onlar jabrin chekkan qalb endi
loqayd do‘stning kayfiyatin buzmaydi.

Mijjasida yaltiramas endi g‘am,
yurt oldida ko‘kragiga urmas ham,
do‘st-yoroni sog‘inadi ko‘p hali,
nomin tildan qo‘ymagay el hech bir dam.

Menga endi martaba-yu mol g‘ammi –
bular ulug‘ qilmas ekan odamni.

"Otang shundoq degandi..." deb odamlar
hali-hanuz eslasharlar otamni.

Na choram bor?
Kech angladim, kuyindim,
fayzi ketgan — to'ri bo'shdir uyimning;
garchi yoniq ko'zlar boqar suratdan,
mashqi pastdir endi ko'ngil kuyimning.

Yuragimni munglar o'rtar pinhon, zor,
kunlar qani — menga bergan avj viqor?
Ilhom so'nsa... Qayta yozgay qanotin,
chin sog'insang, jo'sh urgay u qayta bor.

Ilhom qaytar... dunyo bo'lar chamanim,
Oh, otam-chi! Armonimdir, oh, manim.
Kelmas endi, eshigimni qoqmaydi,
Shular haqda to'lib yoz-chi, o'lanim!

Bir to'kilgin!
Taningda o't yonsin, o!
Ezgulikni yuragingga ayla jo!
Nurin to'kkay yo'llaringga samolar,
Otang ruhi bo'lar sendan ko'p rizo!

OTASHIN QALB

(Oqin to'yidagi so'z)

Yaratganning o'zi unga madadkor,
oqin uchun qayg'u — uyat, hasrat — or,
yer ustining azobida o'rtanar,
hammasining birdek o'jar fe'li bor.

Oqin uchun qadrsizdir siym-u zar,
ezgulikka xizmat qilmas bo'lsa gar;
ishq yo'lida ayamas hech jonini,
sevgani-la she'r tilida gaplashar.

Sal narsadan u masrur va biyron til,
sal narsadan gohi ichdan ketar zil,
bir ota va bir onadan yaralgan –
shoir degan bu g‘alat qavm shunday, bil.

Yo‘lin kessang yashirmaydi “yovligin”,
eli bilar oqin ko‘ksi tog‘ligin;
tumor yanglig‘ yuragida saqlaydi
u o‘z xalqin saodatin, sog‘ligin.

Oqin ahli chiqishmas ko‘p taxt ila,
shundan mengzar eli uni baxt ila!
Ona — osmon, otasi — yer odamga
so‘z bo‘lurmi o‘lan yozish shahd ila?

O‘lan uning bor borlig‘i ajoyib,
(o‘tli she’rga taqildimi oz ayb?!)
Quvla-quvla qilinsa ham, oqinlar,
qatorlari qolganmi hech ozayib?

Qo‘rqitolmas uni sira dov-u do‘q,
noshudlarga aytgan so‘zi misli o‘q;
yurt g‘ururi, el sururi uchun u
jonin tikkan, bundan ko‘ngling bo‘lsin to‘q.

Yasha!
Bor bo‘l!
Oqin otli zo‘r yurak,
otashin qalb — bu zaminda tengi yo‘q!

ONA YURT

Onamday azizsan sen, yurtim manim,
mehringga baxshidadir jon-u tanim.
Bir zamon murg‘ak dilda jo‘shdi hislar,
parvozin topdi senda ilk o‘lanim.

Umr bu — oshib o'tib qirdan-soydan,
rizqimni topmayin men qaysi joydan,
Baribir sening o'rning bo'lak menga,
sen menga dasturxonsan onam yoygan.

Men sening ilhoming-la g'arq yuraman,
sen bilan yuksalaman, barq uraman.
Turmushning ummonida qolsam ojiz,
ko'yingda chag'alaydek charx uraman.

Qamishlar ko'l mavjida titragan on,
Oqqushlar uchar to'p-to'p ufqqa tomon.
Qo'msagan damlarim men suluvlikni,
sen sari talpinaman hanuz-hamon.

Armonlar,
yuragimni qiynamang, bas...
Tunlar men yulduzlardan tinglayman sas.
Zoriqqan paytlarimda haqiqatga,
dilda she'r tug'yon urar, tinchlik bermas.

Ko'klarga
qanotimni yozib bir qur,
yuksalsam tonglaringda tuyub surur,
uyg'onar tog'lardagi sharsharadek
vujudim tub-tubida teran g'urur.

Qayg'uli damlarimda — o'zingdayman,
orzuli damlarimda — ko'zingdayman.
Men ushbu keng jahonni, axir, netay,
o'zingsiz ko'rolmayman, tuyolmayman.

O, sensan — chin toleim, ezgu sha'nim,
madhingni kuylab o'tgay she'rim manim.
Yuragim... Bor vujudim...
Ona yurtim,
O'zingsan bu dunyoda suyanganim!

MANGULIK

Ta'nalar otmay o'tmishga,
zarda qilmay, ushbu kunga ham –
oshiqish kerak!
Yo'l qisqa,
umr degani — bir tutam.

Yurakning qurir madori,
gar uni asrab-ayarsan;
sezilib g'amning zalvori,
bir kuni holdan toyarsan...

Cho'qqiparastdayin bir vaqt sen
qularsan yalang muz uzra,
qalbing tubidagi eng ichkin
so'nggi umid ham uzilar;

oy botib ketar sen uchun,
otmaydi tonglar endi hech,
taratmas ko'lda mavjlar un,
qorayar ufqlar erta-kech;

yo'llar to'zoni bosilar,
yangramas qirlar kulgusi,
ufqlarni to'sib osilar
noma'lum kunlar tur-tusi;

qorayar osmon zangori,
tuyg'ular to'zar, kuy so'nar,
ortib yuraklar oh-zori,
har bir umrga mung qo'nar...

Tog' ham, to'qay ham yalang'och
qoplaydi qorlar har yonin,
sochganda ko'klam nur qiyg'och,
tashlaydi qirlar chakmonin.

O‘zandan mutlaq qochar suv,
quduqlar tubi sim-siyoh,
lekin yana ko‘klam kelar-u
uradi belga gul-giyoh.

Sog‘ingan ko‘ngil yupanar,
sevingan ko‘zdan yosh tomar,
cho‘qqilar uzra nur yonar,
yangi bir davr boshlanar...

Yuraklar qalqib jim, beun,
tuyg‘ular tuyar ajib tot.
Zavqlanar bizsiz dala, tun,
kuylagay unda yosh avlod!

Bolalar kelib boshqa bir,
yer bilan ko‘kni baholar,
xabar bergancha tosh qabr,
ufqlarga intiq qadalar...

Mangulik shudir — bir lahza,
o‘rtanib, yonib, kuyganing,
tole, baxt tilab boshqaga,
uni o‘zingcha suyganing.

Mangulik shudir — bir lahza,
qiynalib terlar to‘kkaning,
ilhoming jo‘shib yurakda
kulganing, azob chekkaning.

Mangulik shudir — bir lahza,
andarmon bo‘lib vaqtga -
unutganing o‘lim borin, ha,
aldanib yolg‘on baxtga.

Mangulik shudir — bir lahza,
eshik va mehrob orasi.

Ohing mavjlanar falakda,
topilmas darding chorasi.

Mangulik shudir — bir lahza!
Orzuning qanoti sinmaydi!
Zavol topar-u bog‘-bog‘cha,
Yurakning qo‘shig‘i tinmaydi.

Shu bois, do‘stim, aldanma,
gina qilib bugun, o‘tmishga,
davrni yondirib tug‘yon-la,
kurashish kerak!
Oshiqish kerak!
Yo‘l — qisqa...

JARASQAN ABDIRASHEV

(1948–2001)

1948-yilda 7-mart kuni Qizil O'rda viloyatining Orol tumani, "Omon o'tkel" ovulida dunyoga kelgan. 1963–1965-yillarda Qazali Qishloq xo'jaligi texnikumida o'qigan. 1965–1969-yillarda Qozog'iston Davlat universitetining jurnalistika fakultetida o'qigan. "Qozoq adabiyoti" gazetasida, "Jalsh" bayozi tahririyatida, "Julduz" jurnalida xizmat qilgan.

Oltmishinchi yillarning o'rtalarida adabiyot maydoniga kirib kelgan yosh Jarasqan qozoq she'riyatida o'ziga xos ovozi, tarjimonlik mahorati, xalqchil she'riyati ila dong qozondi.

Uning tarjimasida qozoq o'quvchilari R. Tagor, P. Elyuar, M. Bsisu, Y. Kupala, Y. Yevtushenko, R. Rojdestvenskiy, N. Dorizo, B. Okujava singari taniqli shoirlarning she'rlari bilan tanishganlar.

OQ BULOQLAR

Oq buloqlar.
Oshiqqan oq buloqlar.
Hozir Ko'klam.
Oldda Yoz.
Chopqillab qol.
Zilol suving kutar tashna uyg'ongan bog',
Kurtaklar-u gul hididan
yayrar dimog'.
To'lqinlaring shoirlarni sog'intirdi,
Seni eslab qalblariga to'lqin kirdi.
Kumush kulging taraldilar she'rlar bilan,
Yo'llaringga peshvoz ular qirda bu dam...

Kutmoqdadir sayozlashgan ko‘llar seni.
Kutmoqdadir ilhaq taqir cho‘llar seni,
Bosh ko‘tarib termiladi boychechaklar –
Qizilqumning tashna bag‘ri seni kutar.
Xayol surgan cho‘ng nuroniy boqqan misol,
Qurib qolgan ming-ming jilg‘a kutar visol.
Tashna ular.
Oshiqqan oq buloqpar.
Hozir Ko‘klam.
Oldda Yoz.
Chopqillab qol.
Ko‘rging kelsa qozoqning keng dalasin
Va farzandi sanalmoqni istasang sen,
O‘tging kelsa qush ucholmas sahrosidan,
O‘pging kelsa qirg‘oqlarni — o‘pilmagan,
Armoningni ko‘mmoq bo‘lsang yiroqlarga,
Qo‘shilmoqni istasang oq saroblarga,
Oq buloqlar.
Oshiqqan oq buloqlar.
Hozir Ko‘klam.
Oldda Yoz.
Chopqillab qol.
Ufq ortiga berkinadi Oftob hozir,
Qizargani uning — xayr deganidir...
Shunday o‘tib boradi vaqt, qaytmaydi.
Seni mangu o‘z erking-la o‘ynatmaydi.
Kuz ham kelar, mavjing so‘nib, sen tolarsan,
Qish ham kelar, muz ostida yo‘qolarsan.
Oq buloqlar.
Oshiqqan oq buloqlar.
Hozir Ko‘klam.
Oldda Yoz.
Chopqillab qol.

TUQQAN OVUL TUTUNI

Vatan — mening to‘kislagim, butunim!
Men bilaman: yurtim baxti, quti kim?!
Erta nahor turib eldan ertaroq,
Eslayman men ovulimning tutunin!..

U bamisli jimirlagan ko‘ldaydir!..
(Hamon meni o‘z yoniga kel deydir!..)
Oq uylarda ko‘k ro‘molday yelvagay,
Sarin yelda hilpirashin ko‘rsang bir!..

Cho‘qqilarga oltin oftob qo‘ngan on,
Shabnamga nur chayib yutgum men chandon!
O‘xshataman shunda moviy tutunni
Bayrog‘iga tiriklikning begumon!

Qut-fayzini qo‘shib ezgu tilakka,
She’rlarim-la ko‘tardim men yuksakka.
Uzoqlarda o‘ralaman to mudom –
Shu yoqlarga olib uchgan yurakka!

So‘zlarimga moviy osmon kafil, tan,
Shu tutunning isi menga ajib, sha’n.
Kengliklarda ko‘zin ochgan men uchun –
Shu tutundan boshlanadi cho‘ng Vatan!

OXIRGI O‘LAN

Oxirgi,
eng oxirgi,
so‘nggi o‘lan,
buncha noxush,
buncha sovuq noming nedan?!

Baribir hech qo‘rqmayin,
titramay hech,
men senga yaqinlashib bormoqdaman.
Taqdirning azal-azal nozi ma’lum,
toqati yo‘q bunga hech ba’zilarning...
Sirlarim — dil tubida garchi borsan,
ma’lummas lekin qachon yozilaring.

Sen meni bexos bir kun toparmisan,
tepamda chaqmoq bo‘lib qotarmisan?
Chirqirab qolarmisan bosh ustimda,
sen o‘zing ko‘zlarimni yoparmisan?
Va yoki yetkazgali shum xabarni
xalqimga qora kiyib choparmisan?!.

Bahslashib tabiatning zongi[1] ila,
yozgaydir asl oqin qoni ila.
Xo‘shlashmoq hayot bilan oson emas,
o‘lurman men chin o‘lim shoni ila.
Ishonch-la chiqdimmi, bas, yo‘lga dadil,
kelajak ko‘ziga men boqqum adil!

Goh bo‘lar misli chaman o‘ng-u so‘lim,
o‘ylarim chechak ochar,
kuyga to‘lib...
eslatar lek ertamni beixtiyor
har o‘lan — xuddi so‘nggi o‘lan bo‘lib.
So‘nggi on qay manzilda topar meni,
bu so‘nggi o‘lanimda yozgum neni?

To mudom sof tutdimki imonimni,
solgayman men unga bor imkonimni,
Bilmadim, ko‘tararmi duch kelgan kas,
ketsam gar orqalatib armonimni!..

[1] **Zong** — qonun.

Qarshingda bosh egarlar, olgancha tin,
tanqidchi tosh otmagay senga, tayin.
Yurarsan Uyushmada, davralarda,
"Do'stingiz qadrin biling!" degandayin.

Ko'z yoshi vujudidan oqib sim-sim,
yorim ham o'qir o'krab har bir baytim.
Mung'ayar do'stlar tugul, yovlarim ham
g'arazdan kuyub-yongan — tirik paytim.

Sen o'jar sururimga doim yorsan,
demayman, nomim mangu qoldirarsan.
Daf'atan ko'zi tushgan loqayd qalbni,
chorasiz teran o'yga toldirarsan.

Hislarim mangu qaynab-toshar senda,
Dardini tuygay balki bashar senda.
"Hayot!" deb yonib o'tgan yuragimning
So'nmas bir hayqirig'i yashar senda!

TURSUNOY O‘RAZBOYEVA

(1948)

Chimkent viloyatining Sayram tumanida tavallud topgan. Qozog‘iston Davlat universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan. 1980-yildan boshlab Qozog‘iston radiosining adabiy-dramatik Bosh tahririyatida faoliyat ko‘rsatdi.

T. O‘razboyeva aytishuv oqini sifatida ham tanilib, viloyat va Respublika miqyosidagi bir qancha nufuzli musobaqalarda g‘oliblar safida bo‘ldi.

Uning she’rlari “Tong shafag‘i” (1977), “Yurak ohanglari” (1981), “Sen mening bahorimsan” (1986) nomli to‘plamlari orqali keng o‘quvchilar ommasiga yetib borgan.

MOSKVA DAFTARIDAN

Degandayin — quloq tut rozim tinglab,
Yig‘loqi kuz, turibsan tag‘in yig‘lab.
Seni anglar o‘zim bor, darding so‘yla,
Ketdi ko‘klam yiroqqa bag‘rim tig‘lab.

Nafasi-la muzlatib xush damimni,
Olib ketdi qaytmas vaqt — ko‘klamimni.
Ajib qo‘shiq sururin unutganday
Qo‘biz — vujud chertadi mungli unni.

Taskin berar yupatib ozurda tun,
(Qish ayozin kutadi entikib kim?!)
Yostig‘imning ifori ketgan yiroq,
Tashqarida xun yomg‘ir yig‘lar sim-sim.

Shukuhsiz kuz shuurdan hech jilmaydi,
Qalbingga g‘am to‘shashin vaqt bilmaydi.

Quchog‘i gul ko‘klamning mehrin qo‘msab,
Tund osmonning qovog‘i ochilmaydi.

Quz yomg‘iri ruhim band etgan chog‘i
Yodga tushar sevgining armon-dog‘i.
Meni tunlar uyg‘otib dilgir etar,
Yiroq ketgan ko‘klamning yangirog‘i.

* * *

Birov to‘q va sekirar isinmoq-chun,
Birov ne bir hasratdan yuragi xun.
Ko‘zin artar yengi-la qariyalar,
Ruhi so‘ngan haykalga boqib beun.

Turfa xil kas to‘rg‘aydek tiziladi,
(Qishdan darak beradi kuzning rangi).
Barmog‘ini nuqiydi bir chorasiz,
O‘chi borday dunyodan, g‘ijinadi.

Umid o‘ldi, xor butkul — nedir sabab,
Boy va gadoy zamoni bo‘ldi-ku zab.
To‘q-bisyorlar kerilib “qadr” topsa,
Yurar ko‘plar to‘rva-yu qop orqalab.

Narx-u navo etmoqda dilni zada,
Miskin ranglar ilashdi shu’laga-da.
Kimga — jannat, kim uchun do‘zaxdir naq
Izdixomga aylangan bu cho‘ng qal’a.

* * *

Kuzgi osmon xo‘rsinib, mungli yog‘ar,
G‘amli umr hasrati kimga yoqar?!
Kimsalarning oh-vohi, dardlaridan
Mag‘rur Pushkin haykali mahzun boqar.

Tundlashadi ko‘chalar,
Qizil maydon,
Ketgandayin undan fayz, viqor, bu on.
Do‘stlik so‘zi yangragan bu ma’voda
G‘udranadi kimlardir yoqavayron.

Gijbang kuydan charchaydi asab-miya,
(Yigit qizga osilar — suya-suya...)
El qo‘rg‘agan erlarim bosh qo‘shgan yer
Bo‘lmish bu kun iblis-u jinga uya...

Mast-u alast — yuziga sochgandek kul,
Suluv qizlar tortinmay so‘raydi pul.
Go‘dak ila sirlashar jon topmaysan,
Oq kaptarlar o‘rnida zog‘lar nuqul.

Kuzga boqib junjikar qayin hargiz,
Unda ko‘klam rangidan qolmagan iz.
Baxt qo‘shig‘i kuylangan bu maydonda
Xayr-sadaqa so‘raydi turfa baxtsiz.

Bildi ko‘plar qismati sho‘rligini,
— Kim bosar, — deb, — ko‘ngilning xo‘rligini,
Ko‘cha kezgan xoksorlar xo‘rsinadi,
Baxtim deya aytolmay hurligini.

XONBIBI YESENQORAYEVA

(1949)

Janubiy Qozog'iston viloyati Sariog'och tumanida tug'ilgan. 1972-yilda Chimkent Davlat pedagogika institutining filologiya fakultetini tamomlagan. U "Qozog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvoniga ega.

Xonbibining "Ilk-to'plam", "Yulduz", "Muhabbatim mangu", "Haqiqat tomon suzdim men", "Qo'shiqlarim — sirlarim" kabi she'riy kitoblari o'quvchilar mehrini qozongan.

YIGITLAR

Siz — elim yuksak tog'i,
Siz — ko'nglimning ardog'i.
Suluv-ku ko'p dazamda,
Yigitsizmi qozog'im?!

"Elim-ov" deb kuyladik,
Ajib o'ylar o'yladik.
Mo'min bo'lib o'sdik biz,
Qad kermadik mag'rur, tik.

Dasht-dalada cho'lladik.
Dasht-dalada o'rladik.
Qay tovondan toptalib,
Kimdan xo'rlik ko'rmadik!

Goh murg'ak jon so'lganda,
Qal'a kulga to'lganda,
Bobolar ko'ziga yosh -
Kelgan oilar bo'lganmi?!

Go‘dak g‘amin yeganlar,
Aylanganday emanga –
Ko‘z yumar lahzada ham,
Biz yengildik, deganmi?!

Sovut bo‘ldi kiygani,
Yovga boshin egmadi.
Qoqildi ne tulporlar,
Ne o‘tovlar kuymadi?!

Tarix changin qoqmaylik
Va nuqul ayb taqmaylik.
Mard qozoq yigitlarin
Ardoqlaylik, saqlaylik!

ULUG‘ DALAM

Yashil olam, ufqqa yetgan, dalam,
Yuragimga ilhom baxsh etgan, dalam.
Xayollaring, ismsiz so‘qmoqlaring
Mening ko‘nglim qa’riga ketgan, dalam.

Ko‘ylak qildim lojuvard ko‘klamingni,
Quyoshingdan ko‘zlarimga nurlar indi.
Kengliklarga to‘nib-to‘nib boqdim ba’zan,
Yosh jismimga bobolarim ruhi singdi.

Ne bir zotlar — mijjasida sog‘inch yoshi,
Kelar ular seni yo‘qlab, to‘lib-toshib.
Bari oshiq o‘zingga, Ulug‘ Dalam.
Nasllaring, zuryodlaring bari oshiq.

Mehrim senga baxshidadir, dilda titroq,
Mayli, uchqur orzularim uchsin yiroq.
Alvon shafaq og‘ushingga olgin, dalam,
Oftob endi yuragimning to‘rida naq.

Qayda yursam yuradirman baxting ko‘zlab,
Yiroqlarda yupanaman sendan so‘zlab.
Qaldirg‘ochday singayin-yey ufqlaringga,
Turnalarday talpinayin bo‘zlab-bo‘zlab...

UMR O‘TIB BORAYOTIR

“Oq ko‘ngil”, — deb, birovlar, “kekkaygan”, — deb.
Umr o‘tib borayotir, umr o‘tib...
Kimdir ketsa yuz ko‘rmasdek butkul mendan,
Kimdir yurar izlarimni tavof etib.

Kimlarningdir o‘z suyanchi — “tog‘i” bo‘lar,
Shundan o‘zin zo‘r sanaydi har dam ular.
O‘zgartolmas diding sening hech kimni, bas,
Odamlarning razili bor, asili bor.

Birov deydi, omad qushi qo‘nsin menga,
Taxting borki, birovlar do‘st bo‘lar senga,
Kechirardim men barchasin bexijolat,
Imonlari nur sololsa yuragimga.

Dilni toshdek ezar zavol ahd-u paymon,
Yuragimda orzudan ham ko‘pdir armon.
Kechirardim tog‘dek ulkan xatolikni,
Bo‘lmasaydi agar unda riyo, yolg‘on.

Umr oqar, demang menga maqtov, yorliq,
Menga gohi oydin, gohi jumboq borliq.
Ko‘p narsani xush ko‘rmaydi ko‘nglim, do‘stlar,
Ki shulardan — makkorlig-u fitnakorlik.

Shundanmikin noshudlikdan qo‘rqaman men,
Ammo gumon qoyasini yiqaman men.
Ming o‘ylarga ko‘ksimni men ming bor urib,
Ming o‘ylardan ming bor omon chiqaman men.

CHAQMOQLI TUN

Dirillatib, gumburlatib har yonni,
Navro‘z keldi boshlab sel-u suronni.
Ufq osmoni ko‘klay boshlar oshig‘ich –
Oltin ip-la to‘zgan, juldur chakmonni.

Qora bulut — xuddi chakmon ming quroq,
To‘zgan barin ildi toqqa u shu choq.
Onda-sonda tun zulmatin bag‘rida
Yarqillaydi soyga chopgan oq so‘qmoq.

Tun chaqmog‘in tog‘ bag‘riga sermadi –
Olmos tig‘dan dasht-u dara yashnadi.
Shunda dir-dir titrab qirda oq biya,
Saman ayg‘ir yer tepinib kishnadi.

Tun dalalar maysalarga chulg‘andi
Va adirlar yashil-yashil to‘lg‘andi.
O, qancha gul bosh ko‘tardi qoq yerdan,
Qancha umid chechaklardek uyg‘ondi!

QAYGA KETDING?

Ko‘pdan beri bir azobda, oh, dilim,
Dardlarimning izhoriga gung, tilim,
Derdim, o‘tli yuragimni ot, mayli,
Yonmasa u seni deya, sevgilim!

Dala — tuman, dilda — g‘ashlik, tun — og‘u,
Intilaman, axtaraman men yog‘du.
Azob berar, azob berar, netayin –
Hech kimsaga yorolmagan dardim bu.

Mudom mening yuragimda o‘shal dard,
Olis yoshlik qo‘shiqlari — go‘zal dard.

Qayga ketding, muhabbatim siymosi,
Yo‘qlab kelgin huzurimga, bo‘lsang mard.

Qani endi u lahzalar — gul sayli,
Neki bordir yitar, mangu turmaydi.
Ammo, netay, sog‘inch otlig‘ bir hasrat
Och bo‘riday yurak-bag‘rim tirnaydi.

Ko‘klam kezar tevarakda — sen yo‘qsan,
Xazon to‘zar bog‘chalarda — sen yo‘qsan.
Qo‘msaysanmi meni bir bor, bilmadim,
Sen nolasan, ko‘nglim aro anduhsan.

Mahzun-mahzun o‘ylab holim xarobdir,
Armon degan og‘uli may, sharobdir.
Ichdim uni, qonib ichdim — o‘lmadim,
Ichgan sayin, ichgan sayin — cho‘lladim.

* * *

Olchalar g‘arq pishgan bog‘,
Indamay turding, begim.
Uvol ketar bari, oh,
Nahotki kelmas yeging?!

O‘riklar-chi — oltin-ol,
Shoxlarin tutar arang.
Tursami tentak shamol,
Quchar barin to‘zon-chang.

Qara, kuzgi olma bu,
Sevgimizdek bizning g‘o‘r.
Uni hech kim uzmasa,
Qor yoqqanda bo‘lar xo‘r.

Maysa edi — ko‘kalam,
Ajib sirlar qalbingda.

Chit ko‘ylak kiyib bu dam
Qiz turardi oldingda.

Suluvlik — billur tomchi,
Tashlamading bir nigoh.
O‘zi o‘tingan on bu,
Keyin qilma attang, oh.

Bu on qaytib kelmaydi,
Uchib ketar izi ham.
Kunlar go‘zal — ertangi,
Kechagi — solar alam...

ABZAL BUKENOV

(1949)

Abzal Bukenov 1949-yili Qorag'andi viloyatida tug'ilgan. 1972-yili Qarag'anda davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. "Boshlash", "Yolg'iz yelkan", "Asr qanotida", "Sumbula", "Cho'qqi va pastlik" nomli kitoblarning muallifi.

TARSILLAMA, YURAGIM...

Tarsillama, yuragim, tarsillamagin,
Endi aslo burgut bo'lolmas barchin.
Tegram otda
Emas yayov yurmoqqa moyil,
Olis emas,
Odimim atigi arshin. Bejo urma, yuragim, bejo urmagin,
Tinchlan, qo'llab yubor kami bo'lsa o'g'ilda.
U tomonga shoshsak, olib ketmoqqa
"So'nggi" o'rin qolgan emas qora yerda.
Kechagidek kuchi yo'qdir sinov uchun,
Siniqdir u, men ham bitta siniq arava.
Lekin siniq aravani chidamli der el
Butuniga yetish oson bo'lmas bu daf'a.
Lopillama, yuragim, lopillamagin,
Mayib bo'ldi lopillab qancha dono.
Men bir dono emasman, yo unga pana,
Tez jildirma, ko'p g'ildirak tiqildi, ana.
Nolon yurak!
Olislarga oshiqaverma,
Oshiqmoqqa yaramayman men ma'shuq siymo.
Ketishimga izn bergin g'amimni aytib,
Tuman ketib yo'lin ochdi axir, keng sahro.

Sodda ko‘ngil oqiniga tilabdi xatar,
Kimlar aytdi, oqimidan chiqdi, deb chetga.
Ilhom bilan ash’oringni yozavergin,
Qizil siyoh to‘lmish lim-lim dil — davotga!

QOZOQNING ODATIY HAFTASI

Dushanbada hovliqib jiyan keldi,
“Qirq sarkash” ko‘tarar suyangan dam.
Seshanbada tog‘am o‘z navkari-la
To‘rimning namatiga qo‘ydi qadam.
Chorshanba “Salom!” deb bojam keldi,
Boshqa fursat topmapti, aytdi azonni.
Payshanbada yosh qayinsingil sollanib,
Pochchasiga tutqazdi kapgir, qozonni.
Barcha jigar boshin suqsa juma kuni,
Bo‘sh yuborar qay yo‘sinda quda uni?
“Ming yillik”ka bosh taom-la muhr bosib,
Unutmanglar, — deb qo‘yishdi. — Aslo buni!
Quyun bo‘lib shanba kuni bo‘lam yetdi,
Bo‘lam kelgach, boshim mening ko‘kdan o‘tdi.
Bir to‘qlining pishirilgan boshin tutib,
Butilkaning tagin ko‘rgach, gazak tutdi.
Gazak tutib, o‘lan aytsin,
Ko‘ngil yayrab,
Dimog‘i chog‘ bo‘lsa basdir guli yashnab.
Qo‘noq ketib, ziyofatning kuli qoldi,
Sarqit yalab yakshanba o‘t taftin oldi.
Ko‘nikkandir haligiday ajib holga,
Ko‘ngil qurg‘ur kulib qo‘ydi bu uvolga.
Nogoh tengdosh diqqat bo‘lmish kelib yayov.
Qozog‘imning haftasiga sig‘mabdi-yov.
Goh bog‘ kabi keng, gohi tor azobdir bu,
Gohi quvonch qiri, gohi g‘azabdur bu.
Bu dunyoga o‘zi qo‘noq bo‘lgan chog‘da,
Ne ham derdik qo‘noq kutgan bu qozoqqa?!

NASIBBEK AYTO'G'LI

(1950)

Nasibbek Ayto'g'li Sharqiy Turkistonning Tarbag'atay aymog'idagi Shaueshek tumanida tavallud topgan. 1955-yilda oilasi bilan Qozog'istonga kelib yashay boshlagan. Semey viloyati Shubartov tumanidagi Barshatas qishlog'ida o'rta maktabni tamomlagan.

Ilk mashqlari Shubartov tumanidagi "Yangi hayot" gazetasida chop qilingan. 1974-yili Qozog'iston Davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagach, "Boldirg'an" jurnalida she'riyat bo'limi mudiri bo'lib ishladi. Muqag'ali Maqatoev nomidagi adabiy mukofot sovrindori.

Uning "Bog'chaga borar yo'lda"(1974), "Qo'zi ko'ch" (1975), "Otam haqida qo'shiq"(1977), "Yurak hayqiriqlari" (1978), "Yomg'ir qo'shig'i"(1982), "Tunda uchgan turnalar" (1986) kabi bir qator she'riy to'plamlari chop etilgan.

ORZU

Hamma ham bir tekisda baxtiyormi,
Dunyoda orzusi yo'q kishi bormi?
Katta gap — o'z-o'zingni anglaganing,
Hamma ham tushunarmi jon siringni?!

Orzuda — qismatingning mazmuni jam
Va tinmay kurashmog'ing boisi ham.
Turar, axir, orzuing o'zagida
Eng teran o'rtanishlar — quvonch-alam.

Orzu deb uzun tunlar
Bedor bo'lgung,

Charx urib yugurasan,
G‘amga to‘lgung.
Orzung-chun — kerakmi gar –
Yuz yashaysan!
Orzung-chun — kerakmi gar –
Erta o‘lgung...

Qo‘msaysan
Goh qoshingdan ketganni ham,
Qo‘msaysan
Goh boshingdan o‘tganni ham.
Yoz kunlarin betoqat qo‘msar oning,
Qo‘msaysan goh bulturgi ko‘klamni ham.

Talpinasan ertangi ufqqa keng,
Chorlar orzu cho‘qqisin yuksagi eng.
Orzusizlar — yaroqsiz askar misli,
Orzusizlar — qanotsiz qush bilan teng.

Orzuni deb yasharlar, yelkada yuk,
Orzuni deb yasharlar, jonlar kuyub.
Agar bilsang,
Orzuning bari yuksak;
Agar bilsang,
Orzuning bari buyuk.

Yuragingda qulf ursin orzu guli,
So‘nmasidan qoningda surur uni.
Qumda yotgan qayiqqa o‘xshar odam
Orzusidan butkul voz kechgan kuni.

BULUT OQIB BORADI

Tashqariga chiqdim men
Dilgir bo‘lib,
Oqar edi bulutlar osmon to‘lib.
yetarmanmi –

Basma-bas quvsam birin?
Ketarmikin –
Ko‘nglimning yuvsam kirin?
Ko‘z o‘ngimda ko‘ndalang turib oldi
Zangori tog‘,
Ko‘k adir,
Nozli qirim.

Oqar edi bulutlar chalqib kunga,
Bor tabiat aldanib boqar unga.
Ufqlarga qarayman xumorlanib,
Ko‘rinmaydi biroq u tumanlanib.
Tumanlanib turgani-yey manov tongning,
Boqmoqchiydim yuziga men bir qonib!

Ufqlar uzra boqar tog‘ bamisli sir,
Yana ko‘zim o‘ngida yashnadi qir.
Zangor cho‘qqi ko‘ksini mo‘ljal olib,
Bulutlar oq marjonin osdi bir-bir.

Undan yana borarlar olis qalqib,
Qirdagi tulporlarday shavqi ortib.
G‘azabga minsa,
chaqmoq qamchisi-la
Betiga qora toshning chars-churs tortib.

Gohida ko‘z yosh to‘kib yig‘lab qolar,
Yig‘lamasa bulutlarga ayb bo‘lar.
Bir-birini qoq dashtda jilg‘a quvlar –
Mavjlanib,
erkalanib oqar suvlar,
Bulutlarni yupatolmas biroq ular...

Tund osmon shu’lalardan libos kiydi,
Yig‘lasa, bulutdan ham mung ariydi.
Dunyoda har narsaning o‘z gashti bor,

Mung arigan yurakka baxt doriydi...
Bulutlar oqib borar sollanib sha'n,
Ularning shukuhiga kim bermas tan!
Ularga yerda turib yetolmadim,
Birining ishi yo'qdir, eh men bilan!

YOMG'IR KUYI

Taqdir hali g'amlardan tondiradi,
Osmonim sokin chaqmoq yondiradi.
Yondiradi –
Tugamas yomg'ir kuyi,
Yomg'ir kuyi — jonimga buloq suvi.

Durlar yog'sa bulutlar aro durkun,
Yomg'ir kuyim tinglab men tong ottirgum.
Yomg'ir kuyi kun bo'yi tinmasa gar,
Yumushdan ham hattoki qolib turgum.
Bir soniya tomchiga aylangum-da,
Dunyo haqda yomg'ir-la suhbat qurgum.

Yuragimni chulg'arkan ajib ohang,
Tomchidayin tip-tiniq tozaraman.
Hech bir jonni Ozurda etgim kelmas,
Yashamog'in tilayman omon-omon.
Eshitgim kelmas endi mening qaytib
Ajalning qadim kuyin hatto bir on.

Injularga aylanib dil sirimdan,
Yomg'ir kuyi to'kilar tomirimdan.
Bilaman men, bir kuni tushunarsan
Qalbimni — yig'lay bilgan,
Kula bilgan...
Toliqqanda chang yutib yo'lda bir kun,

Sog‘inarsan sozimni shunda mumkin,
Entikarsan o‘shanda,
Inonarsan,
Yo‘qdir mening sozimdan boshqa mulkim.

Taqdir hali g‘amlardan tondiradi,
Ajib surur qonda o‘t yondiradi.
Yondiradi –
Tugamas yomg‘ir kuyi,
Yomg‘ir kuyi — jonimga buloq suvi,
Tashnaligim ugina qondiradi.

SERIK OQSHUNQOR O‘G‘LI

(1950)

Serik Oqshunqor o‘g‘li 1950-yili Qarag‘anda viloyatida dunyoga kelgan. Qarag‘anda davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. “Bahor nafasi”, “Qaldirg‘och” nomli she’riy to‘plamlarga she’rlari kiritilgan. “Yigirmanchi asrning yigirma lahzasi”, “Mis toshqin”, “Asrlar kardiogrammasi” nomli kitoblar muallifi.

MUHABBAT, QIZIQ YILLAR

Dunyo bunchalar yop-yorug‘,
O‘n uchdan oshmagan edim.
Dunyo ko‘rkiga tang qolib,
Surat chiza boshlagan edim.

Ne derdi el menday shovvozga,
Son shishib, necha bosilgan.
Uy ichi to‘la — qog‘ozlar,
Eshikdan to‘rgacha sochilgan.

Ilhomga to‘lgan o‘zagim,
Qog‘ozga shundan nur tomib,
Oqyoriq degan o‘zaning,
Oqadi ana sirg‘anib.

Oqyorig‘imni dalaga,
Asov dengizday ag‘natib,
Bag‘dod degan bolaga,
Qo‘yaman baliq ovlatib.

Milliard bo‘yoq bor tog‘da,
Ranglari turar nur sochib.
“Rassom bo‘laman!” derdim men,
Surat chizaman o‘xshatib.

Tanitay yurtga yurtni xali,
Ne derdi el menday shovvozga.
O‘yrantog‘ ko‘chib bulutlari,
Mag‘rur keralar qog‘ozda.

Ko‘zlarim kunda shu tog‘da,
Yurardi,
yoshim — o‘n uchda.
Olisdan bizning qishloqqa
Keldi uchib bir farishta.

U edi ilhom manbai,
Jo‘sh berdi menga, bilindi.
Shu qizning go‘zal manglayin,
Chizishga kirishdim endi.

Ne deydi el menday shovvozga,
Ko‘rganda hayron guvladi:
Uy ichi — to‘la qog‘ozlar,
Qog‘ozda shu qiz surati!

Qizni ko‘r, ko‘r so‘ng suratni,
Xuddi o‘zi-ya — o‘xshatdim!
Bir kuni qizning suratin
Oborib o‘ziga ko‘rsatdim.

Qiynab qo‘ydimmi men uni,
Netayin endi nolimay?
O‘zining suluv rasmini
qoldi-ku o‘zi tanimay!

Eshitdi buni odamlar,
Mehnatim ketdi yelga uchib.
Amallab uyga keldim-da,
Alamdan yotdim yer quchib...

Xo‘rsinib, chekib alamlar,
Tentakning qarang ishiga, -
Suratning barin, uydagi,
Otvordim o‘choq ichiga!

Bir ilhom to‘ldirdi tanimni,
“Yozsang-chi! Yozsang... yoz! yoz!” — der.
Shu vaqtdan boshlab men endi
She’r yoza boshladim, faqat she’r!..

Ne derdi el endi men haqda,
Bosh chayqar, boshqa ne ham der?
Uy to‘la qig‘oz — qog‘ozda
Muhabbat haqda qo‘shiq, she’r!

Ko‘zni avrab she’rning ohangi,
Ko‘rinmas hech kim ko‘zimga.
Gazetga bermay avvali
O‘qidim qizning o‘ziga.

Tang qoldi! “Dard bu, dard-ku bu,
Qalb ishqqa shuncha zormikan?
Shu she’r bag‘ishlansa gar,
Qizdayam armon bormikan?”

Qaradi u ko‘z bilan mungli,
Esimdan chiqmas u paytlar.
...Shundan so‘ng o‘sha she’rimni,
E’lon qilvordi gazetlar.

Aytayin endi bir sirni,
Aytmasdan keldim bugungacha:

Uchratib qoldim shu qizni,
Vo! Ne ajoyib kelinchak!

Taqdirning qiziq yo‘llari,
Bu haqda har kim har ne der...
“Esimda mening o‘shanda
Muhabbat haqdagi o‘lan-she’r...”

Muhabbat, qiziq mo‘l yillar,
Qizig‘in aytsam — dil titroq.
“She’rlaringizni o‘qirdim
Gazetda bosilmay turib-oq...”

Ol, men-chi, men... ne deyin?
Indamay qoldim nafassiz.
Bitta she’r o‘qib berayin,
Abaydan avliyo emasmiz:

“Xudo-ay, qayda shul yillar,
Muhabbat, qiziq mo‘l yillar.
Sekinlab-keyin chekinib,
olislab ketdi-yov qurg‘irlar...”

* * *

O‘ksiydi hayotning lahzalari
Og‘zini ajal ochganda.
“O‘ldik-ov!” — deymiz.
Yolg‘on-ku bari!
Ketamiz uchib osmonga!

Izimizda qoladi bizning,
Oshkor haqiqat va sirlar.
Daftarimizda qoladi bizning
O‘limga qarshi satrlar.

* * *

She'riyat!
Kelsang-chi bir uchrashuvga,
Orqada qolib ketding, ajab, nega?
Aytmoq uchun bu olam go'zalligin
Qo'ngansan-ku shoirlar gavdasiga!
Orqada indamaysan, ajab, nega?

Nimasan, vayronmisan, sayronmisan?
El ko'chgan egasiz yurtga aylandi ichim.
Ko'nglimdan uchib ketdi ko'k ola o'rdak,
Qayda uchding bizni tashlab, hayron qushim?
El ko'chgan egasiz yurtga aylandi ichim.

Kel, qani, ko'rishaylik o'ynab-kulib,
Hayotdan ketayapman o'zingni bilib.
Dunyoda yolg'iz yo'rtgan yo'lbarsday,
Jambulning ko'ringansan ko'ziga kelib.
Kel, qani, ko'rishaylik o'ynab-kulib.

Tiriklik bo'lsa hamki bir kun abas,
Ustidan o'zing kel-u, gurkira, bas.
...Odamzod azob chekib yotgan yerda,
Aylanib bir kelmasliging mumkin emas!

OMONXON ALIM O‘G‘LI

(1952)

Omonxon Alim o‘g‘li 1952-yilda Turkiston viloyatida dunyoga kelgan. 1975–1981-yillari Qozoq davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olgan.

1991–1993-yillar oralig‘ida Moskvadagi M.Gorkiy nomidagi Adabiyot institutida o‘qigan. Uning “Uchrashuv”, “Jonimning yaprog‘i”, “Oy nuri kaftimda”, “O‘tkirning yuzi”, “Besh qo‘ng‘iroq” nomli she’riy to‘plamlari bor.

YOLG‘IZ TURNA

Kuz degani qanot yoyib qirda mavsum,
Qopqonin qaytgan qushga qurgan-ku chin,
“Elim-ey” qo‘shig‘ining kuyiga mas’um,
Misol uchun o‘xshataman turna sasin.

Tentiragan lahta bulut aralashgan,
Torayib qoq tush payti borarmi, osmon?
Rostdan ham ketayotganingmi nozikbo‘yin,
Qayrilib ortingga bir qaramasdan.

Bo‘yiga chog‘lab yig‘ib berarini,
Qolarmi yig‘ishtirib samarini?
Qanchalik sovuq ursa to‘nggan yordan,
Shunchalik sezgum osmon izg‘irini.

Ortingga qaramasang qarama san,
Ruhimni yaralagim kelmasa ham.
Yuzimni g‘ayib dimiq havodagi,
Sochimni salqin yel-la taranaman.

Ayoz zo‘r, guvoh qilib atrof duzni
Allohim kechiktirmay sina bizni.
Ey, turna, sen ham yolg‘iz, men ham yolg‘iz,
Bequlay qarshi oldikmi, ushbu kuzni.

AJAL

Qaramasdan qayg‘uga botgan ko‘zga,
Guzar yo‘lning ustida turgan kezda.
Yuzdan oldi qochirib barakani,
Esib telba sovuq yel qirdan bizga.

Onam o‘tdi umrdan, og‘am-da o‘tdi,
Sur ajal yaqinlab menga-da yetdi.
Alloh g‘ayb yozgiti kelar nogoh,
Senga aytib bo‘larmi dilda kekni.

Keng yastangan Kengsoyni barxanlarim,
Qabrim kabi do‘ppayib eslading.
Ne ko‘rindi ko‘zingga bevaqt kelib,
Allohimning ajrida emasmidim?

Belgisi tol butoqning kurtak ko‘zi,
Omonatin o, hayot bergan o‘zi.
Mushtipar shamga o‘xshab o‘t yamlagan,
Kamayib bormoqda-ku rizq-u-ro‘zim.

Turar yelday yer chizgan cho‘kib osmon,
Qayga qo‘ygum ko‘ngilni muzga bosgan.
Shunday paytda, yopiray, umr chirkin
O‘xshaydi qizga tengin topib qochgan.

BAYAN TLENSHINA

(1951)

1951-yili Turkiston viloyati, Sayram tumani, Kumushbuloq qishlog'ida pedagoglar oilasida dunyoga kelgan.

Shoira 1972-yili Chimkent oliygohi fizika-matematika fakultetini bitirgan.

Ijodkorning "Qaldirg'och", "Ishqnoma", "Yulduz yurak" she'riy to'plamlari, "Ibrat", "Armonli dunyo" kabi ko'plab asarlari chop etilgan.

TASHLANDIQ MONOLOGI

1

Ertangi kunimga qo'ymadim maqsad,
To'polonga qarshi bormikan imkon?
Yo'ldan adashsam, eh, shapaloqlab bir,
Bo'lsaydi kiritar esim, mehribon!

Qo'l-oyog'im butun, bolg'aday metin,
Onamga bag'ishlay olmam she'r, lekin!
Negaki, emganim sut emas, zahar,
"Tashlandiq" yorlig'in olganman tekin.

Axlatga tashlading, sen qalay, ona?
Elga boqa olding sen, qanday yana?
O'kinching o'zaging o'rtadimi, yo'q?!
Mendan so'ng topganing suydingmi qona?

Qulog'ingni yig'im qildimi batang?
Qurbaqaday ag'nab tura olmadim.
Naqadar ekansan o'zing toshbag'ir,
Bir tirik jon orin asrab qolmading!

Quchoqlaring bo‘ldi men uchun armon,
“Ota” degan o‘zi qanday asil so‘z!
Tirik bo‘lsang ber-chi dilimga darmon,
Bolang armoni-ku mehr to‘la ko‘z!

Farishtamasmidim, gunohsiz, murg‘ak,
Yozig‘im ne edi, tashlab ketdilar?
Momo Havoga men aytguncha tilak?!
Bir boqmay ko‘zlarim yoshlab ketdilar?

Tashlandiq umrdan ketdim-ku bezib,
Ko‘rin-chi loaqal, sarobday bir bor!
Joningdan yaratgan onammasmisan,
Ovla-chi bir bora ko‘nglimni sadpor !

Yo, Olloh! Qaydadur onam-u otam?
Kerilib yurgaymi ikkovlon to‘yda?
Jigarsiz yashashdan menga yo‘q hojat!
Oltinga ko‘milsang shumikan foyda?

2

Eh, erkak!
Jufting etib yaralgan-ku ayol zoti,
Harom uchun qorilganmi bor zuvalang?
“Bu yolg‘ondan mangulikka ketarman”deb,
Bo‘lmassanmi otashgohga sen hech alang?!

Faqat Olloh bor bandaga birdaymikan?
Tashlamasdir bolasini hattoki mor!
Ichgan oshing qanday o‘tar tomog‘ingdan,
Qalbing so‘qir, ko‘zing bosgan shirasi bor!

Qadding kerib boqarmisan “odamman” deb,
Ep-uquvli og‘angman, deb, og‘zing tutab!
Eng avvalo o‘z boshingni eplab olgil!
So‘ng o‘zgaga g‘amxo‘r bo‘lgin burching o‘tab!

Kim ekansan? Kim ekansan? Otammi sen?
Qay ahvolda yasharsan qay yoqlarda sen?
Bo‘yinbog‘ing orttirgancha salobating,
Eh, kimlarning umidlarin yoqlarsan sen?

Aldab-suldab onajonim orin bukib,
Ketdingmi sen yoshligini payhon etib?!
Yosh qizaloq ko‘z yoshiga boqmay to‘kib,
Och hirsingga bo‘ysundingmi etak tutib?!

To‘qqiz oyin umid bog‘lab kutganida,
Cho‘ridan xor yiqildimi ul poyingda?
Chirik ko‘ngling tog‘day o‘sib ketganidan,
Shunda nahot qix-qixlading kiroyingda?

Oh, munisim, onajonim, yig‘ladingmi?
Balki o‘zing tor lahadga ko‘mging kelgan?
Bir to‘ydirib oq sutingga tashladingmi,
Qulog‘ingda chirillashim qotib qolgan?

Kechirayin, onajonim, kechiraman,
Manglayimga bitilgandir shunday qismat.
“O‘g‘lim” deya ayt-chi mayli, topilmasim,
Ko‘targancha boshimda men qilay xizmat!

ULUG‘BEK ESDAVLAT

(1954)

Sharqiy Qozog‘iston viloyatining Zaysan tumanidagi Ulkan Qoratol qishlog‘ida tug‘ilgan. 1977-yilda Qozog‘iston Davlat universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan.

1974-yilda yosh shoirlarning she’rlaridan tuzilgan “Qanot chiqdi” to‘plamida ilk she’rlari e’lon qilindi. Xalqaro “Alash” mukofoti sovrindori. 2001-yilda chop etilgan “Kigiz kitobi” nomli to‘plami uchun Abay nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Ulug‘bek Esdavlat — zamonaviy qozoq she’riyatining ko‘zga ko‘ringan yirik vakillaridan hisoblanadi.

GULDOR GILAM

Yo‘q,
bu gilam sotilmaydi,
sotilmaydi,
o‘qirman,
shoir qayg‘u yutgan payti
ko‘z yoshidan to‘qilgan.

Taqdir
mening hislarimni
xivchinda savagan dam,
junday titib bardoshimni
to‘zg‘itgandir ko‘p odam.

Qon yugurgan tomirimdan
chilvir eshgan ko‘p bilak,
toqatimdan va sabrimdan
kigiz bosgan tepkilab!

Asabimning bor tolasin
tortqilashib sug‘urib,
ishqor suvga solib borin,
arqon eshgan yigirib.

Kamalak ham turli rangda
Tovlanadi jilvakor,
ko‘ra olsang bu gilamda
yuragimning tafti bor.

Har o‘rmagi
hislarimdan,
sog‘inchimdan bo‘yalgan,
bu gilamni ko‘zim derman,
ko‘rgazmaga qo‘yarman.

* * *

G‘ira-shira, oqshom chog‘i
Arava borar g‘ichirlab.
Dilda notinch xayol dog‘i
Intilamiz uyga qarab.

Ikkalamiz — men va otam,
Xayollar surib kelamiz.
Dala bag‘ri — qora o‘lan
Izg‘irin yulqir tanamiz.

Qir ortida olovlanib,
Qirmizi rangda kun botar.
Kuzatardim ichim yonib,
Otam qayrilib so‘z qotar:

“Kunbotarga sen qiziqma,
O‘tgan kunga sherikmiz.
Ufq — o‘sha qizil chiziqqa

Singib ketguncha tirikmiz.
Zuvillab o‘tar vaqt o‘qday,
Asray olmaysan o‘zingni.
Shuning uchun ham kun botmay,
Aytib qol aytar so‘zingni”, –
Dedi tiqilib nafasi,
Xo‘rsinib menga qaradi.
Kunbotar nurlarin aksi
Ko‘zida yarq etib taraldi.
Nigohida mung aylanib,
Ruhi g‘amdan toriqqan.
Ortga boqar bot qayrilib
Tong izlagan kabi Sharqdan.

* * *

Tong havosi junjiktirib bor vujudim,
Sahar chog‘i soy bo‘yida ot sug‘ordim.
Yulduzlari erib bitgan rangsiz osmon
Ko‘zlarimga ko‘lankasin berkitdi jim.

Sovuq shamol ro‘paradan esar shu chog‘,
Shitirlaydi yelkadagi qamish belbog‘.
Tugar ekan soyga yetib bu qisqa yo‘l,
Ikki yonda ko‘krak kerar pastgina tog‘.

Somon yo‘li uchib borar misli to‘zon,
Jez ayilday yarqirar ufq-sharqiy tomon.
Turli-tuman ranglarga boy bu dunyoga
Ko‘z uzmasdan qarab turgim kelar mudom.

Dala tonggi qo‘shiq aytar, tinglang, ana,
Men tingladim bo‘zto‘rg‘ayning sasin yana.
Mana suvloq, unga kelib tutashar yo‘l,
Shu tariqa hamma yo‘llar bitarmi, ha?

Yo‘q, yurakka g‘am nafasin tekkizmayman,
Yorqin yo‘ldan umidimni hech uzmayman.
Soyga kelib singib ketar so‘qmoqdir bu,
Tong qo‘yniga singadigan yo‘l izlayman.

IZLAR

O‘tgan-o‘tdi, bu paytda dala o‘zga,
Yosh to‘ladi,
o‘ylasang, qora ko‘zga.
Kigizlaring ustida o‘ynar edik,
Bo‘g‘irsoqday sochilib bola kezda.

Kigiz uyning qayrilgan etagidan
Tong otardi shamolning etagida.
Bo‘z yovshanning
hididan mast bo‘lgan chog‘
Men bexabar ko‘klamning ertagidan.

Xotiradan o‘chmaydi o‘smir chog‘lar,
Bir ko‘rpada ulg‘aydik — armon dog‘lar.
Qayta kelmas bir totli dam singari,
Shirin tushlar bir-birin shunday bog‘lar.

Shim shimarib,
borardik biz baliqqa,
Qoldirganmiz qancha iz shu qumloqqa,
To‘lqin kechib yurganda hech sezmabmiz,
To‘lqin davron ketarkan huv yiroqqa.

Qayda ekan bir vaqtlar biz bosgan iz,
Sarson kezib,
ne alam, topolmasmiz.
Umr yo‘lin bir kuni tugatibmiz,
O‘tgan kundan bir nishon izlabon biz.

IDILLIYA

(XVII–XIX asrlarda urf bo'lgan poeziya turi. Unda tabiat bag'ridagi ideal hayot aks etadi)

Orom olsam bog' qo'ynida ayni palla,
To'shagim yoz, salqin emas, hali chilla.
Yoshligimdan xush yoqadi orom olmoq,
Bog' qo'shig'i qiladi mast — misli alla.

Bugun ko'kka oy chiqibdi bir to'lishib,
Bulut bilan turar go'yo joy talashib,
Ko'rganidan charaqlaydi qo'sh qarog'im,
Yuldazlarning oqqanini bir qalashib.

Sog'indim men soy suvining shovullashin,
Ohang bo'lib, yuragimga kirsin bugun.
Yo'qsa, hayhot yo'qotaman tungi bog'ning
Vujudimda davr surgan sirdoshligin.

Yaproqlarning so'zlarini o'rganayin,
Shamol bilan sirlashaman, ahdim tayin.
Chin ko'ngildan ochayin men o'zgalarga,
Agar pinhon sirim bo'lsa tugmadayin.

To'shak soling, bir uxlayin bog' qo'ynida,
Tong saharda men junjikib ketayinda.
Keksa onam gupillatib sigir sog'ar,
Tongotarda nonushtaning zo'r o'yida.

* * *

Qishloq kezsang chillada,
Mesh to'ldirib suv olgin.
Chanqaganda tilingga
Ta'mi kelar sho'r terning.

Dasht oftobin tafti zo‘r,
Hushing boshdan uchadi.
Terga botgan otni ko‘r,
Qum to‘zoni quchadi.

Qumloqda o‘t yashnasin,
Soylik izlab borasan.
Quvib chivin, pashshasin,
O‘tloq topib o‘rasan.

O‘lan totli,shundan ot,
Tushovsiz ham ketmaydi.
So‘nani sezmay hayhot,
Shoshilmasdan o‘tlaydi.

Quloch-quloch pichanni,
O‘raverasan shitob.
Sirmaganda chalg‘ingni,
Suyib kuzatar oftob.

Kiyiming yechib shu choq,
Simirsang meshdan ayron.
Yayraysan qonib chanqoq,
Ter ham quyilar chunon.

Yangi pichanga mana,
Tashla o‘zingni ozod.
Yayraysan vujud, tana,
Qora ter chiqsin bot-bot.

Bearmon ishla bu dam,
Quyilsin jismingdan ter.
Manmanlikdan shunda ham,
Qutilmasang menga kel.

QARIYA VA QIRON

Ashimxon oralatdi tog‘ni menga,
Olib bordi jovdiragan Marqako‘lga.
Qamchi bilan qush ko‘rsatdi ko‘kda uchgan:
“Bu qari burgut — uyli, aytsam senga.

Payqa-chi anov cho‘qqi shohsupasin,
Huv tog‘ning quvishida[1] ne ko‘rasan?
Shul yerda ona burgut uyasi bor,
Qo‘zdirgan qanotsizning talvasasin.

Qiyadan ko‘zin solgan dar(i)yoga,
Jish qushcha — polapon bor shu uyada”.
“Arqon bog‘lab polaponin olaylik-da,
Boshlang”, — dedim men o‘sha qariyaga.

“Yo‘qol! Qushni olaman, deb...
O‘zi kimsan?
Burgutga qiziqquday kayfing qursin!
Sen ham jinoyatchisan! — dedi Ashim chol, -
Qiron erkin tug‘ilgan — erkin yursin!..”

SHOIRLAR TAQDIRI

“Yet, O‘ybay!
Ilon chaqdi yosh bolani!..”
Ilonday sovuq xabar yedi onani!
Bolasining shishib ketgan barmog‘idan
So‘rdi uvni — yo‘q edi boshqa amali.

[1] **Quvish** — burchak, tog‘ning ko‘z ilg‘amas, ko‘zdan yiroq joyi, muyush.

Sinovga tushgan bola so‘layotib,
Dam sayin rangi kirdi chiroylanib.
Onaga — qo‘mdan[1] tushgan chang‘araqday
Bormoqda edi dunyo chir aylanib.

Dumalab shu onaning bolasinday,
Ey dunyo, fayzlagin ola ko‘rmay.
Taningga kirgan dardni so‘rib olar, -
Shoirlarning taqdiri ana shunday!

SO‘Z

So‘z bilan yuzlashdim. So‘z bilan tanishdim.
So‘zga oshiq bo‘ldim, yotib-yopishdim.
So‘z sehri qalbimni egallab oldi,
So‘z bilan ulandim, so‘zdan bol ichdim.

So‘zdan olov yoqdim. O‘choq lovlatdim,
So‘zlardan o‘q yo‘ndim — yovga zuvlatdi.

[1] **Qo‘m** — ikki o‘rkachli tuya o‘rkachlarining o‘rtasi.

ABDULLA AYMOQ

(1954–2015)

Janubiy Qozog'istonning O'rdaboshi tumanida tug'ilgan.

Muxtor Avezov nomidagi viloyat Pedagogika institutining filologiya fakultetida tahsil olgan. Matbuotda 80-yillarning boshidan she'rlari bilan ko'rina boshladi.

Ayni paytda Respublika Yozuvchilar uyushmasining Janubiy Qozog'iston viloyati bo'limida mas'ul kotib vazifasida faoliyat ko'rsatmoqda.

Uning "Laylo" (1993), "Dumaloq ona" (1997), "Yuragimda" (1998), "Oltin beshik" (1999) kabi she'riy to'plamlari chop etilgan.

OTINGNI YOZDIM OQ QORGA

Otingni yozdim oq qorga,
Uyingdan chiqqach ko'rsin deb.
Shoshilib borayotganda,
Menda ham ko'ngling bo'lsin deb.

Oq qorga seni mengzadim –
Samodan kelib qo'nuvchi.
Sen esa sevgim sezmading –
Qalbimda shamdek yonuvchi.

Bilmadim, ko'rding-ko'rmading,
Ruhlandim ajib kuydan men.
Qoshimga biroq kelmading,
Borishga men ham iymandim.

U paytlar parvo etmabman,
Bu damlar tezda o'tarin.
Ismingni ham men sezmabman –
Oq qor-la erib ketarin.

* * *

Har yurakdan chiqadi armon sasi,
Ketar unga har bitta dil havasi:
Hovli uzra kir yoyar bir kelinchak,
Chiroyda naq
Vinchining madonnasi.

Titradi dil — hech kuyi chalinmagan,
Ishq bobida hech kimga yalinmagan.
Erka yellar ko'ylagin yulqilardi,
Eng oxirgi tugmasi solinmagan.

Kun ovora bulutlar girdin yoqib,
Ahyon-ahyon borarkan ko'qda oqib.
Yel ovora kelinchak etagi-la,
Ovoraman men esa unga boqib.

IZLA MENI

Ayriliq azobidan bo'lib sarang,
O'zimni yig'idan men tutdim arang.
Qaradim qora-qo'ng'ir bulutlarga
So'rab ko'r ulardan,
gar ishonmasang.

So'ragin kaptarlardan — ular anglar,
Yurakka o'tganini ne alamlar.
Ortimga ko'p bor boqdim — nadir chora,
Qoshingdan vido aytib ketar damlar.

Shudringdan sirg'a taqqan changalzor, o,
Sen kelgan mahallarda edi zebo.
Termildim ularga-da sirim aytib,
Bilmadim: uqdimi yo, uqmadi yo.

* * *

Sevgimizning eng murg‘ak — ilk mahali
Qo‘limizdan kelmasdi jur’at hali.
Kapalakday qiz eding, qanotingda
Kuch yo‘q edi hatto so‘z ko‘targali.

O‘taverdik goh g‘amgin, gohi kulib,
Bir-birimiz goh yaqin, goh yot bilib.
Osmongina bizlarga panoh bo‘ldi,
Kechalari bo‘yniga marjon ilib.

Goh anglamay ishqni, goho anglab yetdik,
Goh umiddan yurakni mamnun etdik.
Qo‘l ushlashib ochunni kezdik-da bir,
Keyin moviy ufqqa singib ketdik.

* * *

Ko‘rgim kelar men seni ko‘rgan sayin,
Hisga to‘lar yuragim biram mayin,
Bukildim-ku men so‘roq belgisiday,
Quvvat bergin, qaddimni ko‘tarayin.

Senga qarab, ertamni chamalayman,
Yashamoqqa seni deb doim shayman.
Seni ko‘rsam chiroyli bo‘lgim kelar,
O‘z-o‘zimni tuzayman, tarangayman.

Har lahzada takrorlar noming tilim,
Yurakdagi sevgimni angla, gulim.
O‘zing bo‘lsang qoshimda yashnagayman,
Bo‘lmasang-chi,
yomg‘irday yig‘lar dilim.

ESENG‘ALI RAVSHAN

(1957–2021)

Qoraqalpog‘istonning Xo‘jayli shahrida tug‘ilgan. Qozog‘iston Davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olgan.

She’rlari 1980-yillardan e’lon qilinib keladi. 1983-yilda “Bekdavlat va Jo‘lomon” nomli dostoni qozoq she’riyatida katta voqea bo‘ldi va qator adabiy mukofotlarga loyiq topildi.

OQ YOMG‘IR

Yashil ko‘klamning jarchilarimi,
Suzadi bulutlar tepamda.
Manglayim tutdim tomchilariga,
Suyanib turibman emanga.

Tug‘yonlar ila qonimga bitgan,
O‘tkazdim tunlarni men bedor.
Ajib bu damlarni entikib kutgan,
Bir yurakman — sendek intizor.

To‘kolsam edi qalbimning nurin
Sendayin, tungi Oy misol.
Jami odamga tiladim bugun
Ro‘shnolik hamda baxt-iqbol.

Tozarar ko‘ngil yoqqaning sari,
Farog‘at qo‘ngay uylarga.
Go‘zal she’rlarni yozarsan hali,
Dardlaring qo‘shib kuylarga.

Ovozim balki samolarga yetmas,
Senday poklikni lek xush bildim.
O‘ljas ham emas, To‘lagan ham emas,
Yesang‘ali bo‘lib termildim.

Xayr, deb endi qor-qirovga,
Yashnasa, ne tong dasht-qirim.
Jala, do‘lsan balki birovga
Ey, mening ifor yomg‘irim.

KO‘KLAM. YANGIQO‘RG‘ON

Hut oyida unniqar ko‘p qish husni,
Endi Navro‘z kirib kelar xush isli.
Bo‘g‘otlardan tirs-tirs tomgan tomchilar,
Qolgan kuning sanayotir bamisli.

Yuragidan toshib hasrat-munglari,
Taraladi qirdan jilg‘a unlari.
Ipak yellar qaytar bot-bot iziga,
“Ko‘klam-ov”ning naqorati singari.

Yangiqo‘rg‘on, yangi o‘ylar ko‘p manda,
Osmon biram chiroyli, yer ko‘rkam, ha!
Katta yo‘l-u yolg‘iz oyoq so‘qmoq ham
Borar enib yashil o‘tov — ko‘klamga.

Tulporlardan shahdi ayon bilindi,
Tuyg‘ularim chaqin chaqar dilimda.
Ko‘klam bu kun tong-sahardan uyg‘onib,
Sayrab turar qumri qushning tilinda.

Jon ovulim, bahordir bu — kul, yasan,
Qo‘ling silkib, sen jim o‘ylar surasan.
Qozoqning bir oddiy choli ramzida
Ezgulikka yo‘l ko‘rsatib turasan.

QORA BOVUR QASHQALDOQ

Qora bovur qashqaldoq, qayga uchding bu zamon?
Mungli sasing qulog‘im ostidan ketmas hamon.

Qora bovur qashqaldoq, qayt ortingga, qayta qol,
G‘amga botgan to‘qayning holin so‘ra, ko‘nglin ol!

Uya qolsa egasiz oydin tunga zulmat jo,
Adashib kelgan churra bo‘lolmas sendak aslo.

O‘zingniki bu yerning tog‘i, qiri, tepasi,
O‘z uyini o‘zgaga tashlab ketmoq, nimasi?
Qashqaldog‘im, ortga qayt!..

* * *

Yangi ochilgan kichik
sayyoralarning biriga
S. Yesenin nomi berildi.

Gazetadan.

Sayyora bo‘p Yesenin aylanadi,
Eseng‘ali ovulida qo‘y boqadi.
Eseng‘ali ovo‘lida qo‘y boqadi,
Yeseninday bo‘lsam deb o‘ylanadi.

O‘ylanadi,
Ketsam deya to‘lg‘anadi.
Juda og‘ir, juda uzoq kechdi bu yil.
Mirzacho‘lga she’r bitsam der masrur ko‘ngli,
Mirzacho‘ldan tez ketsam der arazli dil.

Poytaxtga ham qiymay hushi-esi toldi,
Yopirayin, qiymaydigan nesi qoldi?!
Eseng‘ali kentga ko‘cha olmay sarson,
Yesenin naq samolarga chiqib oldi.

Yigit edi u omadga hamisha yor,
Ko‘chish juda g‘alva ekan
Va qilar or...
Mirzacho‘lga zo‘r bir doston yozsam deydi,
Yuragida o‘z yurtidan bor-da viqor.

Bu viqorni ta’kidlamoq ko‘p oson gap,
Lek chigal o‘y qurshar uni har yondan zab.
Farzand tilab tengi-to‘shi giryon yurar,
Hapriqadi boshqa kimdir urush tilab...

Falaklarga she’r-la ochdi Yesenin yo‘l,
Eseng‘ali uchun manzil erur bu cho‘l.
Osmonlarni hozircha u qo‘ya turar,
Chunki uning bu zaminda tashvishi mo‘l.

QOZOQ QISSASI

Men kecha “xalq dushmani” bolasi edim,
Tengqurlarim tengi,
lekin “ola”si edim.
O‘pkalasa bizdaylar o‘pkalasin,
Stalinga ne doding bor, og‘a, sening?!

Bizdaylar kam edimi, zotan –
Yuragida g‘ussa, yuragida motam.
“Belomorkanal”ni sen chekding,
Belomor kanalni qazdi otam.

Ohimiz kimga yetdi ekan,
Kimni bezovta etdi ekan?
Aylanib sahna,
o‘rinlar
Qalay almashib ketdi ekan?

G‘am-qayg‘uga hayot buncha hotam,
Yurakda g‘ussa,
yurakda motam.
Tishni tishga bosib sen yurding,
Tish yormay senga o‘tdi otam.

Tish yormay o‘tdi nelikdan,
Deyman bugunga kelib man.
U uchun o‘lik eding sen,
O‘ch olsin netib o‘likdan?!

Zamona ko‘pni xor etdi,
Hatto kafanga zor etdi.
“Xalqning dushmani” — sariq chol
“Xalq osmon bo‘lsin” deb ketdi.

Bog‘larga nurlar indi, ha,
Tosh qotgan muzlar sindi, ha.
Aylanib vaqtning sahnasi,
Almashdi o‘rinlar endi, ha.

Davr edi-ku ko‘p qora,
Ginadan, og‘a, yo‘q chora.
Sahnadan tushib boryapsan,
Yuzlashsak devdim bir bora.

Yosh avlod bu — yangi olam,
Emasman endi ko‘zlari nam.
Sahnadan tushib boryabsan,
Uzoqlar soyang misli g‘am.

Ko‘krakka otash, o‘t solib,
Boqamiz mag‘rur va g‘olib.
Yuramiz keyin... boyagi
Sahna tomonga yo‘l olib.

TOSHKENT OQSHOMI

...Shundoq, do‘stim, gap rosti — ne desak-da,
Tarixga o‘z hisobini berajak, ha:
Ikki yarim million yurak shahdi ila
Toshkent dadil bormoqda kelajakka.

Iffatli qiz odob-la to‘xtab, ana,
Nimanidir so‘rashga chog‘lanadi.
Damlangan osh ustida mayizdayin
Qora xoli yuzida cho‘g‘lanadi.

O‘sha kech yuragimga to‘lib o‘lan,
Borardim men “Hamza”[1]ning yo‘li bilan.
Cho‘pon ota masjidin tepasida
Cho‘lpon yulduz tovlandi nur tarab sha’n.

Bamisoli ol barkash ko‘kdagi oy -
Og‘ib borar mahali ko‘lga qaray,
Qo‘liga ilib olmoq bo‘lib uni,
Yugurdi ko‘cha bo‘ylab cho‘ng qarag‘ay.

Yutoqib kuzataman shafaq nurin,
Nimaga mengzash mumkin dil sururin.
Askiya aytgan chollar bir zum to‘xtang,
Go‘zallik haqida ham bahslar quring.

Ziynatlar o‘ynatadi bunda ko‘zni,
Tinglaysan har qadamda shirin so‘zni.
Ne izlasang — Toshkentda topiladi,
Yo‘qotib qo‘ymasang bas bunda o‘zni.

...Shundoq, do‘stim, gap rosti — ne desak-da,
Tarixga o‘z hisobin berajak ha.
Ikki yarim million yurak shahd ila
Toshkent dadil bormoqda kelajakka.

[1] Xozirgi milliy teatr ko‘zda tutilyapti.

QOSIMXON BEGMANOV

(1958)

Janubiy Qozog'iston viloyatining Kentov shahrida tug'ilgan. 1975–1980-yillarda Qozog'iston Politexnika institutida tahsil olgan.

Xalqaro Turkiy xalqlar she'riyati festivalining ishtirokchisi.

"Yomg'irli tun", "Ilk kitob", "Beshikdan qabrgacha", "Sog'inch" singari she'riy to'plamlar muallifi.

O, TURKISTON

O, Turkiston!
Muhabbat ber, sabr ber,
Jabrdiyda yurtni siyla, ona-yer.
Ko'z o'ngimda o'rkach-o'rkach adirlar,
Cho'kib yotar unda ne-ne qabrlar.

Ul qabrlar — ko'hna moziy, tarixdir,
Ul qabrlar — bizga ba'zan jumboq, sir.
Bor vujudim bilan shuni sezdim man,
Ul qabrlar cho'kib qolgan cho'ng Vatan.

G'ussalarga chulg'ar meni adirlar,
Va bitaman mungli-mungli satrlar.
Moziy sari o'zni urib, tig'layman,
Keng dalada to'yib-to'yib yig'layman.

O, Turkiston!
Diyonat ber, sabr ber,
Baxt izlagan yurtni siyla, ona-yer.
Ko'z o'ngimda o'rkach-o'rkach adirlar,
Cho'kib yotar unda ne-ne qabrlar...

* * *

Mashaqqatlar girdobida men hamon,
Taqdir sinar shoir qalbim beomon.
Bosib o‘tgan egri-bugri yo‘llarim
Mening nozik umr yo‘lim, begumon.

Fisq-u fujur davralardan bezdim men,
Gavanada dengiz mungin sezdim men.
Urumchida uyg‘ur qizga bayt aytdim,
Istambulning ko‘chasida kezdim men.

Dil izhorim eshit, gulim, tingla jim,
Har qayda men diydoringga ko‘z tikdim.
Olis yurtda yolg‘iz qolgan damlarim
Seni eslab, elni eslab entikdim.

Yillar o‘tdi — bir-birini surishgan,
Bo‘shamadim men she’r izlab yurishdan.
“Hech bo‘lmasa chorvador ham bo‘lmading”,
Deya bir payt otam meni urishgan.

Nima o‘zi shoir qalbning ilinji?
Ijoddami, oromdami dil tinchi?
Men o‘landay samimiy do‘st topmadim,
Qolgan bari yolg‘on ekan... o‘tkinchi.

QORACHIQ

Ne bir yovshan, alaflar quvrab-so‘lib,
Mung‘ayadi dasht-dala yaydoq bo‘lib.
O‘tmishdagi armonlar o‘zani bo‘p,
Oqmoqdadir Qorachiq to‘lib-to‘lib.

Oqadi u mavj urib, erkalanib,
Tevarakni gohi payt bo‘lmas tanib.

Oq dengizga aylansa paxtazorlar,
Kuzgi bug‘doy nish urar yashillanib.

Yuragimga tuyg‘ular sola chiqdim,
Do‘mbirachi do‘stimni ola chiqdim.
Dostonimga zavq bergan shu sho‘x soydir,
Qirg‘og‘ida turibman Qorachiqning.

Tug‘gan yurtga dil mehrim bisyor biram,
O‘zga tuyg‘u tomirim o‘rtamagan.
Turkiston ko‘zin misli qorachig‘i,
Go‘zal qirg‘oq mavjlarin erkalagan.

Armon-u mung sahroda zorlab tursin,
Salqin sohil o‘ziga chorlab tursin.
Qo‘shni qizga ishq bergan bo‘zbolaning
Tole nuri ko‘zida porlab tursin.

Qorachig‘im, munisim, oqa bergin,
Yosh qalblarda zavq-surur yoqa bergin.
Sen yetmagan yerlarga men yetayin,
Qirg‘og‘ingga chechaklar taqa bergin.

Dostonimga jilo ber shavqing bilan,
Tiniq-tiniq to‘lg‘anish avjing bilan.
Ilk sevgimni yodimga tushirding sen,
Ohuday sho‘x o‘ynagan mavjing bilan.

Sen qalbimga adirday, dashtday yaqin,
Kuyga to‘ldir zamin-u ko‘kning toqin.
Sening jo‘shib oqqaning ta’riflash-chun
Shoyad kelsa qoshingga Qodir oqin.

Shamolday dunyoni men kezdim yelib,
Termildim oq bulutga — uchgim kelib.
Nozlanib oqasan sen erka qizday,
Men esa entikaman quchgim kelib.

Dov-daraxtlar bamisli xayol surar,
O‘t-o‘lanlar shivirlab suhbat qurar.
Olisdan Yassaviyning maqbarasi
Qorachiqqa ko‘z qirin solib turar.

O‘lanim bor yurakda — taxtliman,
Ezgulikni kuylamoqqa ahdliman.
Sirdaryoning singlisi Qorachiqda
Men dunyoga kelganimdan baxtliman.

Kelajakdan nur yog‘ar tonglarimga,
Davron surmoq mumkinmi yonmayin gar.
Qora yo‘lda mashina saf-saf o‘tar,
Yonbag‘irda suzadi kombaynlar.

Tangri bizni bekorga siylamagan,
Tuprog‘imiz zar bilan iylamagan.
Kumushlangan Qorachiq to‘lqinlarin
Aybergenov, o, bejiz kuylamagan.

NURLAN MAUKEN O‘G‘LI

(1960–2003)

Nurlan Mauken o‘g‘li 1960-yili Sharqiy Qozog‘iston viloyatida tug‘ilgan.

1984-yili Qozoq davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. “Auditoriya”, “Qaldirg‘och”, “Boytumor” nomli she’riy to‘plamlar muallifi.

QOZOQ

Bir oyog‘i — sakkiz,
Bir oyog‘i — to‘qqiz,
Bir otasi — sak,
Bir otasi — o‘g‘iz.

Cho‘zilganda — saqqiz,
Jahli chiqsa — nag‘iz.
Qizarganda — qimiz,
Sizlaganda— nig‘iz.
Qutirganda — doyir,
Siltanganda — so‘yil.

Ko‘ngli bilan — bayir,
Aytgan so‘zga — qoyil.
Yoqtirmasang — urush,
Yaxshi ko‘rsang — moyil.
Bir oyog‘i — sakkiz,
Bir oyog‘i — to‘qqiz.
Yovvoyiday elman,
Tarpang ot bilan egiz...

* * *

Hayrondaman, bobolarim,
Hayrondaman!..
Ot yolida ketgan armoni,
O‘t-yolinda ketgan o‘rmoni,
Ichida ketgan g‘ussasi,
Qulaganda qo‘rg‘oni...
Hayrondaman bobolarim-ay,
Hayrondaman!..

Qora yer bo‘lgan qo‘rimi,
Qarovsiz qolgan o‘rini,
Ikki dunyoda qaytadan
Bino ham bo‘lmas po‘rimi...
Hayrondaman bobolarim-ay,
Hayrondaman!..

Oy qorong‘i ko‘chada
Adashib yurib nechama,
Izidan urpoq ergashtirib,
Ko‘z yoshin quygan kosaga...
Hayrondaman bobolarim-ay,
Hayrondaman!..

BAURJON YOQUB

(1963)

Baurjon Yoqub 1963-yilda Semey viloyatida dunyoga kelgan. Olmata shahridagi Qozoq davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. "Orolim — orim, baliqchim — bog'im", "Oydindagi osmon", "Ko'zimning nuri", "Abayning Qashqa-bulog'i", "Mening dalam", "Muxtor Avezov — publitsist", "Bir kemaning ustida" nomli kitoblari chop etilgan.

ABAYNING OQ-CHIPOR BULOG'I

Abayning oq-chipor bulog'i
Tubiga dur zeb bo'lib tushgan.
Yashil jiyak erur har yog'i,
Har tomchisi oltin, kumushdan,
Yuzda bargdan bo'salar dog'i,
Zilolidan gullar suv ichgan.

Abayning oq-chipor bulog'i
Posbonmisan qilichin yechgan?
Sen tufayli rizq elning bog'i,
Manglaydan oy o'pgan tun chog'i,
Kunduz Quyosh kulib suv ichgan.

Abayning oq-chipor bulog'i
Oqayapsan mag'rur jimirlab.
Shoirsan, she'r tug'ilgan chog'i,
G'arbga boqib so'zga ochding lab,

Shu'la sochib Sharq ham suv ichgan.
Abayning oq-chipor bulog'i
Tulporlar shasht bilan suv kechgan,
Kelib otning suvlig'in yechgan,
Ham chalqancha yotib yoqangda,
Bola Abay to'yib suv ichgan.

Abayning oq-chipor bulog'i
Ulug' Oqin mungin bo'lishgan.
Chetda qolmay oshno, tug'ishgan,
Ichidagi o'tin so'ndirib,
Dono Abay sendan suv ichgan.

Abayning oq-chipor bulog'i
Qozog'imning ismin qo'ygan suv,
Olam aro dong'in yoygan suv.
Chaqmoq tomon yo'l olgan chog'i
Shokarim ham yuzin chaygan suv.

Abayning oq-chipor bulog'i
Shoirlarga ilhom bergan suv,
Avezovga gul, jom bergan suv.
Qaymoqlari qalqib yuziga
Sabit Muqon qaddin kergan suv.

Abayning oq-chipor bulog'i
Xalq uchun muqaddas jir[1] bo'lar,
Tug'ma so'z sohibi pir bo'lar.
Muborak suvingni simirib,
Qoshingda daholar tug'ilar.

Abayning oq-chipor bulog'i,
Qirq o'rimlik zunnor bulog'i,
Goh bo'lar osmon tor bulog'i,

[1] **Jir** — qo'shiq.

O‘ttiz yil o‘t yonsa uzluksiz,
Qirq yillik qirg‘indan qolsa iz,
Hech qachon bo‘lmagay adog‘i,
Abayning oq-chipor bulog‘i!

1991

Ming to‘qqiz yuz to‘qson bir –
Bobom orzu qilgan yil,
Boshimga baxt qo‘ngan yil,
Qozog‘imning yulduzi
Ko‘kda porlab yongan yil.

Ming to‘qqiz yuz to‘qson bir –
Qaroqdan yosh tomgan yil,
Quvonchlarga to‘lgan yil,
O‘z elim o‘z tizginin
Qo‘llariga olgan yil.

Ming to‘qqiz yuz to‘qson bir –
Qaramlik ortda qolgan yil,
El istiqlol olgan yil,
Poydevori mustahkam
Qozog‘iston bo‘lgan yil.

Ming to‘qqiz yuz to‘qson bir –
Qarzdorman umrbod,
Yil sayin bahong ortgaydur,
Kumush lavh-la etib yod,
Oltinga yozsin tafakkur.

Ming to‘qqiz yuz to‘qson bir –
Bo‘ynimdagi tumorim,
Qo‘ynimda iftixorim,
Qutlug‘ kitob — ming kalom,

Ming kuy-qo‘shiq, ming salom.
Ming to‘qqiz yuz to‘qson bir –
Oy nurlarin sepgan choq,
Quyosh bo‘lib shamchiroq,
Til, ko‘zdan asra, Tangrim,
Erk tulporini yiroq.

DO‘MBIRA TA’RIFI

Tangrimning quygan jon nurisan, do‘mbiram!
Xalqimning nurli taqdirisan, do‘mbiram!

Kuy bo‘lib ajab to‘kilgansan, do‘mbiram,
Enkillab yig‘lab o‘pilgansan, do‘mbiram!

Ichdagi g‘amni tarqatgan ham sen, do‘mbiram,
Umrdan go‘zal kuy topgan ham sen, do‘mbiram!

Qora chanog‘ingga to‘ldi mung, do‘mbiram,
Pardalaringga to‘lib-toshdi un, do‘mbiram!

Aql nuriga qaratgan sensan, do‘mbiram,
Hislar shu’lasin taratgan sensan, do‘mbiram!

Xonlarning a’lo ko‘sam so‘zisan, do‘mbiram,
Ulug‘ biylarning chechan so‘zisan, do‘mbiram!

Dovullarni yechib tashlagan o‘zing, do‘mbiram,
Janggohda qo‘lni[1] boshlagan o‘zing, do‘mbiram!

Asrlar sirin saqlagan o‘zing, do‘mbiram!
Suvga tashlasa, botmagan o‘zing, do‘mbiram!

O‘tga tashlasa yonmagan o‘zing, do‘mbiram,
Elni qo‘rg‘agan, tolmagan o‘zing, do‘mbiram!

[1] **Qo‘l** — qo‘shin, armiya.

Qurmong‘ozidan[1] esdalik qolgan, do‘mbiram,
Dina[2] chechamiz yayratib chalgan, do‘mbiram!

Tattimbet[3] bobom sayratib chertgan, do‘mbiram,
Xonanda-hofiz ergashib olgan, do‘mbiram!

Qaysi bir chevar yasagan seni, do‘mbiram?
Qaysi ustalar qachagan[4] seni, do‘mbiram?

Uchgan kunlarga ilashgan sensan, do‘mbiram,
Ukihulpillab, jir eshgan sensan — do‘mbiram!

Abay do‘mbiram, Jambul do‘mbiram — o‘zingsan,
Donolar tortgan dong‘il do‘mbiram o‘zingsan!

Ko‘p hangomani ozaytirgan ham do‘mbiram,
Yigit bo‘p qizga so‘z ayttirgan ham do‘mbiram!

Suluvning yangroq ovozi — gakku[5], do‘mbiram,
Ko‘ldagi suzib yurgan oqquv ham, do‘mbiram!

Bulbulning tovshi senga qo‘ng‘on-ov, do‘mbiram,
Qiron bo‘p tulkilarni ilgan-ov, do‘mbiram!

Ovchi bo‘p hiyla-o‘ylarga cho‘mgan, do‘mbiram,
Otning chopishi pardangga qo‘ngan, do‘mbiram!

---

[1] **Qurmong‘ozi** — Sag‘irboy o‘g‘li (1823-1889) — ulug‘ va mashhur qozoq bastakori, mashshoq.

[2] **Dina Hurpeisova** — mashhur qozoq musiqachisi, xonanda, do‘mbira ustasi.

[3] **Tattimbet Qazang‘ap o‘g‘li (1815-1862)** — mashhur qozoq do‘mbirachisi, bastakor.

[4] **Qachamoq** — o‘tkir temir qin bilan yog‘ochga mis va shu kabi metallarga, toshga ishlov bermoq, bezamoq. Qachov — ustaning qo‘lidagi moslama, uskina.

[5] **Gakku** — qo‘shiq ichidagi xitob-so‘z (jaqqu).

Yalqov qalblarni qiyratgan sensan, do‘mbiram,
O‘rtakalarni sakratgan sensan, do‘mbiram!

Poyga otiday boptalgan o‘zing, do‘mbiram,
Arslonlarimni yo‘qlagan o‘zing, do‘mbiram!

Og‘ir qazoni eslatgan[1] ham sen — do‘mbiram,
“Yozmish-ay, yozmish!” —
deb o‘tgan ham sen — do‘mbiram!

Shimol-u Sharqni kezib yurgansan, do‘mbiram,
Azoblardan, eh, to‘zib yurgansan, do‘mbiram!

Ozodlik kunin birga kutgansan, do‘mbiram,
Qozoqning manglayiga bitgansan, do‘mbiram!

AJEMNING[2] URCHUG‘I

O‘tirganmisan bir soat tinchib,
O‘ram[3]ga ko‘p ip yig‘ilib.
Qo‘lingda doim aylanar urchiq,
Vaqtni ham qo‘sha yigirib.

Qo‘lingdan chiqqan ehson,
Qo‘nardi uyga qut bo‘lib.
Sekundlar, yana minutlar,
Yigirilardi ip bo‘lib.

Sen yo‘qda ko‘ngil tinchirma,
Sog‘indik seni — bu chinim.
Egasiz qoldi to‘r uyda
Sening muqaddas urchig‘ing.

[1] **Og‘ir qazoni eslatish** — rivoyatlarga ko‘ra, Chingizxon o‘g‘li Jo‘ji jangda o‘lganida bu haqda xabar keltirgan odamni o‘lim jazosiga mahkum etgan. O‘g‘lining o‘limini lashkarboshilar do‘mbira chalish orqali ayttirgan (eslatgan) ekanlar.

[2] **Aje** — buvi, ena.

[3] **O‘ram** — g‘altak.

Ketsang ham olis kunga uchib,
Ketmaysan esdan, enajon.
O‘zing bo‘p meni yurar quchib,
Sen to‘qib berganing — chakmon.

O‘zimni shunday yupatay,
Hayot men ham, deb yugurgan.
Urchuq ekan bu vaqt ham,
Hammani ip qilib yigirgan...

QO‘LTAMG‘A

Kun nuri ko‘zda o‘ynardi,
Turganda bizlar azonda.
Burqillab-burqillab qaynardi
Oppoq qurut qora qozonda.

Quchog‘in ajem ochib keng,
Quchardi bizni saxiy un.
Tirjayib og‘och qoshiq-la
Yalaymiz qurut qobig‘in.

Isitar maysaday tanani
Qo‘sh chuvoq, barini sezamiz.
Ko‘kdan kun shu’la sepadi,
Nur to‘kar yerdan ajemiz.

Ertangi kuni ertalab,
Qurut yoyar ajem siqmalab.
Qurutdan ko‘p yeymiz erkalar,
Shu ta’mdan bo‘yga qut tarab.

Kelajak kutar bizni oldda,
Kelmasga go‘dak payt ketgan.
O‘shal dam siqma qurutlarda
Qo‘ltamg‘ang borin bilmabman.

Quruting sog‘indim jonim-la,
Qo‘ltamg‘ani men sog‘indim.
Saxovat to‘la kafting-la
Himmatli barmoqlaringni.

Men tirik, sen-chi, sen — arvoh,
Qo‘ltamg‘ang borin bilasan.
Tushlarimda mening har vaqt,
Qurut yoyib, aje, yurasan...

XILVAT

(Rivoyatlarda Xo‘ja Ahmad Yassaviy bobomiz umr so‘ngini xilvatda — turmush tashvishlaridan chetda yashaganligi aytiladi.)

O, xilvat, xilvat!
Yuragimni sen o‘t et,
Jonday yaralgan har so‘zni,
Hur qizlarday suluv et.
Uyg‘otdi meni gubirlab,
Qora o‘lanning piri keng.
Qorachig‘ida suvi ko‘p.
Madinada — Muhammad,
Turkistonda — Xo‘ja Ahmad.

Idrokka she’rning gulin ek,
Munglilarning mungin ek.
Nurlilarning nurin ek,
Donolarning bir paytlar
Aytilmay qolgan she’rin ek.
Asl so‘zlar — marvarid,
Ko‘rayin solganda surat.
Yer ostida xilvat uy,
“Bismilloh!” — deb kirdik biz.

Qur'onning muqaddas so'zlari,
Idrokka soldi qutlug' iz.
Qur'on o'qidek bag'ishlab,
Arvohga ta'zim izma-iz.

Allohning halol quli bo'p
Oltmish uch yoshga kelganda,
Bobom kirgan shu xilvat, —
Ichi to'la nur ekan,
Xilvat ichida yashagan
Xo'ja Ahmad dononing
Aytilmagan siri ko'p ekan.

O, xosiyatli xilvat,
Ichi to'la nur ekan,
Bobom ruhi yuribdi,
Yer yuzidagi umrin
Davomi mana shul ekan.

Oyi, kuni omonda,
Allohning nurin yirlagan[1]
Kuch-quvvat olgan har onda
Og'ziga solgan xurmodan.
Arslonbob ustozining
Vasiyatin tinglagan.
Payg'ambar yoshiga kelganda
Bir kun ham yerda turmagan.
Yana oltmish uch yoshni
Yashagan shunda dur bobom!

O, muqaddas xilvat uy,
Bu dunyoning o'lchovli
Ekanligini ko'rsatding.
U dunyoga boshlovchi

[1] **Yirlagan** — kuylamoq, she'rga solmoq.

Makonligini ko‘rsatding.
Bu dunyodagi mulklar
Bekorligini ko‘rsatding.
U dunyoning mangulik
Ekanligini ko‘rsatding.

Hazrat Sulton avliyom,
Ochgan senga bor sirin,
Haqiqatni anglar deb,
To‘kkan senga jon sirin.
Allohning haq yo‘lida
Tark etdi u kun nurin.
Sarf etdi u oy nurin,
Qurbon etdi tong‘larin.

O, muqaddas xilvat uy,
Chingrov qafasday bo‘lsang ham,
Qorong‘ida tursang ham,
Sen tebratding bobomning
Aql-o‘yi beshigin,
Tafakkuri eshigin.
Yozganin yoyding jahonga
Fasona qilib is(i)min.

Turkistondagi xilvat uy,
Havasli maxfiy siri ko‘p,
Ko‘krakka quyar nuri ko‘p.
Ikki dunyoni qamragan
Jumboqli ko‘prikning biri deb,
Qancha asrlar o‘tsa-da,
Saqlaydi seni bir qudrat.

ABAYNING QASHQABULOG‘I

Abayning Qashqabulog‘i,
Sag‘asi[1] inj-u-marjondan,
Yoqasi yashil pulishdan[2],
Tomchisi oltin-kumushdan,
Yaproqlar suyar betingdan,
Suvingdan suluv gul ichgan.

Abayning qashqabulog‘i,
Elga himoya qilichmisan?
Yerga nasiba, rizqmisan?
Oy suyub asl erningdan,
Kulimsirab kelib kun ichgan.

Abayning Qashqabulog‘i,
Oqasan shildir tovush bilan,
Shoirona ruh, jo‘sh bilan,
Tillashasan G‘arb, Janub,
Shu’la sochgan Sharq bilan.

Abayning Qashqabulog‘i,
Tulporlar to‘xtab suv ichgan,
Bir payt tulporday sho‘x eding,
Yotvolib sening yoqangda,
Bola Abay ham suv ichgan.

Abayning Qashqabulog‘i,
Ulug‘lar mungin bo‘lishgan,
Suhbatga kelib dunyolar,
Ichidagi o‘tni so‘ndirib,
Donolar sendan suv ichgan.

---

[1] **Sag‘asi** — ariqning boshlanish joyi.

[2] **Pulish** — qimmatbaho mato, barqut.

Abayning Qashqabulog‘i,
Qozog‘im otin qo‘ygan suv,
Olamga nomin yoygan suv.
Chaqmoqqa borayotganda,
Shokarim yuzin chaygan suv.

Abayning Qashqabulog‘i,
Havolab ilhom quvgan suv,
Avezov yoqangda turgan suv.
Betida ilinib qaymog‘i,
Muxtorga so‘zlar bergan suv.

Abayning Qashqabulog‘i
Xalqimning oqqan jir-angi,
Ko‘rmadim senday dononi,
Suvlaring sening muqaddas,
Tug‘gandir shuncha dahoni!

Abayning Qashqabulog‘i,
Qirq o‘rim toshma bulog‘i,
Osmonning osma bulog‘i,
O‘ttiz yil vayron solsa ham,
Qirq ishlab qirg‘in bo‘lsa ham,
Jildirab oqar suv hali,
Abaylar qayta keladi,
Ulug‘lar qaytaveradi!

GULNAR SALIQBAEVA

(1963)

Gulnar Saliqbay 1963-yil 15-mayda Sharqiy Qozog'iston viloyati, Zaysan tumani, Jambil qishlog'ida tug'ilgan. 1986-yilda S.M.Kirov nomidagi Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

1991-yilda uning "Bir qultum havo, qizil quyosh" nomli birinchi kitobi nashr etilgan. Keyinchalik shoirning "Jon", "Osmondagi sog'inchim", "Tush", "Hayotga kelganim uchun kechiringlar" she'riy to'plamlari nashr etilgan.

* * *

Aris[1] oqadi, kurashib oqadi, –
Bir oqimlar bilan mendagi.
Aris oqadi, talashib oqadi,
— Belgisiz nening yengmagani.

Aris oqadi, tanish orani
Qudrati bilan qo'ndoqlab.
Sumbul tol kuyin tag'i chaladi
Suluv ohangni ardoqlab.

Aris oqadi, sariq sanani
Qudrati bilan haq etib.
Ayablar ketdim bir tanish og'ani
Bormoqda navqiron chog'lari o'tib.

Aris oqadi, bulqinib tubdan
Buzarday bo'lib qirg'og'in.

[1] **Aris** — daryo nomi.

Bir ajib lahzani intiqib kutdim,
Bir she'rning izlab so'z, davomin.

Aris oqadi, yo'llari gul-chaman,
Vujudida olov-o't borday...
Aris oqadi — men birga oqaman
Birga oqayapman to'xtalmay.

Jumboqligimni yashirib boraman,
Oqcha bulut misoli, shu ishim.
Bir yoqqa men ham shoshilib oqaman,
Belgisiz qayga quyushim...

OVUL TUNI

Vujudim egallar jim-jima ohang,
Chirkin eh, qancha bolday kuy-navo!
Ko'kka boqaman shodlanib, beg'am,
Ovulning tuni shunchalar zebo!

Erkalansam ham o'zingga qancha,
Demayin sira go'zal bu olam.
Faqat o'tinaman, o'tinay shuncha,
Kuyni to'xtatmang, yangrasin ohang.

Surilib tunning mungli tumani,
Deganday bu nur qaysingga tatir,
Pardasin ochib irg'itib, ana,
Qaranglar ko'kdan oy mo'ralayotir.

Shodlikdan mijjam to'la-to'la yosh,
Bu netgan navo, bu nechuk ohang!
Qo'limdan tutib, aylabon yo'ldosh,
Somon yo'liga boshlar meni ang[1].

[1] **Ang** — qo'shiq.

Yoz fasli. Yurak quroq va quroq
Kuyga qo‘shilar yana va yana.
Sohir ovozla qiqirlar buloq,
Baxt-u farog‘at qilar tantana!

Vujudni oldi jim-jima ohang,
Chirkin-ay, qancha bolday kuy-navo!
Ko‘kka boqaman shodlanib, beg‘am...
Ovulning tuni shunchalar zebo!

* * *

Ko‘ngilli kunim ko‘paymay,
Ozaymay hech orzularim,
Hayotga manov o‘gayday,
Tongimni tongga uladim.

Goh tiriklikdan ham xo‘p olis,
Jinlanib ketar jondaysan.
Qizil va yashil quvonish –
Nimaga meni aldaysan?..

Baxtsizman deb ayta olmayman,
Baxtni ham hali ko‘rmadim.
Talay eshikni ocholmay,
O‘ksidim, biroq o‘lmadim.

Bu siyqa yo‘llarda ming umr...
Mendan ham qoladi bir so‘qmoq.
Sevaman sovuq jonni bir,
Sevishni bilmaydi u biroq!

* * *

To‘qmisan — tur!
Shoshaverma, to‘xta, ko‘ngil!
Boshingni ko‘p tutaverma o‘qqa, ko‘ngil.
Hissiz, mudroq bu toshlardan betingni bur,

Bekor to‘kaverma yoshni, xo‘pma, ko‘ngil.
Toshib-toshib bo‘lding endi, bosil, ko‘ngil,
Onam quygan choy misoli ochil, ko‘ngil.
Kuzing hali oldda turar xo‘rsintirar,
Yig‘layverma sariq yozda, yashil ko‘ngil.

* * *

Qanotsiz-oq uchyapti-ku anov bir qush,
Trolleybusni sudrab borar tokli simlar.
Meni esa sudrab borar trolleybus.
Baribir uchaman bir kun.

Qanotsizlar ichra bitta — tovuqqina.
Trolleybus hech kimni tanimaydi.
Qorong‘i tun — bu dunyo — xavfxona.
Baribir uchaman bir kun.

Trolleybus ichra dunyo majnunlari,
Zuvv-lab uchar barin olib trolleybus.
Tiriklikning qurib ketsin qonunlari,
Baribir uchaman bir kun.

Derazadan ko‘rinadi ko‘p-ko‘p ko‘zlar,
Qizil ko‘zlar, yashil ko‘zlar, sariq ko‘zlar.
Shu ko‘zlarga bo‘ysunamiz sizlar, bizlar...
Baribir uchaman bir kun!

DAVRON BERIKHOJI O‘G‘LI

(1974)

Davron Berikhoji o‘g‘li 1974-yili Semey viloyatida dunyoga kelgan. Qozoq davlat jahon tillari universitetini tamomlagan. Uning she’rlari 1994-yildan boshlab respublika gazet-jurnallarida chop etilib kelmoqda. “Yosh shoirlar she’rlarining antologiyasi”, “Gul va qilich” nomli she’riy to‘plamlari nashr etilgan.

SIZNI KO‘RDIM...

Sizni ko‘rdim yana bugun,
Sizni ko‘rdim.
Yuz yig‘larman endi men,
Yuz kularman.
Men kabi sizni izlab olamto‘rdan,
Men kabi sizni o‘ylab ezilar kim?
Yuz yig‘lab, yuz kulganda eslar balkim...

Jon kelolmas edi-ya yoshingizda,
Kim bo‘libdi manovilar qoshingizda?
Meni aytmang,
Men haytovur qarayverdim,
Qo‘l tegmagan qop-qora sochingizga.

Mung qo‘nganday manov yerda ko‘zingizga,
(Ja-a ochilib ketgansiz o‘zingiz-da!)
Nega bundoq taqdirlar, nega bundoq,
Sizni menga qo‘shmagan, meni sizga?

Dedingizmi, qalbni his ketar aldab,
Ko‘zoynak ham taqibsiz, bu ham bir zeb.

Manov yerda...
Bir mayin iljayasiz,
Joningiz shod ekanin sezsinlar deb.

Yurak, ko‘ngil ochaymi
G‘amga to‘lgan,
Manov... menga, bilmadim nedir bo‘lgan:
...monitorga tikilib qotib qoldim,
Farishtani ko‘rganday yerga qo‘ngan!

Sizni ko‘rdim yana bugun, sizni ko‘rdim,
Kuzgi shamol kabi endi turmasman jim.
Qish kunida qayg‘umni qalinlatib,
Kim yuborgan sizni yerga?
Yuborgan kim?

KUZGI ELEGIYA

Kimga ne aytgandaysan...
Bir shaharni bo‘yoqqa soldi mavsum.
G‘amxo‘rlik qilmay qayin daraxtlarga,
Eshittirmas g‘ozlarning qaytgan tovshin.

Osmonni ham aldaydi kulib mana,
Derazadan qaraysan sovuqqina.
Boyagiday quchmaydi hech kim seni,
Boyagiday uchmaydi bulut ana.

Paytin poylab yurganday o‘ladigan,
Hech ma’nosiz keladi, ketadi ko‘p.
Shayton sanar, o‘z-o‘zin tugatadi
Odamlardan buyuklik izlasa kim.

Joningga ne izlaysan atrof boqib?
Yo‘llar ketgan ufq tomon huv uloqib.
Qoidaga binoan kun kechasan,
Derazangga yasama gullar taqib...

SIMULATSIYA

Turaver chiroyingni bermaganday,
Turaver ko‘rsang hamki ko‘rmaganday.
Men boyoqish, ko‘zlarga boshqa birov
Bo‘layin o‘p-o‘tirik terlaganday.

Sir bermay sirting bermay, shildir ko‘lday,
Kulib qo‘y tanishlaring kuldirganday.
Sehrlangan men bo‘lsam, shoshganimdan,
Bo‘layin boshqaga izzat bildirganday.

Nurlanib ham ulgurgan, surlanib ham,
Ko‘rsataylik o‘trik tur shu xalqqa.
Turganday bo‘lsin bari o‘z o‘rninda,
Turganday bo‘lsin umr bir qolipda.

Tongi bo‘lak otuvchi, tatar ta’mi,
Yo‘lovchiday bo‘laylik safardagi.
Bir-biriga takabbur nigoh solgan
Yolg‘iz faqat bizlarmi shahardagi.

Shundan keyin yurakka zo‘rlik kirib,
Ichimizdan ezilib, yopib, tinib,
Yuboramiz o‘zimiz o‘zimizni,
Ko‘chalarning ichiga uloqtirib.

Yuraveramiz shu taxlit terlaganday,
Yuraveramiz ko‘rsak ham ko‘rmaganday.
Shundan keyin ko‘p sonli “o‘lik”lar-la
Umr surib o‘tamiz o‘lmaganday.

MURATXAN SHOQAN

(1974)

1974-yil 25-fevralda Xitoyning Tarbag'atay viloyatida tug'ilgan. Shinjon universitetida qozoq tili va adabiyoti yo'nalishida tahsil olgan. Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi, shoir, faylasuf. Olmaota shahar Yoshlar siyosatini rivojlantirish davlat fondining "Adabiyot olami" markazi rahbari. "Yigirmaning yolqini", "Bahor uchun meni sev", "Yurakka yukinib", "Tungi lirika" kabi to'plamlar muallifi. "Yaratilishnoma" falsafiy kitobi chop etilgan.

She'rlari o'zbek, qirg'iz, xitoy tillariga tarjima qilingan.

BESAS SEVGI

Alash[1], seni jim suyaman, sevaman besas,
Aylanayin, xosiyatingdan o'zingga xos.
Seni desam, gulga kirar sog'inch-hislarim,
Birovlardek olqishlashga qo'llarim bormas.

Chin suyganlar yuzlarida oftob namoyon,
Bobodehqon mehrin sochib uradi ketmon.
Cho'pon qirga qo'y haydaydi, rizqin teradi,
"Sevaman",
deb lab ochmasdan sevaveradi.

Tiriklikning ta'min totib yuradi ular,
Yuragida gullab yotar sohir tuyg'ular.
Bong uradi allakimlar, go'yo so'zi bol,
Ovozi bor, yuragida ishqi yo'q misqol.

[1] **Alash** — 1917-yilda qozoq xalqining mustaqilligi uchun kurashgan, ziyolilarni bir maqsad yo'lida birlashtirgan harakat.

Ular senga nima berdi, sarob — beadog‘,
Alash deganlarni ko‘rdim,
har yerda, har chog‘.
Bir-biriga gal bermaydi, talashar minbar,
Labida so‘z, yuragida qaynaydi zahar.

Gap bilmasa qurib qolar go‘yo iligi,
Axir shuning orqasidan tirikchiligi.
Ko‘kda lochin kuni bo‘yi uchib solmas jar,
Faqat tovuq och qolganda tinmay “qa-qag‘”lar.

Alash, seni jim suyaman, sevaman besas,
Aylanayin, xosiyatingdan o‘zingga xos.

MEN G‘AM CHEKSAM

Birovlarga yoqamanmi, yo‘qmi, jim
Rizqim terib kun oshdim-u oy o‘tdim.
Men oh urdim, suyib turib elimni,
Odamzot deb g‘amga jonni koyitdim.

Tomirlarga qaynoq qondek taraldim,
Millat uchun shoir bo‘lib yaraldim.
Musulmonman, boshim egim dinimga,
Barcha dinga hurmat bilan qaradim.

Masjidlarmi, ma’budlar-u cherkovga,
Xusumatim yo‘qdir aslo birovga.
Yuragida imon urib turmasa
Ko‘z yoshiga ko‘l bo‘ladi bo‘sh gavda.

Shoirmisan, haqqing yo‘q jim turishga,
Yolg‘on yozma, boshlab borar urushga!
Qancha jonning zavol qilgan umrini,
Lan’at bo‘lsin nodon qurolfurushga!

Birovlarga yoqamanmi, yo‘qmi, jim
Rizqim terib kun oshdim-u oy o‘tdim.
Men oh urdim, suyib turib elimni,
Odamzot deb g‘amga jonni koyitdim.

MANGLAYIMGA NAZAR

Goho manglayimga nazar solganda,
Bir ibrat ko‘raman, xasdan, toldanda.
Ular yer talashmas: tuproq, suv, havo,
Bu taloto‘p odamzotga qolganda!

Yuragidan g‘azab toshib, o‘t toshib,
Kun ko‘radi loy chaplashib, talashib.
Suronlardan boshim olib men bog‘da,
O‘tiribman majuntol-la sirlashib.

Dilga kelib quyiladi ajib sas,
Ko‘rkam she’rga aylanadi har nafas.
Qanday yaxshi, oftob bu keng olamga
Nurlarini taratgaydir teng taqqos.

Obod etsa, odamlar dil ko‘yini,
Bir-biridan ko‘ngli to‘lib, suyunib.
O‘ylarimning jilovini tutolmay,
Qarshilayman kunbotarda uyimni.

Goho manglayimga nazar solganda,
Bir ibrat ko‘raman, xasdan, toldanda.
Ular yer talashmas: tuproq, suv, havo,
Bu taloto‘p odamzotga qolganda!

ARBAT[1]DA

Birovning jim turgani, gapirgani,
Gohi notinch yuragimni parchalaydi.
Bir tomonda quvonch ko‘nglimni siylasa,
Bir tarafda hijron ko‘ksimni yalaydi.
Menga nima kerak, tag‘in anglolmayman,
Bilolmayman kimga ko‘ngil yorishimni?

Dil yozadi kimdir gitarani chertib,
Kimdir ko‘zda yoshi bilan tinglaydi tik.
Hayot o‘zi totli, garchi go‘zal emas,
Arbatdagi muzqaymoqning suratidek.

Kimdir tosh-u sanamlarga qilar toat,
Ko‘ksimdagi qushim, ko‘kka o‘rla faqat.
Ko‘z tashlayman yon-atrofga men shunchaki,
Yuragimga taskin berar istirohat.

Birovning jim turgani, gap otgani,
Gohi notinch yuragimni parchalaydi.
Bir tomonda quvonch ko‘nglimni siylasa,
Bir tarafda hijron ko‘ksimni yalaydi.
Menga nima kerak, tag‘in anglolmayman,
Bilolmayman kimga ko‘ngil yorishimni?

TUSHUNMASANG NARIROQ YUR

Tushunmasang nariroq yur, ochma lab,
Xudo meni shoir qilgan haqtalab.
Tushunadi meni tog‘lar, burgutlar,
O‘rmon, to‘qay, dov-daraxtlar shul sabab.

[1] **Arbat** — Alma-ata shahridagi ko‘chaning nomi.

Ninasini sanchmas yulg‘un ilinib,
Tabiatning topa bilsang tilini.
Gulni, cho‘pni, hatto qo‘ng‘iz, arining
Gunoh axir toptamoqlik dilini.

Yayrab o‘sdim, saxovatni mo‘l ko‘rib,
Ruhga oziq, tanga quvvat to‘ldirib.
Meni ko‘rsa mehri toshar ilonlar,
Chumolilar o‘tkazadi yo‘l berib.

Bog‘lar qancha bolday meva pishirgan,
Momo eman boshga soya tushirgan?!
Tilanchiga qoqib berar hamyonni —
Bir shirin so‘z kifoya er kishiman.

Tushunmasang nariroq yur, ochma lab,
Xudo meni shoir qilgan haqtalab.
Tushunadi meni tog‘lar, burgutlar,
O‘rmon, to‘qay, dov-daraxtlar shul sabab.

BAXITJON ALDIYAR

(1974)

Baxitjon Aldiyar 1974-yili Qazig'urt viloyatida dunyoga kelgan. X.A.Yassaviy nomidagi Xalqaro Qozoq-Turk universitetining filologiya fakultetida tahsil olgan. Birinchi she'rlari "She'r kurashi" nomi bilan 1995-yili chop etilgan. "Qibla" nomli she'riy to'plami 2006-yili chop etildi.

TUNGI KAPALAK

Tungi kapalak,tentak kapalak,
Gulxanga joningni qiyib borasan.
Netarding bo'lib sen girdikapalak,
Olovda nimang bor, kuyib qolasan.

Qayg'uga botgan bu shoxona ko'ngil,
Bexayr olovdan topar azobin
Mangu uqubatga aylanar Hayot,
Armonning oyog'in qucharsan Oyim.

Qayg'u tegrasini aylanib gir-gir,
Chiroq bo'lib sarob seni aldaydi.
G'alati qo'shiqdan bo'lolmay xalos,
Qanoti kuygandek onang yig'laydi.

Bir lahzalik huzur — bir umr azob,
Nogahon yoqding-a joningga gulxan.
Ko'ngilning ko'chasi qursin-a, qursin
...Oxir ko'ngling qolar baridan bir kun.

Ishonch devorini qulatgan anov,
Joningni ilitmas ertalab tongda

Jajjigina ahmoq gunohkorim-ov,
Qandayin yupatay men seni shunda?!

Tungi kapalak, tentak kapalak,
Gulxanga joningni qiyib borasan.
Netarding bo‘lib sen girdikapalak,
Olovda nimang bor, kuyib qolasan?!

“MEN YOZMAYMAN O‘LANNI ERMAK UCHUN[1]”

Men bir o‘lan yozaman ermak uchun,
O‘lanni Alloh ermak qilib bergan uchun.
Rizq-ro‘zimni yel so‘zdan nasib qilgach,
O‘laningni yozolmasdek menmi kishing?!

Men bir o‘lan yozaman ermak qilib,
Ermak qilib, ruhimga ilhom berib,
Ba’zilardek nega kerak terlab, bukib,
Hislarimni yozaman yerlab turib.

Tikan o‘lan, haq ham o‘lan yozolganga,
Qismat shunday yetmaymiz Yangi armonga.
G‘azalingni to‘karmisan qog‘ozingga,
Ajalingning tusi kelib sazarganga.

Bir boshimga yig‘ilgan o‘n son hunar
O‘n son hunar o‘zgaga qo‘nsa, ko‘rar...
Men o‘lanni yozmas edim, yozdirardim,
Qo‘nanboyning bolasi bo‘lsam agar.

[1] Abay satri.

Otam bo‘lib, “obl.hokim” bizningcha,
Jar topmay ko‘rardim, bo‘lsa o‘zimcha.
Chalqib bosib yurardim o‘mtushlikda
Tig‘iz Dulat, qo‘ng‘irotim ko‘zim-cha,

Sudlamasdi... el o‘shanda boshliq-ku deb,
Yondirmasdi... solinmay tosh to‘siq bo‘b,
Dor yog‘ochni ko‘rgandek yovut cho‘chib,
Yolg‘iz boshim bo‘lardim qashqir ovlar.

Yozdirardim o‘lanni, yozmas yedim,
Ko‘klamda qo‘shig‘im-u yozda she’rim,
Onam biroz gubirlab quyar edi,
“Sudlanganing Baxtjon ozmi sening?!”

Ota-onam o‘qituvchi, qatordagi,
Bo‘lim bo‘lish ular uchun yot armon.
Qizib ketsam af-u etini, kitobxonlar
Qizil Kun ham, men ham bir xil botardagi

Qizil Kun ham, men ham shunday botardagi,
Baxtjonning ism-sharifi atalgani,
Chir-chir bo‘lib, o‘tga tushar bir chinovnik,
Chimkent degan mana shu shahardagi.

Men Qo‘nanbay bo‘lolmadim, emas Abay ham,
Abay kabi yozolmadim, kuchli o‘lan,
Ermak uchun o‘lan yozsam yurt tinglaydi,
Shunga mast bo‘b, o‘tgan yo‘lga qaragayman.

Shu o‘lanni yozgan edim ermak uchun
El so‘ragan bir og‘am terladi chin.
...Bizning xalq o‘zida bir qiziq xalq,
To‘rga tiqib tinmaydigan yerdagi chin.

BAXT BADALXON O‘G‘LI

(1975)

Baxt Badalxon Olmaota viloyatida dunyoga kelgan. 1996-yili Abay nomidagi Olmaota davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. “Mahambet”, “O‘g‘lim, senga aytaman”, “Yurakning ko‘zi ochilsa”, “Sariq bug‘doy” kinosenariylari muallifi.

YOZG‘IT

Tug‘ilib....
Tug‘iliboq o‘lim jazosiga kesilganman,
Qamalga yetib, chiqib ketibdi esimdan ham.
Jonim chirillab, tanam bug‘riqib yotganda,
Yodimga qaytadan sen solganding, o‘sha dam!

Tug‘ilib-oq nurli havoga nil singib,
Tun ortidan o‘tgan ekan mung chizib.
Balki shundan oyga qarab ba’zida
Uvlab-uvlab qo‘yadurman xo‘rsinib.

Tug‘iliboq qochgan ekan qut-barakam
Qismat shunday-ku shundoq yozib bitilgan
“Eng so‘nggi armon-totli!” deydi.
Amal ne?...
Sal achchiqroq, dastlabki hukmdan.

Ey, ho‘ngrash kutgan o‘shal dam,
Tug‘iliboq o‘lim hukmga kesilganman,
Essiz bitgan ushbu dunyoda
Sen hech chiqarib qo‘yma, esingdan ham.
Maylimi?!

* * *

Manglayimda tomir otgan qismatimdan,
Shu tomirning qonida olovday lovlaganman.
Yolg‘izlikning jamolidan kecha men
Oqin ko‘rdim, cho‘g‘ ustida ag‘nagan.

Yolg‘onlardan yongan dunyo o‘charmi-a,
Boqitlikning o‘ti borin o‘ylayman.
Bandalar-la g‘ala-g‘ovur ko‘chada
Hasrat bilan qayg‘u-mungin to‘ylayman.

Bu taqdirmi qattolligi ja nozik?
Men-chi o‘sha noziklikdan qo‘rqaman.
Qo‘rqishlarim sendan boshqa kimga oziq,
Ins-jins parimi-yo, paranjimi o‘rtaning?

Tosh manglayda tomir-tomir qismatim,
Yuragimga tushib ketib... lovlaganman.
Yolg‘izlikning chehrasida kuni kecha,
Oqin ko‘rdim, naq o‘zimdan aynimagan?

* * *

Eh, boyaqish qushim-ey, qanoting kerib, yoymaysan,
Kunduz jismim, kechalari bosh ustimda sayraysan.
Chirillayverib zirqiratib jonimni
Qayg‘u bilan nega qayraysan
Ey bo‘yaqish qushim-ey, gohi menga ham xayol kelar-ku
O‘ysiz dermisan...
Badaning emlagan yomon-ku,
Biroq mening jonim og‘ridi
Umr, umr nima amal-ku,
Ruh shifokorlariga borsammi deyman
Borsam qaytolmay qolaman-ku...
— Voy, bor, deysanmi?
— Yo‘q yoki qol deysanmi?
Bexush kunimga xush bo‘lgudek ey, qushim,

Chir-chir etasan... Mening g‘amimni yermisan?!
Tirik paytimda qoshimda topilmaganlar,
O‘lganda boshimda topilar dermisan?
Ha, — mayli, u-da bo‘lib qolar,
Ungacha bittasi mulla bo‘lib qolar, qaydan bilaman?

ERJON ALASHTUG‘AN

(1976)

1976-yilda Ulug‘tog‘ viloyatining Yangiorqa tumanida tug‘ilgan Abay nomidagi Olmaota Davlat universitetini tamomlagan.

Asarlari dastlab “To‘lqindan to‘lqin tug‘adi” to‘plamiga kirgan. “Ulug‘ quyosh”, “Yolg‘iz osmon”, “Tolag‘ay — Talay” she’riy to‘plamlarining muallifi. “Mahobatli shoirlar” va “Jahon qo‘shig‘i” butun dunyo she’riyat antologiyalarini tuzgan.

YOLG‘IZ OSMON

Muattar qiz — qirmizi, chim
shafran bilan yalpiz ochgan..,
yakka, javhar yulduz uchun
jazira bo‘l, Yolg‘iz Osmon!

* * *

Yorug‘i bor oydinlashgan,
issig‘i ivitarday Tirik Ko‘kni
Quyosh qari shoni qolgan...
Lek, yangilangan hech ne yo‘q-u!
Quyoshdan bo‘lak, guldan ham o‘zga,
yulduzday, tun tilsimin tilib o‘tgan
tag‘dir yig‘ib, yurganlarga,
ibrat olib Tirik Ko‘kdan.
Ayamas baxtin, hukmini bor...
Ayamasa, qararday bo‘p Xon qiziqib~
ulushli sovg‘angni ol,
yurakdagi... Yolg‘iz Umid!
Ko‘rding. Olding. Yondi ko‘zing

Umaysha, Vijdonimni boshqargan qiz.
Quyosh ko‘ziday — yolg‘iz o‘zing,
Gumbaziday — Osmon... Yolg‘iz!

* * *

Tangri — Yolg‘iz! Osmon — Yolg‘iz!
Oshnadan, Ota-Onadan
dastlab shunday boshlanganmiz,
Alash tug‘gan dasht-saxrodan...
Balabog‘cha. Janar opang
tushuntirib El xususda:
“Qozog‘iston — menga... Vatan!” -
deganingda, men ham xayolimdan
cho‘chigandim... Seń, Farishtam:
“Otam mening — Vatan!” — deding.
Miyam — hang-mang o‘zgarishdan,
tili — shoircha, bo‘tam mening!
Sag‘al esim yig‘dim, ehtiyot bo‘p:
“Bor tug‘ishganlar Alashmi?” — deb,
so‘rading-da, tuyding qayta:
“Boshqami, yoki?!.” Bahslashga ko‘p
tusha olmasim aniq edi...
“Jon yorug‘im! Bari Alashtan
tug‘ilgan-ku! “Ko‘p sonli Eli -
Qozoq” bo‘lmay, yoqalashgan
yalmog‘iz bilan jahonlangan,
zamonaviy zorga uringan,
xotiralari zaharlangan...
Zorlik, Munglik.., hammasin ham..,
Alash tug‘gan...
qo‘lin cho‘zgan Ko‘kga, Quyoshga
Aslzot Erin ham, Beklarin ham,
o‘zin bilmay o‘tganin ham,
“yulduz(sirab)” ketganin ham..,
Alash tug‘gan...
tulporin ham tullanganin,

shunqorin, qon-nasli toychog'in,
mingiste'dod bilan lan'atlarin
(yer jigarlar, uyg'ongan so'ng!)..,
Alash tug'gan...
qasd yoviga qarzdor bo'lgan
qo'tanin ham, chalasin ham,

otangni aytib...arz qilgan
anavi itning bolasin ham...
Alash tug'gan...
Ularda Vatan
yo'q-ku, netay?! Jamiyati bor...
Yetimlar-ku...bo'lar, Bo'tam!
Sabrli Elmiz...uvol uqar!"
Yurak sanchib, jon chiqarib,
bo'ldim aytib. Uyqudasan.
Tangri, buning tomchi aqlin
jamiyatga ber...miya so'rasin!
Ko'p ezilgan bu millatda
boshlangan, biz — Dostonlarmiz!
Alash tug'gan...Otayurtda
Bizlar — Yolg'iz Osmonlarmiz!

ETIMOLOGIYA

Osmondan ham yuqori,
Yaratganga yaqin yotgan yoqlardan
dunyolarning to'mtog'i
tonglardan axtargan.
Tong qo'nar manglayga
yozmish etar...yoqalashar jon qayda?!
Sharbatlarin olisda
tottirmaydi tanglayga!
Tomizmaydi kuy... iching
qaqrab qolsin, kasofatli tuprog'ing

makon etgan miya ichin,
manqurt etgan maraz eding,

chegarasi yo‘qolgan...
u, albatta, ongda emas, tashqari!
Biz baxtsizga shu Ordan
buyurmagan misqoli.
Yon...yoqlarga yo‘llasak
marhamatli, minar kimlar miskinni?!
Erkakmizmi, bo‘lmasak
xushtorlikda qush kabi?!
Olam-olam...dasht qushi
qanot qoqsa, qoldi eson-sog‘ arang Ko‘k:
“Oq kanotning ezgusi –
Mekayilga salom”, — deb!
Oy yuzidan kuyni o‘qir...
illat kelsa, til yetguncha...sig‘inib...
paxmoqboshlar uyda o‘tirar
imonlarin yigirib!
Osmondan ham yuqori,
Yaratganga yaqin yotgan yoqlardan
qaytganlari yo‘q hali...
Yotsiragan yotdi armon!

YO‘LLAR VA XATLAR

(Nozga xat)

Bandalarmiz... Bu duyoning qo‘nog‘i,
kechir tugal! Qish, ko‘klam, yoz, kuzni o‘tkaz.
Keyin, kunim, bari yaxshi bo‘ladi...
Biroq keyin... Biz — yo‘qmiz!
Xudo ayasa, tugamaydi yo‘l hali,
safarlardan ushbu xatlar yo‘llaymiz.
So‘ngra, chirog‘im, bari yaxshi bo‘ladi...

Bizlargina... bo‘lmaymiz!
Yo‘llar, xatlar... Ularning bor uvoli.
G‘ayrat yetmas, ovora bo‘lma yuz tuzib.
Yaxshi, jonim, yorqin zamon bo‘ladi...
Yeta olmaymiz... Biz, biroq!
Tan quyiga, Ruh intilar yuqori,
umid chiqib uddalardan El ishongan,
hali, oltinim, turar payt bo‘ladi
qarab boshqa... o‘lcham bilan!
Qovusharda to‘qson yo‘lning torabi[1]
Oldi-ortingga qaraylab yur, avayla!
Bizsiz ham, oynam, bari o‘rnida bo‘ladi...
Sen shoshilma... Yaxshimi?!

[1] **Torabi** — chorraha.

TANAKO‘Z TO‘LQIN QIZI

(1977)

Tanako‘z To‘lqin qizi 1977-yili Olmaota shahrida dunyoga kelgan. To‘qqiz yoshidan boshlab she’rlar yoza boshlagan.

Uning “Biz — tog‘likmiz”, “Sog‘inib yuribman”, “Aytgim keladi”, “Xontangri”, “Sevaman” nomli she’riy to‘plamlar muallifi.

* * *

Bu olamga kerak havo,.kerak kuz,
Afsus, attang, biz shunchaki terakmiz.
Meni kimdir sevsa deyman beg‘araz,
Meni kimdir sevsa deyman sababsiz.

Sevsa deyman meni bor-u holimcha,
Taqqoslamay gavhar, oltin, kumushga.
Sovuq ekan deb o‘ylarkan u holda
Hisga to‘la yor bo‘ladi qor kimga?

Sevmasakan yoqib qolgach qomatim,
Yana ko‘ngil xushlab olgach kechqurun.
Hech kim bo‘lmay, qolganida u tanho,
Sevmasakan horitganda tashvish-mung.

Nima bo‘lar Quyosh nur sochmay qo‘ysa,
Jonin berar odamizod Kun desa.
Tunga oshiq insonlarga lol qolma
Tunni nega sevishini bilmasa.

Ketardim men qushday uchib bedarak,
Ketolmadim banda kabi nokerak.
Men kimnidir sesam deyman beg‘araz,
Men kimnidir sevsam deyman besabab.

BOSHPANA

Yomg‘irda bo‘lmaydi boshpana,
Tomchilar tomlardan uyalib.
Yomg‘irga hamfikr do‘st bo‘ldi
Tomchi yosh ko‘zimdan uzilib.

Tog‘larda bo‘lmaydi boshpana,
Tog‘larda bo‘ladi faqat bosh.
G‘urur-la kekkayib tursa ham
Mehrni sog‘inar hatto tosh.

Boshpana bo‘lmaydi quyoshda,
Uysiz yashayverar buloq ham,
U ta’ma qilmaydi hech narsa,
Biz unga muhtojmiz damo-dam.

Ta’zim-la kutadi bosh shahar,
Tosh ham she’r yozay berilib.
Qafasiga sig‘mas mahrur dil
Ketmasa o‘zgaga evrilib.

* * *

Samoni maqtamay nechog‘lik
Tog‘lar hech ko‘tarmas g‘avg‘olar.
Oftob ko‘p erkalab tursa-da
Harsangtosh chiqarmas sadolar,
Bilsangiz.

Yersan deb qanchalik kamsitsang,
Qaro yer siqilmas sira ham.
Bukmoqqa ko‘p bora intilsang,
Po‘lat hech bukilmas sira ham,
Bilsangiz.

Qanotin qayirib qirqsang ham
Lochinlar kechirim so‘ramas.
Tilini sug‘urib olsang ham
Ilonlar hech qachon yig‘lamas,
Bilsangiz.

Masxara qilsang deb yig‘loqi
Bulutlar jilmayib kuladi.
Nazarga ilmasdan yur nari,
Shoirlar o‘z qadrin biladi,
Bilsangiz.

Og‘zingni to‘ldirib yutaver,
Havoning borligi sezilmas.
Yetti qat zaminga ko‘msang ham
Nafis she’r hech qachon yo‘qolmas,
Bilsangiz.

BAG‘DOD MUBORAK

(1978)

Bag‘dod Muborak 1978-yili Qarag‘anda viloyatida tug‘ilgan. O‘.Boyqung‘irov nomidagi Jezqazg‘an universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. “Xusnixat” va “Oltin kurak” nomli kitoblar muallifi.

OQIN UMRI

Ro‘yobga chiqsa hamki butkul armon,
Ko‘plarni shum qora yer yutib olgan.
Ur-surda chorvasi yo‘q qovoq boshni,
Yaratibsan bunga ham shukur, Egam!

Oqin bo‘lib ne azob nodon bosh, xoy,
Hech qoldirmay aytdi-ku hokim Abay!
Jilva qilgan suyukli parizodim,
Siypagan o‘lanimga yetmas qalay?

Gavdamni titratgan kuy to‘lqin bo‘lib
Go‘zallarga ketardi xayolim ko‘p.
Iljirab o‘zi uzilib tushmasa gar,
Qizlarga uncha mening ziyonim yo‘q.

Shoirni majnun degan odamlar bor,
Ketadi tushunolmay ul nodonlar.
Ne qilay kun kechdirsa ola-quroq,
Duch kelganga ko‘nmaydi nazm qaysar.

Bizga ham yorbo‘lgan-ku qodir Alloh,
Aks holda osharmidi narxi bundoq.

O‘zim qayga boraman, chirog‘im-ey,
Bo‘lgan so‘ng o‘zakdagi o‘lan shundoq.

Kuraysan qor uyumin oltin kurak,
Bahor shula sochsa-da, salqin yurak.
Qiz umrning qizg‘inin ko‘rmay, nechun,
Tushimga o‘sha marhum kirish kerak?

Mavjirab og‘ushida baraq tunning,
Tug‘yonida o‘ylarimni taloq qildim.
Ko‘pda yoza olmagan o‘lanimga
Ko‘kdan hozir tushgandek qarab qoldim.

Haqni deb suvga cho‘kdik, o‘tda kuydik,
Baribir yetmas ekan yo‘qqa yo‘riq.
So‘zimiz o‘tmas ekan tirik jonga,
Ko‘zimiz yetgandan so‘ng no‘xta kiydik.

Yillarga yo‘q bazinam, asrga o‘pkam,
Durgiya, Mag‘jon bilan Qosim o‘tgan.
O‘zgalarday yulduzim tomchilamay,
Yarq etiboq tushaman yashinday man!

Bo‘lmagach fikrga soq, baytga sergak,
Yumalab tushayapman pastda jar, choh.
Es-xushi bor odamga o‘xshamayman,
Shu bilan yaratilar o‘lan qandoq?!

Shu kunlar ko‘zlar zaif, quloq g‘arib,
Shunda biz ne qilyapmiz sir axtarib?
Qay puchmoqqa eltardi besh kun yolg‘on,
Hech bo‘lmasa bermabdi hafta qilib.

Taqdirimni bilgan so‘ng, dono otday,
Yursam-chi mang-mang bosib taqim qoqmay.
Qo‘zg‘amayoq kuyishim kerak edi,
Cho‘g‘day yotgan o‘timni lovillatmay...

NEGA BUGUN

Orzuin oyga biylagan,
Muguzin ko‘kka tiragan.
Mamlakat deb baholagan o‘z-o‘zin,
Vatanimga bag‘ishlayman bir o‘lan.

Tavakkalga bel bog‘lab,
To‘xmadi-yu talashi ko‘p elni o‘ylab.
Bechora mening yedilim deb,
Qon yutgan,
Qozoq yashar yesil bo‘yni yoqalab,
Ey, mening teran tomirim!
Boshqa-boshqa sen bil buning qadrini.
Yoqam yaylov bo‘lsa oldin, chirog‘im,
Mahambetning boshin izlamovchi eding,
Mag‘jonning izlamasdim qabrini
Ey, mening qora o‘rmonim!
Unga qachon yetgan edi qo‘llarim?
Jon bo‘lsa-ku kuyadigan,
Or bo‘lsa-ku sevadigan.
Qon burqirab qo‘rg‘amgayoq, qo‘rg‘adik!
Bir otaning bolasi,
Oltin to‘nning yoqasi
Kecha sening g‘azabingdan, hayiqqan,
Kaltakesaklar ajdardek o‘t sochdi,
Otjalmanlar ayiq bo‘ldi qarachi!
Bepoyon Vatanim-ku bu mening,
Nechunligin bilmadim.
Nega ichida yurgandekmiz turmaning?
Qoziqdagi tulpordek,
Tuzoqqa tushgan shunqordek,
Nega bunga ayanchli-ku tus-turlaring?!
O‘g‘illarim yuragining tuki yo‘q,
Qizlarimning tovonining buri yo‘q
Chala-chulpa tili qoldi og‘zida,

Ko‘ringisi keladi-ya ishrik bo‘p,
Aytaversak hangomasi yiri ko‘p...
Suvday yangi ostonam,
Uvday qimmat boshpanang!
Arz aytishiga kelgan paytda, Tangrim ey,
Qotil kabi egiladi boshginam.
Arisimni otgani ozdek zolimlar,
Nomusimni qo‘shiberlar tashlagan!
Yomg‘irdek qamrab, darddek yalmab o‘lkamga,
Kimlar chiqmayapti bugun yelkamga?!
Ko‘zsiz botir,
So‘zsiz oqin edik-ku
Qadim-qadim, ertada,
Echki juni bo‘rtada...
Qovurg‘asi qayishib,
Adifnasi mayishib
El qo‘rg‘agan bobolarga tong qolib,
O‘zga elning bir xonasin pulga olib
O‘tirgan u, choy ichib...

AQBEREN YELGEZEK

(1980)

Aqberen Yelgezek 1980-yili Olmaota shahrida dunyoga kelgan. Al-Forobiy nomidagi Qozoq milliy universitetining tarix fakultetini tamomlagan. Qozog'iston va Rossiya Yozuvchilar uyushmasining a'zosi. Shoir "Soyalar shovqini", "Fazo", "Cheksizlik sirtidagi shom", "Kaleydoskop", "Shahar kezgan" nomli she'riy to'plamlarning va "Bo'lmagan bolalik davri" povestining muallifi.

ILTIJO

Bor bo'lsin zamin omon, tog'im omon,
Sog' bo'lsin do'stlarim ham, yog'iy omon.
Inson-u nabotot va hasharotning
Mushkul holin his qilmoq emas oson...

Dilda yo'qdir hech kimga shubha-gumon,
Omon bo'lsin begona, jigar omon.
Inson demang, tip-tiniq zangor ko'kdan
Bir yulduzning so'ngani emas oson...

Charchatsa ham shiddatli dovul-bo'ron,
Bemavrid yog'avergan sel-u to'fon.
Bariga chidam yetar, lek go'dakning
Nigoron ko'zin ko'rmoq emas oson...

Dala-dasht bo'lsin omon, bog' ham omon,
Shaharlar tursin omon, qishloq omon,
Bir kishining qazosin eshitsam gar
O'zim o'lib qolgandek emas oson.

Ne-ne dushvor zamonga guvoh inson,
Yurtim omon bo‘lsin-chi, uyim omon.
Ushbu go‘zal olamni asra, Rabbim,
Bu menga ulkan ne’mat bo‘lur chunon.

AYOZ

Bedavoning shishganiday bu ayoz,
Bandi jonning kishaniday bu ayoz.
So‘nggi pulning shitiriday bu ayoz,
Qotgan nonning qitiriday bu ayoz.
O‘lar jonning takbiriday bu ayoz,
Suluv qizning shivirïday bu ayoz.
O‘chgan o‘tning tutuniday bu ayoz,
So‘nggi o‘lan tinch uniday bu ayoz.
To‘lin oyning kelbatiday bu ayoz,
Qotib qolgan yer betiday bu ayoz.
Haq o‘limning quchog‘iday bu ayoz,
Qaroqchining pichog‘iday bu ayoz.
Yovlaringning g‘alabasi bu ayoz,
Jin, shaytonning talvasasi bu ayoz.
So‘ngan pari anoriday bu ayoz,
Ajdarhoning minoriday bu ayoz.
Yorliqlarning nutasiday bu ayoz,
Yaqiningning o‘pkasiday bu ayoz.
Nashaxo‘rning ignasiday bu ayoz,
Qo‘mondonning tugmasiday bu ayoz.
Podsholarning g‘azabiday bu ayoz.
Tergovchining azobiday bu ayoz.
Gunohkorning tavbasiday bu ayoz,
So‘ngan yulduz shu’lasiday bu ayoz.
Sevgan yorning qarg‘ishiday bu ayoz,
“To‘qqiz gramm qo‘rg‘oshin”day bu ayoz...
Men ham — ayoz,
Sinar bo‘lsang, sina, AYOZ!..

KELINCHAK TOL

Iplaringga tizilgandir o‘lan — shudring,
Sen ne sabab yig‘layapsan, kelinchak tol?
Ko‘klam hali kela olmas, ikki hissa
Kapalakdek yog‘moqdadir ko‘ngilchan qor...

Oltin kuzning tarovati qanchalar zo‘r,
Yozda ketgan ekan sening qay ulushing.
Menga qara! Miqtiman-ku simirib nur,
Siz ham izza bo‘lib turmang, qonib iching!

Bildirmasdan iztirobning eng og‘irin
Ko‘ngilni to‘q tutyapman-ku, ey yig‘loqim.
Yolg‘on zahrin chekkan bitta o‘zing emas,
Ma’yus qoldi mungni yutib jim qishlog‘im.

Yolg‘onni men tag‘in ayon bilib qo‘ygum,
Bilib qo‘yib, sekingina kulib qo‘ygum.
Onda-sonda yolg‘izlikdan qiynalganda
Soyali bog‘ og‘ushiga kirib qo‘ygum.

Kelinchakka kim aytibdi? Balki shoir,
Asli men ham shu xabarga ishonganman.
Aynan o‘shal noma’lum so‘z zargaridek
Men ham seni qo‘msab keldim bu maskanga.

Hech kim mendek bila olmas sening g‘aming,
Hech kim sendek bila olmas mening g‘amim.
Sen tinglaysan, axtarasan faqat meni
Men suyaman, o‘zing kabi bo‘lar kimim?

Iplaringga tizilgandir o‘lan — shudring,
Bir o‘tinchim, yig‘lamagin, kelinchak tol!
Ko‘klam bo‘lib kelgaydirman kelasi yil,
Hali erib ulgurmasdan erinchak qor...

TOMCHI VA TOSH

Bugungi tun — tun emasdir...
Oy qaraydi marqayib.
Tomchi yel-la gubirlashdi,
Tosh ustida baqrayib.

Ko‘z yoshmi bu — yo‘q, bu emas,
Qanday qiziq tomosha!
Men o‘zim ham chin men emas,
Keldim xayol-o‘y osha.

Ko‘zimdagi yoshning o‘zin,
Mung yaratgan, beqayg‘u.
Tomchi qo‘ngan toshning o‘zi —
To‘xtab qolgan nur, yog‘du.

Anqib turar soch bo‘yog‘i,
U ham sun’iy, aldamchi.
Ko‘zning tomchisi — toshday og‘ir,
Tosh — qop-qora dev tomchi.

Tunni bilaman, tun emas u
Tun — qontomirning zarbi.
Men ham chindan men emasman,
Men — o‘y-xayollar qabri.

Ol, ko‘z yoshi hozir o‘chadi,
Buziladi sulh va shart.
Sakrab turib tosh yechadi
Qop-qora terisin shart...

Tun emas bu bugungi tun,
Eshitilar sas — bir armon.
Sog‘inib-sog‘inib bir diydorni,
Tomchi ichida yotarman...

BURUN...

Burunlari
Ko‘ngil bog‘ida
Gullab turardi umidlar.
Ko‘kragimda nurlanardi gumon ham.
Tuni bo‘yi o‘lan yozib,
Tong oldi
Ko‘zlarimda raqs tushardi,
Yigitlar!

Kecha esa,
Talay-talay kitob o‘qib tortimli,
Aql-u hushim huv fazoga talpindi.
Bunaqa payt manmanlarning betiga
Otib-sochib ketardim-a, oltinni.

Xushtorimdan yaratilib orzular,
Ko‘klam kelsa, tomchilardi toldan bol...
Bugun yolg‘onligin qo‘ydi ko‘rsatib
Pag‘a-pag‘a yoqqan oppoq qor.

Mendan ko‘ra baxtliroq shekilli,
Mayxonani makon etib olganlar.
Menday erni endi orzu qilmang siz.
Kuz keldi-yu egalladi yerni nam.
Ergashdi-ketdi jinlariga
Borar yeri... borar yeri — belgisiz.

JONGELDI NEMERABOY

Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi va "Adabiyot olami" markazi a'zosi. Olmaota viloyati, Olako'l tumani, Ko'lboy ovulida tug'ilgan.

Tolliqo'rg'on shahridagi Q.Boysaitov nomidagi san'at kolleji hamda I. Jonsug'urov nomidagi Yettisuv davlat universitetini tamomlagan.

"Oq hislar chashmasi", "Qor gullari" nomli she'riy to'plamlari chop etilgan. Qirg'iz, ispan tillarida nashr etilgan qozoq shoirlari antologiyasiga she'rlari kiritilgan. Respublika va viloyat miqyosida o'tkazilgan mushoiralar g'olibi. Respublika tanlovi sovrindori. "Vatan fidoyisi" medali bilan taqdirlangan. El orasida "Jon Seri" deb ataluvchi Suyunboy nomidagi Olmaota viloyat filarmoniyasining musiqa muharriri.

ORZU BEKATI

Avtobusda borar edim o'y surib,
Xayol qoplab olgan edi ko'z oldim.
"Orzu bormi?" — dedi shopir hayqirib,
"Bor" dedim-u,
yolg'iz o'zim qo'zg'oldim.

Xayol qushi charx uradi besarhad,
Orzusi yo'q odam bormi aslida?!
"Orzu" deya ataladi shu bekat —
Men yashovchi uyning ro'parasida.

Bir orzuning og'ushida o'shal kez
Hislar o'tin yoqib, qanot yozibman.
Yo'l-yo'lakay xotiraga to'lib ko'z,
Manzilimdan o'tib ketayozibman.

Totli xayol tebratganda ko‘ngilni,
Orzu-havas dardli joning allalar.
Ketib borayotganday bo‘p ko‘rindi –
Avtobusda hech orzusiz bandalar...

* * *

Quvonch, shodlik ichra qayg‘u — “voy”ni ko‘rdim,
Gadoydan-da gadoyroq bir boyni ko‘rdim.
Parvosi yo‘q hech tabiiy tilsimlarga,
Bulutsiz tun g‘oyib bo‘lgan oyni ko‘rdim.

Ko‘rdim elga ziyonkor-u, tentakni ham,
Va tingladim tentak aytgan ertakni ham.
Qiz bilan qiz turmush qurgan bu zamonda
Ko‘rayapmiz sirg‘a taqqan erkakni ham.

Oqin ko‘rdim — ortida hech so‘z qolmagan,
Hokim ko‘rdim — qo‘l uzatsam, qo‘l olmagan.
Botir ko‘rdim — ko‘ksi to‘la nishon, ammo,
Elga xatar doriganda qo‘zg‘olmagan.

Og‘a ko‘rdim — tushunchasi bolaga teng,
Qozi ko‘rdim — hukmi chala va nafsi keng.
Ko‘chib yurgan qozoqni kunda ko‘raman,
Ko‘chmas, o‘troq lo‘lilar ham bo‘larkan, deng.

Bir do‘st ko‘rdim — salga qilar o‘pka-araz,
Bir do‘st ko‘rdim — dildoshiga qalbi payvast.
Dushman ko‘rdim sinov chog‘i suyanch bo‘lgan,
Shaksiz, u ham kimlargadir do‘st, hamnafas.

Yomonlikdan yuz burganman — yurak tonar,
Yaxshilikdan ichim erib, ziyo tomar.
Umr bersa ko‘rgaydirmiz ko‘rmaganni –
Yangi avlod ko‘rsin faqat yorug‘ tonglar...

SOG‘INAVERAMAN

Bulut ichra kun ko‘zi yilt etganda, oh,
Va shu’ladan gul qalbiga tushsa titroq,
Arzim aytib bexabar ko‘klamga shu choq,
Sog‘inib ketaman sizni.

Chaqmoq chaqib, yosh to‘kkanda moviy osmon,
Va tomchilar uzilganda bargdan oson,
Ahvolimni so‘raganda duch kelgan jon,
Sog‘inib ketaman sizni.

El oldida maqtalib, mard atalganda,
Dilga shodlik, goh mung o‘qi qadalganda,
Ba’zan o‘zga kimsalardan xat olganda,
Sog‘inib ketaman sizni.

Toqqa chiqib do‘stlar ila yayrasak zap,
Tog‘ning zilol suvlariga tamshansa lab.
Orzularga yetsam ham bitta-bittalab...
Sog‘inaveraman sizni.

* * *

Ma’nisi yo‘q besh kunlik bu yolg‘on dunda,
Qaytaverdim aylanib boz eski kunga.
Yoz ovozi yiroqlashib ketgan sayin
Kuzning sozi eshitilar unda-bunda.

Bir yil burun uzatgandim tilla qizni,
Qarshi oldim tag‘in sarg‘ish-malla kuzni.
Holing bilib erkalatsa hamki eling,
Erkalatmas ekan chog‘i taqdir bizni.

Xotirani oy-u yillar taroshlaydi,
(“Eslabdi” deb keyin ko‘zin kim yoshlaydi?)

Qaytolmagan kuzgi qushday ma'yus bo'lib,
Ko'nglim oh-voh chekar — qayg'u taloshlaydi.

Taqir qirlar burkanibdi gulga bu choq,
Za'far kuzning dalalari menga jumboq.
Yozni qo'ygil — u aylanib kelaverar,
Mening yozim qadri baland kun sayin, oh...

ENG QADRLI

Bizlar uchun quvongan va yutgan qon,
Bizlar uchun bor umri, joni qurbon -
Qadri baland insonlarning ismini
Unutsam gar — qasam ursin, ursin ont.

Tartib ila tekis tortib eshkagin,
Ko'z oldimdan ko'rdim yillar kechganin.
Qarshi oldim garchi sokin tonglarni,
Qaytmas bo'lib ketdi dildosh kechlarim.

Muhabbatmi?
Ko'zi — shodlik, o'zi — g'am,
Qancha yillar bardoshimni qilib jam,
Ilk bor o'sha qalb uyg'otgan hislarni
Asrab keldim dil qa'rida to shu dam.

Eng qadrli, esda qolgan kunlarim —
Yurakdagi so'lmas, tirik gullarim.
Hech eskirmas esdaliklar siz bilan
Esdan og'ib ketsam-da, esh dillarim...

GULMANAT AVALXON

(1980)

1980-yilda Xitoy Xalq Respublikasi Tarbog'atay aymog'i (viloyati)ning To'li audani (tumani)da tug'ilgan. 2004-yilda tarixiy vatani — Qozog'istonga ko'chib o'tgan. Qozog'iston Davlat Qizlar Pedagogika universitetini tugatgan.

UMID SHAMIM BIR YONIB, BIR O'CHADI...

Qora tunning quchog'iga qulab turib,
Shildir-shildir oqa boshlar buloq kulib.
O, men seni yuragimdan yulib olib,
Allaqachon yuborganman uloqtirib.

Yellar to'kdi shunda sovuq nafasini,
Sensiz ko'rdim xayollarim qafasini.
Ne bo'ldi-yu o'ylarimdan ketding ko'chib,
Sezgandayin mening baxtim emasingni.

Endi armon har qadamda gulday o'sar,
Va ismingni xayollarim takrorlashar.
Sen so'roqsiz kirib kelsang o'ylarimga,
Umid shamim birda yonib,
birda o'char.

Tuyg'ular-ki, adolatga do'nolmadi,
Ko'nglim esa mavhumlikka ko'nolmadi.
Men o'zingdan yiroqlarga qochdim va lek -
Bu qalbni yengolmadim, egolmadim...

QUSHDAY NOLA CHEKIB...

Kelajakka bizlar shunday yo‘l oldik,
Qalbga tiniq tuyg‘ulardan sololdik.
Buldur - tuman ro‘yolarni quvalab,
Bulutlarga singib ketdik, yo‘qoldik.

Sezmabmiz-ov, ko‘klamlarning o‘tganin,
Kutib yurib, umr yozi yetganin.
Qornin sudrab ko‘kda bo‘g‘oz bulutlar,
Oq yomg‘irga aylanib, yosh to‘kkanin.

Afsus, shunday!..
Qoq ayrildi yo‘limiz,
Taqdirdandir baxtimiz ham sho‘rimiz.
Qo‘lin silkib chaqirgani chaqirgan
Sog‘inch ila nadomatga to‘la kuz.

Umidlarni qaro yerga tiqarmiz,
Bu o‘yindan ko‘ngilsizroq chiqarmiz.
Bilki endi uchrashmasmiz manguga,
Unsiz qolib, unsiz yashab, yitarmiz.

Pok hislarni yanchdik, yotar uvoldek,
O‘zimiz ham sho‘r qismatga o‘raldik.
Qush misoli nola chekib, chirqirab,
Quroq-quroq bulut aro yo‘qoldik...

POYMOL BO‘LGAN ORZULAR

Uyalchang bola...
Qoldi ovulda uyalchang qiz...
Unutilgan, ship-shirin bir xayolmiz.
Tuyg‘ularni yo‘rgakdayoq o‘stirgan
Bolalikning bol nafasin yig‘armiz.

Shirasi ko‘p ko‘ngildagi ko‘klamning
Davrasiga endi qanday sig‘armiz?
Siz tarafga she’r qushlarin uchirib,
“Tezroq qayt!” deb, qo‘l silkiydi nihol qiz.
Poymol bo‘lgan orzular deb, oh urib,
Endi qachon esimizni yig‘armiz?..

Qaltiragan yurakni xo‘p shoshirdim,
Shum hayotda she’r yo‘q endi, qoldim jim.
Ko‘zlarimdan sachrab chiqqan yulduzni
Kipriklarim orasiga yashirdim.

G‘ozi qaytgan qo‘ng‘ir kuzda kim kelar?
Kim ko‘nglimning gulzoriga nur elar?
Tog‘-u toshga urdik barcha imkonni,
Taqdirdan bir gina qoldi — darbadar...
Unsizgina yuragimga so‘z qotdim,
O‘ksinganda eh, poyintar tilaklar.
Men birovning yortisini butladim,
Bizning parcha qalbni xo‘sh, kim tuzatar?
Yuragimiz bu holni jim kuzatar...

O‘SHA-O‘SHA UNSIZLIK...

O‘jar ruhim osmon tomon o‘rladi,
Vujudimni ko‘zga ilmas yerdagi.
Bayoni yo‘q baxt-u taxtga ishongan
Odamlarning manglayida namagi.

Taqdirlarni qo‘ymayin deb ozorlab,
Tayanchsiz ko‘k kulib turar fazolab.
Shoir yurar hayot haqda she’r yozib,
Qush patini yulib olib, jazolab.

Tungi dala “tinchlik ber” deb so‘raydi,
Tunni sirdosh qilmoqchiydim men daydi.

Yor o‘tirar boqib ro‘yi holimga,
Qovog‘ining ostidan ko‘p qaraydi.

Goh tiriklik tuyuladi nursizdek,
Ko‘ngillarning osmoniga kun chizdik.
Bizning umr ichdangina shirinday,
Aslida-ku, o‘sha-o‘sha unsizlik...

BU HAYOT

Manov hayot — tuvakdagi gul kabi,
Samolardan tomib turgan nur kabi.
Zim-zimiston quchib yotgan mung kabi,
Ming xayolga tortib ketar sir kabi.

Manov hayot — aytilmagan chin kabi,
Nogoh xumdan chiqib qolgan jin kabi.
Dengizlarni yutib yotgan qum kabi,
Yulduzlarni yamlayotgan tun kabi.

Obro‘ga qul bo‘ldi qancha idroklar,
Bu odamlar sir yashirar chin kabi...

Oti nima manzillarga yo‘l olgan,
Manov hayot orzu kabi yo‘qolgan.
Avliyolik tullab ketdi shekilli,
Mehr ila muhabbatdan bo‘sh qolgan —
Manov hayot...

KUZ YIG‘LAYDI

Kuylay desam bu hayotning yangrog‘in,
Hasrat to‘lar ko‘kayimga oh, tag‘in.
Yo‘qlov aytib ortda qolgan yillarga
Kuz yig‘laydi to‘kkanicha yaprog‘in.

Kunning yorug‘ nurlaridan kuch olib,
Tun yotadi yulduzlardan nur tomib.
Nari surib soxtalig-u yolg‘onni,
Qani edi ishonchni olsak tanib.

To‘lg‘anmadik, yel misoli o‘taverdik,
Bu dalada hikmat ko‘pdir, yetar erlik.
Biz umrdan asrab olib kuz, ko‘klamni
Bekatlarga tuhfa qilib ketaverdik.

Arzon atoq, ovozaga mehring oqib,
Qayga ketursan, ey asr, sen uloqib?!
Tilim ostida dimiqqan haqiqatni
Yashirmasdan aytmoqchiman tikka boqib!

BAXTIGUL BABASH (AMIRJONOVA)

(1981)

1981-yil 17-fevralda Qozog'iston Respublikasi Atirau viloyatining Kurmangazi tumanida tug'ilgan. Xalil Do'stmuhammedov nomidagi Atirau davlat universiteti gumanitar fakultetining aspiranturasini tamomlagan.

IX "Ilhom" xalqaro ijodiy yoshlar festivali Gran-pri sovrindori. Xalqaro, respublika mushoiralarning hamda "Oltin qalam", "Urker-umid" adabiy tanlovlari ishtirokchisi.

* * *

Ko'nglimdan yurt ko'chdimi, sen ko'chdingmi yurakdan?
Ne qilay men o'ksindim dard-u g'amga ko'milib?

Tun pardasin ocha olmay qocholmadim taqdirdan,
Sen haqda jim so'rayverdim yaproqlardan, yomg'irdan.

Tong nasmidan bahra olib, bor dunyoni unitib,
Aziz otam, yoding turar yuragimni ilitib.

Chiqolmagan ekanman sen anglagan yuksakka.
O'z-o'zimga begonaman — ruhim sinib tushdim cho'kka.

Erkalangan paytim yo'q hech, qavog'ingdan haymig'ib,
Dardchil qalbim afsus, armon, qayg'u-yu umid yig'ib.

Ketdingiz siz... Chinorim — oy, quyosh zulfin tarayman.
Gar eshitsam Ota so'zin, nechundir ko'kka qarayman?

* * *

Taqdirim emassiz, olmang xavotir...
Ko‘zyoshmas, yolg‘onmas, emas haqiqat.
Lek unutolmayman sizni bir umr.
Qalbimning sohibi bo‘ldi boshqa kim?
Aytsam ado bo‘lmas dardlarim qat-qat!

O‘zingizdek kim ham tuyar bog‘ isin,
O‘zingizdek talpinmas menga hech kim.
Yod etib yurgan chog‘ dilning yarasin,
Uchrashdik-da, qalbim sirqirar sim-sim.

Kelmadingiz nechun ruhim qulamay,
Qilko‘prikdan omonlik so‘raganda jon.
Yursam — tag‘in yoqtirib, ham yoqtirmay,
Meni chindan sevadigan bir inson.

Siz kelasiz!
... Hammasin kechiraman.
Taqdirimga boqgum qayta olmayin.
Men ham bu hayotni yashab o‘tarman,
Ismingiz hech kimga ayta olmayin...

* * *

Nurafshonlik abadiy u kunlarda
Men — baxt guli edim, gulgun yashnagan.
Faqat sizning ko‘zingizni quvnatib,
Faqat sizning qalbingizda yashagan.

Beqaror kapalakdek ketdingiz jim,
Qalbimni yeb yurganida qayg‘u-mung,
Uchratdim!
Sizday bo‘lib seva oldi meni kim,
Menday bo‘lib avayladi sizni kim?

Ma'nisiz kunlarim ma'nosin anglab,
Ko'kdan tushgan kumush shudring quridi.
Rahmat, jonim,
Qisqagina hayotimda siz tufayli,
Qiyosi yo'q hislar qalbim to'rida.

Rabbim, hayotdan olgan sabog'im shul:
Men — gulman,
Tabassumi sof-u ko'zlari chaqnoq.
Bog' qilib yashnatay desang o'zing bil,
Tashlamoqchi bo'lsang tag'in o'zing bil...

* * *

Umid ko'zin tikdi mungli o'ksinib,
Seni izladik tun ikkimiz ko'silib.
To'lin oy shivirlar ko'kdagi ko'shkda:
Uning joyi qo'shiqda, deb, — qo'shiqda.

Temirqoziq ters qarab turdi bugun,
O'ylanasan tun bag'rida dilda tugun,
Tun izladi orasidan yulduzning,
Men izladim nolasidan ming qizning.

Topolmadim. Yig'lash — ko'zdan bilinar,
Bul shundayin ajoyib kun ko'rinar.
Ulug' bir tong, sening aksing oynada:
Men oshiqman, — dedi-i-i...
Oshiqman, — dedim... jimgina...

* * *

Ko'zlaringga dunyoning yoshin yig'ib
Yursang-da, sokinsan
Ajal ustam kelganda, mag'rur turib.

Tasavvurlar turfa, haqman demasman
Adashsam ham aytayin:
Haqiqatdan bezganning do'stimasman.

Do‘stimasman, rad etib ko‘magini
Oppoq qordek niyatni yerga urib
Ayamayin yondiraman yuragimni!

Barin ham intihosi, oxiri bor,
Ishq-u muhabbatning, mehr-u shafqatning
Sog‘ingan damlarda chaqiringizlar!

Xayol qanotida uchib kelaman.
Sizlar bilan borman, aziz, suyukman
Yaxshilar, mehridan oydek to‘laman!

... Aziz boshing yerga tegib,
Aylandimi ziyoga?
Biram ulug‘ baxtning bor ekanini
Ko‘rsatib ketaylik yolg‘on dunyoga...

BOVURJON QORAQIZO‘G‘LI

(1982)

1982-yilda tug‘ilgan. Iste’dodli yosh qozoq shoiri. Ko‘plab xalqaro va respublika adabiy tanlovlar g‘olibi.

“Jumboqtosh kuzi”, “O‘ng va tush”, “Yurak kitobi”, “Tuproq nafasi” kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan.

TUPROQ

Tuproq,
men yasama mungdan qo‘rqaman,
ibodatsiz o‘tar tundan qo‘rqaman.
So‘qir so‘zlardan...
qabrga aylangan qorong‘u-u-u ko‘zlardan,
gunohkor kiprikni yuvgan
begunoh yoshdan...
tavba qilmas boshdan qo‘rqaman,
tuproq!

Ollohning nuri yog‘moqda ko‘kdan,
bir mehr yog‘moqda tip-tiniq.
Ha, rost,
biz — yetimmiz yerga tashlangan,
aldanib Yolg‘onga,
Rahim Nuriga mast bo‘lib,
unutilgan nuqtamiz — darbadar...

Tuproq,
men o‘zimdan qo‘rqaman...
qasoskor to‘zimdan qo‘rqaman.
Behuda tovushlarga ko‘milgan

o‘tirik so‘zimdan
qo‘rqaman, tupro-o-oq...

Qara,
yomg‘ir ketib boradi,
qayga ketib boradi?
Taqdir ketib boradi...
Qara,
tomchi yorug‘lik tushdi...
tushdi tuproqtus hayot,
tuproq...

SO‘ZGA QANOT BITGAN TUN

Tilasang, o‘zingdan tila,
so‘ra o‘zingdan.
Axir, o‘zingsan mangulik —
lahza sayin yaralgan.
Lahza sayin yo‘qolgan o‘ylaring qaytsin,
gullasin.
Gullasa, ko‘zingdan so‘z tomar mo‘ltirab,
boshlanar boshqa olam yurakda,
kun tug‘ar jilmayib tilakda.
O‘zingdan tila,
Qadring tark etmasin Qadr tunida,
tarqalsin gumoning.
Bir tomchi yosh bilan yangi olam bitilar,
o‘qilar asling bir tomchi yosh-la.
Kaftingdan so‘z uchir taqdirga!
Endi ko‘kdan qayta tushmas haqiqat.
Aytilgan barchasi –
orli kim, orsiz kim?!
Yozilgan barchasi.
O‘zingni o‘qi.
Qadr tuni ulimasin xalquming.
Faqatgina She’r yog‘adi Osmondan bu Tun.

SHUBHALI KO‘Z BILAN QARASAK

Shubhali ko‘z bilan qarasak,
Sendan ketgandirman, kelajak.
Nega senga shuncha intildim,
Nega oshiqdim, bilmayman.
Bilganim, yuzimni sog‘inch yuvganda,
Yulduzim o‘ngimda tug‘ganda;
Ko‘zlarda adolat kulganda,
Mehr ko‘klagan unlarda
muhabbat qanot qoqqanda;
o‘rtangan rashk kuli o‘zanday oqqanda,
Ul o‘zan kavsarga aylangan kezda;
Xiyonat toptalib, ko‘milib,
Ustida oppoq gul unganda –
Sen naqadar ko‘rkamsan!
Naqadar suluvsan, yoqimli.
Sen haqda o‘ylasam borliqda kuy yangrab,
Kiprikka mo‘ltirab kuy indi.
Men seni sog‘indim, mungdoshim,
Azizim, tengdoshim — kelajak!

APATIYA

I

“Oqshom yana o‘lan o‘qib o‘tganga,
Ko‘chalardan so‘z teradi ko‘p banda...
Ertan umid mo‘ralagan sharqdan,
Kelar yili qor yig‘laydi ko‘klamda.
U sen bo‘lsang tush ko‘rasan kun bo‘yi,
Umr surib o‘y surasan tun bo‘yi.
Shamol g‘amin tushunmagan bo‘lasan,
Oy tug‘ganda oppoq gulning tubidan...”

II

Barmog‘ingga barmog‘im tekkan nuqta
— Yangidan bir olamda yaralgan mo‘jiza.
Sevasan. Olam ketmish o‘zgarib.
Haqiqatga aylanar sezganing.
Bu naqadar ajoyib,
Bu naqadar o‘zgarish.
Har lahzada koinotin kezib butun umrning,
Jon tovushiga tikilib.
O‘lim degani — o‘tirik. Umr degani — mangulik.
Qayda yurdik shuncha tentirab???
Jonim. Labingdan sachrab quvonchingning injusi,
Yonarimdan to‘kilib yupanchning yoquti
Erib ketdi kengliklar, yemrildi vaqt.
Baxt. Baxtliman, Tangrim!

III

Mana, yana bedor o‘tiribman.
Kechirimliman bariga.
Yonimga kelgan kim?! Yolg‘izman.
Qonimda yaralgan ma’voda bolalar o‘ynaydi,
Bobolar duo o‘qir...
Men bo‘lsam tamaki chekaman,
Deraza mo‘ltirab tikilar dalaga.
Dala esa tikilar qabrga.
Yo‘q, balki qayg‘umni chekaman,
qasdma-qasd qabrga.
Uff... o‘yimga kelgan kim?!
Yovshanning bo‘yi urilar dimog‘imga,
Qoramtir tog‘larni eslasam, keladi yig‘lagim,
kelmaydi o‘tgan kun.
Buning bariga ishonmaydi,
Qartaygan butoqni so‘zlatgan
yam-yashil norasta butoq.

MEN

...U vafot etdi. Biroq o'lgan yo'q.
P.S.

Qur'on nasimi esar Qibladan...
Uni faqat
So'qirlar ko'rib,
Soqovlar o'qib,
Garanglargina eshitar,
Chiqib kelib yolg'onidan besh kunning.
Aqlin olmay hech kimning.
Haqiqati — U, U emas — darbadar.
U — Jon ila Tanning sevgisidan zerikib,
So'zga aylangan muhabbati Birovning.
O'sha Birovga oshiq edi o'larday,
Unutdi.
Unutdimi, yo'q, vaqtdan tashqi yerda
Hayotini o'zga bir kitobdan
O'zi o'qib,
O'kinchida ezilib o'tiribdimi?

Gul ko'zidan dumalagan tomchidan;
Ko'klamdagi yosh qayinning
Yaprog'idagi kulgidan;
Iyundagi ko'k o'tloqning shovullagan unidan,
Jigarrang kuzda raqs tushgan yaproqning kuyidan
O'ksigidin ummonning;
Guvuridan samoning,
O'tgan vaqti ila kelar kelajagi qo'shilib,
Yig'laydi ham kuladi,
Kuladi ham yig'laydi.
Ko'z yoshida — bu dunyoning
Quvonchlari kulimsib,
Kulgusida — u dunyoning
Qo'rqinchlari qaltirab turganday...
Qiziq o'zi.

Nima yetmaydi?
Nima izlaydi?
Nima istaydi?
So‘ng yana sog‘inadi Birovni?
Balki uning sog‘inchi yolg‘on...
Yolg‘on...
Yolg‘on...
U goho o‘ylaridan qochib chiqib,
Burul qoboq tong tug‘ganda sharqdan,
yer ko‘ksini Kun o‘pganda erkalab
Yoki
Yel ishqirsa qizg‘ish oqshom o‘tida
Yoki
Qop-qora Tun ingraganda oh urib,
Sig‘inadi yana Unga,
Balkim, Uning kulgichligi yodlandi?!
Bismillo...
Umr ma’nin tushunib,
Unutganin tushirsa agar yodiga.
Shundan so‘ng, U,
O‘limni
O‘lan qilib unsizga o‘qisa.
Farishtalar osmondan tushib kelib,
O‘par edi labidan...
Atta-a-a-ang!!!

QURALAY UMAR

(1983)

1983-yili Sharqiy Qozog'iston viloyati, Zaysan tumani, Jambil ovulida dunyoga kelgan. 2000-yilda Oskemen shahridagi Jambil nomli gimnaziya-internatni, 2004-yilda Sarsen Amanjolov nomidagi Sharqiy Qozog'iston davlat universitetining filologiya fakultetini bitirgan.

She'rlari Respublika nashrlarida doimiy chop etilib turadi. 2004-yilda Xalqaro "Ilhom" festivalida Erik Asqarov nomidagi, 2006-yilda "Yolqin" jurnalining To'legen Aybergenov nomli mukofotlariga sazovor bo'lgan. 2007-yilda Xalqaro "Ilhom" festivalida mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi. 2008-yilda "Yolqin" nashriyotidan "Oq qor", 2014-yilda "Xon Tangri" nashriyotidan "Mening jimligim" nomli to'plamlari chop etilgan.

2015-yilda Davlat stipendiyasi sohibi bo'ldi.

YOG'AVER, OPPOQ QOR

* * *

Yog'aver, oppoq qor...
Oq qorga sirni ag'dardim.
Sirg'anib tushdi,
Quladi jarga oq qor — mung.
Oq qor bo'lish mening armonim,
Biroq...
Kelmas tovonlarda toptalgim.

Yog'aver, oppoq qor...
Ko'z yoshimikin osmonning?
(Men nega undan qo'rqqandim?)

Farishta der ko‘ksidan jirkanib uchganni –
Tangridan qo‘rqmayin toshganning.

Yog‘aver, oppoq qor –
Oq umid, oppoq armonlar,
Bitilmay oq qog‘oz bo‘lib qolganlar.
Qor ko‘ngil bersang bas menga, yaratgan,
Oq qor taqdirini boshga solmanglar.

Oppoq qor — ko‘ngil,
Kelaverar tinmay so‘ragim.
Ko‘ksimda ko‘pirar qo‘shiqlar — toshqin.
Uningdek mening-da kelar yig‘lagim,
Biroq kelmas qora yerga qulagim!

* * *

Hammamiz nuqtamiz hayotning tubinda,
Baxtni so‘raymiz bugunga.
Kerakmi?
Bu yolg‘on dunyoning qizig‘in, boyligin
Olib ketolmagay ul yoqqa hech banda –
Qabrga qo‘yilgan eng so‘ngi gulin-da.
Ko‘chib o‘tar avlod qoniga she’rim,
To‘kilgan top-toza tomchining uninda.
So‘rovchi so‘rganda xatomni,
She’r o‘qib bergum,
Farishta tushunar yurakning tilin-da.

Jannatga yo‘l olar she’rlarim jonimda.
Do‘st bilgan odaming o‘ylasin onginda
Men keyin uyg‘ongum behishtning tonginda.
Olloning qorday oq ishonchin orqalab,
Hozircha yuribman shularning g‘aminda.

Kunlarim yitdilar, tong unut, tun unut.
Qo‘l siltab olisdan ne armon, ne umid

yetalab yuriboq ulg‘aytdi, o‘stirdi.
Xudoyim unutgan jonlarni
Odam deb tushunib,
Banda deb kechirib,
Qalamimga Tangri bergan yo‘llanmani
O‘tirgum goh-gohi qog‘ozga ko‘chirib.

* * *

Yo‘limni bog‘ladi, bilmayman, ne irim?
O‘zimga urdiyov qaysarlik kasrim.
Aytilmay na mungim, na sirim,
Telefon ko‘zimning yoshiga cho‘kdi.
Sizdagi unsizlik — oqlanish,
Mendagi unsizlik — kechirim.

Shunday-ov chamasi...
Taqdirdan yozmish -
Manglayga bitganga ko‘nish-u, bo‘ysunish.
Tag‘in o‘ldi tinchlik og‘ir dam orqalab,
Sizdagi xo‘rsiniq — yolg‘izlik,
Mendagi xo‘rsiniq — sog‘inish.

Ayozga, muzga-da ulgusiz,
Yurakka bir sovuq tomdi siz.
To‘lqinlar keltirgan sasingiz sovuq.
Sizdagi sovuqlik — umidning ko‘zyoshi,
Mendagi sovuqlik... belgisiz...

* * *

Yorishmay ko‘nglimning chirog‘i,
Tugamay taqdirdan so‘rog‘i,
Ul qaynoq damlardan kecholmay,
Ko‘zimga issiq yosh qo‘nadi.
Men unsiz xo‘rsindim.
Ko‘lankam
“Ketma” deb yo‘liga quladi.

Yotvolib yig‘ladi iyagi depsinib,
Ming marta otlandi o‘zingga yetsam deb.
Oyoqqa yiqilib yalindi shundan so‘ng
“Qaytadan aylanib kelsin” deb.

Ko‘rsam deb tag‘in-da
O‘zgartdi makonin.
Qay kezda, qay kuni, qandaylar yetaman?
Ketgan ko‘yi o‘sha...
Sezdingmi,
Qulagan ko‘lankam —
yig‘lagan yuragim ekanin?

* * *

O‘zimning yo‘limda qancha payt poyladim?!
O‘zimdan yozg‘irib, o‘zimni so‘kaman.
Yurakdan mo‘ltirab uzilgan so‘zlarni
Noiloj
To‘rtburchak qog‘ozga to‘kaman.

Olisda armonlar, osmonda oq umid.
Xayolning oq kumush qanotin taqib,
Uchmoqqa qo‘rqding,
Yerdagi
To‘rtburchak qonunga tang‘ib.

Eshitilmay qush uni, yomg‘ir-u qor kuyi,
To‘rtburchak telefon bog‘lamay orani,
Jonimni muzlatib...
To‘rtburchak xonada
Dunyo dumalab boradi.

ERLAN JUNIS

(1984)

1984-yil 7-noyabrda Olmaota viloyati, Jambil tumani, Qarg'ali ovulida tug'ilgan. M.X. Dug'latiy nomidagi Taroz davlat universitetining Jahon tillari fakultetini tamomlagan.

Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi, Davlat "Darin" ("Qobiliyat") yoshlar mukofoti laureati. 3 karra Davlat stipendiyasi sohibi. Xalqaro "Shabit" (Ilhom — VIVAT) festivalining "Adabiyot" nominasiyasi bo'yicha Gran-Pri va Prezident Kubogi sohibi.

"She'riyat farzandi", "Xosiyatli kechalar duosi", "Havas", "Telba", "Umid she'rlari", "Entelexiya", "Armonli tonglarning bulutlari" nomli she'riy kitoblari chop etilgan.

Mehnat faoliyatini Jambildagi "Oq yo'l" gazetasida boshlagan. Respublika "Kentavr", "Ayqin", "Qozoq adabiyoti" gazetalarida jurnalist, Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, Qozog'iston Respublikasi Akademiyasi kutubxonasida muharrir bo'lib ishlagan. Hozirda Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasining viloyat filiali direktori.

BIR ZUMDA

Yulduzdan nur yetguncha oq
Sog'inib ulgurdim seni.
Hali yonimdasan, biroq
Sog'inib ulgurdim seni.
Kapalak qanot qoqquncha,
Sog'inib ulgurdim seni.
Shaharlar fonus yoqquncha
Sog'inib ulgurdim seni.

Bir tomchi tomay deguncha
Sog‘inib ulgurdim seni.
Bir chiroq yonay deguncha
Sog‘inib ulgurdim seni.
Bir o‘ydan qaytay dedim-u
Sog‘inib ulgurdim seni.
Bir so‘zni aytay dedim-u
Sog‘inib ulgurdim seni.
Qush uchib qo‘nar on ichra
Sog‘inib ulgurdim seni.
Ko‘ngil ichra va jon ichra
Sog‘inib ulgurdim seni.
Zoringni tortay deguncha
Sog‘inib ulgurdim seni.
Yukingni ortay deguncha
Sog‘inib ulgurdim seni.
Perronda kuzatmay hali
Sog‘inib ulgurdim seni.
Yiroqqa uzatmay hali
Sog‘inib ulgurdim seni.
Sog‘inmang endi deguncha
Sog‘inib ulgurdim seni.
“Muhabbat o‘ldi”, deguncha
O‘ldiriblar ketgin meni!

YURAGINGNI ASRA

Yuragingni asragin,
Yuragimni asragin.
Bu taloto‘p zamonda,
Bu dolg‘a ko‘p zamonda!
Kunga kerakdir yurak,
Tunga kerakdir yurak,
Senga baribir bo‘lsa,
Gulga kerakdir yurak!

Yuragingga kuch bergin,
Yuragimga kuch bergin,
O‘zing suymasdan turib,
O‘zga suymaydi, bilgin.

Yuragingni asragin,
Yuragimni asragin,
Kelib turgin qoshimga,
Guvoh bo‘l ko‘z yoshimga.
Yuragimni tinglagin,
Yuragingni tinglagin,
Chaqirmagin chohlarga,
Ko‘mma meni ohlarga.
Yuragingga shafqat qil,
Yuragimga shafqat qil,
Yurak degani — suluv,
Yurak degani — Shoir!
Yuragingni asragin,
Yuragimni asragin,
Ko‘ngil ko‘zi yo‘qlarga!
O, Tangrim, o‘zing ko‘z ber!

YURAK MAVSUMLARI

(triptix)

1. O‘tmishda...

O‘tmishda...
Umrning boshlarida,
Ko‘klarga intiqqan hayotman,
Ko‘klamga intiqqan hayotman,

topib keldim,
topib keldim men sening
olaming,
osmoning,

yoningga,
ko‘p keldim bahorgi bog‘ingga,

navqiron bolakay chog‘ingda,
sochingga ko‘k gullar qistirib,
yurarding,
yurarding gullarning sarasi bo‘lib,

“Muhabbat bormi?” deb yurardim,
Ishontirging kelardi,
Kun o‘pgan yuzingdan men o‘pgum,
Joningni jonimning qo‘ri etgum,
Taningni tanimning to‘ri etgum
keladi,

o, balkim, sen bilding,
men shunda bilmagan ekanman,

ertaroq ulg‘aygan ekanman,
bir bog‘ga bog‘lana olmadik
bir bog‘da gullagan ikkimiz,

o‘tmishda...
umrning boshida...

2. Hozir...

Hozir... faqat boshqa shaharda
Sen haqda o‘y surar bir odam,
shaharga,
jilmaygan, yig‘lagan,
hoziroq qutulgan gunohdan,
hoziroq gunohga botgusi,

qaradi u:
sen haqda o‘y surdi,

deraza oldiga bog‘landi,
esga solib o‘sha joylarni,
o‘sha damlarni,

mahzun damlarni,
uning chin suyarin endi payqagan
damlarni,
damlarni
suyukli bo‘lishdan charchagan,

suymoqqa intilgan o‘zgani,
o‘zgaga atalgan so‘zlarni,
o‘zgaga termilgan ko‘zlarni,
mung‘ayib turganin sezmading,

hozir... faqat boshqa shaharda
sen haqda o‘y surgan odamni,
o‘zingga aylangan odamni,
o‘zingga boylagan olamni...

hozir... faqat boshqa shaharda...

3. Ertaga...

Ertaga... ko‘k va yer orasida,
Qo‘ng‘irrang kuzlar
bilan
ko‘kimtir ko‘klamlar baxtlidir,
shu damga qoqilmay yetganlar
baxtlidir,

bir shoir
sen haqda she’r o‘qib turardi,
el haqda she’r o‘qib turardi,
yer haqda she’r o‘qib turardi,
esingga tushganda,

davrlar, zamonlar kechganda,
shaharlar, odamlar ko‘chganda,
o, balkim ayni sening ko‘changda,
o, balkim markaziy maydonda,

armonli, adashqoq bu jonda
dalalar, o‘zanlar, o‘rmonlar,
yo‘llar ham, tog‘lar ham, qo‘rg‘onlar,
vaqtlar, qutblar, ellar ham,
gulzorlar, jalalar, yellar ham,
gulduraklar bilan shovqinlar

ulug‘vor tuyg‘uga ishonganlar,

esiga solganda,
suronlab, sokinlab yuraklar,
otilib,
bosilib yuraklar,
senga kelib urilsa,
tong qolma —
qo‘lingga gul tutib yuraklar,

Ertaga... ko‘k va yer orasida...

AMINA ADAYXAN

(1984)

1984-yil 24-fevralda Oltoy o'lkasida tug'ilgan. Jurnalist, shoir. Oltoy Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. Qator adabiy tanlovlar g'olibi.

2017-yil "Yurakdagi yurak" va "Asrning alangasi" nomli she'riy to'plamlari nashr etilgan. Yosh shoir Olmaotadagi Yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash fondi qoshida tashkil etilgan "Adabiyot olami" markaziga ham a'zo.

O'TINCH

Yuragimga kirib kelganda,
Tuydingizmi tuyg'ularimni?
Taqdirimga kun sayin ko'ndim,
Sezdingizmi qayg'ularimni?

Yashamoqqa bel bog'laganman,
Siz tomonga tobora yaqin.
Goh o'zimcha aqlli odam,
"Qol" demayman, iymanib, tag'in,

Kun keladi, yuragim qonli
Yoningizdan o'taman hissiz.
Va boqmayman, qilmayman parvo
Demasinlar meni "tulki" qiz..

Boshimizdan o'tsa xazonrez,
Bir muddat biz bo'lamiz baxtli.
Men o'zimdan ketib boraman,
Yig'lamayman, eng so'nggi ahdim!

O‘rtanaman, otash qalbimga
Muhrlangan ismingiz, ketmang.
Men sevaman jonimdan ortiq
O‘tinaman meni unutmang...

QACHON

Jonimdanda yaqinrog‘im notanish,
Meni qachon qo‘msab yo‘qlar ekansiz?
“Sog‘intirsang o‘zim topib boraman”,
Dedingiz-u nega unsiz ketdingiz?

Tuman qoplar kech kirganda borliqni,
Ko‘yingizda o‘yga cho‘mib ketaman.
Chertkilaydi yurak ko‘ngil torimni,
Oy baxtliroq, men-chi baxtsiz o‘taman.

Ketar chog‘im xayolim olib sizdan,
Qizg‘onmay ham qo‘ydim endi o‘shalardan.
Yodingizdan o‘chgandurman allaqachon,
Siz kulasiz, poyingizga to‘shalarman.

Hislarini oshkor etib, og‘ringan,
Yoningizdan ketmay turib sog‘ingan.
Men yig‘ladim!
Ko‘z yosh to‘la keldi kuz
Sog‘inchlarim yelkangizga in qurgan.

YO‘QLIGINGDA

Shodlik ketib yuragimga g‘am botti,
O‘lchovi yo‘q sog‘inganman xo‘p qattiq.
Chap ko‘ksimda yaralarni qoldirib
Qon sachratib ufq uzra kun botdi.

Oqshom cho‘kdi sharpangdayin kelishgan,
Isming aytib shamollar ham yelishgan.
Ko‘zlarimga hijron kelib tunaydi
Tush ko‘raman kelishing-u ketishdan.

Yodga solar yulduzlar ham, hoy, seni,
Kimsan, deydi qizg‘ongancha oy seni,
Oppoq bulut oq bag‘rida yig‘lasam
Topilgaymi yuragingdan joy sening?!

Yo‘qligingda bilmam qanday yashadim,
Ey xaloyiq! Qilmang manim tashvishim.
Ko‘ngil kezar bog‘da epkin singari
Anduhingdan baxtiyorga o‘xshadim.

Chin oshiqman...
Muhabbat deb yashadim.

NEDAN

Nedan qismatinga urmoqdasan bosh?
Tuyg‘ular yashirin, bunda ishq talosh
Eng so‘ngi lahzada siltab qo‘llaring
Vidolash...

Nedan sevib qoldim bunchalar oson?
Oshiqlik azobdir, og‘riqli armon.
Eng so‘ngi umid ham nobuddur nobud
Yuraklar xazon...

Nedan lablarida buncha tarovat,
Va yana cho‘g‘dayin lov-lov harorat,
O‘lib-netib ketgan allaqachonlar,
Biroq adovat...

Nedan bag‘ring qaynoq yoqib quchoqlar?
Menga oq qor yoqar nafasi oqlar.
Bevaqt kelgan qishday o, qanday sog‘inch,
Ko‘ksim pichoqlar...

Nedan olislashib ketdi oramiz?
Jon qadar yaqinroq bo‘lib boramiz.
O‘zini baxtiyor bilmaganlardan
Baxtlimiz...

AYJAN TABARIKQIZI

(1986)

1986-yilda Oqko'l ovulida tug'ilgan. 2010-yilda Astana shahridagi Yevroosiyo Gumanitar fanlar institutida huquq va iqtisodiyot asoslari sohasi bo'yicha tahsil olgan. 2016-yilda Ko'kcha akademiyasining qozoq tili va adabiyoti fakultetini tugatgan. Xalqaro San'at festivalining she'riyat yo'nalishi bo'yicha ikki karra sovrindori. 2014-yilda Qozog'iston respublikasining "Aңsar" adabiy tanlovida "Eng kuchli yosh oqin — 2014" nominasiyasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan. 2016-yilda Astana shahrida "Sen yig'lama" nomli ilk she'riy to'plami nashr etilgan.

SO'ROQ

Kirlab ketgan alamdan charchaganday
Oy suyanar men kabi derazaga.
Bunday damda xayol qancha azobli,
Qalb bo'larmi sokin o'ylarga ega?..

Jon allalar xatlarni yozgan onda
Bilmaysiz, men — o'qigan holi zabunni.
Yuragimni olovga tashlab olib,
Bu azobda o'tkazgum necha tunni?..

Kim sezadi har daming og'riqlarin,
Kutmagan choq ko'z yoshga cho'mib mendek.
Yuravering, hech nima bilmagandek...
Men esa jim...hyech nima bo'lmagandek...

Shu tariqa Oydir mening darddoshim,
Siz emas... u menga iliq bag'rini ochgan.

Bilmam, agar olam ters aylansa ham
O‘zi nega Sizni buncha yaxshi ko‘raman?..

Qaytadirsiz bir kuni fe’lingizdan -
Qizg‘anishin yashirib o‘rganmagan.
O‘sha kunda uchrashadi yuraklar,
U kun — qalbda ishqdan boshqa his qolmagan...

YOZGI ELEGIYA

Gullar-yey, yoz ovutib ertak aytadi,
Mung‘aytirib ulgurar Kuz.
Boyagina hayot kechib o‘tganin,
Go‘yo endi biz ham bilmaymiz.

Umr rishtasin yecha olmadim -
Bog‘langan bir odamga.
Yetarlidir mening bu holim,
Meni ayblashdek yana bir g‘amga...

Baribir nimadir yetmas...va o‘ylar charchatar,
Qaytarman bog‘ aro yolg‘iz.
Endi menga hech vaqt, hech qachon
O‘zingizni oqlamangiz...

Fursat unuttirar barcha-barchasin,
Ertagayoq har kim, har neni.
Xudoyimning rahmi kelsa,
Bir yo‘l bo‘lar bilgani.

O‘zgargim kelgani sari nega shunday,
Bir o‘y ketmaydi boshdan:
Bari bilan kelishaman, faqat
Sizni sevishdan boshqa?..

* * *

Yupanch istab qaytadi qushlar,
Joniga botganmi bir qayg‘u daydi?
Gapuqmas yengiltak yel esa,
Yaproq bilan o‘ynaydi.

Ko‘hna sariq dala muk tushib yotar,
Yozin ko‘z qiymas boshqa bir onga.
Vaqt degani milt etib tushgan
Behalovat oqqan bu qonga.

Jonimni qorgancha, qip-qizil so‘z bilan
Ayvonda turdim va uzoq o‘y surdim.
Bizga ham qaytmoqlik kerakmi,
Qalbingni anglamay qo‘yganda hech kim?..

Bariga o‘zini aybdor his qilib,
Ovulda o‘tirar ma’yus Kuz.
Doimo menga teskari qarab,
Turgandek bir ko‘z:
— Siz kimsiz?..

Qushlar-yey, qushlar! Menda sizlarday
Qaytib uchib kelib topdimmi davo?
Ko‘p uzoq tuyular negadir
O‘zim uchun hayotim goho.

Yo‘qotilgan vaqtni topib bo‘lmaydi,
Nechun kech sezdik, kech bildik?..
Tiriklik degani — qaytmoq ekan chunki,
Shu hayotga keldik...

KUY

...So‘z qoldi aytilmagan bir og‘iz,
(So‘ngra yana so‘zlar to‘qib yig‘lading-ay, Kuz)
Alma-Ata olib ketdi sizni, garchi...
Sizni, garchi...
Hech nima so‘ramangiz!..

Menga botgan qayg‘u edi, dard edi,
U g‘am edi, ko‘zga tushgan gard edi.
Ey, voh, o‘zgargisi kelsa o‘lchov,
Siz deganda dunyolari kengayardi.

Tortishsa-da necha baxtsiz taqdirlar,
Hayot aytar o‘z so‘zini baribir.
Haq edingiz, ba’zi bu odamlarni
Oxir bizning muhabbat charchatadir...

Yana shoshib qaytadirsiz, sezdingiz,
Ularning ham balki bor sabablari.
Sevgi toshib ketsa-da ko‘ngillarda
Ishonmoqlik xato bo‘ldi, xato bari.

Bo‘ldi, yetar...
Hech qayerda Umid yo‘q,
Shahardami ayni dam, dasht tomonda.
Vaqt uchundir Oyning yorug‘ligi ham
G‘arb tomonga inib borar bu onda.

Taqdir bizni chuv tushirar, bu gal ham,
Men u — hatto o‘g‘irlangan tushlari.
...Astanada qorlar yog‘di...
Yog‘maganda edi...
Afsus, bu yilgi kuz — kuz bo‘lmadi...

BEGONALAR

Bizning makon qayda ekan, ko‘kdami ekan,
O‘y tirnaydi ko‘ksimni, u xursandmikan?
O‘zni nega aldayman o‘zga uchun
O‘zimni qoralayman, o‘zga uchun?

Yillar unuttirar balki yaramni,
Balki, shundan vaqtga ishongan edim?
Meni yaqin olmasa, yuzin bursa
Qadrim bo‘lmas yerga ne uchun keldim...

Do‘st aytmaydi yil sayin yiroqligin,
Dushman aytmas ko‘ksingga o‘q otganin.
O‘zimning ham aybim bordir... qay bir payt
Meni yaqin olganda unamadim...

Uning ham o‘zincha sabablari ko‘p
(Kimga ham aytolarding men edim deb...)
Egri o‘sgan daraxtdek bu makonda
Tik bo‘lmoqning endi hech keragi yo‘q?!

Biri edim hayot uchun kelganlarning
Umr daryosi o‘ziga yot ko‘rdi meni.
Qirg‘og‘ida ko‘p “yaxshi”ni ko‘rdim ammo,
Ular qalbi tirikmidi, o‘lganmi yo?

Uning ham o‘zincha sabablari ko‘p...

JANAT JANQASHULI

(1987)

1987-yilda Qarag'anda viloyati Qarqarali tumanida tug'ilgan. Y.Buketov nomidagi Qarag'anda davlat universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan.

"Tangri tamg'asi" nomli she'riy to'plami chop etilgan. Taristonda o'tgan Abdulla To'qay nomidagi festival diplomanti. Deuiteli Stambekov nomidagi mukofot sohibi.

QUMURSQA

Dar miyonda uya bor murcha solgan,
Boshin solib uyasiga bot-bot borgan.
Chiranadi botirlar belni bog'lab,
Tirikchilik xomitin kiyib olgan.

Murtin burab, bir-bir bosib poyasini,
O'rdan oshib keladi, qirdan oshib.
Chimildiqdan malikaning soyasini
Majnunning ko'zi bilan ko'rgan oshiq.

Yolg'on dunyo yaratgan zahmat uchun,
Talaylarning tovonida xuni qolgan.
"Qulday ishlab,
bekday yasha" degan so'zni,
Qozoq aytar, ular esa uqib olgan.

Jimitday tan orga to'la, dil rozila
Tanlar doim yo'lbarslarning yurar yo'lin.
Solsa agar solishtirib taroziga,
Bizning ishlar bo'lib qolar oshiq o'yin.

U ham bilar qimiz bilan et bahosin,
Kuvisidan qimizligin totganmiz jim.
Qozog‘imdan kechmaydigan qardoshlar-ay,
Jimitdayin bo‘lsa-da, serg‘ayratim.

Oh-u nolang sunbuladay solar g‘uluv,
Odamzotga borlig‘ing matal-ertak.
Qumursqaning malikasi — asl suluv,
Qumursqaning podshohi — asl erkak!

* * *

Meni o‘ldi denglar,
O‘trik o‘laroq,
Aldanglar...
“Umr shu-da”, deb o‘limni qarg‘anglar.
O‘kinib yig‘lasin,
Ko‘nglimni loylarga qorganlar.

Og‘izdan-og‘izga
O‘tib shum xabar,
Tarqalsin men haqda gap-so‘z shunchalar.
Inilar xo‘rsinar,
Og‘alar –
“Arvohim” oldida mung chalar.

Do‘stlarim,
Ularda bo‘zlarlar,
Xudoni tushunmay kimlardir bo‘zarar.
Birovlar o‘limning sababin,
Birovlar yoshimdan so‘zlarlar.

Mening-chi,
O‘trik o‘lgim kelar o‘ksinsam...

Yolg‘ondan so‘ylanglar,
O‘ldirib o‘ynanglar,

Yashayman desangiz o‘limni o‘ylanglar!
...so‘g‘in “kuni ko‘p ekan” deb kulaversinlar
Ruhimga fotiha o‘qib qo‘yganlar.

TUNGI XAVOTIR

U kungiday — bugun bizga oy yaqin,
Ortidan qoldirib iz uchdi yulduz.
Tishlarimda tishlab — tamaki chakib
O‘y suraman, xayolga buraman yuz.

Oyda bugun oyday, bo‘lak jilvasi,
To‘lin yuzi mung to‘la, qarab qolgan.
Boqishi qiz ko‘zi kabi ginachi,
Mening ko‘zim misoli oqlab olgan.

Tunning yuzi tundlashgan, ichim yonib,
Xuddi tundek tundman — chiqmas ovozim.
Uchgan yulduz, nazdimda g‘ijimlanib,
Bir oqinning uloqtirgan qog‘ozi.

Bo‘zargan tun, bo‘zlar dard so‘rog‘ida,
O‘ltiribdi hasrat chekib suratim.
Tunning sochin silab, oy dudog‘idan,
Bo‘sa istab edim, yetmas jur’atim!

Bulutdayin qoplanar achchiq tutun,
Uchqur xayol — qiz suygan beboshlik chog‘.
Zulukdayin so‘rib oladi bu tun,
Boshimdagi o‘ylarimni beadog‘.

QORA KAPALAK

Qora kapalak,
Tovlanib uchgan,
Qismati bo‘lak sharmsor qushdan.
Taqdiring chigal, tuhmat mahraming,
Osmon yiroqdir, qattiqdir zamin.

Yal-yal tovlanar ipak qanoting,
Zeb bergan unga zargar qora tun.
Ibrat ekan-ku umring betakror,
Jonimni mening qilgali ash’or.

Qora kapalak, ko‘ndirdim seni,
Dam balandga uch, dam pastla xoli.
Oppoq gulzorga qo‘ndirdim seni,
Tutqich bermagan o‘lan misoli.

Gulning shirasi joningga yoqib,
Xazonrez bandning tubiga boqding...
... Hatto qurt tushgan yaproqda ishon,
Burungi kundan bordir bir nishon.

ISHONSANG

Bu hayotda baxshiday irg‘almog‘ing mumkindir,
Zarqanotday suv uza sirg‘almog‘ing mumkindir.
Ishq ko‘yida mast bo‘lib,
Sal cho‘zilib, quyoshga tirg‘almog‘ing mumkindir,
Ishonsang!

Gul bargidan gulafshon libos kiymog‘ing mumkin,
Ko‘lning suvin bir hovuch qilib uymog‘ing mumkin.
Momongni zor qaqshatib,
Menday telba oqqinni sevib, suymog‘ing mumkin,
Ishonsang!

Kamalakdan rangin yo‘l qilib yurmog‘ing mumkin,
Oyga uchiga oq ko‘ylak ilib qo‘ymog‘ing mumkin.
Zoting zorli paytda ham
Bulutni yorgan kunday kulib to‘ymog‘ing mumkin.
Ishonsang!

Ikki chashming chashmaday yig‘lamog‘ing mumkindir,
Menga suyanib ko‘kdan qulamog‘ing mumkindir.
Seni suygan bul jonni,
Qasam guvohi shu deb, so‘ramog‘ing mumkindir,
Ishonsang!

Xayolingni bulutga yashirmog‘ing mumkindir,
Oltin to‘la sandiqday ochilmog‘ing mumkindir.
Peshvolarni cho‘chitib,
Muhabbatga umrbod bosh urmog‘ing mumkindir,
Ishonsang!

MEREY QART

(1989)

1989-yili Sharqiy Qozog'iston viloyatida tug'ilgan. Qozog'iston davlat "Darin" yoshlar mukofoti sohibi.Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

* * *

Yetti qavat ko'kning aksimidi bu,
Momiq bulut suzar savlati to'lib.
Kuy olami tomon chiqdim safarga,
G'am boshimni ezar go'yo tosh bo'lib

Bisotimda g'azna bor edi ajib,
Qora ko'zli qizga monand bo'ylagan.
Hali yosh kezimdan qoldimmi aljib?!
"Ajal yo'q!" Ishongim kelib o'ylagan.

Kunning ham uyulib qosh-qovoqlari...
Yetaklab boradi bu yo'l qayoqqa?!
Taralib yetadi Osmon qo'shig'i:
"Jannatga teng zamin yo'qdir bu yoqda!"

Oh, Surjekey, o'zing mushtipar qurdosh,
Baxtini topibdi kim ham o'landan?!
Yo'liqtir jannatga, olib ketay bosh,
Men kabi ahmoqni qutqar bu g'amdan!

Ranjigan ko'nglim ham turibdi o'ksib,
Axir borib turgan o'zimman anqov.
Dastasi zalvorli qamchim qoldirdim,
Qaytib kelgum albat, topib bir siltov.

ERKA QIZ

Qiziq taqdir!...
G‘ozsimon
Ko‘chdi bulut — gala abiz[1]

Ko‘z o‘ngimda yozgi ovul.
Xayolimda — erka qiz!..
Gullatgancha ko‘nglimni
Tushga kirar pichirlab.
Sevgilimga uchirdim
So‘z qushlarin bir-birlab.
Yulduzlarni qurshagan,
Singdirgandim hushimga.
Oy g‘amini qo‘msagan
Adashuvchi yurakman.
Xayolparast.
Endi-chi...
Yomg‘ir kuyi yodimda.
Osmon suyar tepamda,
Haddim yuvdim sarobga.
Men shunday payqadim,
Kelayapti gunoh kuz.
Oshiq bo‘lib nima bor menga-ya,
Telba qildi-ku erka qiz!..

KO‘KYOLNING XO‘RSINIG‘I

Ko‘kka o‘rlab xayolda,
Tishim qayrab uvladim.
Yo‘l boshida tunadim,
Qirda oyni quvladim.

[1] **Abiz** — oqil, dono.

Yo‘rtib yurdim kun uzoq,
Yovlari mo‘l manglayim.
Taqdirimda ne tuzoq,
Yaksonladim talayin.

Sadaqa deb qapqonga,
Boldirimdan uzdirdim.
Evaziga fevralda
Ancha esim to‘zdirdim.

Sho‘rim qat-qat, besh enli,
Berk qo‘rg‘onim — tog‘, dalam.
Kecha yoqqan shapaloq
Qor ham yovim, shu alam.

O‘tgan yo‘lim izi yo‘q,
“O‘, Tangrim!...” — deb chekdim oh.
Ajal go‘yo ildam o‘q,
Mo‘ljalini topar, voh.

O‘chakishib o‘zimga,
Qalbim to‘lgan g‘amga kir.
Tirikchilik — qonga o‘ch,
Qay birimiz toshbag‘ir?

* * *

Or-nomusim-aynimas urf-aqidam,
Tosh mungini uyg‘otgum dil naqdida,
Yomon o‘ydan ruhimni olis tutar
Qashqirligim irillab jon jahdida!

Tangri quygan jonimga Baxt ilmini,
Tog‘-u toshning singdirdim ta’limini.
Qoq yorgancha tumanni, Haq izlagan...
O‘y ichida yo‘radi dolimini!

Manov besh kun yolg‘onning xuni qayda?
Tunim o‘lja bo‘lsa ham, kunim — hiyla...
To‘beboshi achingan To‘be biyday,
Qashqirligim turadi uvlab Oyga!

ARMAN SHERIZAT MANARBEK O‘G‘LI

(1982)

1992-yilda Sharqiy Qozog‘iston viloyati, Abay tumani, Medeu qishlog‘ida tug‘ilgan. Semey shahrining Shokarim nomidagi davlat universitetida filologiya yo‘nalishida tahsil olgan. Mazkur oliygohda pedagogika bo‘yicha magistr bosqichida o‘qigan. 2012-yilda talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan "Abay dunyosi" tanlovining bosh sovrinini qo‘lga kiritgan. 2014-yilda Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan "Abadiy millat — milliy mafkura" she’riyat tanlovi Gran-pri sohibi. "Təңirqұt" nomli kitobi chop etilgan.

BIZDAN AVVAL

Tan olaman yurak ishqqa tegishli,
Sog‘inch olov bo‘lib yondirar ishqni.
Bizdan avval o‘ylarimiz topishib,
Bizdan avval yo‘llarimiz tutashdi.

Bizdan avval bo‘lib bo‘lgan bari hal,
Biz ko‘nmadik, ko‘nmadi taqdir azal.
Ayriliqqa vaqt ham davo bo‘lmadi,
Sensizlikka yurak ko‘nmas hech mahal.

Yuragimda yomg‘ir bo‘lib to‘lmoqdan,
G‘am sharobin qonib ichib o‘lmoqdan.
Men hajringda devonaga do‘nganman,
Ne naf endi aqli raso bo‘lmoqdan.

Dil daraxti xazon, qushlar qo‘nmagay,
Armon o‘sar, lek umidlar so‘nmagay.
Ma’ni bormi axir bunday yashashdan,
Ishqsizlikka inson zoti ko‘nmagay.

JIMLIK

Aqlimni olasan xumor ko‘z bilan,
Hech kim payqamagan, hech kim sezmagan.
Shuncha og‘ir bo‘ladimi jimliging,
Shuncha achchiq bo‘ladimi so‘z degan?!

Qanday so‘zlab bo‘lar axir bu vaqti?
Jimlik bu — ko‘zlarning sirlashuv vaqti.
Hammasin yurak-la tinglamoq kerak,
So‘zlamoqqa hechnarsa-da qolmapti.

Hatto nozik kipriklaring kuymoqda,
Qo‘rqaman men qovog‘laring uymoqdan.
Mingta so‘zdan bitta sukut afzaldir,
So‘zlab turgan paytda seni tuymoqdan.

Quyosh zarrin socha boshlar tong nurin,
So‘zsiz, tilsiz sochib turar ishq qurin.
Cheksiz oftob zarralari ichidan,
Bir ovozsiz o‘qiladi taqdirim...

YURAK

Haqiqatdan qilguvchi ogoh,
Vujudingda yurak - oyna bor.
Haq pardasi ko‘tarilgan chog‘,
Sen ul kunga tayyor bo‘l tayyor!

Yashirilmas undan o‘tmishing,
Soyang kabi yurar izma-iz.
Bu dunyoda qilgan har ishing,
Kelar senga unda yuzma-yuz.

Unda shunday haqiqatlar bor,
Ko‘zyosh bilan bo‘lmaydi yuvib.

Afsus chekib o‘rtanasan zor,
Ko‘zyoshingda ketasan ivib.

Xudo ochar yurak qulfini,
Faqat o‘zi qodir har ishga.
Umring yetmas seni hattoki,
Bir yurakning sirin bilishga!

OQ YOMG‘IR

Seken Turisbekga

Gumburlagan tovushidan dil shoshdi,
Umr kuyga, kuy umrga almashdi.
Oq tomchiga cho‘kib ketdi bu dunyo,
Yomg‘ir bo‘lib sochib berdi yor ashkin.

Tindirolmay ichidagi titroqni,
Oppoq-oppoq bulutlarga boylanib.
Mahzun navo qo‘shib borar yig‘iday,
Yuraklari dardga, dodga aylanib.

Nur to‘kadi ikki nurli farishta,
She’r yog‘adi, ko‘kdan yulduz to‘kkanday.
Qanot qoqar oh u qanotlaridan,
Yorug‘ dunyo osmonlari poklangay.

Tanasida iste’dod bor taqdirdan,
Haqdan kelgan mujda bilan qovishar.
Ruhan tozarishni istagan dillar,
Oq yomg‘irni yillab sog‘inib yashar!

MEN SEVGAN QIZ

Xush ifor taralib o‘tadi
Yuradi gul isga cho‘milib.
Men sevgan qiz uxlab yotadi
Bahorga ko‘milib.

Kuzlarni sarg‘aytib tashlaydi,
Sog‘inchning har oni, har oni!
Osmonlarda bulutlar bilan,
Ucholmaslik uning armoni.

Sog‘inch chorlar hanuz yor tomon,
Ishqim bilan yetsam qoshiga.
O‘rtada qish yuragim muzlar,
Qorlar yog‘ar uning boshiga...

Oh tumani tarqar xayolning,
Quyoshga soladi yuzini.
Yulduzga sirlarin yashirib,
Oylarga taqqoslar o‘zini.

Betakror go‘zaldir, betakror,
O‘zini tanho deb sezadi.
Eshikdan ichkari kirganda,
Ruhini yolg‘izlik ezadi...

ERBO‘L BEYILXON

Xalqaro she’riyat akademiyasining Akademigi, “Qundaq” jamoat jamg‘armasining direktori, Xalqaro Yozuvchilar uyushmasi hamda “Adabiyot olami” markazining a’zosi.

“Ajinsiz yurak...”, “Cho‘qqidagi atirgul”, “Majnuntol” she’riy to‘plamlari, “Biz ikkovimiz” nomli she’rlar audio diski muallifi.

BIZLAR YOQDA BULUT OG‘IR

Bizlar yoqda bulut og‘ir,
O‘rkach-o‘rkach cho‘kadi.
Baxtli kular yeldek g‘ir-g‘ir,
Baxtsiz ko‘ngil cho‘kadi.
O‘rkach-o‘rkach atan[1] bulut
Ko‘charmikan yel quvsa?
Boy bo‘larmi begona yurt,
Qaytib kelib el qo‘nsa?
Bo‘g‘ra-bo‘g‘ra[2] bulut ko‘chib,
Huvilladi bog‘larim...
Qora bulut, yog‘aver xo‘p,
Yig‘la, qora taqdirim!
Yuragimda jarohat ko‘p,
... Ko‘kragimda yomg‘irim...
Momiq — bulut o‘yiq, o‘pqon,
Tun bolasi — uyqu sag‘ir!..
Tog‘ qismatim juda buyuk,
Bizlar yoqda bulut og‘ir.

---

[1] **Atan** — bichilgan tuya.

[2] **Bug‘ra** — tuya.

MAHZUNLIK

Shodmon kunlar tashlab ketar,
Yildan yilga oshar armon.
Ilk to‘lqinlar dilni g‘ashlar,
So‘ng to‘lqinlar shoshar yomon...
Qo‘ng‘ir yol kun kokil tashlab,
Qo‘ng‘ir taqdir chopar kishnab.
Chin ko‘ngildan ishongandik
Hamma birdek sofdildir deb,
Nokaslar ham odamdir deb.
Kishnab yotgan tulpor ko‘ngil
Qolar gohida xo‘rsinib!
Ochko‘z xufya balbal[1]larga
Ishongan tarix pushaymon.
Dashtda keraga qanot edim,
Kuzgi bargdek xazon bo‘ldim.
Duldul qanotli ot edim,
Shaharda sargardon bo‘ldim.
Temir xomut jonim g‘ajir,
Asl zotli tulpor edim.

* * *

Yetim jonim, sag‘ir bag‘rim,
Yetim ko‘nglim!
Zardoblarga, alamlarga to‘lgan dilim.
Ko‘zlarimga sanchiladi qayg‘u tig‘i -
Yaratganim, mehribonim, yolg‘iz Tangrim
Ato etar sevgan bandasiga yig‘i.
Yaratganim, Sizni suydim! Qizni suydim —
Badqovoq ko‘k — yig‘layotgan ko‘zni suydim!
Yolg‘iz o‘g‘lin yo‘qlab kelgan beva kampir —

[1] **Balbal** — tosh haykal.

Sarg‘ish xazonbarg yog‘ilgan kuzni suydim!
Ko‘nglim sinib, ko‘nglim bo‘zlab, xo‘rsinganim...
Qushdek sezgim, hurkigan es-hushim manim.
Yuragimga qo‘ndi sevgan qushim manim,
Yig‘layotgan ko‘zlaringa cho‘kdim, jonim,
Ko‘zlaringa cho‘mdim qaro qoshim manim.
Shirin so‘zlab yupatganing foydasi yo‘q,
Ushlatmagan, bog‘latmagan ot — armonim.
Bo‘zto‘rg‘aydek chirqiraydi mening jonim,
Yer-u ko‘kdan izlagayman seni jonim.
...Yo‘li boshqa, uyi boshqa bu umrimning,
Baxtim izlab topmadim bu ostonadan...
Jilovini uzib tulpor taqdirimning,
Qochib ketgum kelar bugun Astanadan.

BAXT GULI

Savkele[1] — sarvim! Tabulg‘a to‘riq mung siylagan,
Ipakday sirpangan, dupurlagan — asov vaqt.
Zarg‘aldoq sog‘inch... qizg‘aldoq umrim kuylagan,
Hilpiragan choponday yelni quvgan kunlarim xushvaqt.
Qiyoqli sohilim, yovshanlar gullagan kungayim,
Giyohlar yashnagan quyoshga teskari qirlarim,
Osmonlarga gerdaygan tumanli cho‘qqilarim...
Ardoqlim!.. Otashin hislarimni jilovlayman aqlim bilan,
Sirtim xotirjam, sir bermas, ichimda bo‘zlaydi bo‘talar.
Archaning burchig‘iday yam-yashil — Baxtning Gulisan,
Boychechakday gulladi tuyg‘ularim za’faron...
Oppoq bulutlardan to‘kilib kuyladi kumush ovoz,
Yurakning davosi o‘zing, qo‘l yetmas qoyadagi do‘lana.
Qayinning tip-tiniq sutidek yuraging beg‘ubor,
Sog‘indim!.. qarag‘ay po‘stiday qayishmas to‘zimim.
Ko‘nglim to‘lqinlari jo‘shdi Yoyiqday,

[1] **Savkele** — bosh kiyimi

O‘zanimga sig‘may qoldim sarkash daryoday,
Bag‘oyat suluvdir Savkele — sarvning oppoq nahori!..

* * *

Kapalak qor, yerga qo‘ngan kapalak,
oq qanotin silkib kelib.
Tabiat oq nurlarini ayamas
el ko‘ngliga yoqsin deb...
Dunyo oppoq, qor yoprilgan kenglik oppoq,
qor uchadi kapalakdek pirpirab,
yerga qo‘ngan qorni tuproq shimiydi.
Bir kun biz ham shu tuproqqa singamiz,
...kuntizma[1]ni varaqlab...
Zamin uzra uchayotir kapalak qor,
yer yuzida shishib yurgan ko‘p halak bor.
... Yuragimda
mening ham bir kapalak bor.
Tushlarimda quchar meni kapalak qor...

[1] **Kuntizma** — kalendar.

ULAN ISQAQ

(1994)

1994-yili 1-fevralda Almati viloyati Rayimbek tumani Qorabo'loq qishlog'ida tavallud topgan. Ma'lumoti o'rta. Almati Politexnika kollejini tugatgan.

Mutaxassisligi texnik-elektronik. Ilk ijodiy mashqlari "Ulan" gazetasida, "Jalьn" jurnalida chiqqan.

She'rlari "Yoshlik — olov she'r", "Tog' va daryo she'rlari" to'plamlariga kirgan.

SO'NIQLIK

Qari eman qaltiraydi bog'da, hayhot,
Biz turibmiz ey, qayrag'och yolg'iz, bedil,
Bunda yozgan she'rlarimning bari hayot,
Bu yashagan hayotimning bari she'rdir.

Qayg'usi bor, quvonchi bor yuragimning
yetar-yetmas tovushi bor boqqa, axir.
Odamlarning barisi ham menga yaqin,
Odamdagi begonalik menga og'ir.

Bahor kabi g'unchalagan varraklarim,
Qo'lin silkib oshib ketdi ul qirlardan.
Mening kutgan oq qanotli tilaklarim,
Kapalakdek uchib ketdi gulzorlardan.

Kun nuridek bu olamni qaratib men,
Yursam edim yorug'ligim taratib men.
Bugun bir ish boshlasammi degan edim,
Oldim yana barmog'imni qonatib men.

Allanechuk bo‘ron bo‘ldi qum boylagan,
Ko‘ngil birdan qulab tushdi yuksaklikdan.
Ko‘tardim-u arang qo‘ydim o‘z joyiga,
Ey, hayotim, nechog‘li sen suyuklisan!

KUNGA TALPINISH

Ko‘zim tushdi tongda olam sharqiga,
Qo‘lim cho‘zdim Xudo berar rizqiga.
Usta quyosh yasamoqda shu’lalar,
O‘tirvolib Olatog‘ning ustida.

Shu’lalari borgan sari uzayib,
Ko‘rmaydigan ko‘yga tushdik biz g‘arib.
Nurlantirib darrov butun olamni,
Terga botib chiqib kelar qizarib.

Ko‘kragida ming asrlik nur tingan,
Kunga qarab ayrildim men erkimdan.
Mendan avval bu qozoqning osmoniga,
Sultonmahmud Kun bo‘lsam deb talpingan.

Elda uni nazariga ilmasa,
Bo‘lmasmidi qavm bo‘lib qo‘llasa.
Kun qadrini tushunarmi odamzod,
Quyosh botib qorong‘ulik bo‘lmasa.

Ko‘zim tushdi tongda olam sharqiga,
Qo‘lim cho‘zdim Xudo berar rizqiga.
Usta quyosh yasamoqda shu’lalar,
O‘tirvolib Olatog‘ning ustida.

TOG‘DA

O‘ylanaman, ko‘ngil g‘amga botgaydir,
O‘y-fikrlar tinchlik bermay turtgaydir.
So‘ng toliqib, qochib chiqqum shahardan,
Toqqa borib tanam yengil tortgaydir.

Bunda oyni suyib quchgim yurakdan,
Sog‘ayaman har doimgi og‘riqdan.
Qanday yaxshi yuksak cho‘qqi boshida,
Bandalarga qarab turish yuksakdan!

Ruhim yayrar — azal toqqa xumorim,
Taqdirga yo‘l ochgan tog‘lar — posbonim.
Men qandayin tiklamasman qaddimni,
Manglayimdan o‘pib tursa osmonim.

Qayg‘u kelsa goho ruhim yaralab,
Kezib ketgum keng dalani oralab.
Devonadek ketgim kelar, eh shunda,
Tog‘larning bir tosh g‘orini panalab.

Mayli, shunda o‘tsin oylar, yillarim,
Uqsam deyman yuksaklikning sirlarin.
Tarjimalab bersam deyman bobolarning,
Toshga o‘yib, yozib ketgan she’rlarin.

Zo‘r cho‘qqini makon etar burgut qush,
Tog‘ bolasi burgutlarga o‘xsharmish.
Bu tog‘larda qanotimni toblagan
Ollohimga olqish aytib qaytgum xush!

UMR TAHLILI

Bahor edi, xayrlashib qor bilan,
(Biz gaplashib o‘tirgandik chol bilan).
Ko‘p narsaga aqli yetmas bola edim,
Anig‘ini qishloqdagi chol bilar.

Har ishin chol afsonadek aytgusi,
Ezgulikdan boshqa yo‘qdir orzusi.
Qiziq gaplar yoritardi ko‘nglimni,
Yuragimni qoraytirar qayg‘usi.

So‘zlar edi goh hayotdan, o‘limdan,
Do‘stlik, sevgi... joy olardi dilimdan.
Aytganlarin xotiramga band etib,
O‘ylar edim, goh chapimdan, o‘ngimdan.

Shivirlardi ko‘zin qadab osmonga,
Qariyaning ko‘zi to‘la armonga.
Aroq ichma, o‘g‘lim, derdi, adashma,
Aroqdan hech naf kelganmi insonga?!

Duo qiling bobo desam ochar qo‘l,
Ota ko‘rgan o‘q yo‘nadi, der bu el.
Otga qo‘nib molni, ota, qaytargum,
Damni olib yoting deyman to‘kib qo‘r.

Men kichkina qora bola paytlarim,
Oppoq qog‘oz kabi edi yo‘llarim.
Endi menga aqling kerak, oqsoqol,
Kecha, bugunimni tahlil etayin.

SUVGA BORAMAN...

Uyimizda tugabdi-ku suvimiz,
Chelak olib, etigimni kiydim tez.
Shundan yangam hayron bo'lib so'radi:
"Suv yetarli, ne bahona qildingiz?"

"Yana kerak, kir yuvishga" , deb aytdim,
Har kuni shu — suvga ketgum tush payti.
Bir to'kaman, bir quyaman bu suvni,
Bu his-tuyg'u yuragimdan tushmaydi.

Ko'p suvsaydi desa kerak qo'shnilar,
Kim mendagi sog'inchlarni tushunar?!
Suvga borsam, goh maktabdan kelarding,
Meni anglar muhabbatga tashnalar.

Suv boshida yo'lingga ko'z tikibman,
Keladi deb qalbda olov yoqibman.
Seni kutib qancha paqir suvimni
Qora yerga uvol qilib to'kibman.

Ko'zim qadab uzun yo'lning bo'yiga,
Sabr-u chidam qorishdi-ku qayg'uga.
Suvga emas, faqat chanqab yuribman,
Ko'zingdagi suvdek tiniq tuyg'uga.

G'amga botib termulaman ortingdan,
Menga nasib qilsin deyman baxtingdan.
Tush payt bo'ldi, paqir bo'shmi, yangajon,
Suvga boray, qaytarmagin shahdimdan!..

MAQPAL MISA

Almati viloyati Rayimbek tumanidagi Qaynar qishlog'ida tug'ilgan. I.Jansugirov nomidagi Milliy she'riyat tanlovida, shuningdek, Taniqli qozoq shoiri Muqag'ali Maqatayevning 80-yilligiga bag'ishlangan respublika she'riyat tanlovida birinchi o'rinni olgan. Rossiya Yozuvchilar uyushmasining Karim Otarov nomidagi oltin medal sovrindori. Qozog'iston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Oltin topildiq" mukofoti sohibasi.

"Kaftdagi baxt", "Men kerakman", "Osmon tog'ning bahori" she'riy to'plamlari muallifi. Qozog'iston Yozuvchilar va Jurnalistlar Ittifoqining a'zosi.

ONA, SENI TUSHIMDA KO'RDIM...

Sen tushimga ishonasanmi?
O'ylamasdan boshqa bir g'aming.
Oppoq bulut oralaridan
Oqish ko'rinadi jamoling.

Senga yetmoq menga qayda?
Men yerdaman, sen ko'kdasan.
Qo'l silkiysan hayron onam
Yetar edim, yet desang.

Mening yorug' yulduzimning
Muqaddas erur oti.
Noziktabiat qizingning
She'rlar edi qanoti.

Seni ko'rdim tushda yana
Qayg'uraman bundan ham.

Meni ko‘rmoq uchun, ona,
Ul yulduzga bir qara!

Kun ketidan tun keladi.
Sehr to‘la uyimiz.
O‘ng va tushim almashganda
Uchrashamiz tez-tez biz.

O‘ngimdasan, tushimdasan
Men netaman boshqani?
Oppoq bulut orasidan
Ko‘rinadi jamoling.

Senga yetar qushim ham she’r.
Illo, oq nurga chulg‘an!
Seni ko‘rmoq uchun ham men
yerda yura qolaman...

SIR

Mening qora sochimday
Umr, senga she’r bitdim.
Yoshlikning shodligidan
Guppillaydi yuragim.

Tug‘ilgan joy — beshigim.
Ketmaydi hech xayoldan.
Oq tonglarning eshigin
Ochgan sari hayajon...

Eskini bir yangilab
Yoqsam degandim chiroq.
Qay tomondan kelyapti
Ushbu damda dim havo?

Taqdirning shoshqaloq shamoli.
Yo‘lga chiqdim olisni ko‘zlab.

Qo‘shig‘imni quchoqlab,
Go‘dagimni yetaklab.

Vaqtingni o‘g‘irlatib,
Yuragingni kuylatib
Ona bo‘lish — bir baxtdir,
Shoir bo‘lish — bir baxtdir.

Har tovushdan jarang kutdim.
yetar unga iz, darak.
Omadi ko‘p hayotning -
G‘ami menga ne kerak?

Osmon va yer orasin
Ne turadi ajratib?
Qayga ketib boryapsan,
Osmondagi oq bulut?..

BU YILGI KUZ

Bu yilgi kuz qish emas, qishdan battar.
Muzlab qolgan qo‘limga qush qo‘nadi.
Yetim qolgan jonimni qushlar cho‘qir.
Shunday qilib, umr o‘tib boradi.

Olislarga bormay qo‘ydik, ancha bo‘ldi.
Yeling bilan yetakla, bu yilgi kuz!
She’r daftarning yirtilgan varag‘iday
Yelda uchib ketadi.
Eh shunday, bu yilgi kuz...

Nima gaping bor edi, bu yilgi kuz,
To‘xtatma sog‘inchli onlarimni.
Sog‘inchim ko‘zlarimning yoshida
Shunda paydo bo‘lding uyim qoshida.
Bu yilgi kuz...

Har galgi kuzdagi kabi
Horib kelsang, men ham tolib qolaman.
Umidning tolasini tortib olma.
Shoirning orzularin tortib olma,
Bu dunyoda biz o'tkinchi mehmonmiz.

Bilaman bu kuzning ichi to'la dard.
Kimning kelar dardlarimni uqqisi?
Ko'ldan mening kabi qanot qoqishdi
Qushlaringga ergashib umid qushim,
Ha, shunday, bu yilgi kuz...

IKKIMIZ...

Ikkimiz o'quvchi she'rlar o'zgacha,
Uning tili — taqdirning tili.
Quvar edik qirdan kapalak
Yomg'irli kuni...

Ikkimiz sanovchi yulduzlar boshqa,
Uning nuri — onamning ko'zi.
Yaratgandir bu qizni boshda
Koinotning o'zi...

Bizlar ko'rishganda nola boshqacha.
Yurakkinam shu nolaning oshig'i.
Uzilgan jonimdan-da ortiqdir
Qushlarning qo'shig'i...

Ikkimiz aytuvchi gaplar ham o'zga.
Yana o'g'irlaydi uyqumni o'lan.
Men seni yana ham qattiqroq sevib
Sog'inaveraman...

Ikkimiz uchuvchi kenglik yop-yorug'.
O'xshaydi xuddiki sof bir qo'shiqqa.

Yer bilan manguga vidolashib so‘ng
Ketaylik o‘zga bir borliqqa.

Agar vidolashsak, so‘zlar uvoldir.
Men mevali bog‘dan mevalar terdim.
Boraqolgin, — deydi, — mangu hayotga
Farishtalarim...

QURBANGUL AG'ABEK

(1996)

1996-yilda O'rdaboshi tumani Bergen ovulida dunyoga kelgan. Qozog'iston davlat qizlar pedagogika universitetining jahon tillari filologiyasi fakultetida tahsil olgan.

Olmaota viloyatidagi 46-umumta'lim maktabida qozoq tili va adabiyoti fanidan o'quvchilarga saboq beradi.

She'rlari respublika matbuotida muntazam e'lon qilinadi.

TUSHDAGI OTA-ONAM...

Bir-biriga bo'lib yurgan suyanchiq,
Volidam va otam tushimga kirar.
Onam ma'yuslanar, cho'ntagida qurt,
Otam boltasidan arazlab yurar.

Onamning yumushi —
ro'zg'or, o't-o'choq,
Otamning boltasin yemirmoqda zang.
Onamni eslatar tutunning hidi,
Otam uchun esa bolaman sho'xchan...

Tunda ular bir-bir kirar tushimga,
Otamning yuragin og'riq yanchadi.
Onamning yumushi tugamas hamon,
Eski gilamiga igna sanchadi.

So'ngra so'z qotadi menga ohista:
O'zligingni asra har nedan ortiq!
Otam sukut saqlar, jilmayar ma'yus,
Menga jimliklarin qiladi tortiq.

Men mudom tushlardan olayapman kuch,
Shu tushlar tunlarim etdi nurafshon.
Qancha yodga olsam ortdi ishonchim,
Eslaganim sayin yorishdim har on.

Bir-biriga bo‘lib yurgan suyanchiq,
Volidam va otam tushimga kirar.
Onam hamon ma’yus, cho‘ntagida qurt,
Otam boltasidan arazlab yurar.

BAHONA

Seni ko‘rsam baxtga to‘ldim, sevindim,
Quvonchga aylandi qayg‘ular bari.
Ey xushbo‘yim, bilki, seni ko‘rmaslik
Yarim oydek yorti qolmoq degani.

Xumorga tobedir bu yurak, bu mung,
Ko‘zimni yig‘loqi etdi bilmam kim?
O‘lan terib o‘tdim sog‘inch elidan,
Ilhomning domiga tushdim, aldandim...

Na xat bor, xabar bor — hislar zanjirband,
Ul oshiq izmiga asir tushibman.
Yarim oy axtarib topdim, xayriyat
Nogoh eshigingga kelib turibman...

Sendan o‘zga yo‘qdir jon yupanchig‘i,
Senga aytmoq ne bor — bari she’r bilsang.
Eshik qoqib turar titroq qo‘llarim
Tuk-tuk...
Yaxshimisiz...
Assalom...
Hormang!

AKA, ONAMIZNI SOG‘INMAGAN KIM?

Ko‘ngilga sig‘armi hasrat va sog‘inch?
Aka, onamizni sog‘inmagan kim?
Ko‘zlaring sirini yozib turibman,
Yuragim siyohga botirgancha jim.

Bir ayol bag‘rida unib-o‘sdik biz,
Og‘ir botmas edi biror achchiq so‘z.
Qo‘limda ro‘molim bo‘zlayman tinmay,
Balki sen ham yig‘lab turibsan hanuz.

Anglaganday bo‘ldim ko‘zingdan bir sir,
Garchi bizdan yetgan ozorlar qancha.
Onam azoblarni yutdi birma-bir,
Yurdi alamlarin ichga yutgancha.

Bir og‘riq ko‘ksimda qo‘zg‘alar — gohi
Ilashib ketarding buzoq izlarga.
Gohi o‘sha eski qo‘shiqni aytib,
Kuylak tikib berar eding bizlarga.

Bugun u damlarning bari bo‘lakcha,
Harorating kelmas yo‘q, biror so‘zdan.
Seni olib ketdi umr degan yo‘l,
Umid uzolmading sen hamon bizdan.

Hayot saboq berdi bizga har nedan,
Aka, onamizni sog‘inmagan kim?
Yashang onam aytgan qo‘shiqday baxtli,
Men ham xuddi shunday yasharman, balkim!

KUNDA SIZGA OSHIQ BO‘LAMAN SHAKSIZ

Ko‘zlarimga qadalsa gar ko‘zlaring,
O‘z chegaram buzib o‘taman hadsiz.
Sizni birinchi bor ko‘rib turgandek,
Kunda sizga oshiq bo‘laman shaksiz.

Sizni asrar edim har guḷ-u ko‘zdan,
Ular sizni menga armon qilgudek.
Xayoliy birgaman asli siz bilan,
Umidim uzmayman sizdan ulgudek.

Bildim, yelkangizda qancha og‘ir yuk,
Sizdan yiroqlashsa kuyar bu bag‘ir.
Bir mujda kutaman har oniy lahza,
Lek sizni tushunmoq og‘irdan og‘ir...

Ko‘zlarimga qadalsa gar ko‘zlaring,
O‘z chegaram buzib o‘taman hadsiz.
Sizni birinchi bor ko‘rib turgandek,
Kunda sizga oshiq bo‘laman shaksiz.

U HAM CHEKAR BALKI MENSIZ IZTIROB

Olovdek yondirar bu muz tanani,
U meni sog‘inmas, izlamas mudom...
Baxt ham qidirmadik, kezmadik birga,
Undan na xat keldi, na biror salom.

Yuraklarda qoldi armon qo‘shig‘i,
U hamon eslamas, qilmas qo‘ng‘iroq.
Nechun yod etilmas o‘tgan lahzalar,
Unutish onlari yuz berar ko‘proq...

Undan o‘zga baxtga yetmoqlik mahol,
Mening borliqlarim uningsiz sarob.
U ham sog‘ingandir meni ehtimol,
U ham chekar balki mensiz iztirob.

SAMET NAZIM OYDIN QIZI

(1999)

1999-yili 24-yanvarda Qarag'anda viloyati, Aqtog'ay tumani Qaramende qishlog'ida tug'ilgan. Respublika o'quvchilari o'rtasidagi Abay, Maxambet nomidagi mukofotlar sohibasi.

OLMAOTA

Har kecha yorug'lik bilan qoplanib,
Yolg'iz bu qalbimga berasan huzur.
Kiprikdek tizilgan ulkan binolar
Qanot bog'lab yuksak uchmoq istayur.

Bilib qo'y, orqada qolmoqlikni ep
Ko'rolmaysan, to'g'ri kelmaydi didga.
Yetkazasan dilga berganingcha zeb,
Olatovday yuksak orzu-umidga.

QISHLOQ QIZIMAN

Qog'oz uzra ashulalar erkin suzardi,
Tejamasdim ichimdagi noyob kuylarni.
Olomonga hamroh bo'lsa qani shu dardim,
Bo'ysunmasdan menga,
da'vo qilsa, o'ylardim.

Asli baxtim shul tomonda, o'zim so'l yoqda,
Sun'iy rangdan to'ydi ko'zim. Unda bari oq.
Bu bo'shashgan ruhim uchun quvvat bergali
Qochib ketgim kelayapti senga, ey, qishloq.

OLMA QADAM

Yayov qo‘ychivondan dildan o‘tindi, -
Mukammal ruh bilan jiddiy o‘ylasam -
Sapfir guli, bargin changini bahor
Shudring bilan yuvgan, pokiza biram.

Dedi Asqartog‘ni sog‘indim, halol
Taqdiringiz taqdirimga jumboqday.
Olmaotani qancha suyganim bilan
Meni sevolmadi siz ko‘ngli oqday.

* * *

Osmonimni tortib oldi qora bulutlar,
Qochdim, zulmat mozoriday qo‘rqinch sukutlar
Qaro qoshlar diydoriga taraddudlar
Ko‘rdim.
Yo‘latmadingiz.

Qora-qaro afsuslarim ustunmi, g‘olib
Qaro yerning to‘shidan qush misoli nolib
Uchdim, dag‘i qaro ko‘zni quchdim-da borib,
Unutmadim.

Qora siyoh to‘kiladi oppoq varaqqa
Qaro gullar kulgusini qo‘shmay sanoqqa
Barchasini qavat-qavat qilib yurakka
Qulfladim.
Umid bering!

SIZ KELDINGIZ...

Barmog‘imga uzuk bo‘lib qaytib kelsayding,
Toliqtirib chorasizlar tuzum-tutumin.
Musaffo havoni tuyganday xuddi
Turfa ranglar iforidan sarhush bo‘lsam men.

Lekin ne hol, qoq ikkiga bo‘lindi yurak,
Biri betob hijroningdan, biri umidvor
Visolingdan umid bormi, og‘riq yo‘q demak,
Ko‘zda tirik dushman kabi yoshlar shashqator.

Barchasini unutganman desam, yo‘q — yolg‘on!
Sensiz qolgan ko‘ngil motam tutdi, muzladi.
Biz-u tugul, sirimizdan foqif bu jahon
Bilibmi yo, bilmay turib yomon bo‘zladi.

Chayqaladi to‘lqin misol ko‘zim oldida
O‘zim bilan birga ketgan munis xayolim.
O, sevgilim nafaslaring kezmasa ortiq,
Bu shaharga sig‘armidi bu jonim-molim!

Xiyonatkor, qayg‘uli bu zaif olovdan
Ko‘tarilgan tutundek yo, yosh tomoqdan o‘jar
Kuydek kuying ko‘ngillarga yoqmay turibsan
Kelgan izing bilan qaytib ketgin, besamar.

MUNDARIJA

Ulkan kitobning ikki sahifasi *(Tursinali Ahmedov)* 3

Saken Seyfullin. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Mung 7
G'amzada ko'ngilga 8
Qirda 9

Ilyos Jonsug'urov *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Bo'ronda 10
Yaylov 11
Do'mbira 12
Yomg'irda 13

Bayimbet Maylin *(Abdulla Rustam tarjimalari)*
Yomg'irli kun 15
Yashnasa ovul — yashnaymiz barimiz 16
Gadoyga 17

Sabit Do'nantoyev. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Zamon kimniki? 18
O'y 19
Og'rigan arslon 19
Bo'z to'rg'ay 21
Bolalik 23

Sholpan Imanbayeva. *(Abdulla Rustam tarjimalari)*
Orolga qo'ndi suvi yo'q 25
Yettik mana 26

Abu Sarsenboyev. *(Abdulla Rustam tarjimalari)*
Ona yer 28
Oq bulut 29

Ayri tog‘ etyudlari 30
Daryo 31

Asqar To‘qmag‘ambetov. *(Abdulla Rustam tarjimalari)*
Ko‘klam ko‘rinishlari 32
“May quvonchi, kulgusidan” 33
“May sharafini ulug‘lab” 34
“Mayning iliq kunlarida” 34
“Gulladi yoz, turlandi yer” 34
Tannoz opa-singillarga 35

Maryam Hakimjonova. *(Abdulla Rustam tarjimalari)*
“Hayot o‘tkinchidir” 37
Eman haqida qo‘shiq 38

G‘ali O‘rmonov. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Dastlabki qadam 39
Ro‘mol 40
Ozod yer 40
Otardagi kech 41
Ko‘klam qo‘shig‘i 42

Dixan Abilov. *(Mirpo‘lat Mirzo tarjimalari)*
Qoraqalpoq bovurlarga 43
To‘qtag‘ulga 44
“Keltirib yaqin” 45
Kuz bo‘lsa-da 45

Toyir Jarokov. *(Mirpo‘lat Mirzo tarjimalari)*
Dutor bilan do‘mbira 46
Qantar 48
O‘lan 50

Abdulla Tojiboyev. *(Mirpo‘lat Mirzo tarjimalari)*
Shoirlik 51
Betkenboyga 52
Tilak 53

"Tun — mudragan qora baroq misoli" 54
"Ko'kni ko'rdim, ko'klamga yana yetdim" 55
"Men ham shu yurt ko'rkining bir xumori" 55
"O'y-xayollar ergashtirsa izidan bog'" 55
"Tug'gan yurtga o'tadi erkaligim" 55

Jumag'ali Sain. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
"Qarama-chi, qadama-chi ko'zingni!" 56
"Men uyquga ayni cho'mgan dam edi" 57

Qalijon Bekxojin. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Sog'indim 59

Hamid Erg'aliyev. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Zarafshon bo'yida 62
Tag'in keldim Toshkentga 63

Juban Mo'ldag'aliyev. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Cho'pon 65
Baxt 67
Dasturxon she'ri 67
Surating 68

Qosim Omonjo'lov. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Ota makon 69
Abay armonlari 70
Nor tavakkal 72
Kunday porlab 72
Vo darig', shu qiz 73
"Men sevaman osmondagi oltin kunni" 74

Tursunxon Abdurahmonova. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Xalqim desam 75
"Essiz ko'ngil — yemasa gar o'z g'amin" 76
"Qancha molni yig'gan bilan evin bilib" 76
"So'z so'zlasang, o'zagiga boqib ayt" 77
"So'zchanlikni fazilatga biz yo'ydik" 77

Sirboy Mavlenov. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
G'afur G'ulom 78
"Yolqinlanib kun botar" 79
"Qizil guldek qulf urib" 79
"Yaproqlar ila yoz uchib" 80
Qozoqlarning vakili. *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)* 81
So'ylar edi yuragim 82

Muzaffar Alimboyev. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Esdaliklar 83
Haqiqatni izlagan 84
Ona tilim ajoyib 84
Tog'ga bordim 84
Ona zamin, tug'ilgan tuproq 85
Navro'z bayrami 85
Sevgan yurak so'z topadi sevgulik 86

Quvondiq Shang'itboyev. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Or 87
Dala 87
Darig'o! Qanday qiz edi! 88
Taftga to'ldi yuragim 89
Ey tug'gan yer 90
Avtoportret 91

To'qash Berdiyorov. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Tong 92
Tug'ilgan yurt 92
To'rang'il 94
Qimiz 94

Zeynulla Shukurov. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Orol 96
Sog'inish 97
Shifokorga 97
"Ko'zlaringga to'lib yosh" 98
"Nega shunda duch keldim senga, jonim!" 99

Uyqusizlik 100
"Ichim yonib boryapti, ichim yonib" 100

G'afu Qayirbekov. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Toshkent quchog'ida 102
Jangda o'qqa uchgan shoir do'stimga 103
Yozgan she'rim 104
O'roq 104

Erkesh Ibrohim. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Qo'l chana 106
Qizg'aldoq 107

Muqag'ali Maqatoyev. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Dasturxon ustida 108
Xayr, oqquvlar! 109
Ey, o'lan! 110
Umr o'zi ne desam 110
Kuyla, jonim 111

Kakimbek Saliqov. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Dilim titrab ketar 112
Ko'priklar 113
"Bahor epkinlari esdilar erta" 113
"O'z bahorim etgay sarafroz" 114
Oq turnalar 114
"Kuyiday qaytgan qushlarning" 115

Sag'i Jiyanboyev. *(Abdulla Rustam tarjimalari)*
Bulutlar 116
"Shirin uyqu quchog'ida keng dala" 116
Buvi bilan nevara 117
Qirmizi ko'klam 117

Asqar O'razaqin. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
O'lan 119
Urush va tinchlik 120
Ta'til paytidagi maktab 121

Qodir Mirza Ali. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
"Nima bor xayolday zo'r, o'yday asl?" 123
"Chorak asr tarqamaydi mastligi" 124
Hurmat-izzat 125
"Bobomizning cho'g' bosgan tovoni bilan" 126
Do'mbira 126

Jumaken Najimeddinov. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Dala manzarasi 128
"Oq barmoq o'ynaydi, o'ynaydi" 129
"Anov kelgan kim ekan, bilib kel-chi, kim ekan?" 130

Tumanboy Mo'ldag'aliyev. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
"Borgan yerdan do'st topib keladi shoir" 131
Jambul 132
Qadimiy alla 134
Manglaydagi uch ajin 135
Etik 136

O'ljas Sulaymonov. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Arg'umoq 137
Quvib yet 138
"Yozda bir qiz keldi" 138
Bolalik, bog'lar, saraton 140
Tungi taqqoslar 142
Xayrlashuv 143
Sahro tuni 144
Javzo 145

Marfug'a Aytxo'ja. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
"Yot qal'alar qalb ochmasin qancha sanga" 146
Ovulga borganda 147
Umr so'qmog'i 147
"Qizil guldek tovlanarman qoshingda" 148

Umrzoq Xo'jamurodov. *(Abdulla Rustam tarjimalari)*
Ona Yer 149

Tomdibuloq 151
Tilim mening 151
Bilasanmi, ey? 152
Silkinish 153

To'legen Aybergenov. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
"Qiringdan otam yo'rg'ada" 154
Yurak so'zi 155
Ko'l 155
Ko'klamda 156
"Shodlikka to'la chog'im eng" 156
Qizim mening 156

Yusuf Baybolat o'g'li Qidirov.
(Muzaffar Ahmad tarjimalari)
Yurt ne desa — shu desin 158
Sevsa meni senday sevsin 159
Ko'klam keldi 160

Saken Imanasov. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Ovul yoqqa borsam derdi 161
Nega Samarqandga bormading sen, ayt? 162
Ko'z oldimda 163

Fariza O'ng'arsinova. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Yo'l 165
"Sog'inch xatin yo'lladim" 166
"Ot minsam, yigitlardek" 167
"Bu she'rlar yozilmas edi hech" 167
"Oltin zarin sochganda tong nurlanib" 168
"Yurak mudom moyildir o'yga ezgu" 169

Duysenbek Qanatboyev. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Go'zal tunlar 170
"Fusunkor eding, sen jonon" 171
"Bir kun ko'rib qaytgan qushlar tizmagin" 172
Bibijon 172

Isroil Saparboy. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Qat'iy so'zli qaysarlarim 174
"Adolatni tan olmay zamonamiz" 175
"Ko'klam kechib, ko'ngilga kuz enadi" 176
Yo'l oldi duosi 177

Muxtor Shoxonov *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Norinqum fojiasi 179
Jarokov nomli ko'chadagi uchrashuv 185
Ilk muhabbatga xatlar 189
Orzu 191
Og'a 195
Baxtli bo'l 195
"Aytsam deyman dildagi bor so'zimni" 196

Esken Yeluboyev. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Qirg'indan qutqargan qaldirg'ochlar 197

Qanipa Bug'ibayeva. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Umr kuyi 203
"Gullarimni ko'klamga bildirayin, deb keldim" 204
Tungi yomg'ir 204

Narmaxan Begaliuli. *(Dolimjon Sayfullayev tarjimalari)*
"O'tloqda tugadi so'qmoq yo'l" 206
"Ilk bor kulib, oshiq bo'libman, ana" 207
"Qizg'aldoqlar, issig'i mo'l yolqindan" 207
"Kumush shu'la taralib" 208

Aqushtap Baqtigereyeva.
(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)
Bulbul 209
Ko'nglim mening 209
Bilmadingmi? 210
Qizg'aldoq 210
"Kuzda ketgum oralab" 211
Og'alar 211

Jarken Bo'deshov. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Qushlar uchib kelganda 212
Olako'lga aytar so'z 213
"Targ'il toshni tuyog'i-la tarashlab" 214

Kengshilik Mirzabek. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Bir siqim tuproq 215
"O'zga bir yerda ko'klam bilan bugun to'qnashdim" 216
Eski kinoteatrda 216

Sho'mishboy Sariyev. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Oqin ko'ngli 218
"Keng dalamdan kiyikdayin kelaman" 219

Kulash Ahmetova. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
O'z eling 221
"Bir karomat sovg'a kutib kunda san" 222
Qayg'u 223
Menimcha 224

Serik Turg'inbekov.
(Yangiboy Qo'chqor tarjimalari)
Seriklar 225
Kel, og'ayni, kel, jigar! 227

Nurlan O'razalin. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Yilga tilak 229
Tepalik yonidagi o'ylar 231
Otam yodi 234
Otashin qalb 235
Ona yurt 236
Mangulik 238

Jarasqan Abdirashev. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Oq buloqlar 241
Tug'gan ovul tutuni 243
Oxirgi o'lan 243

Tursunoy O‘razboyeva. *(Mirpo‘lat Mirzo tarjimalari)*
Moskva daftaridan 246
“Birov to‘q va sekirar isinmoq-chun” 247
“Kuzgi osmon xo‘rsinib, mungli yog‘ar” 247

Xonbibi Yesenqorayeva. *(Mirpo‘lat Mirzo tarjimalari)*
Yigitlar 249
Ulug‘ dalam 250
Umr o‘tib borayotir 251
Chaqmoqli tun 252
Qayga ketding? 252
“Olchalar g‘arq pishgan bog‘” 253

Abzal Bukenov. *(Yangiboy Qo‘chqor tarjimalari)*
Tarsillama, yuragim 255
Qozoqning odatiy haftasi 256

Nasibbek Ayto‘g‘li. *(Mirpo‘lat Mirzo tarjimalari)*
Orzu 257
Bulut oqib boradi 258
Yomg‘ir kuyi 260

Serik Oqshunqor o‘g‘li. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Muhabbat, qiziq yillar 262
“O‘ksiydi hayotning lahzalari” 265
“She’riyat!” 266

Omonxon Alim o‘g‘li. *(Bozorboy Umarov tarjimalari)*
Yolg‘iz turna 267
Ajal 268

Bayan Tlenshina. *(Bahodir Otash tarjimalari)*
Tashlandiq monologi 269

Ulug‘bek Esdavlat.
(Abdurahim Pratov, Muzaffar Ahmad tarjimalari)
Guldor gilam 272

"G'ira-shira, oqshom chog'i" 273
"Tong havosi junjiktirib bor vujudim" 274
Izlar 275
Idilliya 276
"Qishloq kezsang chillada" 276
Qariya va qiron 278
Shoirlar taqdiri 278
So'z 279

Abdulla Aymoq. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Otingni yozdim oq qorga 280
"Har yurakdan chiqadi armon sasi" 281
Izla meni 281
"Sevgimizning eng murg'ak — ilk mahali" 282
"Ko'rgim kelar men seni ko'rgan sayin" 282

Eseng'ali Ravshan. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
Oq yomg'ir 283
Ko'klam. Yangiqo'rg'on 284
Qora bovur qashqaldoq 285
"Sayyora bo'p Yesenin aylanadi" 285
Qozoq qissasi 286
Toshkent oqshomi 288

Qosimxon Begmanov. *(Mirpo'lat Mirzo tarjimalari)*
O, Turkiston 289
"Mashaqqatlar girdobida men hamon" 290
Qorachiq 290

Nurlan Mauken o'g'li. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Qozoq 293
Hayrondaman, bobolarim 294

Baurjon Yoqub *(Yangiboy Qo'chqor, Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
Abayning oq-chipor bulog'i 295
1991 297
Do'mbira ta'rifi 298

Ajemning urchug‘i 300
Qo‘ltamg‘a 301
Xilvat 302
Abayning qashqabulog‘i 305

Gulnar Saliqbayeva. *(Muzaffar Ahmad tarjimalari)*
“Aris oqadi, kurashib oqadi” 307
Ovul tuni 308
“Ko‘ngilli kunim ko‘paymay” 309
“To‘qmisan — tur!” 309
“Qanotsiz-oq uchyapti-ku anov bir qush” 310

Davron Berikhoji o‘g‘li.
(Muzaffar Ahmad tarjimalari)
Sizni ko‘rdim 311
Kuzgi elegiya 312
Simulatsiya 313

Muratxan Shoqan. *(Faxriddin Hayit tarjimalari)*
Besas sevgi 314
Men g‘am cheksam 315
Manglayimga nazar 316
Arbatda 317
Tushunmasang nariroq yur 317

Baxitjon Aldiyar. *(Umroy Karimova tarjimalari)*
Tungi kapalak 319
“Men yozmayman o‘lanni ermak uchun” 320

Baxt Badalxon o‘g‘li. *(Bozorboy Umarov tarjimalari)*
Yozg‘it 322
“Manglayimda tomir otgan qismatimdan” 323
“Eh, boyaqish qushim-ey, qanoting kerib, yoymaysan” 323

Erjan Alashto‘g‘an. *(Abdulla Rustam tarjimalari)*
Yolg‘iz osmon 325

Etimologiya 327
Yo'llar va xatlar 328

Tanako'z To'lqin qizi. *(Dolimjon Sayfullayev tarjimalari)*
"Bu olamga kerak havo, kerak kuz" 320
Boshpana 321
"Samoni maqtamay nechog'lik" 321

Bag'dod Muborak. *(Bozorboy Umarov tarjimalari)*
Oqin umri 333
Nega bugun 335

Aqberen Yelgezek.
(Dolimjon Sayfullayev, Yangiboy Qo'chqorov, Muzaffar Ahmad tarjimalari)
Iltijo 337
Ayoz 338
Kelinchak tol 339
Tomchi va tosh 340
Burun 341

Jongeldi Nemeraboy. *(Nodir Jonuzoq tarjimalari)*
Orzu bekati 342
"Quvonch, shodlik ichra qayg'u — "voy"ni ko'rdim" 343
Sog'inaveraman 344
"Ma'nisi yo'q besh kunlik bu yolg'on dunyoda" 344
Eng qadrli 345

Gulmanat Avalxon. *(Orif To'xtash tarjimalari)*
Umid shamim bir yonib, bir o'chadi 346
Qushday nola chekib 347
Poymol bo'lgan orzular 347
O'sha-o'sha unsizlik 348
Bu hayot 349
Kuz yig'laydi 349

Baxtigul Babash (Amirjonova).
(Dilafro'z Choriyeva tarjimalari)
"Ko'nglimdan yurt ko'chdimi, sen ko'chdingmi yurakdan?" 351
"Taqdirim emassiz, olmang xavotir" 352

"Nurafshonlik abadiy u kunlarda" 352
"Umid ko'zin tikdi mungli o'ksinib" 353
Ko'zlaringga dunyoning yoshin yig'ib 353

Bovurjon Qoraqizo'g'li. *(Muhiddin Abdusamad tarjimalari)*
Tuproq 355
So'zga qanot bitgan tun 356
Shubhali ko'z bilan qarasak 357
Apatiya 357
Men 359

Quralay Umar. *(Oydinniso tarjimalari)*
Yog'aver, oppoq qor 361

Erlan Junis. *(Nosirjon Jo'rayev tarjimalari)*
Bir zumda 365
Yuragingni asra 366
Yurak mavsumlari 367

Amina ADAYXAN. *(Alisher Boymurodov tarjimalari)*
O'tinch 371
Qachon 372
Yo'qligingda 372
Nedan 373

Ayjan Tabarikqizi. *(Go'zal Ro'ziyeva tarjimalari)*
So'roq 375
Yozgi elegiya 376
"Yupanch istab qaytadi qushlar" 377
Kuy 378
Begonalar 379

Janat Janqashuli. *(Vohid Luqmon tarjimalari)*
Qumursqa 380
"Meni o'ldi denglar" 381
Tungi xavotir 382
Qora kapalak 383
Ishonsang 383

Merey Qart. *(Bahodir Otash tarjimalari)*
"Yetti qavat ko'kning aksimidi bu" 385
Erka qiz 386
Ko'kyolning xo'rsinig'i 386
"Or-nomusim — aynimas urf-aqidam" 387

Arman Sherizat Manarbek o'g'li. *(Niyatillo Meliqulov tarjimalari)*
Bizdan avval 389
Jimlik 390
Yurak 390
Oq yomg'ir 391
Men sevgan qiz 392

Erbo'l Beyilxon. *(G'ayrat Majid tarjimalari)*
Bizlar yoqda bulut og'ir 393
Mahzunlik 394
"Yetim jonim, sag'ir bag'rim" 394
Baxt guli 395
"Kapalak qor, yerga qo'ngan kapalak" 396

Ulan Isqaq. *(Shodi Otamurod tarjimalari)*
So'niqlik 397
Kunga talpinish 398
Tog'da 399
Umr tahlili 400
Suvga boraman 401

Maqpal Misa. *(Kumush Abdusalomova tarjimalari)*
Ona, seni tushimda ko'rdim 402
Sir 403
Bu yilgi kuz 404
Ikkimiz 405

Qurbangul Ag'abek. *(Bobur Elmurod tarjimalari)*
Tushdagi ota-onam 407
Bahona 408

Aka, onamizni sog‘inmagan kim? 409
Kunda sizga oshiq bo‘laman shaksiz 410
U ham chekar balki mensiz iztirob 411

Samet Nazim Oydin qizi (*Bahodir Bahrom tarjimalari)*
Olmaota 412
Qishloq qiziman 412
Olma qadam 413
“Osmonimni tortib oldi qora bulutlar” 413
Siz keldingiz 414

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QOZOQ ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI

80-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Oydinniso Yo'ldosheva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 27,0. Nashriyot-hisob tabog'i 27,5
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 27-1/22 Buyurtma raqami № 22-363

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Z 31 Qozoq zamonaviy she'riyati antologiyasi [Matn]: nazm / to'plovchi Alimurod Tojiyev. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. — 432 b.
ISBN 978-9943-8734-7-6

UO'K 821.512.122-1
KBK 84(5Qoz)-5

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QOZOQ ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI